

34015.
M-31.

SAFO MATJON

BOLALAR ADABIYOTIDAN SABOQLAR



37.015
21-91

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHIKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAFO MATJON

— 13498 —
**BOLALAR ADABIYOTIDAN
SABOQLAR**

o'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHIKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

“Mahalla va Oila” nashriyoti
Toshkent — 2022

37.015. - 13498-
41-37. Safo Matjon
Bolalar adabiyoti
idan saboqlar
711 2022y.
81 705.0005

KBK: 74 202.4
M 31
UO'K: 37.015.3:82(075.8)

ISBN 978-9943-7946-4-1

Safo Matjon
Bolalar adabiyotidan saboqlar [Matn] : o'quv qo'llanma / Safo
Matchonov. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 312 b.

Ushbu o'quv qo'llanma muallifning ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomidagi izlanishlari mahsuli sifatida pedagogika oliy o'quv yurtlarining 5111700 – "Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish hamda 5111900 – "Maktabgacha ta'lim" fakultetlari talabalariga bolalar adabiyotining shakllanish tarixi, maqsad va vazifalari, taraqqiyot bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan "Bolalar adabiyoti" dasturi asosida muayyan darajada saboq berishga mo'ljallangan. Undan pedagogika-psixologiya va gumanitar fanlar fakultetlari talabalari, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Sh.Q.Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor
M.Jamoliddinov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma
sifatida tasdiqlangan.

© Safo Matjon.
© "Mahalla va Oila" nashriyoti, 2022.

KIRISH

So'nggi yillar oliy ta'lim tizimida "Bolalar adabiyoti" fani "Ona tili va adabiyot", "Bolalar adabiyoti va folklor" kabi qo'shma fanlar tarkibida qisqartishlar hisobiga o'rganib kelimmoqda. Bizningcha, "bolalar adabiyoti" "maktabgacha ta'lim", "boshlang'ich ta'lim", "defektologiya" yo'nalishlarida 1-blok tarkibida alohida fan sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Negaki, u maxsus ixtisosliklar asosida "kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi" (Sh.M.Mirziyoyev. 1-tom, 286-bet) ijrosini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida qayd qilingan "bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan fanlar asosida tuzilgan o'quv dasturidan bosqichma-bosqich voz kechish va o'quv fanlari sonini optimallashtirish" ga doir ko'rsatmasi bu borada muhim dasturlamal bo'lishi lozim. Qolaversa, mazkur "Qaror"da "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallash-tirish tamoyillarini bosqichma-bosqich ta'biq etish" talabining qo'yilishi ham ushbu muammoning jiboyi yechimini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Quron"ning dastlabki oyati "Iqra"ning boshlanishidan ma'lumki, inson ma'naviyati va ijimoiy jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq kitobxonlik borasida garchi asrlar osha boy tajriba to'plangan bo'lsa-da, uning milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari yuz tutgan Yangi O'zbekiston rivojida davlat ahamiyatiga molik ta'lim-tarbiya masalasi sifatida kun tartibiga qo'yilishi MTM va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga", boshlang'ich ta'lim "ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik... asoslarini shakllantirishga" qaratilishi ham yosh avlodni kitobxonlik ko'nikmalarini uzluksiz ta'limning ilk bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab tarkib topirishni taqozo etadiki, bu borada bolalar adabiyoti katta imkoniyatga ega.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishida "... ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutola ko'nikmalarini shakllantirish; ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash" masalasining ta'kidlab ko'rsatilishi ham bevosita bolalar adabiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

"Bolalar adabiyotidan saboqlar" deb nomlangan ushbu qo'llanma ana shu ehtiyoj tufayli yuzga kelgandir. Undagi materiallarni tartiblashirishda yaqindan yordam bergan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti gumanitar fanlar fakulteti magistranti **Inobat Madrasahimova**, pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi **Nargiza Omonova**, boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari **Jumagul Rahimova**, **Umida Nishonboyeva**larga samimiy minnatdorchiilik bildiraman.

Muallif

BIRINCHI QISM

BOLALAR ADABIYOTI – FAN SIFATIDA

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanish tarixi va taraqqiyot tendensiyalari

Reja:

1. Bolalar adabiyoti va uning shakllanish tarixi.
2. Bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari.
3. Bolalar adabiyotida adreslilik.
4. Bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.

Kul Tegin va Bilga Xogon yodnomalari "Kitobi dada Qo'rgut", "Devonu lug'otit-turk", "Qobusnoma" kabi tarixiy-badiiy manbalar o'zbek bolalar adabiyoti boy tarixga ega ekanligidan, uning ilk namunalari "o'zbek" degan atamaning yuzaga kelishidan ko'p zamonlar ilgari allalar, ovutmachochlar, erkalatmalar, sanamalar, olqishlar, qarag'ishlar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar, chopchaklar shaklida mavjud bo'lganidan darak beradi. Hatto eramizdan oldin yashab o'tgan Gerodot va Polien kabi grek tarixchilarining O'rta Osiyo hududlarida Shiroq va To'maris haqidagi tarixiy afsonalarning keng tarqalganligiga doir ma'lumotlar bor. Bu esa vatanparvarlik, jasurlik, rostgo'ylik, kelajakka ishonch va e'tiqod, avlod-ajdodlarga sadoqat tuyg'ulari bilan bog'liq farzand tarbiyasi bani basharning ibtidoiy davrlaridan bizga meros bo'lib kelganligiga misol bo'la oladi. Mazkur afsonalar bilan bir qatorda so'nggi davrlarda yaratilgan pandonmalar, axloqiy didaktik dostonlar, gissalar, afsona va rivoyatlar o'tgan asrning boshlarida ko'pgina gardosh xalqlarda bo'lgani kabi badiiy adabiyotning maxsus tartibiyaga yo'g'irilgan bu sohasi bolalar adabiyoti alohida shakllanishiga asos bo'ldi.

Kichikintoylar adabiyotining shakllanish va rivoji uning adresliliigi (maktabgacha ta'lim yoshidagi, kichik maktab yoshidagi, o'rta va katta yoshdagi hamda o'smir yoshidagi bolalarga mo'ljallab yaratilishi),

tarbiyaviy g'oyalari ustivorligi, sujetning qiziqariligi (I.Motyashov) talabi bilan bog'liq.

Ko'rinadiki, bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turadigan bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ular dasavval, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti, avvalo, ta'lim va tarbiya beradi. Ana shu ta'lim-tarbiyani go'zal badiiyat qobig'iga jo qila olish esa ijodkorlardan ulkan mahorat talab qiladi va shu boisdan ham barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuvchisi bo'la olmaydilar.

Ikkinchidan esa, bolalar adabiyotini alohida, maxsus adabiyot sifatida tasnif qilishning o'zi ham nisbatan keyingi yuz yillikda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmilarida paydo bo'lgan. Ungaicha deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida, jumladan, o'zbek bolalar adabiyotida ham bolalarga ko'proq umumadabiyotdagi tarbiyaviy (didaktik) va ta'limiy-ma'rifiy asarlar tavsifa qilingan. Bolalar adabiyoti fan sifatida o'z ob'ektiga adabiyot nazariyasi qonuniyatlari asosida yondashadi hamda pedagogika, psixologiya, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik fanlari yutuqlariga siyanadi.

O'zbek bolalar adabiyotining ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlanishini alohida qayd etish joiz. Zero, bolalar adabiyoti, aslini olganda, ma'rifa-parvarlikning farzandidir.

Mumtoz adabiyot an'analari va jahon adabiyotining barakali ta'siri ostida oyoqlangan o'zbek bolalar adabiyotining keyingi rivoji bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqlikda kechdi. Xususan, XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti jittimoiy-tarixiy muhit tufayli diniy-ma'rifiy g'oyalarning badiiy ifodasi o'laroq yosh avlodni o'qish va bilim olishga davat qilish ruhi bilan sug'oritgan bo'lib, kitob, maktab, maorif insonning "ong ko'zi" (Q.Muhammadiy)ni ochib, o'zligini tanishi keng miqyosda targ'ib qilingan edi.

S.Aziziyning "Ustodi avval", Munavvar qorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Qori Usmon ibn Abduxoliq Shoshinyning "Ta'limi avval", A.Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi", M.Behbudiyning "Kitob at-tif"

("Bolalar uchun kitob"), S.Ayniyning "Qiz bola yoki Xolida", "Foshib us-sibyon" ("Bolalar tarbiyasi") kabi maktab darsliklariga kiritgan hikoyatlarida ilm-ma'rifatda davat, insonning xulq-atvorini yaxshilash amallarini bajarishga yo'naltirish, axloqiy poklik, vatandorlik, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, haromdan hazar qilish, nafs qutqalig'iga berilmaslik bilan bog'liq tuyg'ulariga turki berish yetakchilik qiladi. Taniqli rus yozuvchisi Valentin Rasputinning: "Pushkin emagasi I.Radionovning mungli allasini emas, bugungi estradani tinglab uyg'onganida edi, undan Pushkim emas, Dantes chiqardi" degan qiyoslashi nazarda tutilsa, bolalar adabiyotining tarbiyaviylikdan iborat yetakchi xususiyati qay darajada dolzarb ahamiyat kasb etishini anglash qiyin kechmaydi.

"Ikkinchi muallim"dagi "Maktaba da'vat" she'rida muallif yosh kichikxonga murojaat qilib, tong otganidan, uyqudan ko'z ochish vaqti yetganidan xabar beradi, hamma o'z ishini boshladi, siz ham o'z ishingiz - o'qishingizga yuguring, deydi:

Boqdi gunash panjaradan bizlarga,
Yotma deyrur barcha o'g'il-qizlarga.

Nolai faryod qilib barcha qush:
Maktabingiz vaqti, - deyrur sizlarga.

Boshladi har kim o'z ishin ishlarga
Siz-da turing, maktabingiz izlarga.

Uchdi ari bog'chalara bol uchun,
Buzov turur uyda cho'kib tizlarga.

Siz-da kitoblarni oling shavq ila,
Tez yuguring ilm yo'lin gezlarga.

Nazarimizda, bu kichik she'r XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotining go'zal namunasi sifatida tilga olishga arzigulikdir. Zero, she'rda muallif yosh kichikxonga murojaat qilishning eng maqbul yo'lini topa olgan: saharda chiqqan quyosh panjaradan mo'ralab, uxlab yotgan bolakayni o'z nurlari bilan erkab uyg'otishi, tong

otishi bilan kundalik ashulasini boshlagan qushlarning chirqillashi ham bolakayni uyg'otish uchun qilinayotgan nola-yu faryod sifatida tasvirlanishi: hamma o'z ishini boshlagani, arilar bol yig'ish uchun bog'larga uchib ketgani, buzoqcha onasini tiz cho'kib emayotgani va bolaning ham kitob-daffarini olib, ilm yo'lini izlashga yuqurishi kerakligi samimiy, o'ynoqi satrlarda tasvirlangandir.

Aslida axloq-odob tarbiyasining, ilm-ma'rifat, kasb-hunar targ'iboti bilan bog'liqligi g'oyasi xalq og'zaki ijodi, xususan, bolalar folkloridan boshlangan bo'lsa, keyinchalik yozma adabiyotning yuzaga kelishi bilan Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "O'tmishdan qolgan yodgorliklar", Abu Ali Ibn Sinoning "Solomon va Ibsol", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizom ul-Mulkning "Siyosatnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", Munising "Savodi ta'lim", Gulamiyning "Zarbulmasal" kabi asarlarida yuksak darajada davom ettirildi. A.Qodiriyning "Uloqda", "Jinlar bazmi", Oybekning "Gulhor opa", Elbekning "Ikki tulki", "Qurbaga ila sichqon", "Totli shurbo" kabi asarlari bolalar tarbiyasi uchun hayotiy zarurat tufayli yaratilgan bo'lib, XX asrning dastlabki yillari bolalar nasri uchun chinakam izlanish yillari bo'lganidan dalolatdir.

Z.Bashir o'sha davr vaqti matbuotida "Bolalar adabiyoti kerak", degan murojat bilan chiqqan bo'lsa, A.Sa'diy kichikintoylar adabiyotiga bo'lgan talab xususida shunday deb yozgan edi: "Bolalar o'ylaridan bo'shag'on va darslaridan to'xtag'on chog'larida olib o'qitlik kitoblarning bo'lmasiligi o'zbek adabiyotining zo'r kamchiliklaridan bo'lib turadur. O'zbek tilida ko'p shoshilinch bilan bolalar adabiyotini tug'dirishga qat'iy luzum bor".

Ma'naviy-axloqiy kamolotga ta'lim-tarbiya vositasida erishish g'oyasi hali shakllanish bosqichida bo'lgan o'sha davr bolalar adabiyotida ma'lum ma'noda jadid adiblari ijodi misolida milliy ozodlik uchun kurash mafkurasi bilan boyitildi, oktabr to'ntarishidan keyin esa ijodi o'tgan asrning 20–30-yillarida kurtak o'tib shakllanish pallasiga kirgan G'afur G'ulom, G'ayraty, G'ulom Zafariy, Oybek, Hamid Olimjon, Dorriya Oppogova, Majid Fayziy, Quddus Muhammadiy,

Zafar Diyov, Ilyos Muslim, Sulton Jo'ra, Adham Rahmat, Shokir Kuliymon, Shukur Sa'dulla kabi shoir va yozuvchilar tomonidan turli darajada yoritildi.

O'ttizinchi yillarda ijodkorlarimiz o'z asarlari bilan yosh avlodni ilm-ma'rifatga da'vat qilib chiqdilar. Zafar Diyovning "Kitob mening do'stimsan!", "Birinchi qadam", "Lager qo'shig'i", "Bog'chaniz", "Zarar emasmi?" "Sentabr qo'shig'i", Sulton Jo'ranning "A'lo" va "Yakshi"ning maqtovi", "Harflar paradi", "Tinish belgilarining maj-ligi", "Klining xati chiroyli?", "Ikki baho", "Mamating kechirmish-lari", G'afur G'ulomning "Navqiron avlodimiz sinov oldida", "O'rdak va Turg'un", "Ko'klam shamoli", "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi", Adham Rahmatning "Kanikul kunlari", "Birinchi sentabr" she'rlari shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 30-yillardan boshlab umum-adabiyotda bo'lgani kabi bolalar adabiyotida ham mustamlakachilik mafkurasini tashviq qilishga katta e'tibor qaratilib, ijimoiy-siyosiy yo'naltirish yetakchi o'rin tutganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Natijada quruq deklarativlik, da'vatkorlik, shiorbozlik, madhiyabozlik, targ'ib-hoat-tashviqot ruhi didakika bilan uyg'unlashib ketdi. Zamon bilan hamnafalik, aslida zamonasozlik tarzida an'anaviy tus olgan mazkur qarash to'liqlik davrigacha bolalar adabiyoti tarbiyaviy mohiyatining turli davrlarda turlicha tushnilishi, yuqorida aytilgandek, hukmron mafkura mahsuli bo'lib, uning so'z san'ati sifatidagi vazifasiga soya solishi tabiiy edi.

Shunga qaramasdan, bolalar adabiyoti bir joyda depsinib turgani yo'q. Uning eng yaxshi namunalari xorijiy tillarga o'g'irilib, allaqachon chet el kitobxonlarining ham madaniy mulkiga aylanib ulgur-gani quvonarlidir.

50–60-yillarda bolalar adabiyoti namoyandalari safi yanada kengiydi, ustoz-shogirdlar Hakim Nazir, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Po'lat Mo'min, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Aviz Abdurazzoq, Habib Po'latov, Miraziz A'zam, Tursunboy Adalaboyev, Salar Barnoyev singari ko'plab umiddi yosh ijodkorlar kelib qo'shildi. Ular bolalar adabiyotining turli janrlarida yoshlarimiz hayotini aks ettiruvchi yangi-yangi badiiy asarlar yaratara boshladilar.

Tinchlik, mehnat, do'stlik mavzulari bu davr bolalar adabiyotining asosiy mavzulariga aylandi. Tinchlik va do'stlik mavzuida G'.G'ulomning "Kaptar uchar, g'oz uchar", "Ulug' kun bayrami", "Tinchlik bayrami", Sh.Sa'dullaning "Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r", I.Muslimning "Jahon bolalarining talabi", P.Mo'minning "Yurtimizning yuragi", Q.Hikmatning "Tinchlik haqida qo'shiq" kabi she'rlari yuzaga keldi.

Bu davrda bolalar she'riyatiga Qudrat Hikmat o'zining "Mening vatanim", "Do'stlik" she'riy to'plamlari bilan munosib hissa qo'shdi, kichik yoshdagi bolalar saviyasiga moslab, qisqa bo'g'inli, sodda, ravon, jo'shqin misralar yaratdi. Jumladan shoirning:

Ko'kdek bepayon
Boylklarga kon.
Keng dala maydon,
Mening Vatanim, —

deb boshlanadigan ona Vatani haqidagi she'rlarida yosh avlodning Vatani shon-shuhratidan, mehridan g'ururlanish va faxrlanish hislari barq uradi.

Istiqbolgacha bo'lgan bolalar nasri rivojida G'.G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" nomli avtobiografik gissalari, Mirkarim Osimning "To'maris", "Shiroq", "O'tror", "Temur Malik", "Mahmud Torobiy", Aziz Qayumovning "Alisher Navoiy", "Ustoz Beruniy", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi", Mirmuhsinning "Cho'ri" nomli tarixiy gissa va romanlari muhim o'rin egallaydi.

G'.G'ulomning xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida yaratilgan "Shum bola" gissasi xalqimizning yaqin o'tmishdagi achchiq qismati bor fojiasi bilan yuksak darajada badiiy gavdalanitilgani bois necha-necha avlodlar kitobxonlari tomonidan birdak sevib o'qiladi. Bolalar adabiyotining oltin fondidan o'rin olgan mazkur asar qahramoni Shum bolaning "shumligi" adib tomonidan o'ylab topilgan sun'iy to'qima bo'lmastan, uning kechmish-kechirinishlari erkka taslma xalqning turmush tarzi, maishati, orzu-armonlarining tabiiy in'ikosi, badiiy solhomasi sifatida taassurot qoldirishi bilan muhim estetik

tarbiyaviy qimmat kasb etadi.

Oybekning "Miskin bolalar", "Qonli barmoqlar" hikoyalari bilan boshlangan xorijiy bolalar hayoti mavzusi Mirmuhsinning "Dunyo bolalari", Sh.Sulaymonning "Oq negr", "Jem va Ellin", "Yana va Hanna", "Bolalar turmasi" asarlari misolida bolalar nasri ufqini kengaytirgan bo'lsa, H.Shayxovning "Noma'lum odamlar", "Do'stimning kashfiyoti", "Umid sayyorasi", T.Malikning "Tiriklik suvi", "Sadoqat", M.Mahmudovning "Men-men emas", "Rayhondagi zarpechak", M.Rahmonov va Q.Do'stimhamedovlarning "Tungi telepatiya" kabi ilmiy-fantastik asarlari xalq ertaklari va jahon fantastikasining eng yaxshi an'analarini davom ettirishi bilan bolalar nasrining alohida sahifasini tashkil etadi. Ikkinchi jahon urushidan so'nggi yillar bolalar nasrida sof realistlik va sarguzasht yo'nalishida yaratilgan X.Nazirning "Yonar daryo", "So'nmas chaqmoqlar", "Kenjato'y", "Lochin qanotlari", "Oq fotha", Yo.Shukurovning "Ona mehri", "Uch savol", "Qanotli bola", N.Fozilovning "Oqim", "Qorxat", "Saraton", X.To'xtaboyevning "Sir ochildi", "Sariq devni minli", "Besh bolali yigitcha", "Mungli ko'zlar", L.Mahmudovning "Chinor", "Qoppa yashiringan odam", O.Husanovning "Tog'da o'agan bola", F.Musajonning "Buloq suvi", X.Po'latovning "Kichik nebrgar", "Teshik qozon", E.Raimovning "Ajab gishloq", "Mehribonlarim", S.Amorboevning "To'rtko'zning sarguzashtlari", "Sulaymon oveli va uning iti haqida gissa", A.Qosimovning "Oq qush" kabi qissa va romanlari kichikintoylar adabiyotining katta ishlarga ham qodirigini amalda ko'rsatdi. Ayni shu davrda A.Muxtor ("Dunyo bolalari"), P.Qodirov ("Aktromning sarguzashtlari"), Mirmuhsin ("Hasan va Husan"), O.Yoqubov ("Tengdoshlar"), Shuhrat ("Yetim boshin slaganlar"), M.Ismoiliy ("Bizning roman"), Sh.Xolmirzayev ("Oq olti"), O.Muxtor ("Bolalikka sayohat"), O'.Hosimov ("Yalpiz romsa") singari kattalar adabiyotining namoyandalari ham bolalar adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Bu davrda bolalar uchun baholi qudrat galam tebratgan G'ayratiy, R.Bekniyoz, M.Krom, R.Azizxo'jayev, S.Yunusov, N.Nazarov, O.Qo'chqorbekov, M.Xidir, Olloyor, V.Bobomurodov kabi adiblarning xizmatlarini ham eslab o'tish o'rinni bo'lar edi.

Beg'ubor bolalikni xalq badiiy tafakkurining dahosi yaratgan e'taklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kichik kitobxonlar hali o'qish-yozishni bilmagan go'dakligidayoq xalqni turli balo-gazolardan mar-dona himoya qiladigan jasur va adolatparvar e'trak qahramonlaridan ulgi oladi. H.Olimjon, T.G'oyipov, A.Abdurazzoq, S.G'afurov, Olloyor e'taklari shu jihatdan e'tiborga loyiq.

Binobarin, 70–80-yillar o'zbek bolalar adabiyoti, xususan, she'riyati zimmasiga istiqbolimizning ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yaratish kerak bo'lgan yosh avlod ma'naviyati poydevoriga ilk g'ishtlarini qo'yish mas'uliyati tushdi. Bundan tashqari 70–80-yillarga kelib, o'zbek bolalar she'riyatida ijodiy kamolot pillapoyalardan tobora yuqorilab borayotgan navqiron avlod safiga bir qator umiddi yosh qalamkashlar ham qo'shildiarki, bu omillar birgalashib, bu davr bolalar she'riyatini badiiyatning yanada yuqoriroq pog'onalariga olib chiqdi.

T.Adashboyev, S.Barmoyev, M.A'zam, A.Obidjon, H.Rahmat, R.Tolipov, Q.O'tayev, A.Ko'chimov, R.Nazar, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, S.Inoyatov, X.Komilov, A.Akbar, D.Rajab, V.Ahmadjon, Z.Isomiddinov, M.Qahhor, Q.Ismoil, M.Qodir, E.Baxt, N.Ermat, N.Dushayev singari o'rta va yosh avlod namoyondalari 80-yillar o'zbek bolalar she'riyatiga yangi nafas, toza ruh olib kirdilar. Bu avlod o'zbek bolalar she'riyatini badiiyatning yangi pog'onasiga ko'tardi, mavzu doirasini kengaytirdi, obrazlar silsilasini boyitdi. Ularning sa'y-harakatlari tufayli badiiyat masalasi kun tartibining birinchi planiga chiqdi. Binobarin, nomlari sanalgan va ular qatoridagi boshqa o'nlab ijodkorlar qalamiga mansub eng sara asarlar 70–80-yillar o'zbek bolalar adabiyotining haqiqiy qiyofasini belgilaydi.

Bolalar adabiyoti umumadabiyotning ajralmas qismi sifatida zamon va makondan ayricha yashamaydi. Binobarin, jamiyat hayotidagi yangilanishlar kichikintoylar adabiyotida ham o'z aksini qoldirishi tabiiy. Istiqbol davri bolalar adabiyoti buning yorqin dalilidir. Hayot taqozosiga ko'ra bu davrda kattalar adabiyotida bo'lgani kabi publisistikaga alohida urg'u berildi. S.Barmoyev, O'Hoshimov, T.Malik, A.Jo'rayev, E.Maliklarning yangilanayotgan jamiyatda yosh avlodning o'rni va roliga oid qarashlarining vatanparvarlik patosi

bilan sug'orilgan badiiy publisistik talqinidan iborat asarlari kichik kitobxonlar ma'naviyatini yuksaltirishga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

So'nggi yillar bolalar nasridagi shakl va mazmun uyg'unligi bilan bog'liq ijodiy izlanishlar xususida so'z ketganda Q.Mirzo, S.Ravshan, Z.Ibrohimova, M.Niyozov, M.Ibrohimova, M.To'lagonova, I.Zoyir, H.Badalov, H.Mallayev, U.Mustaflo, S.Abdullayeva kabi adiblar ijodini eslash kichikintoylar adabiyotining kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi.

O'zbek bolalar nasrining bir asrlilik tarixiy taraqqiyoti har bir davr o'z adabiyotini yaratishiga misol bo'la oladi. Shakl va mazmun munosibligiga doir izlanishlar, ijodiy an'ana va yangilanishlar, xususan, ustoz so'z san'akorlari an'analarning qay birlari amalda o'z tasdig'ini topayotganligi, badiiy-estetik tafakkur borasidagi o'villishlar, gardosh xalqlar va jahon bolalar adabiyoti bilan ichki aloqadorlik, jamiyat taraqqiyotida insonga munosabat, bolalar nasrida qay darajada o'z ifodasini topayotganiga e'tibor qaratilishi, kichikintoylar adabiyotining yetakchi tendensiyalarini aniqlashda muhim mezon vazifasini o'taydi.

Shuni ham qayd etish kerakki, 80–90-yillar o'ziga xos bir davr — ijtimoiy-ma'naviy qarashlarning o'zgarishi, yangilanishi davri hamdir. Binobarin, ana shu ma'naviyatimizdagi tub o'zgarishlar ijodkorlar oldiga ham ulkan talablarni qoydi. Bir paytlarda madh etilgan, ko'kka ko'tarilgan koplab mavzularni hayotning ozi siqib chiqardi, ortiqcha narsa sifatida bahridan o'tdi. Inhunin, 80–90-yillar shu ma'noda uyg'onish, tozarish fasli hamdir. Shu davrda xalqimiz uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlariga, e'tiqodlariga qaytdi. Ana shu jarayonda o'zbek bolalar adabiyotining ham kamtarona o'rni, o'ziga xos xizmati bor. Bu davr bolalar she'riyatidagi eng sara namunalari shu ma'noda yosh avlod qalbida istiqbol toyg'ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma'nodagi ona Vatan — muqaddas zaminiga mehr-muhabbat: ona zaminini, uning betakror tabiati — qir-adirlarini, tog-u o'tmonlarini, bog'-rog'larni, darvo-kollarni avaylab-asrashga, kun sayin ko'zo'ngimizda qurib, yuqolish borayotgan yakka-yu yagona dengizi Orolni asrab qolish uchun

kurashish tuyg'ularini shakllantirishga: O'zbekiston atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari – mutafakkir olim-u shoiriari ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan Sohbiqiron tojdorlari sha'niga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Tohir Malikning "Alvido bola-lik", Erkin Malikning "Shaytonvachchanning nayranglari" gissalarida Mirzakalon Ismoiliy an'alarining davom ettirilishi, Sunnatilla Anorboyev qalamiga mansub "To'rko'zning boshidan kechirganlari", "Sulaymon ovchi va uning iti haqida gissa", "Suzib borar arxarlar", Nosir Fozilovning "Ko'kyol", "To'qchoq" O.Husanovning "Tog'da o'sgan bola" asarlarini esga soluvchi Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin", "Tog'dagi yolg'iz odam", "Paxmoq" gissalarida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy ziddiyatning lirik uslubda badiiy gavdalanirilishi, Ilhom Zoyirning "Holva yemagan bola" gissasida, G'.G'ulomning "Shum bola", X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlarida qo'llanilgan an'anaviy sarguzasht uslubiga murojaat qilinishi, S.Bahodirovning "To'maris" gissasida M.Osim va G'.Karim ijodidagi kabi tarixiy vogueanavslilarning teran falsafiy-psixologik tahlilga tortilishi har jihatdan e'tiborga loyiqdir.

E.Malikning "Shaytonvachchanning nayranglari" gissasi alohida alohida hikoyalardan tashkil topgan. Lekin har bitta hikoya markazida Shaytonvachchanning iymon, e'tiqod, diyonat, xiyonat, bo'hton, tuhmat bobida faqat o'z nafsini peshkash qiluvchi nayranglari turadi. Gap shundaki, shaytonvachchanning biror nayranglari bilan tanishgan kitobxon inson ma'naviyatiga doir axloqiy tushunchalar kundalik hayotda muhim ahamiyat kasb etishi xususida muayyan xulosaga keladi.

N. Norqobilov gissalari bir qarashda kichik kitobxonni hayvonot olamining o'ziga xos hayot tarzi bilanagina tanishtirishga qaratilgan o'sxshaydi. Adibning "Oqbo'yin", "Paxmoq" kabi har ikkala asarini birlashtiradigan narsa Paxmoq ayiqda ham, Oqbo'yinda ham hid bilish sezgilari borligini shunchaki qayd qilish emas, asar voqealarining ayni hayvonlarga xos hid bilishdek tabiiy sezgilari bilan bog'liqligiga e'tibor qaratilganidir. Darhaqiqat, ko'pchilik hayvonlarning tashqi

dunyo bilan biror munosabarga kirishishida tabiiy sezgilarga suyanishi tabiiy hol hisoblanadi. O'z qahramonlarini faqat tashqi jihatdan yuritish-turishi, qiligi'i, hayot tarzi bilanagina tanishtirmasdan, balki eng yaqin qadirdonlaridek ularning ichki dunyosiga chuqur olib kira bilishi, shu haqda kitobxonda ham yorqin taassurot qoldirishi yozuvchining yuksak iste'dodidan dalolat beradi.

Bugungi istiqbol davri o'zbek bolalar she'riyati namunalariga ko'z tashlar ekanniz, ular orasidan navqiron avlod namoyandalari namralari alohida o'rin tutishidan ko'z quvonadi. Zero, bu ulush dast-avval, soni bilan emas, sifati bilan salmoqlikdir. Bolalar adabiyotimiz kelajagiga umid baxsh etadigan navqiron avlod vakillari, Yaratganga shukurki, madhiyabozlik, shitorbozlik ruhida qalam tebratish majburiyatidan xolidir. Ularning asarlari kitobxonni o'ylashga, mustaqil fikrlashga majbur qiladi, qadriyatlar deb keilingan narsalarni qayta baholab, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishga o'rgatadi. Hamza Imonberdiyev, Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Kavсар Turdiyeva, Abdurahmon Akbar she'rlarini o'qir ekansiz, ularning ham ana shu sarfa sobit ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Bolalar adabiyoti, ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan asarlarning o'ziga xosliklari xususida gap ketganda, avvalo, kichik kitobxon qalbida cheksiz hayrat tuyg'usini uyg'otishi tilga olinadi. Zero, bu ko'lma olamdagi barcha narxalar – hayvonot-u nabotot, bani odam va insoniy munosabatlar ahlalasing har bir zarrasi har bir bolakay uchun qayta yaratadi. Shu sababli ham bolakay qishda so'ppayib turgan daraxtlarning bahorda yam-yashil barg chiqarib, oppoq qorday gulga burkanishidan cheksiz hayratga tushadi. Shu sababli ham u hamma narsaning mohiyatiga yetmoqni istaydi. Shu sababli ham uning savollari had-hududsiz, bitmas-lugannas. Ana shu bijir-bijir savollari bilan sizni gangitib qo'yadigan bolakay ayni zamonada, eng buyuk tiishunos hamdir. U har bir narsaning nomini o'rganar ekan, uni shunchaki qabul qilib qo'ya qolmaydi, balki har bir ism jismga mos bo'lishini talab qiladi.

Bolalar adabiyoti yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz kichik-toylarning tabiatan har narsaga qiziquvchanligi ularga bag'ishlangan asarlarning hayotiy ildizini oziqlantirishda muhim omil bo'lishini

ko'rsatadi. Odarda, ko'pchilik asarlar sujeti asosida qahramonlar hayotidagi burilish nuqtalari, turmush tarzi o'zgarigandan keyingi taqdiri bilan bog'liq sarguzashtlari turadi. Hakim Nazirning "Yonar daryo", Nosir Fozilovning "Saraton", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlari sujeti shu taxlitda qurilgan. "Yonar daryo"da Damirjonlar oilasiga yangi odam-o'gay otaning qo'shilishi bosh qahramon xarakteri rivojiga turtki beradi: yozgi ta'til paytida Damirjon o'gay otasi Sulton amakini izlab cho'lga oltanadi, tabiat va gazchilar hayoti bilan yaqindan tanishadi. "Saratonda"da esa, To'ra bilan Kamola o'rtasidagi iliq munosabatlar oshkor etilgach, ular gator sinovlardan o'tishadi. "Sariq devni minib" romanida asar bosh qahramoni Hoshimjonning o'qimasan turib portloq kelajakka erishish yo'lidagi urinishlari tasvir markaziga qo'yiladi va hokazo.

Ayonki, badiiy asarlarda qahramonlar boshdan kechirgan sarguzashtlar shunchaki kichik kitobxonlarning ruhiyatiga mos qiziqarliq talabi bilanгина qalamga olinmaydi. Balki o'sha qiziqarliq zamirida kichik kitobxoniga aytish zarur deb hisoblangan ma'naviy-axloqiy muammoga diqqat qaratiladi. Badiiy asar sujetining hayotiyiligi, qahramonlar taqdiri bilan voqealar talqinining uzviy bog'liqligi masalasi qadim zamonlardan beri estetik tafakkur namoyondalari diqqatini band qilib keladi. Bu haqda o'z zamonasidagi ijodkorlarning poetik tajribasiga suyanib, Arestotel shunday deb yozgan edi: "Ba'zi kishilar o'ylaganidek bir kishi atrofiga ro'y bergan voqealarning hammasi ham asar fabulasiga kiravermaydi. San'ati tufaylimi yoki tabiiy talanti tufaylimi, har holda Gomer bu masalaga to'g'ri qaray oldi. U "Odessiya"ni yaratar ekan, qahramon boshiga tushgan hamma voqealarni tasvirlayvermaydi". Qadimgi yunon mutafakkirining bu fikrlari bizning kunlarimizgacha o'z qimmatini yo'qotgan emas. Binobarin, bundan keyin ham yozuvchi badiiy mahoratini belgilashda asarlardagi voqealar tasvirida ortiqcha ta'rif-tavsiflarga yo'l qo'ymasligi, qahramonlar xatti-harakatlarining badiiy dalillanishi asosiy mezonlardan hisoblanadi.

"Sariq devni minib" qahramoni Hoshimjonning sehrii galpogacha yordamida o'qimasan biror kasbni o'rganmasdan turib, hayotda yuksak cho'qqilarni egallashga doir kechimmalari roman sujeti qurilishi-

da muhim o'rin tutadi. Asarda sehrii galpogacha muallifning badiiy niyatini amalga oshirishdagina qulaylik tug'dirib qolmasdan, kitob-konning qiziqishini tutib turuvchi muhim detal vazifasini ham o'taydi: Hoshimjon aynan sehrii galpogacha yordamida ajabtovur sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Adabiy qahramonlarning hayotida turli to'siqlarga uchrasa-da, o'z maqsadiga erishish yo'lida dadilligi, o'ta og'ir vaziyatlarda o'ziga to'g'ri yo'l topa olishi, ruhiyatining yumonga bo'yiligi, quvnoq va topqirliqi bolalarga bag'ishlangan sarguzasht muallifning yetakchi xususiyatidir.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek bolalar adabiyoti qandaydir o'z qobig'iga o'rilib qolgan adabiyot emas, balki uning bugungi kundagi qiyofasida mamlakatimizda ahillikda yashayotgan turfa millat va elalar vakillari uchun turli tillarda badiiy jihatdan barkamol asarlar yaratayotgan qardosh xalqlar adabiyotlari namoyondalari ham o'z ziga xos o'rin tutadi. Masalan, o'z asarlarini rus tilida yaratgan Yoqub Xo'jayev rus adabiyoti namoyondasi hisoblanishi naqadar tabiiy bo'lsa, asarlarini qozog' tilida yaratgan Mahkamboy Umarov ham qozog' adabiyoti namoyondasi emas, O'zbekistonning qozog'zabon namoyondasi hisoblanishi ham shu gadar tabiiydir. Shuningdek, bugungi qoragalpoq she'riyatining tanig'i namoyondasi Xolmurod Nopurov va adib Murodboy Nizanov ijodi o'zbek adabiyoti bilan ijodiy hamkorlikda baland pardalarda yangrayotganligi ham adabiy hamkorliklarimizning o'ziga xos bir qirrasini yangilig'i namoyon bo'ladi.

Bolalar adabiyoti ba'zilar o'ylaganidek, so'z san'atining qo'l tuga qalam tungan har qanday kishi yozib tashlayveradigan oddiy va sodda-gina sohasiga o'xshab tuyilsa-da, kitobxonlarning yosh xususiyatlariga ko'ra guruhlanishining o'ziyoq, uni badiiy ijodning o'ta nozik va murakkab turi sifatida baholashga izn beradi. Ilm ahli o'rtasida hot-bot tilga olinadigan "bolalarga atab asar yozish uchun bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilmoq kerak (V. Belinskiy)"ligi to'g'risidagi mulohaza bejiz ayvilmagan!

OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Savol va topshiriqlar

1. O'zbek bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
2. O'zbek bolalar adabiyotining fan sifatida boshqa fanlar bilan aloqasini qanday izohlash mumkin?
3. Bolalar adabiyotining shakllanish davri bilan istiqoldan keyingi davri o'rtasida qanday o'xshashlik va farq kuzatiladi?
4. Bolalar adabiyotiga mumtoz adabiyot an'analari ta'sirini qaysi yozuvchilar ijodida ko'rish mumkin?
5. Bolalar adabiyotida adreslilik tushunchasini G'afur G'ulom va Shukur Sa'dulla ijodi misolida izohlang.
6. Bolalar adabiyoti rivojida xalq og'zaki poetik ijodi ta'siriga adabiy etaklardan misollar keltiring.

Alisher Navoiy ijodida pand-nasihat motivlari

Reja:

1. Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi.
2. Alisher Navoiyning mangu da'vati.
3. Alisher Navoiy hikmatlaridan namunalar.

Inson ma'naviy kamoloti barcha zamonlarda ham yuksak aql ega-larining diqqat markazida bo'lgan. Shunisi xarakterliki, har bir davrga o'z munosabatini bildiradi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u-bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Solomon va Ibsol", Mahmud Qoshg'ariy-ning "Devonu lug'atit turk", Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub", Husayn Voiz Koshfiyning Husayn Boyqaroning o'g'li Abdulmuhsin Mirzoga bag'ishlab yozgan "Axloqi Muhsiniy", "G'utuvvatnomai Sultoniy" asarlari buning yorqin dalilidir. Mazmun-mohiyatiga ko'ra ularning har birini ijtimoiy odoblar qomusi deb baholash mumkin. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'z ijodiyotida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq ta'limiy-axloqiy muammoni tiriklikning tub mohiyati sifatida talqin etishi bejiz emas. Akademik V.Zohidov

Bolalar adabiyotidan saboqlar

o'rinni qayd qilganidek, "Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng muvofiq, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson (ingqir, baxt-u-saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir"².

Alisher Navoiyning butun umri davomidagi inson tabiati va ma'naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta'limiy xulosalari "Xamsa", "Nazm ul javohir", "Munofot", "Vaqfiya", "Majolis un nafois", "Arba'iyin" kabi asarlarida kitobxon ko'z o'ngidan qizil ip bo'lib o'tadi.

Buyuk shoir "Mahbub ul-qulub" asarida o'z kuzatishlari xususida quyidagilarni yozadi: "Har ko'cha-ko'yda yuritman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zinni yetkazibman. Yaxshi va yomonlikning aslari ham, zahrini ham ta'tib ko'rdim. Goh pastkash va baxil kishilar qoshida xo'rlandim va razil-nokaslar oldida e'tiborsiz bo'ldim. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilisa, kamuning bu tajribasi yoshlar uchun yetarli"³.

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlarida insoniylik sharoitini belgilovchi xislatlardan biri insof va diyonat deb ko'rsatadi. "Insonni tayr" asarida insofsiz kishini odam emas deb e'lon qiladi.

- Odamg'a yaxshi ko'pavsof erur,
Lek alarning ashrofi insof erur.
Kimga kim insof yo'q – inson emas,
Munsiz atvorida juz nuqson emas.

Husayn Voiz Koshfiyning axloq-odob yuzasidan keltirgan quyidagi ta'rif-tavsiflari ham Alisher Navoiy fikrlariga hamohangdir. "Ko'zal xulq-atvor, yaxshi xulq nishonasi o'tadur: yaxshilik qilish, insofli bo'lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo'ya harakat qilayotganni to'g'ri yo'lga boshlash, aybiga iqror bo'lganning uzrini qabul qilish, boshqalar mashaaqqatini zimmaga olish, faqat o'z manfa'atini ko'zlamaslik, ochiq yuzli va shirin so'zli bo'lish, muhtojlar hojatlari chiqarish, muloyim va tavoz'eli bo'lish".

²V.Zohidov, Ulug' shoir ijodining qalbi. – T.: O'zbekiston, 1970, 152-bet.

³Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, 13-jiild. – T.: Fan, 1967, 155-bet.

Alisher Navoiy mazkur asarida kishilarni "munosib kishilar", "nomunosib kishilar" tarzida 2 guruhga ajratar ekan, "nomunosib kishilar" dan ehtiyotkorlikka chaqiradi.

Professor S. Nishonovanning fikricha, Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan chin insoniy fazilatlar ijodkorlik, o'zlikni anglashga kuchli ishtiyot, ilm-fanga muhabbat kabi xislatlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki baxtli hayotga intilgan ijodkor, oqil, qobiliyatli har bir kishi o'zining kuch-quvvati va aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning inson tafakkuri, ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va roli xususida so'z yuritir ekan, ilmi qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi⁴.

Ilm olib unga amal qilmagan kishini urug' sochib hosilidan bahra olmagan kishiga o'xshatadi. Yomg'irning bir tomchisi tuproqqa jon baxsh etgani kabi, insonga ham nasl-nasabi, boyligi emas, hayosi, ilmu odobi shon-sharaf keltirishini qayta-qayta ta'kidlaydi. O'zining ta'limiy-axloqiy g'oyalari ilmi bilan bog'liqlikda deb tushungan shoir "Nazmul javohir" asarida shunday deb yozadi:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar behishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo' qilmanga axmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.

Buyuk shoirning fikricha, ilmi, oqil kishi har qanday mashuq-qatni yengib o'tadi, o'z maqsadi yo'lida to'siqlardan cho'chimaydi. Ilmning vazifasi insonning baxt-saadatiga xizmat qilishdir. Ammo ilm o'rganmoq boylik orttirish uchun emas, imon-e'tiqodni mustahkamlash uchundir. Bu borada ustozlikni dunyoda eng murakkab, ammo xayrli, sharafli kasb degan xulosaga keladi. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qimish ranji ila Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila. Agar shogird vaqti kelib shoh bo'lsa-da ustozni oldida qarzdordir.

Ilm ezgu amallar, jamiki fazilatlar manbai sifatida har bir kishining insoniy burchiga aylanadi. Shu tufayli o'zlikni anglash, komillik odobini egallash xalq baxt-saadati, farovon turmush kechirishi, vatan ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lishdek ezgu maqsadga qaratiladi.

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlarida ilm-ma'rifatli bo'lish bilan birga sabr, tavozе, adab, saxiylik, himmat, to'g'riлик, rostgo'ylik, mehr-muruvvat, vafo, karam, yumshoq ko'ngillik bo'lish kabi chin insoniy fazilatlar targ'iboti ham alohida o'rin tutadi. Mazkur xislatlarni ta'rif-tavsiflashdan tashqari munofiqlik, zulmkorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik, besabrlik kabi ularning ziddi bo'lgan illatlardan qutulishga ham da'vat etadi. Shoir yozadi:

Uch fe'l kishiga erur qotil,
Qotillik aro zahri haloxil oxir.
Bu xil angla birin, birin havo bil oxir,
Qilujbni ham alarga doxil oxir.

Yoshlarni yuksak axloq-odoblarni ruhida tarbiyalash xususida so'z yuritir ekan, quyidagilarni qayd etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'nglida abadiy qoladi. Ko'rinadiki, Navoiy ta'rifida odob jamiki insoniy fazilatlar boshida turadi. Buyuk shoir nazdida qanoat ba ayni buloqdir. Uning suvini olgan bilan qurimaydi; ba ayni xazinadir — naqdisini sochgan bilan kamaymaydi; ekinzordir — urug'i izzat va shavkat mevasini beradi; daraxtdir — shoxi tortinchoq — ilk va hurmat mevasi yetkazadi. Sabr — achchiqdir, ammo foyda berguvchi; qattiqdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kaliti va bandlar ochqichidir. Saxiylik — insoniylikning haqiqiy mezonidir, odamlarning mushkulini oson qiladi. Yaxshilik, karam bir jabrlarning qatig'chilik yukini ko'tarmoq va uni o'ta qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Kimki bu xislatlarni egallasa, cheksiz izzat va hurmatga sazovor bo'ladi.

⁴Bu haqda qarang: S. Nishonova. Komil inson tarbiyasi. — T.: Istiqlo'l, 2003, 195-bet.

Alisher Navoiy hikmatlaridan namunalari:

Odamlarning yaxshisi odamlarga foyda keltiradi.

Jannat onalarning oyogʻi ostidadir.

Xoh dinor, xoh dirhamga qul boʻlgan laʼnatga loyiqdir.

Vaʼda qarz demakdir.

Xorliklar boshi tamaʼbilgil,

Doimo azzamanʼqanaʼbilgil.

Minnat saxovatga ofat keltiradi.

Yigitlikda yigʻ ilmning maxzani,

Qarilik chogʻi xarj qilgʻ ilani.

Kamol et kasb kim, olam uyidin,

Senga farz oʻlmagay gʻammok chiqmoq.

Jahondin notamom oʻtmak biaynih⁵,

Erur hamnomdin nopok chiqmoq.

Boshni fido ayta ato qoshigʻa,

Jismini qil sadqano boshigʻa.

Bir deganni iki demak xubernas,

Soʻzchu takror topdi dilkash emas.

Kimniki bilay desang, maqolin angla.

Kishi aybing desa, dam urmagʻ ilkim, ul erur kuzgu.

Soʻzni koʻngilda pishqormaguncha tilga keltirma

Va har nekim, koʻngilda bor — tilga surma.

⁵ Biyanih - aynan

Kimdagi insof yoʻq, u inson emas.

Xulosa qilganda, buyuk bobomiz Alisher Navoiy oʻz ijodiyoti bilan asrlar osha komil inson tarbiyasiga beminnat xizmat qilish kelmoqda. “Eng katta boylik,- degan edi Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga Murojaatnomasida,- bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimstizlikdir.

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni oʻzlashtirish, chinakam maʼrifat va yuksak madaniyat egasi boʻlish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”. Bu borada Alisher Navoiy asarlari bebaho xazina.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning komil inson tarbiyasiga oid qarashlarida qanday gʻoyalar ilgari surilgan?
2. Alisher Navoiy “Munosib kishilar” deganda qanday kishilarni nazarda tutadi? “Nomunosib kishilar” deganda-chi?
3. Buyuk shoir: “yaxshi va yomonlikning aslini ham, zahrini ham taʼtib koʻrdim” deganda nimani nazarda tutadi?
4. Alisher Navoiy hikmatlarini tahlil qiling.

MILLIY UYG'ONISH DAVRI BOLALAR ADABIYOTI

Milliy uyg'onish davri bolalar adabiyotida ta'lim-tarbiya muammosi

Reja:

1. XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va ma'rifatparvarlik.
2. Yangi usuldagi maktablarning tashkil topishi.
3. Jadid adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'iboti.

XIX asr oxirida Chor Rossiyasi bosqini tufayli Turkistonda yuzaga kelgan tarixiy vaziyat ilg'or fikrli ziyolilar oldiga milliy mustaqillikka erishish uchun nima qilmoq kerak, qaysi yo'ldan bormoq lozim degan savollarni ko'ndalang qo'ydi. Jamiyatdagi ilg'or kuchlarning qarashlari natijasi o'laroq shakllanayotgan milliy uyg'onish mafkura tarzida ma'rifatparvarlikni keng miqyosda targ'ib etib maydonga chiqdi.

Tarixga jadicchilik nomi bilan kirgan bu harakat namoyandalari o'z g'oyalarning hayotdan mustahkam o'rin olishi, oqibat natijada milliy mustaqillikka erishish mumkinligi uchun kurashga bel bog'lardilar. Bu davr Turkistonning ijtimoiy taraqqiyotida yangi bosqichni tashkil etadi.

Mustaqillikka erishish uchun kurashish lozimligi haqidagi ijtimoiy motivlar va mazkur xulosaga kelinishining yana bir sababi tarixiy sharoit edi. Chindan xalq g'alayonlarining ayovsiz qonga botirilishi ma'lum ma'noda ogohlikka ham da'vat bo'ldi – hayotga tiyrak ko'z bilan qarashga undadi. Ikkinchi tomondan, "jamiyat taraqqiyotida bir sistemaning tabiiy ravishda yangi sifat o'zgarishiga uchrashi o'ziga xos ma'rifatchilikni taqozo etadi"⁶.

"Qizg'in ruhli yoshlarimiz millatga xizmat etib, aning madaniy darajasini o'stirib, ul vaqtda biz sinfiy ixtiloflar to'g'risida so'ylashurnimiz, fikr yuritishurnimiz. Madaniyati yo'q bir millatning sanoati

⁶ Rizayev Sh. Jadid dramasi. –T.: Sharq, 1997. 35- bet.

bo'la olmas. Modomiki, ul yo'q ekan, hali sinfiy nizolarga erta. Bizning bugungi vazifamiz hozircha madaniy o'suvlar va shunga yo'llar hozirlovchangina iborat". F. Amirxon tarixga jadicchilik nomi bilan kirgan harakat darg'asi Ismoil Gaspirinskiy to'g'risida yozgan "Ulug' millatchi to'g'risida kichik bir xotira" nomli maqolasida jadiclarning kurash dasturi xususida aynan shunday deb qayd etgan edi.

Darhaqiqat, colonial zulm tufayli yuzaga kelgan milliy ozodlik harakatlarining ayovsiz qonga botirilishi jadiclarning kurash taktikasiga muhim o'zgarishlar kiritdi.

Xalqni ilm-ma'rifatli qilish orqali jipslashtirish lozim edi. Xalq shivosiy ongining zaifligi bir tomondan ilm-ma'rifatga, boshqa jihatdan ma'naviyatga daxldor edi.

1892-yilgi "vabo qo'zg'oloni" dan o'ziga yarasha xulosa chiqargan missioner N. Ostroumov mustamlakachilikka oid shivosiy qarashlari xususida shunday deb yozadi: "Ko'p jihatdan ayb o'zimizda albatda. Ularning (sartlarning) fe'l-atvorini va qonun-qoidalarini o'rganiganimiz yo'q va haliyam o'rganmayapmiz".

Chor hukumati bunday o'rganishni turli vositalar yordamida amalga oshira boshladi. Rus-tuzen maktablari shu maqsadga qaratildi. Unga qarshi usuli jadid maktablari tashkil topa boshladi. Bu maktablar uchun M. Abdurashidxonovning "Adibi avval", Saidrasul Bahadizovning "Ustodi avval", A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", S. Ayniyning "Fahzib us-sibyon", "Qiz bola yoki Xolida". Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi", M. Behbudiyning "Kichik ul atfo'l" kabi darsliklari yaratildi.

Jadicchilik g'oyalari talqinida maorif bilan birga matbuot ham muhim rol o'ynadi. "Taraqqiyot", "Xurshid", "Shuhrat", "Osyo", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetaları, "Oyina", "Al-isloh" jurnallari chop qilina boshladi.

Bundan tashqari, jadicchilik qarashlari xayriya jamiyatlari faoliyatida ham o'z aksini topa boshladi. Aynigsa, "Turon", "Tariyat ul atfo'l", "Sho'roi Islom" jamiyatlari xayriti ishlari bilan milliy-ozodlik harakatlariida ijobiy faoliyat ko'rsatdi.

Laziz Azizoda M.Behbudiy haqidagi maqolasida “Turkistonning uyg‘onish davrini uch qismga – maorif, matbuot va jamiyatga bo‘lib, shu davrda katta rol o‘ynog‘onlarni tekshirmoq” fikrini ilgari surganida shu masalalarni nazarda tutadi.

Ijtimoiy turmushdagi islohotchilik adabiyot va san‘atni ham chetlab o‘tmadi. An‘anaviy yo‘sindagi adabiyot yangicha yo‘nalishlar, yangicha janrdagi asarlar hisobiga boyidi, romanchilik, publitsistika, adabiy tanqid, ma‘rifiy she‘riyat, dramaturgiya maydonga keldi.

Bu haqda “Maorif va o‘qituvchi” jurnali 1928-yil 3-sonida quyidagilarni yozgan edi: “Jadidlar o‘z mafkuralarini targ‘atish, o‘z idealari yo‘lida tashviqot olib borish uchun adabiyot yaratdilar”⁷.

Chunonchi, o‘sha davr darsliklari tarkibida yaratilgan bolalar adabiyoti namunalari yosh avlodni bilim olishning afzalliklari, Vatani erki uchun kurashning muqaddasligi, iymon, axloq, e‘tiqod, rostgo‘ylik, sadogat, erk ruhida tarbiyalashga qaratilishi bilan alohida e‘tiborga loyiq.

A.Avloniyning “Maktab”, “Nima, kimmiki”, “Millatga xitob”, Hamzaning “Kitob”, “Maktab” asarlari shular jumlasidandir: A.Avloniyning “Millatga xitob” she‘ri ilm-ma‘rifat orqali milliy uyg‘onishga da‘vatkorlik ruhi bilan alohida ajralib turadi.

Millatga xitob

Ko‘zlaring och, ey millat!
Ko‘p zamon g‘ofli yotding.
Umring o‘tdi yotmakda
Qayg‘uga toza botding.
Ketdi shonu sharafing,
Mozor toshidek qotding.

Ey! “Tokaygacha g‘aflat ichida yotamiz!”
Keling, yoshlar, jaholatni otamiz!
Bizga bu kun ilma kirishmak kerak!
Bizga bu kun ilma tirishmak kerak!

1916-yilda Toshkentga kelgan sharqshunos A.Samaylovich yozadi: “Turkistondagi yangi adabiyotning markazi Samarqandda bo‘lsa kerak. Yosh olimlarning bosh ilhomchisi sifatida esa na tojik va na turk, asli Xo‘ja Muftiy Mahmud Behbudiyi e‘tirof etish kerak bo‘ladi”.

Jadidchilik g‘oyalari targ‘ib qilishda Mahmudxo‘ja Behbudiydan tashqari Abdulla Avloniy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hamzalar qizg‘in faoliyat olib borishi. Jumladan, Munavvar qori Abdurashidxonov “Har kim ekanin o‘rar” she‘riy hikoyasida insonning ijtimoiy kamolotini ma‘naviy tarbiya bilan bog‘lab ko‘rsatadi. Kelining maslahatiga ko‘ra otalarini qarib, munkillab qolgan chog‘ida cho‘lu biyobonga olib borib tashlashga jazm qilgan asar qahramonlari kilebkon ko‘z o‘ngida og‘ir sinovdan o‘tadi. Asarda ilgari surtilgan ota-onalarning farzandlar, farzandlarning ota-onalar oldidagi burchi, insonning inson oldidagi mas‘uliyati bilan bog‘liq muhim hayotiy g‘oya har qanday kishini o‘ylashga da‘vat etadi.

Xulosa qilganda, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hamza, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy ijodida ilgari surtilgan ma‘rifatparvarlik g‘oyalari o‘sha davr adabiyoti rivojida alohida o‘rin tutadi.

Savol va topshiriqlar

1. Adabiyotda ma‘rifatchilik g‘oyalarning targ‘ib qilinishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. M.Abdurashidxonovning mazkur o‘quv go‘llamasida keltirilgan “Har kim ekanin o‘rar” she‘riy ertagining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlang.

⁷ “Маориф ва ўқитувчи”, 1928 йил. 3-сон, 39-бет.

Gʻafur Gʻulom – faylasuf shoir va yozuvchi (1903–1966)

Reja:

1. Gʻafur Gʻulom sheʼriyatida taʼlim-tarbiya motivlari.
2. “Shum bola” qissasi – oʻzbek adabiyotining yetuk namunasi sifatida.
3. Shoir ijodida folklor anʼanalari.

Gʻafur Gʻulom XX asr oʻzbek bolalar adabiyotining tamal toshini qoʻygan faylasuf shoir, benazir adibdir. Uning “Sen yetim emassan”, “Yodgor”, “Mening oʻgʻrigina bolam” kabi talay asarlarini hisobga olmaganda ham oʻsha davrdagi butun Turkiston aholisining turmush tarzi, maishati manzaralariga bagʻishlangan birgina “Shum bola” qissasi folklorga xos falsafiy ruhi, sheʼriy asarlarga xos joʻshqin hissiyotga boyligi, mayin lirizmga yoʻgʻrilganligi, tasvirning boʻyoq-dorligi bilan adabiyotimizning oltin fondiga kiradi.

Badiiy ijodning oʻlmas qonuniyati – har qanday asarda yozuvchi tarjimaiyoli holining muhim bir qirradi aks etishi Gʻafur Gʻulom asarlariga ham xos xususiyatdir. Bu holat shoirning “Sen yetim emassan” sheʼridagi:

Yetimlik nimadir
Bizlardan soʻra.
Oʻninchi yillarning
Sargardonligi,
Isitma aralash
Qoʻrqinchli tush kabi
Xayol koʻzguvidan
Oʻchmaydi sira,
Men yetim oʻlganman
Oh, u yetimlik.
Voy bechora jonim,
Desam arzivydi.
Men odam edim-ku
Inson farzandi...

Holalar adabiyotidan saboqlar

kabi lirik chekinish tarzida keltirilgan misralari bilanгина belgilan-maydi. “Tirilgan murda” hikoyasining “Otam oʻlib maishatim tang-likda qoldi” nomi birinchi jumlasidayoq yoxud “Shum bola” qissa-sidagi Shum bolaning sarguzashtlari tasvirida ham oʻzining chuqur ahvoni topgan desak xato boʻlmaydi.

“Amda tasvirlangan ijtimoiy muammolarni anglamoq uchun jahon muxorabasini boshlab, xalqni nochor ahvolda qoldirgan va bundan manfaatdor kishilarga xos gʻayrinsoniy jihatlardan tamomila foylanuvchi moddiy muhtojlikdan, kundalik vahimalaridan asabiy-lashgan oddiy, samimiy insonlarga xos jihatlarning bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilishidan izlash foydaliroq boʻlardi. Murakkab vaziyatlar-da ham soʻl insoniy qiyofalarini yoʻqotmagan kishilarning ruhiy toʻl-qillarini tushunmoq Gʻafur Gʻulom koʻzlagan maqsadlarni anglash-ga yordam beradi. Maʼnoli, mazmunli hayotni qoʻmsagan, taqdirini eʼtilikda qorin toʻqligi-yu xotirjam kun oʻtkazishgagina bogʻlab mavvur qila olmaydigan Shum bola galbining tongday tinidligi, oʻzini shunday yengil his etayotganligi, koʻkragini toʻldirib nafas olishi kabi ramziylik bilan qissaning yakunlanishi zinhor bejiz emas. Bu Gʻafur Gʻulomga xos inson taqdirining qoʻl bilan yaratilishi haqidagi ijodiy-estetik ideallarga borib taqaladi.

Adabiyotshunos Muhsin Olimovning Gʻafur Gʻulom ijodining yetakchi xususiyatlari haqidagi quyidagi fikr-mulohazalari ham fikrimizni dastlabki asos boʻla oladi: “Shoir vafoti 1966-yil ekanini hisobga oladigan boʻlsak, toʻla ishonch bilan aytish mumkinki, u ijodini yetimlik mavzusidan boshladi, shu mavzu bilan davom ettirib avl pardaotiga koʻtarildi va shu mavzu bilan oldingi parvozlariga munosib tarzda yakunladi. Binobarin, Gʻafur Gʻulomni Gʻafur Gʻulom qilib turgan eng teran dardlardan biri, bizningcha, birinchi si-odi”¹

Olimovning aksariyat qahramonlari oʻz bir banda sifatida taqdir shovhori oldida betadbir qoladilar. Bunday oʻrinlarda inson oʻzligi-ga inson qudrati namoyon boʻlgandek tuyuladi. Alohida olingan

¹ Olimov M. Men yetim oʻlganman || Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 1993-yil 23-qirol

kishilar va olomon ruhiyati tasvirlangan o'rinlarda bu hol yaqqolroq ifodalangan"⁹.

Adib qissa qahramonlarining boshdan kechirgan sarguzashtlari misolida o'sha paytdagi xalq hayoti, turmush tarzi manzaralariga keng miqyosda nazar tashlagan bo'lsa-da, kishi bilimlas shaxsiy munosabatini sezish qiyin emas. Zero, asar voqealari mashhur adibning hali bolaligidayoq yashash uchun kurashish borasidagi o'y-fikrlari, turmushning beadad sinovlari yuzasidan chiqargan hukm-xulosalari-ning badiiy talqinidir.

G'afur G'ulomning badiiy mahorati haqida so'z ketganda ijodining o'zbek mumtoz adabiyoti va folklor anularidan oziqlanganligini qayd etmoq joiz. Bu "Ko'kan" poemasi:

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, shu zamonda,
Mamaniyoz bo'lar ekan, Chust tomonda, —

tarzida ertaklar sujetiga xos tasvir uslubidagina emas, balki "Shum bola" qissasida "Ming bir kecha" ertaklariga hamohang voqealardan voqea kelirib chiqarishiga ham, "Yasha, deymen, o'g'lim", "Oq terakmi, ko'k terak", "Buni toping, qizlarim", "Kaplar uchar, g'oz uchar", "Chiti gul", "O'ylashni o'rganamiz", "Men so'ray, siz javob bering" kabi zukkoikni talab etuvchi falsafiy yumoristik she'rlariga ham, "Nortojining kurak tishi", "Ahmad yomon bola emas-ku, ammo", "Kekkaymachoq Sobirjon", "O'rdak va Turg'un" singari hajviy she'rlariga ham xos mustarak xususiyatidir.

Shoirning ikkinchi jahon urushida ota-onasiz yetim qolgan go'daklarga bag'ishlab yozgan "Sen yetim emassan" she'ri XX asr o'zbek she'riyatining yuksak namunasi. She'rda mehribon padar timsolidagi Vatanning o'z farzandlariga mehr-muhabbati "uxla, jigaram", "tinchlan, jigaram", "cho'chima, jigaram", "ko'zim usi minnating boshingga durra" kabi erkalovchi, allalovchi iboralar bilan bildirila, Gitler timsolidagi fashizmga nafat "dayus", "oqpadar", "haromi", "mal'un", "ota-onasining tayini ham yo'q" singari so'zlarda o'z aksini topadi.

⁹ Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. — T., 2006. — 72-b.

G'afur G'ulomning talay she'rlari folklor asarlariga hamohang o'yinchi uslubda yaratilgan. Yana ham to'g'rirog'i shoir xalq go'zalligini yangicha hayotiy mazmun bilan boyitadi. Masalan:

To'ixon qiz o'zi-o'zi,
Boshida yo'rmado'zi,
Yo'rmado'zi yarashgan,
Oyisiga qarashgan
Hayyu chiti gul.

Muallif she'rda shunchaki Toshxonning ta'rif-tavsifi bilan chegranalanmaydi. Aksincha, kitobxon diqqatini qizaloqning a'lochiligi, chevrohligiga ishora qilish orqali muhim tarbiyaviy g'oyani ilgari suradi. Chastonlar shaklida bitilgan "Buni toping, qizlarim" she'rinda esa poliz ekinlari va mevalarga xos sifatlarini eslash orqali kichkin-toylar tabiat bilan tanishtiriladi.

O'z g'oyaviy niyatini ifodalashda jonivor va narsa-predmetlarining tabiiy ko'rinishi bilan bog'liq sifatoshlar, jonlantirish hamda o'xshatishlarga murojaat qilish kabi bolalar she'riyatiga xos tasvir usuli G'afur G'ulom ijodiga ham begona emas. Shoir "Ona buzoq" she'rda bolalarga tanish manzara — buzoqning tashqi ko'rinishini she'riy san'atlar vositasida gayta yaratib, kitobxonlarga taqdim etadi. Ota buzoq tilning lola yaprog'iga, tikka qulog'ining sapsar gulga, tishlarining sadaf munchoqqa, ko'zlarining olxo'ruga, cho'zinchoq yuzining hosvoldiga, baqbaqasining marjon osganga, tumshug'ining shaklch bovganga o'xshatishi har qanday kitobxonni hayratga solishi tabiiy.

O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom yuqorida nomlari qayd qilingan asarlaridan tashqari, "Mukofot", "Tongotar qo'shig'i", "Bari senki", "Bir g'uncha ochilguncha", "Siz mening yoshligimsiz" kabi qator to'plamlariga kirgan she'rlari bilan ham o'zbek bolalar adabiyotining so'z san'ati sifatida shakllanishiga katta ulush qo'shgan yirik so'z san'atkoridir.

Ashot Aymonov: "G'afur G'ulom Sharq adabiyotining yetuk bilimdonini ko'rgan O'zod Shorafiddinov: "G'afur G'ulom Sharq adabiyotini chuqur

biladigan fozil odam edi¹¹ — deb yozadi. Bu ayni haqiqatdir. Biz ham shu fikrnga to'la qo'shilamiz.

G'afur G'ulom vafotidan uch oy keyin yaratilgan yuz misradan iborat Maqsud Shayxzodaning "G'afurga xat" nomli marsiyasidan olingan quyidagi misralar buyuk shoirning ijodkor va inson sifatidagi o'ziga xos dunyosini teran anglashga yordam beradi.

Timmas, tolmas, jonparvar ko'z bordir senda,
Quruq shoirga yetarliq so'z bordir senda.
Hoffzangda yuz ming bayt, o'n ming latifa,
Ming sarguzasht, yuz qissa, sonsiz sahifa...
Hammasi senda edi va sendan edi,
Idrokingdan, zehningdan, ko'ksingdan edi¹¹.

Savol va topshiriqlar

1. "Shum bola" qissasi va "O'ylashni o'rganamiz" she'ri misolida G'ulomning ijodkor sifatidagi falsafiy-estetik idealini aniqlang. Mazkur asarlarning yetakchi g'oyasi nimalardan iborat?
2. Yozuvchi ijodida folklor an'analari qanday o'rin tutadi?
3. G'ulomning qaysi she'rlarini minbar she'rlari deb baholash mumkin?
4. "Sen yetim emassan" she'ridan lirik chekinishga misol keltiring.

¹¹ Maqsud Shayxzoda. G'afurga xat // Jahon adabiyoti. 2003. — 20-b.

BOLALAR ADABIYOTIDA ADRESLILIK. MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI KICHIK BOLALAR ADABIYOTI

Shukur Sa'dulla — quvnoq bolalik kuychisi
(1912–1972)

Reja:

1. Sh.Sa'dulla — shoir, dramaturg, nosir, tarjimon.
2. Shoir she'rlarining janriy xususiyatlari.
3. Fovvirda qisqalik va ixchamlik — adib asarlarida bosh mezon sifatida.

Bolalik qisqa muddatda kechsa-da, uning taassurotlari, yodi umrbod enda qoladi. Insonning kelajak taqdiriga, hayot yo'liga ko'p hollarda bolaligidayoq tamal toshi qo'yilishi hech kimga sir emas. Shunga ko'ra umrimizning ilk davrini o'ziga xos dunyo deyish mumkin. Qisqa, ammo chin ma'noda murakkab va jozibador bo'lgan bu dunyoning badiiy in'ikosi hisoblangan bolalar adabiyoti bir qarashda kattalar uchun ernakka o'xshab tuyuladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu'zan nazar-pisand ham qilinmaydi.

Aslida-chi? Nafsilamrini aytganda, bolalar adabiyotining jamiyat ma'naviy hayoti va vatan istiqbolidagi roli beqiyos ulug'dir. Bolalar yozuvchisining kitobxon oldidagi mas'uliyati ham, baxti ham shuning bilan belgilanadi. Uning kitobxonlari doirasi ancha keng. Bolalarga bag'ishlab yaratilgan asarlarni kichiklar ham, kattalar ham birdek sevib o'qiydi, zavqlanadi. Juda bo'lmasa, bolaligida o'qib olgan zavq-shavqini bobo-buvi bo'lganda ham unutmaydi.

Shoir, dramaturg, nosir, tarjimon va noshir Shukur Sa'dulla shunday ijodkorlar toifasiga mansub. Shoirning 50-yillar bolalarini cheklatuvchi quvonchlarga chulg'agan:

Yomg'ir yog'aloq
Yam-yashil o'tloq,
Endi ekinlar
Chiqarar quloq. ("Yomg'ir yog'aloq")

yoki:

Oydin, Lola g'oz bo'ldi,
O'yinimiz soz bo'ldi,
Bolta bir o'zi tulki,
Turishi bo'ldi kulgi. ("Tulki bilan g'ozlar")

-deb boshlanuvchi dilkash va quvnoq, o'ynog'i she'rini hozir nevarali bo'lganimizda ham sog'inch bilan eslab yuramiz. Ular hozirgacha darslik va majmualardan tushmay, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib qolgan.

Jizzaxdagi Narimonov nomli maktabda o'qib yurganidayoq badiiy adabiyotga ishtiyog'i kuchli bo'lgan Shukur Sa'dulla o'z ijodini 30-yillardan boshlaydi. 1932-yilda bosmadan chiqqan "Hayqiriq" nomli ilk to'plami yosh shoirning kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi. Shundan keyin ketma-ket "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", "Sen nima qilding?", "Shohista", "Dumsiz tulklar" to'plamlari e'lon qilinadi.

Shoir she'rari, asosan, kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'lib, hayotdagi voqea-hodisalar, narsa-buyumlar mohiyati, ko'rinishi va ahamiyati haqida muayyan tushuncha – bilim berishga qaratilgan. Bu jo'n tushuncha bo'lmay, kichikintoylarning hayot haqidagi qarashlariga, tasavvurlariga to'la-to'kis hamohangdir. Ayni paytda, o'sha qarash va tasavvurlarni to'ldirib, yanada boyitishga xizmat etadi. Masalan, yuqorida tilga olganimiz "Yomg'ir yog'aloq" she'rining birinchi to'rtligida yomg'ir yog'gach, o'tloqlarning yam-yashil bo'lishi, ekinlarning quloq chiqarishi to'g'risida umumiy ma'lumot beriladi. Ikkinchi to'rtlikda esa yomg'ir yog'ishi bilan bog'liq manzara chiziladi. To'g'ritrog'i, kitobxon diqqati tanish bo'lsa-da, unchalik e'tibor beravermaydigan manzaraga jalb qilinadi. Ya'ni yomg'ir suvlarining tarmoqlardan oshib, shoshib tushib, ariqlarga quyilishi haqida gap ketadi. Ammo u oddiy ma'lumot emas. Tarmoqlardan oshib, shoshib tushishi kichik kitobxon ruhياتiga juda mos keladi. Shu

huda, o' kitobxonga ma'lumot berish bilan birga zavq ham bag'ishlaydi, fikr uyg'otadi.

Masalardagi hijolarning qisqaligi (har misra 5 bo'g'indan iborat) va to'q qo'lyalarning (yog'aloq-o'tloq-quloq; oshib-shoshib-toshib va hokazo) qo'llanishi she'rning badiiy soddaligini, misralarning ovoz uzumy, bir zarb bilan o'qilishi va ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Shoir asarlarining yutug'ini tayin etgan omillardan yana biri qo'lyodosh so'zlardan tashqari misralarning ichida ham o'xshash, hamohang tovushlardan umumli va o'rini foydalanishidir. Masalan:

Men qushchaman – kichikkina,
Tillarim chuchukkina.
Ola-chipor qanotim,
Bilsangiz – chittak otim. ("Chittak")

She'rtdagi "qushchaman", "kichikkina", "chuchukkina", "ola-chipor", "chittak" so'zlaridagi *ch* tovushining takror-takror kelishi asosga ravonlik bag'ishlaydi, qolaversa, bolaning talaffuzini boyitadi, og'zaki nutqini o'stiradi.

Kichikintoylarning ruhiy olami va yosh xususiyatlarini chuqur bilgan Shukur Sa'dulla asarlarining katta qismini sujetli, voqeband she'rlar tashkil etadi.

"Shoir she'rining muvaffaqiyati shundaki, – deb yozgan edi O' Rashid, – ular umumiylikdan, quruq ritorikadan uzoq bo'lgan asmetli va voqeband she'rlardir. Ma'lumki, voqebandlik, ayniqsa, bolalar asari uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday she'r bolani seziktirmaydi. U xuddi hikoya yoki erak kabi bola ongiga, xotirasiga oson olingadi".

Rinohliklab ko'zdan kechirilsa, Shukur Sa'dulla she'rlaridagi voqebandlik xalq og'zaki ijodidan suv ichganini, uning samarali ta'siri oqib-ekani fahmlash qiyin emas. Darhaqiqat, shoir gator xalq eraklarini qayta ishlab, "Dumsiz tulklar", "Ikki sandiq", "Uch tulki", "Qo'ng'avo'y", "Tulki bilan turna" nomlari ostida chop ettiradi. O'zati ham "Ikki donishmand", "Ayyor chumchuq", "Laqma it", "Och bo'liq, shoir qo'zi va qirchang'i" kabi talay eraklar yaratadi. Adibning "Kachol polvon", "Yoritosh" asarlari ham xalq og'zaki ijodi-

dan ruhlanib yozilgan. Filologiya fanlari doktori O.Safarov: “Xalq ertaklari ustidagi qizg’in amaliy ijodiy faoliyat jarayonida Shukur Sa’dulla ko‘p narsa o‘rgandi, xalq ijodiy laboratoriyasining aslahalari bilan qurollana bordi, xalq tiliga xos donolik, burrolik, samimiylik, qochirimdorlik kabi barcha sirlardan voqif bo‘la bordi”, deganida tamoman haqdir.

Bolalar adabiyoti xususida so‘z yuritganda uning tarbiyaviy vazifani bajarishiga hamisha alohida urg‘u beriladi. Aslida shunday bo‘lishi tabiiy. Negaki, u nima yaxshi-yu, nima yomonligini tushunishga, hayotni va o‘zligini anglashga, axloq-odobga o‘rgatadi. Bu xususiyat, shubhasiz, Shukur Sa’dulla asarlariga ham taalluqlidir.

Kezi kelganda, shoirning “Tulki bilan g‘ozlar”, “Mitti”, “Uloqcha”, “Bola bilan to‘rg‘ay”, “Chuchvara qaynaydi”, “To‘rt fasi” kabi she‘rlariga tarbiyaviy ruhi nihoyatda ustalik bilan singdirgani holda “Ozoda”, “Mening ayam”, “Dastyor qiz” singari ayrim asarlarini quruq pand-nasihat darajasiga tushirib, oddiy so‘zlar tizmasiga aylantirib qo‘yganini ham ta’kidlash zarur. “Ozodaliging uchun rahmat” deb olqishlash yoki “to‘g‘ri o‘tir”, “to‘g‘ri yur” qabilida dakti berish adabiyotning vazifasiga kirmaydi, kitobxon ruhiyatini oziqlantirmaydi.

Tasvirda qisqalik, ravonlik ijodkorning kichik hikoyalariга ham xos yetakchi xususiyatidir. Ular, hatto, hajim jihatidan kichik she‘rga teng bo‘lib, mag‘zi to‘q va u yoki bu masala haqida kitobxonada yaxlit tasavvur uyg‘otishga qodir. Masalan, chol bilan bolaning suhbat shaklidagi “Angov” hikoyasi bor-yo‘g‘i bir necha satrdan iborat. Ammo uning ayrim katta-yu kichikka xos anqovlik illati haqida ma’lum tushuncha berishiga shubha yo‘q. Har qanday illatning bolalikdan boshlab shakllanishi nazarda tutilsa, bu xildagi asarlarining tarbiyaviy qimmatini yanada ortadi. Yozuvchining “Qaysar bolalar”, “Laqma it” kabi talay hikoyalari ham anqovlik, yalqovlik, o‘jarlik, laqmatlik, vaysaqilik, ayyorlik illatlari yorqin ko‘rsatiladi.

Quvnoq yumor va satirik ruh bilan yo‘zligan mazkur hikoyalar mo‘ljahning to‘g‘ri olinganligi bilan kichik kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Adlarning “Komandirning boshidan kechirganlari”, “Kachal polvon”, “Aziz qishlog‘im” qissalari o‘zbek va rus tillarida qayta-qayta nashr qilingan. “Yoritosh”, “Afsonani yenggan qiz” ertak-pyessalari uzoq yillar teatrlarimiz sahnasidan tushmay kelgan.

Shukur Sa’dulla ko‘p qirrali ijodkor edi. Jahon va rus adabiyotining namoyondalaridan G.X.Andersenning qator ertaklari, A.Pushkin, N.Morshak, S.Mixalkov, K.Chukovskiyning she‘r va ertaklari, I.Tolstoy, B.Jikov, V.Oseevalarning qissa va hikoyalari Shukur Sa’dulla tarjimasida nashr qilingan.

Q.Hikmatning obrazli ta’rifi bilan aytganda, Shukur Sa’dulla o‘zbek bolalar adabiyotining “kapitanlaridan” biri edi. Uning asarlari hali juda ko‘p avlodlarni chin insonlikka o‘rgatadi, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat etadi.

“Biz, — deb yozgan edi Qudrat Hikmat o‘z safdoshi haqida, — uning qiyofasida to‘rda Shukur Sa’dullani ko‘ramiz: Shukur Sa’dulla — shoir, Shukur Sa’dulla — dramaturg, Shukur Sa’dulla — prozaik, Shukur Sa’dulla — tarjimondir.”

Katta-kichik hamkasblar unga havas qilib, tez-tez uchrashishga oshiqmiz. Maktablarda, bog‘chalarda, talabchan kitobxonlar behad shodlanti: — Xush kelibsiz, Shukur akal! — deb kutib olishadi”.

Biz esa yozuvchi bilan uning asarlari orqali uchrashamiz. Bu uchrashuv har bir kitobxon uchun, shubhasiz, zavqlidir.

Quyida adib badiiy mahoratini aniqlash yuzasidan “Laqma it” ertakning kompozitsion tuzilishi va badiiy sujjetining o‘ziga xosligini N.Ya.Morshakning “Ahmoq sichgoncha haqida ertak” asari badiiyati bilan taqqoslash uchun har ikkala ertak matni keltirildi.

Laqma it

Sh.Sa'dulla

I

Birdan tushib qoldi sovuq,
 Ining ko'rpa-yostig'i yo'q.
 Na uy'i bor, na boshpana
 Hech kimi yo'q – yakka yana.
 Qish keladi qilich olib,
 Bo'ron bilan dovrug' solib.
 Qaliraydi kuchuk dir-dir,
 Sovuq deydi: - "Tehkari kir".
 Mosh bilan u urish edi,
 Buning uchun afsus yedi.
 Chidolmadi, qoqdi eshik,
 Derazadan boqdi mushuk.
 - Kechir, - dedi, yolvord i,
 Mushuk dedi: - Yalima, ket!
 Yozi bilan do'stlashmading,
 Biror og'iz so'zlashmading.
 Yurding doim sangib bekor,
 Bo'yning ishga bermadi yor.
 Ajab bo'ldi... Uy qurmading.
 O'z va'dangda sen turmading.
 Ko'z yosh to'kar kuchuk sho'rlik:
 - Yomon bo'ldi bu ko'rgulik,
 Uy qurardim, attangki, qish,
 Qishda qilib bo'lmaydi ish.
 Ketmon botmas yer o'yganda,
 Qish qurimas g'isht quyganda.
 Qo'lni suvga urib bo'lmas,
 Xullas, qishda uy qurilmas.
 Yalimadi yalgov kuchuk:
 - Rahming kelmas menga nechuk?
 Yoz bo'lsa-chi, quray bir uy,
 Uymas, saroy... so'rana, qo'y!

Dang'illama va serhasham,
 Havaslaring kelsin biram.
 Pechka yonar erta-yu kech,
 Yozdan farqi bo'lmagay hech.
 Faqat menga ber joy – makon,
 Yoz kelguncha saqlayin jon!
 Moshxon kular ko'zin suzib:
 - Aldogchi! – deb bo'yin cho'zib
 - O'tgan yili ko'z yosh to'kding,
 Issiqgina uyga cho'kding.
 Quvding meni ko'cha-ko'yga,
 Kirolmadin erkin uyga.
 Qo'yxonaga borar chopib,
 Akillar u sovuq qotib.
 Eshik qoqar, so'ng tinglar jim,
 Echki quloq solib der: - Kim?
 - Men, eshikni och, echkijon,
 Keldim senga bo'lib mehmon.
 - Sen laqmani men bilaman,
 Kela ko'rma, yo'q qilaman.
 Yozi bilan laqillading,
 Meni ko'rsang akillading.
 Issiq bo'lsa suvda suzding.
 Qorning ochsa g'o'ra uzding.
 Salqin joyda qilding rohat,
 Sovuqqa ham qil-da toqat.
 Qor yog'adi gupillatib,
 Molxonani do'pillatib.
 Yolboradi bo'ribosar,
 Sigir asta quloq osar.
 - Govmish sigir, Olagashqa,
 Do'stim yo'qdir sendan boshqa.
 Menga joy ber, qishlay yana,
 Tor bo'lsa ham ber boshpana.
 Nishxo'rdingdan ko'rpa qilay,

Senga uzog umr tilay.
 - Menga bundog hiyla qilma,
 Sigirlarni ahmoq bilma.
 Ishontirding o'tgan yili,
 Rahm qildi hayvon eli.
 Uyda yotding oyog cho'zib,
 Sog'in sutni hadeb buzib.
 Ta'zirimni yegaman xo'p,
 Sololmayсан og'zimga cho'p.

II

It yugurdi erta-yu kech,
 Ammo yordam bo'lmadi hech.
 Xo'roz, tovuq, kurka, o'rdak,
 Parrandalar bari birdak.
 Yolg'onchiga bermadi joy,
 Davdi itning holiga voy.
 Qordan so'ngra yer muzladi,
 Sovuq qotib it so'zladi:
 - Yoz kelsin-chi, quray bir uy,
 Bir saroyki, tengsiz... voy-bo'y-
 Dang'illama va serhasham,
 Havasingiz kelsin biram...
 O'tasida bo'lar pechi,
 Qishda yozday uyning ichi.
 Maza qilib uy quraman,
 Mehmon chorlab davr suraman.
 Kunlar o'tdi birin-ketin,
 It yo'qotdi yarim etin.
 Paxmoq bo'ldi mo'y-junlari,
 O'lmay qolib qish kunlari.
 Nur sochadi ko'kda quyosh,
 Yerdan maysa ko'tarar bosh.
 Hamma ishga oltanadi,
 It suyunib shodlanadi.
 - O'ynab olay, keldi bahor -

Deb sanqiydi erta bahor.
 Yozi bo'yi tinim bilmas.
 Sanqimogni kanda qilmas.
 Issiq kunda cho'miladi,
 Qumga oyog ko'miladi.
 Salqin yerda xurtrak otib,
 Dam oladi beg'am yoitib.
 Hamma ishda, kuchuk bekor:
 - Menga, - deydi, - uy na darkor?
 Bir gap bo'lar qishda, - deyar, -
 Erta g'amin eshak yeyar...
 Yomg'ir ezib yog'ar avval,
 So'ngra laylakqor olar gal.
 It tumshayib yurar yolg'iz,
 Qorda, muzda qoldirib iz.
 Yalinar u yana-yana,
 Qani bo'lsa bir boshpana.
 Yoz yemasang qishning g'amin,
 Holingga voy, bo'lg'in amin!

Ahmoq sichqoncha haqida ertak

Samuel Marshak

Ona sichqon alla aytar:
 - Ko'rar ko'zim, jon qo'zim,
 Orom olgin, Senga non-u
 Bol beraman men o'zim.
 - Ovozingiz g'amgin, oyi,
 Chiy-chiy/lamang Siz qancha
 Yommayapti, bir enaga
 Toping, - deydi Sichqoncha.
 Ona sichqon yolvoradi,
 Borib O'rdak xolanaga.
 - Bir iltimos, qarab turing,-
 Bizning uyda bolamga.

O'rdak xola alla aytar:
 - Gavhar bo'lsin, suv olsang.
 Yomg'ir tinsa, bog'dan g'a-g'a,
 Terib beray chivalchang.

Uyqusirab Sichqon qarang,
 G'ashlik qilar shu palla:
 - Muncha dag'al ovozingiz,
 Menga yoqmas bu alla.

Ona Sichqon yalinadi:
 - Hoy, Qurbaga! Qurbaga!
 Ovuntirgin o'g'ilchamni,
 Qo'shni, qani yur, baga.

- Qo'y yig'lama, hoy bolakay,
 Alla aytar Qurbaga.
 Orom olgin, evaziga
 Chivin beray vaq-vaqa.

Uyqusirab Sichqon yana
 G'ashlik qilar shu palla:
 - Qur-qur ekan ashulangiz,
 Menga yoqmas bu alla.

Ona Sichqon To'riq otga:
 - Amma, - deydi yolvorib.
 Farzandimga qarab turing,
 Yonigizga olvolib.

Erkalatib kishnar To'riq:
 - Meni qo'yding g'ovg'aga.
 Uxlab tursang to'rva to'la
 Suli beray sovg'aga.

G'ingshib yana Sichqon qarang,
 Janjal qilar shu palla:
 - O'ta shang'i ekansiz-a,
 Menga yoqmas bu alla.

- Cho'chqa momo, ilimosim,
 Bir korimga yarangiz.
 Bolam injiq, alla aytib,
 Ko'z-quloq bo'p, qarangiz.

Alla aytar xir-xir qilib:
 - Et qo'shilsin etingga,
 Jonim, agar tezroq yotsang,
 Bir juft sabzi tekinga.

Ona Sichqon chopib bordi
 Bu gal oqshom Tovuqqa.
 - O'g'lim gaysar, alla aytib
 Gap uqdiring sovuqqa.

Tovuq quv nab qu-quvlaydi:
 - Uxlagin bola baqir.
 Kirgin momiq qanotimga,
 Bu qandayin gap axir!

Ona Sichqon zir yugurar,
 Tongda Cho'rtan baliqqa.
 - Bolam o'jar, uxlatishib,
 So'ngra tushing ariqqa.

Baliq og'zin ochib chaqqon
 Oyqulog'in yozar keng.
 Alla aytar ixlos bilan
 Eshitilmas ovoz deng.

Yana ahmoq Sichqon esa
Baqiradi baralla:
- Ovozangiz chiqmayotir,
Menga yoqmas bu alla.

Ona Sichqon sarson bo'lib,
Mushukka der:- Yursangiz.
Kenjam erka, zumrashaga
Alla aytib tursangiz.

Mushuk quv nab alla ayta:
- Orom olgin yulduzim.
Senginani bugun tunda,
Tinchitayin men o'zim.

Quv nab laqma Sichqoncha ham
Bosinqirab shu palla:
- Ovozangiz shirin, - deydi, -
Menga yoqar bu alla.

Ona Sichqon uyga qaytib,
Topolmadi bolasin.
Shundan buyon axtarar u,
Axtarar ko'z qorasini...

Savol va topshiriqlar

1. Shukur Sa'dullaning badiiy mahoratiga xos yetakchi xususiyatlarini aniqlang.
2. Shukur Sa'dulla ijodida quvnoq yumor va hajviy ruh uyg'unligi qanday aks etgan?
3. Folklor an'analarning adib ijodiga ta'sirini S.Ya.Marshak asarlari bilan qiyoslab tahlil qiling.
4. Bolalar adabiyotida adreslilik muammosini Sh.Sa'dulla asarlarini misolida tahlil qiling.

Mahmud Murodov – kichik yoshdagi bolalar ruhiyati musavviri (1916–1996)

Reja:

1. Mahmud Murodov asarlarida hayot materiali va badiiy inoqlar.
2. Yozuvchi asarlarida tarbiya - bosh mezon.
3. Yozuvchi asarlarida kichik yoshdagi bolalar ruhiyati tasviri.

Odatta biror yozuvchi haqida so'z ketganda, eng yaxshi asarlari va ulardagi yetakchi qahramonlar bilan birga, o'sha yozuvchining ijodkor sifatidagi o'ziga xos ma'naviy, ijodiy olami tilga olinadi. Kichiklarning sevimli yozuvchisi, dramaturgi, tarjimon Mahmud Murodov to'g'risida gapirganda bog'icha va maktab yoshidagi kichik bolalarga atalgan ko'plab kitoblari bilan birga, adibning bolajonligi engga keladi. Yozuvchi asarlarining kitobxonlar o'rtasida ommalashib ketishining asosiy sabablaridan biri ham bolalarga bo'lgan samimiy muhabbatidir. Aksari hollarda, bevosita bo'lmas-da, adibning o'zi asarlarining bosh qahramoni sifatida maydonga chiqadi. Bunday vaqtda – u goh nima yaxshi-yu, nima yomonligi ustida tortishayotgan bolalarga birdan-bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi amaki, goh biror nojo'ya savat-harakati sababli xijolat bo'lgan bolaga samimiy maslahat berayotgan mehrbon bobo timsolida namoyon bo'ladi. Har qanday holda ham uning maqsadi bitta – kitobxon qalbiga ezgulik urug'ini sepiish.

Mahmud Murodovning ijodiy yo'li boshqa yozuvchilarnikidan ancha-muncha farq qiladi.

“Maktabda o'qib yurganimda, – deb eslaydi yozuvchi, – “Olmazor” mahallasi choyxonasida gazetalar o'qib berardim. “Ko'k ko'yak” to'garagi tuzib, turli yig'inlarda konsertlar qo'yib berardik. Marhum Bahrom Rahmonov bilan birgalikda “Qizil pojar” to'garagi tuzib, “Merganchar” mahallasidagi A.Ikromov nomli klubda tomo-aholar ko'rsatardim. Keyinchalik institutni bitirguncha Toshkentdagi

9-, 17-bolalar uyida tarbiyachi bo'lib ishladi. Shu davrda "Vojatiy" jurnalida faol g'arnasha boshladi".

Yosh yozuvchining ijodiy faoliyati shu davrdan boshlab matbuot bilan chambarchas bog'lanadi. "1947-yili meni "Lenin uchquni" gazetasiga chaqirishdi, – deb yozadi adib tarjimaiy holida. – U yerda avval maktab bo'limi mudiri, keyin mas'ul kotib, 1953-yildan beri "G'uncha" jurnalida mas'ul kotib bo'lib ishlab kelmoqdaman".

Bundan yozuvchi ijodiga qanot baxsh etgan omil uning ro'znoma va oynoma muharririyatlaridagi jurnalistik faoliyati ekanligini sezish qiyin emas. Lekin u badiiy mahoratini oshirishda shu bilan cheklanib qolmadi. "Stepan Razin" (1941), "O'rtloqlar sen bilan" (1951), "Kapitan xonimi" (1959), "Tutqunlikdagi jangchilar" (1964) povestlari, ko'pdan-ko'p hikoya va etaklarning tarjimalari Mahmud Murodov uchun chinakam mahorat maktabi bo'ldi.

Bolalar matbuotidagi xizmati, o'z navbatida, yozuvchi asarlarining mavzu doirasini ham belgilab berdi. Bu haqda u quyidagilarni qayd etadi: "Yozadigan narsalarim ko'proq tartib-intizom, Vatanga muhabbat, to'g'riqlik, yaxshi o'qish, tabiatni sevish, do'stlik, mehnat-sevarlik, sodiq o'rtloqlik, go'zallikni sevish, hayvon-u qushlarga g'amxo'rlik, kattalarni hurmat qilish hislarini uyg'otish, davlat mulkini saqlash, ota-onalarga mehr, dovyuraklik haqida bo'ladi".

Mahmud Murodov kitoblari soni jihatidan maqtoevga loyiq emas. "Yaxshi amaki", "Sirti don", "Eng maza joy", "Ko'pri", "Kim eng kuchli", "Sanoq", "Bog'cha bola", "Kichik doktor"... Lekin gator etrak va hikoyalari o'z to'plamlaridan tashqari boshlang'ich sinflar darsliklari orqali kichik kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Darhaqiqat, adib asarlarining o'ziga xos xususiyati kitobxonlarining yosh xususiyatlari, ruhiy olami, hayotiy tushunchasi bilan bog'liq. Yozuvchining ko'pgina asarlari shaklining ixchamligi, sujetning qiziqarli voqealar asosiga qurilganligi, tasvir uslubining soddaligi bilan ajralib turadi.

Adib ularda kichikintoylar hayotidan olingan oddiy voqealar tasviridan umumlashma xulosalar chiqarishga, shu orqali kitobxonni rang-barang olam va insoniy munosabatlardan bilan tanishtirishga, tarbiyaviy jihatdan muhim bir g'oyani ilgari surishga intiladi.

"Kimning oyisi zo'r?" hikoyasi sujeti Karimjon, Olimjon va Bahodir degan bolalar o'rtasida bo'lib o'tgan bahs asosiga qurilgan. Bahs ulur uchun o'yin, shu bilan birga, o'zlarini qiziqitgan jumboqlarning mag'zini chaqish vositasi. Yozuvchi mazkur hikoyada bahs o'yin tasviri orqali o'quvchi diqqatini insoniylik masalasiga qaratadi.

Bahsning bosh sababchisi – Bahodir degan bola. Olimjon uni davolab oyoqqa turg'izgani uchun onasini dunyoda eng zo'r insonlardan biri, deb maqtanadi. Bunga Karimjonning ham bo'sh kelgisi yo'q. Chunki Olimjonning onasi davolovchi vrach bo'lsa, uning onasi dori tayyorlovchi – farmasevt. Karimjonning tushunishicha, agar farmasevlar dori tayyorlamasa, bemorlarni, jumladan, Bahodirni davolash haqida gap ham bo'lmas edi. Bahodirning nazarida esa, ulardan har ikalusining gapida ham jon bor. Ammo bular hali kimning onasi eng hurmatga loyiqligi haqidagi bahsga to'la javob bo'lmaydi.

Bahodir otasining gaplaridan odamlarga gazlama to'qib bergani uchun o'z onasini ham albatta hurmatga sazovor, degan qat'iy xulosaga keladi. Kitobxon xulosasi bunga nisbatan yanada kengroq. U turli sohalarda ishlaydigan kishilar mehnati odamlar farovonligiga qaratilishi, shu tufayli mehnat – shon-sharaf ishi ekanligi, boshqacha ayiganda, "odamni ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidini g'amini" (Navoiy) haqida jo'n tarzda bo'lsa-da, tasavvur hosil qiladi.

Muallifning kichik kitobxon bilan nihoyatda muhim masala suhulda kuyunchaklik bilan gaplashayotgandek o'zini erkin tutishi o'quvchida asar voqealariga ishonch va qiziqish tug'diradi. Bu esa yozuvchining jiddiy muammolarni ham o'quvchilar yoshiga mos, ijobiy yo'sinda ifodalash mahoratini ko'rsatadi.

Ma'lumki, bolalarga bag'ishlangan asarlar kattalar adabiyotidan o'quvchilar yosh xususiyatlarining alohida hisobga olinishi bilan ajralib turadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalalar asarlari bilan o'ra yoxud katta yoshdagi bolalar va o'smirlar asarlari, garchi bir xil yuksak badiiy talablar asosida yaratilsa-da, shakli, ifoda uslubi, sujet qurilishi va kompozitsion tuzilishiga ko'ra farqlanadi. Aslida china-kam san'at namunasi bo'lgan bolalar asarlarini kattalarning o'qib, zavq olishi, ammo kattalarga mo'ljallangan asarlarni bolalar o'qib

olmasligini nazarda tutib, ma'lum ma'noda kattalar adabiyotini cheklangan, deyish mumkin.

Kichikintoylarga bag'ishlangan badiiy asarlar tili, ifoda uslubi, sujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi jihatidan farqlansa-da, tarbiyaviy maqsadga qaratilishi jihatidan musharaklikka ega.

Mahmud Murodovning "Bog'cha bola", "Kaska", "Baxtini topgan Bahriniso", "Kim eng yaxshi?", "Salom, Quyosh bobo!", "Jonli surat" kabi gator hikoya va etaklarida tarbiyaviy g'oya bolalarga tanish hayot materiallari orqali ifoda etiladi.

"Bog'cha bola" hikoyasi bolalarning kundalik hayotidan olib yozilgan. Asar qahramoni Shukurjon kitobxonga na mustaqil yuvinish, na kiyinish va na ovqatlanishni bilmaydigan bola sifatida tanishtiriladi. Adib hikoyada jajji qahramonning bog'chaga borgandan keyin odadagi turmush tarzining o'zgarishi holatlarini qalamga oladi, uning hayotga munosabatidan tarbiyaviy xulosa chiqaradi. Tabiiyki, uy sharoitiga o'rgangan bola bog'chada — jamoa ichida ancha qiyinchiliklarga duch keladi. Yozuvchi qiyinchiliklar tasviriga batafsil to'xtalib o'tirmasdan, ularning qahramonga ta'sirini bir-ikki ishorda berishga muvaffaq bo'lgan. Zero, ko'p so'zilikning har qanday turi bolalar asarining tabiatiga ziddir. Muhimi shundaki, adib qahramon fe'l-atvorining o'zgarishiga asos bo'ladigan holat yaratgan. Bu, bog'chadagi o'roqlarining Shukurjoni o'z-o'ziga qaray olmaslikda mazax qilishidir. O'roqlari uning ustidan no'rin kulganlarida Shukurjonning o'chakishi hech gap emas edi. Ammo u bog'cha opasining g'amxo'rlik bilan qilgan muomalasidan o'roqlarining tanbehi to'g'riligini, o'zining nohaqligini tushunib yetadi.

Mahmud Murodov hikoyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri — nima yaxshi-yu nima yomonligi "ko'rgazmali" tarzda, ya'ni biror e'tibori voqea misolida aks ettirilishidir. Yozuvchi "ko'rgazma" uchun qahramonlar hayotiga oid murakkab ziddiyatlar to'qib o'tirmaydi. Aksincha, hammaga tushunarli oddiy voqealar tasviridan muhim tarbiyaviy ma'no keltirib chiqaradi. Shu xildagi asarlaridan "Dog'", "Xo'p bo'ladi", "Velosiped" hikoyalari sujeti qahramonlarning o'z-o'zini fosh qilish voqealari asosiga qurilgan.

"Dog'" hikoyasida Anvarjon degan bola qo'lini yuvmasdan dasturxonga artish bilan irkitilgini, "Xo'p bo'ladi" hikoyasida Usmonjon degan bola akasi bilan suhbat chog'ida odobsizligini, "Velosiped" hikoyasida ko'cha-ko'yda hech kimni mensimaydigan bola bobosiga hurmatsizlik ko'rsatib, mammanligini fosh etadilar.

Ayrim bolalar xulq-atvoridagi illatlar tanqidiga qaratilgan "Ikki xil yordam", "U bilan o'ynamayman" hikoyalarning fosh qiluvchi ruhi yanada keskin. Adib ularda kichik qahramonlar xatti-harakatlaridagi yaxshi va yomon tomonlarini taqqoslab ko'rsatish yo'lidan boradi. Shunisi muhimki, o'sha jarayonda kitobxon qahramonlardan qaysi birining xatti-harakati to'g'ri-yu, qaysisini noto'g'riligini ortiqcha izohlarsiz tushunib yetadi.

"Har xil yordam"da tasvirlanishicha, ko'chada ketayotgan ikki o'roqning biri yo'lovchi ayolga to'r xalasiidan kartoshkasi tushganini aytib, o'tib ketadi. Ikkinchisi esa hech narsa demasdan kartoshkani yerdan olib, ayolning to'rxaltasiga solib qo'yadi. Yozuvchi shu tarzda ikki o'roqning xatti-harakatini kishi bilmas bir-biriga solishtirar ekan, ulardan qaysi birini ma'qullashni o'quvchining o'ziga havola etiladi.

Mazkur asarlar kichik yoshdagi bolalar nasrining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qolishiga shubha yo'q. Ularning boshlang'ich shif darsliklaridan mustahkam o'rin olib kelayotgani bejiz emas.

Adib o'z qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvori haqida no'z yuritganda masalaga g'amxo'r tarbiyachi, mehribon ustoz sifatida yondashadi. Kitobxonlarga o'zidagi eng yaxshi xislatlarni shingdirishga harakat qiladi. Kitoblardan birini "Yaxshi amaki" deb nomlashi ham, ehtimol, shu tufaylidir.

Kichik yoshdagi bolalar uchun asar yaratish nihoyatda mas'uliyatlidir. Qaysi yozuvchi o'z zimmasidagi mas'uliyatni sezgan holda qo'lga qalam tutsa, uning asari umum manfaatli yo'lida xizmat qilaverishga bolalarning sevimli yozuvchisi Mahmud Murodovning ijodi yongin misol bo'la oladi. Uning asarlari faqat bugungi kun uchun emas, balki kelajakka xizmat etishi bilan ham alohida e'tiborga loyiq.



Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi ijodiga xos yetakchi xususiyat nimalardan iborat?
2. Yozuvchi ijodida vaqti matbuotdagi faoliyati qanday o'rin tutadi?
3. "Kimning oyisi zo'r" hikoyasi misolida "Mahmud Murodov ijodida psixologizm" mavzusida maqola yozing.

Po'lat Mo'min – odob-axloq kuychisi
(1922-2004)

Reja:

1. Po'lat Mo'min she'riyatida quvnoq bolalik talqinlari.
2. Po'lat Mo'min – qo'shiqchi shoir.
3. Po'lat Mo'min ijodida folklor an'analari.

Po'lat Mo'min qalbiga hayrat tuyg'usini solgan, qo'lga qalam tutqizgan narsa – uning tabiatdan chuqur joy olgan bolajonlik fazilatidir. Shoir asarlarida bolalarning o'ziga xos quvonchi va gayg'usi, orzu-armoni, dard – hasrati nozik pardalarda ifodalangani shundan bo'lsa ajab emas.

V.G.Belinskiy: "Bolalarga bag'ishlab asar yozish uchun tabiatan bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilmoq lozim", - degan edi. Po'lat Mo'min ijodi buning yorqin dalilidir.

Po'lat Mo'min 1922-yilda Toshkentda kambag'al dehqon oilasida dunyoga keladi. Shahardagi 22-maktabni tugatganidan keyin Pedagogika bilim yurtiga kirib o'qiydi. Adabiyotga bo'lgan kuchli ishtiyoq bo'lajak shoirni Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Institutining filologiya fakultetiga yetaklaydi. Badiiy ijodga ixlosi baland o'spirin bu yerda ilm sirlarini egallash bilan birga, o'zi ham she'rlar yozib mashq qiladi. Shundan keyin O'zbekiston Fanlar akademiyasining A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasi hamda Moskvadagi M.Gorkiy nomli adabiyot institutining ikki yillik kursida tahsil ko'rgan yillari Po'lat Mo'min uchun badiiy mahorat sirlarini egallash davri bo'ldi. U ijodining dastlabki

Bolalar adabiyotidan saboqlar

javoblanmoq bolalar hayotiga chuqurroq kirishga, dilidagi o'y-fikrlarini kichikintoylar tushunchasiga mos tarzda she'rga solishga astoydil intiladi. Mana, uning ilk ijodiga mansub "Paxta qo'shig'iri" she'ridan bir parcha:

Oltin paxta, oq paxta,
Biz senga inoq, paxta,
Hosiling mo'l bo'lganda
Hammaniz quvnoq paxta.

Kichikintoylar tilidan aytilgan bu she'r quvnoq va o'ynog'i ohangi, oddiy so'zlar vositasida muhim hayotiy g'oyani tashishi bilan ajralib turadi. U kichikintoylar qalbida mehnatga muhabbat uyg'otadi.

Po'lat Mo'min bolalar yozuvchilari o'rtasida muxlislariga eng boy shoirlardan hisoblanadi. Buning boisi uning bolalar qalbini teran his qilishi, poetik iste'dodini bolalarga bo'lgan so'nmas muhabbat bilan qo'shib yubora olgani va zahmatkashligidadir.

Adabiyot tarixidan ma'lumki, bir xil yozuvchilar asarini yozib tashlaydi-yu, qaytib qo'lga olmaydi. Ikkinchi xil yozuvchilar esa bir marta o'zlarida qayta – qayta ishlaydi. Bu toifa ijodkorlar biror asaridan ko'ngli to'lmasa, garchi yillar o'tsa-da, yana qo'lga olishga erinmaydi. G'afur G'ulomning "Shum bola", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devoni minitb" nomli asarlari shular jumlasidandir.

Po'lat Mo'minni ham ana shunday mehnatkash ijodkorlar sirasiga kiritish mumkin. Keling, yaxshisi, bu haqda shoirning o'ziga so'z berganlik: "Respublikamizning olis tog' qishloqlaridan birida, - deb yozadi u, - qit'qlardan oshgan odam bilan hamsuhat bo'lib qoldim. U o'zim she'rlaringizni yod olibdi, - dedi u chehrasi ochilib. – Yoddan aytil berdi, eshitib turdim. Aniqrog'i, unga o'zimcha ichdan jo'r bo'ldim, chunki o'sha she'ringiz bolalikdan mening ham qulog'im-ga singib ketgan. Yod olganman. Allagayeriga borganda, she'rni o'zim hechqach o'qiy boshlaydi. Xatosini tuzatmoqchi bo'lsam, o'z shakli ma'qullab turib oldi. Keyin ishonmasangiz, mana ko'ring, deb kitobni olib keldi. She'rni ancha o'zgartiribiz..."

Dohaqat, shoir to'plamlarini varaqlar ekansiz, "Obod o'lkam", "Shahon, Zaynab xolamga", "Yo'lehi – traktorchi", "Qovovvoy bilan

Chanovvoy” kabi she’r, ballada va dramalarining ancha o’zgariganiga guvoh bo’lasiz. Bir tomondan, asarning badiiy qimmatini boyitish, ikkinchi tomondan, davr talabi bo’lgan bunday o’zgarishlar o’quvchi saviyasining o’sganligi tufayli amalga oshirildi.

Po’lat Mo’min shaxsiyatidagi zahmatkashlik uning jahon bolalar adabiyoti, klassik adabiyotimiz hamda xalq og’zaki poetik ijodining boy an’alaridan qunt bilan o’rganganligida ham ko’zga tashlanib turadi. Shoir asarlarining hayotga tobora hamohang bo’la borishining siri shu tufayli bo’lsa ajab emas. Xalq og’zaki ijodiga mansub asarlarga xos ezigulik bilan yovuzlik o’rtasidagi konfliktning keskinligi, kompozitsion yaxitlik, yaxshiilik kuchlariga nisbatan samimiy xayrixohlik va albatta ularning tantana qilishi kabi chuqur xalqchil g’oya, tasvirdagi samimiyat Po’lat Mo’minning “Alla bilan jalla”, “Ikki savdogar”, “Oltin nay”, “Qovovvoy va Chanovvoy”, “To’rt to’g’ri va to’rt o’g’ri”, “Bilganni qari, bilmaydi pari”, “Qizil qum va odam”, “Sugatoy konfetvoy” nomli talay asarlariga joziba bag’ishlagan.

“To’rt to’g’ri va to’rt o’g’ri” ertagida halollik va poklik tekinko’rlikka qarshi qo’yiladi. Buning uchun shoir qahramonlar hayotidagi nozik nuqtalarni – ziddiyati voguealarni qalamga oladi. Bir kuni tunda to’rt o’g’ri yo’lovchilarni tunagani yo’lga chiqadi. Ular to’xtatgan kishi oshpaz bo’lib, bir vaqtlar o’g’rilarning biriga og’ir davrlarda non-tuz berib boqgan edi. Oshpazning insoniyligi, oljanobliligi qarshisida lol qolgan o’sha o’g’ri o’zining naqadar tubanlashib ketganligini anglaydi. Shu kuniyoq tekinko’rlikdan voz kechadi. O’zligini tanitgani uchun oshpazga minnatdorchiilik bildiradi. Unga ergashib hunar egallaydi. Boshqa o’g’rilar ham ilgari o’zlariga qandaydir yaxshilik qilgan biror kishini tunamoqchi bo’lganlarida tanib qolishadi. Ular ham qilmishlaridan pushaymon yeb, halol mehnatga qaytadilar. Ertakda shu tarzda yaxshilikning yomonlik ustidan g’olib chiqishi hayot haqiqatiga mos bo’lib, tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichikintoylarning yosh xususiyatlari va psixikasini yaxshi bilgan shoir tasvir uslubini nima haqda yozishiga qarab turib moslaydi. Agar she’r bolalar xarakteridagi biror kamchilikni tanqid qilishga

qaratilsa, kattalar adabiyotidagi singari o’tkir satiraga emas, ko’proq sog’li va quvnoq yumorga murojat etadi. Bu esa, o’quvchilarning o’sha kamchilikni va uning nimalarga sabab bo’lishini osongina tahlillab olishiga yordam beradi. Undan yuz o’g’irib, qarshi kurashishga undaydi. Bolalar sevib o’qiydigan va kuylaydigan “Salimjonning”, “Ikki qo’ymang, o’qituvchim”, “Betayin maqtanadi”, “Kutub bo’lsa yig’loqi”, “Uch baho-puch baho”, “Jovdiraydi-boshlaydi”, “Uyg’onib qoldi”, “Najimning dafteri nega o’n ikki yonq’emmas?”, “Bog’chaga bormasa...” she’rlari fikrimiz dalildir.

Yalqovlik haqida juda ko’p yozilgan. Lekin ular ichida “Salimjonning” she’ri mashhur bo’lib ketdi. To’g’ri, uning ommalashishiga natijaga mos kuyning yaratilib, qo’shiq qilib aytilishi ham sabab bo’lgan. Ammo bu yerda shoirning topqirliqi muhim o’rin tutadi. Shoir Salimjonning tashqi ko’rinishi koptokka o’xshab semirishi, ko’kchilning xamirday yumshoqligi, rangining simiqiligi, ko’zini doimo uyga bosishi kabi detallarni keltirish bilan uning yalqovliligiga ishora qildi. Har bir banddan keyin qahramonning nimjonligiga ilg’o’ berilish orqali yalqovlikning ilat ekanligini ta’kidlab boradi:

Salim, Salim, Salimjon,
Buncha bo’lding sen nimjon?
Koptok misol semirding,
Go’yo taning xamirjon.
Salimjon-nimjon!
Hech bir chiqmay oftobgga,
Ranging o’xshar betobga.
Uyqu bosib ko’zingni,
Qarolmay-san kitobga.
Salimjon-nimjon!

she’rni o’qigan kitobxon, shubhasiz, qahramonning ustidan kutadi. Ayol puyida o’zida ham shunday ilat bor-yo’qligiga nazar tashlaydi. Asarning tarbiyaviy qimmatini ham shunda.

shoironing “Parfining hart”, “Qutqarilgan Bahodir”, “Tanj bola”, “Qo’lmon”, “Tafsala degan kitob”, “Sulayirdi o’zini”, “Qurbaga-lar muchoqal” she’rlarida qahramonlarning kechmish-kechirmish-

larini tasvirlash orqali ayrim bolalar xarakteridagi bo'lmag'ur odatlarni, tushunchalarni fosh etadi.

Ma'lumki, bolalar shon-shuhratga o'ch bo'lishadi. "Qutqarilgan Bahodir" she'rining qahramoni ham shunday bolalardan. U qanday bo'lmasin, biror qahramonlik ko'rsatib, nom qozonish ustida bosh qotiradi. Bahodirning xatti-harakatlaridan, orzu-o'yidan ma'lum bo'ladiki, u qahramonlikni noto'g'ri tushunar ekan. Shu sababli u boshlagan nojo'ya ish o'z boshiga tashvish keliradi. "Sulayirdi o'zini" she'rining qahramoni ham shunday kulg'ini holatga tushadi. U qo'zichog'ini g'ij-g'ijlab suzishga o'rgatadi. Natijada:

Zo'r suzang'ich bo'lib chiqdi
Qo'zichog'i.
Qochib qolar kichkintoylar
Ko'rgan chog'i.
O'rgatgani uchun, qarang
Qo'zini u
Eng birinchi sulayirdi
O'zini u.

Bolalar tabiatan quvnoq bo'ladi. Bu narsa ularga bag'ishlangan asarlar ruhida ham aks etishi lozim. Po'lat Mo'minning "Kitob o'qigan bola", "Obod o'lkam", "Eng maza, eh, maza!", "Kitob – hammabop", "Ko'yलगim", "Kulcha non – gulcha non", "Odob ham yaxshi, ofto'p ham yaxshi" kabi qator she'rlari shu jihatdan diqqatga sazovor. Mazkur asarlarda ko'proq ohangdosh so'zlarning tanlanishi va har bir so'zning yetakchi g'oyani ifoda etishga to'la bo'yisundirilishi, asosiy qo'fiyalardan tashqari, ichki qo'fiyalarga ham e'tibor berilishi tufayli ular yengil o'qiladi hamda uzoq vaqt esda saqlanib qoladi.

Po'lat Mo'min xalq og'zaki poetik ijodidan faqat syujetlarni qayta ishlash asosida hamda ulardan ta'sirlanib original asarlar yaratish bilan bebaho merosimiz an'alarini ham davom ettirdi. "Kulcha non-gulcha non", "Lo'ppi paxta, yomg'ir va shamol haqida ertak", "Alla bilan Jalla", "Tish cho'tka, poroshok va atirsovun ertagi", "Suv so'zlaydi" singari she'r va ertaklaridan ko'rinadiki, Po'lat Mo'min

salq og'zaki ijodining passiv kuzatuvchisi bo'lmay, unga ijodiy yondashuvchi shoiridir. Mazkur asarlardan "Kulcha non-gulcha non" salq yaratgan "Kulcha non" she'ri, "Alla bilan Jalla" esa "Echki to'xtari" ertagi syujetidan foydalanib yozilgan bo'lsa, boshqalari to'xtar ta'sirida vujudga kelgan batamom yangi tipdagi zamonaviy ertaklardir.

Shoirning "Bahorning sharti", "Ofto'p chiqdi olamga", "Saxiy mehmon", "Gaz polvon ertagi" asarlaridagi fikrning quyuqligi, ifoda uslubidagi o'ynog'itlik, syujetning qiziqarliligi, shartliligi, bevosita to'xtar an'alarini ruhini beradi.

Ulardan "Bahorning sharti" bola bilan bahorning dialogi asosida yozilgan. Shamol yelib, ko'klam kelib, boladan o'ziga nisbatan qanday hurmati, himmati borligini so'raydi. Bolaning: "Nomingni qo'zich qilib kuylayman, bog'laringda guldastalar yasab, ustozlarga sovg'a qilaman", degan javobi bahorni qanoatlanmaydi. Bola o'zlab-o'zlab ko'chat ekishini aytgandagina subhatdoshining ko'ngli qaynoqlarga to'ladi. Shoir she'rda ertaklardagi qahramonlar oldiga shart qo'yish uslubidan o'rinni foydalangan holda tabiatni asrash va mehmondovarlik kabi muhim g'oyani qiziqarli tarzda ifodalashga muvaffiq bo'lgan.

Mavzu jihatidan "Bahorning sharti"ga yaqin turadigan "Ofto'p chiqdi olamga" she'ri ham qiziqish bilan o'qiladi.

Bahor kelib kunlar isiganda bola ko'chat o'tkazayotgan o'tasidan bir top tuchebuk shartoli olib ekadi. Yo'zda unga suv quyib parvarishlaydi. Shartoli pishganda hammamni mehmon qiladi. Ayasi, akasi va ukalari unga rahmat aytishadi, u esa dadasiga. Bolaning ezgulik yo'lidagi bunday urinishlari asta-sekin kichik kitobxoniga ham ko'chishi, uning qalbida bog'rog'lar yaratishga havas uyg'otishi shubhasizdir.

Po'lat Mo'min asarlariga qanoat bag'ishlagan omillardan yana biri, yungorida ta'kidlaganimizdek, bolalar adabiyoti to'plagan boy tajribadan ijodiy o'rganishdir. Shoirning S.Marshak, K.Chukovskiy, A.Mikhalov, A.Barto, E.Los va boshqa tanliq bolalar shoirlari ijodiga murojaat qilishi, ularning eng yaxshi asarlarini o'zbekchaga o'g'irlashi, ma'lum ma'noda o'zi uchun ijodiy maktab vazifasini o'tashi. Bu narsa, ayniqsa, u yaratgan obrazlarda o'zining yorqin ifo-

dasini topdi. Binobarin, shoirning ayrim dastlabki sheʼrlarida tash-behlarining nisbatan gʻaribligi, badiiy tilning nochoʻrligi va shunga bogʻliq suratda obrazlarning zaifligi sezilar edi.

Shoir asardan asarga oʻsa bordi. Oʻquvchi shoirning “Sayrang, qushlar” nomli ilk toʻplamidan tortib, barcha asarlarida xoh bevosita, xoh bilvosita ana shunday qahramon maʼnaviyatining qaysidir jihati bilan tanishadi.

Uzoqqa bormasdan “Oʻqituvchi” sheʼrini olib koʻraylik. Asar alifboni oʻrgatib hayotga muhabbat uygʻotuvchi mehribon ustozlarga bagʻishlangan. Shoir unda oʻqituvchilarga hurmat, samimiy minnatdorchiilik tuygʻularini izhor etish orqali *Ilmga chanoq oʻquvchi obrazini yaratishga muvaffaq boʻlgan*. Har qanday qiziq soʻzlikdan, taʼrif-u tavsiflardan xoli bunday qahramon oʻzining maʼnaviy-axloqiy olami bilan ming-minglab bolalarga oʻrnak boʻla oladi. Hali hayotiy tajribasi kam kichik kitobxon qahramon siymosida oʻzining quvonch va iztiroblarini, orzu-armonlarini, oʻy-xayollarini koʻrarkan, soʻzsiz unga ergashadi. Shu maʼnoda, lirik qahramonning puxta hayotiy zamimga ega boʻlishi yosh avlodni kelajakka yoʻllashda muhimdir.

Shoir asarlariga yetakchi qahramonlarni hayotning oʻzidan tanlaydi. “Parfning harfi”mi, yoki “Najimning rejasi”, “Salimjon-nimjon”, “Salimjon endi polvon” kabi koʻpchilik asarlari biror hayotiy taassurot asosida yaratilgan.

Poʻlat Moʻminning birinchi sheʼrlar toʻplami 1949-yilda bosilib chiqqan edi. Shundan keyin maydonga kelgan “Ofbob chiqdi olamga”, “Hunardan unar”, “Rahmatga rahmat”, “Eson va Omon”, “Odob va ofbob”, “Yaxshilarga oʻxshasam”, “Oltin oltin oltin qoʻl”, “Ustozlar izidan”, “Doʻsting qancha koʻp boʻlsa” singari qitrga yaqin kitobi oʻzbek bolalar adabiyotining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi.

Shoir asarlaridan koʻpchiligining qayta-qayta nashr etilishi, darslik va xrestomativalardan mustahkam oʻrin olishi, bolalar tomonidan sevib oʻqilishi va kuylanishi Poʻlat Moʻmin ijodining ommaviyligiga oddiy misoldir.

Savol va topshiriqlar

1. Poʻlat Moʻmin odob–axloq kuychisi deganda nimani tushunmoq? Shoir ijodidan misollar keltirib, izohlang.
2. Poʻlat Moʻmin ijodining oʻziga xosligini qanday izohlash mumkin?
3. Shoir kichikintoylar xarakteridagi salbiy holatlarga oʻz asarlarida qanday munosabatda boʻladi? Fikringizni “Salimjon nimjon” nomli yummoriistik sheʼri misolida izohlang.

Kavсар Turdiyeva – shoirna, adabiyotshunos, tarjimon, dramaturg

Soʻralar

1. Kavсар Turdiyeva ijodida begʻubor bolalik tarconalari.
2. Kavсар Turdiyeva ijodida taʼlim-tarbiya uygʻunligi.
3. Kavсар Turdiyeva ijodida maʼnaviy-axloqiy tarbiya masalasi.

Maktabgacha taʼlim va maktab yoshidagi kichik bolalarning savonali ahvori Kavсар Turdiyevaning ijodiy tarjimai holi koʻplab qalamkash tengdoshlari tarjimai holidan keskin farq qilmaydi. Hali bolaligidayoq badiiy soʻzga kuchi ishivoy, havas, umid va ishonch, ilk qoralmalarining matbuotda eʼlon qilinishidagi his-hayajon unga ham bogʻona emas. Ziyolilar oilasidagi ijodiy muhit uning qoʻliga qalam tutqizgan boʻlsa, oʻqituvchilik kasbi ijodiga taʼlimiytarbiyaviy maʼno yuktadi. “Biz shunaga bolamiz”, “Antonin va sinonim”, “Alfbeda maolhat”, “Topishmoqli alibe”, “Harflar oʻyini”, “Sahrli harflar oroli”, “Harflar ustaxonasi”, “Qoʻfiyali topishmoqlar”, “Gʻamralar sheʼr yozishgani haqida”, “Raqamlar boʻylab sayohat” kabi asarlaridan ham maʼlumki shoirna biror qaror, raqam, soʻz va harfga oid tushunchalar zamiriga savodxonlik va maʼnaviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini singdiradi. Jumladan, “A” harfining shakliga koʻra ahil-inoqlikni targʻib qilsa, “Q” harfi misolida uning qiangchibuga, qarqunog, qargʻa soʻzlarida kelishiga eʼtibor qaratish bilan xato qilmaslikka daʼvat qiladi. “Harflar sheʼr yozish-

gani haqida” she’rida alifbedagi barcha harflar bir joyga joylanib nima haqida yozish kerakligi xususida qizg’in bahsga kirishadilar.

“A” harfi ahillikda gap ko’pligini aytish bilan hammanni ahil-inog bo’lishga chaqirsa, “O” oqlikni ma’qullaydi, “B” bo’g’irsod va bo’rini maqlashga tushadi.

“Qo’fiyali topishmoqlar” she’rida ulardan farqli o’laroq grammatik tushunchalar orqali kichik kitobxonni o’ylashga undaydi. Masalan:

“Q” dan boshlansam qachon,

Qarangiz poliz tomon.

“S” dan boshlansam har chog’

Tozalikka men hamroh.

Mazkur topishmoq she’rni mutolaa qilgan, eshitgan o’quvchi uning javobini topish uchun polizda nimalar yetishtirilishi, tozalikning nimaga bog’liq ekanligi ustida bosh qotirish bilan qovun, sovun, supurgi so’zlari xususida to’xtamga kelishadi.

“Alifbe - o’g’ida, - deb yozadi B. Jamilova shoiraning mazkur mavzdagi ijodiy izlanishlari xususida, - harflarga mos so’z va ulardan yaxshiilik xislatini topish, she’riy shakl, qo’fiya, vaznga solish ijodkor mahoratidan dalolat, albatta. Ayni payda bunday o’g’itlarni Alifbe darsliklariga kiritish, tovush va harflarni o’tishda rang - baranglikka erishilishiga olib keladi. Bu alifbe she’rning pandnoma ko’rinishi ham mumtoz adabiyotdagi an’analarning qayta tiklanishi sifatida e’tirofqa loyiq”¹².

“Raqamlar bo’ylab sayohat” ham shu xildagi izlanishlar mahsulidir. Harflardan farqli o’laroq o’ngacha bo’lgan har bir raqam misolida o’sha raqam bilan bog’liq biror tarbiyaviy g’oya ilgari suriladi. Masalan, bir raqamni zamirida oy, quyosh, vatan va onaning yagonaligi, ikkida ko’z, quloq, oyog va qo’llarning juftligi hamda yomon baho ekanligi, uch raqamida “bir, ikki, uch, uchdan keyin puch” degan folklor asarlaridagi gaitis vaziyatlarda shart qo’yish an’anasi tilga olinadi.

Bir - miti raqam,

U ikkidan kam,

Ko’kda bitta oy,

Sochadi chiroy,

Va bitta quyosh

Ufqqa qo’yar bosh.

Bittadir yana

Vatan va ona.

Ko’rinadiki, raqamlar bilan bog’liq tushunchalar shunchaki eslatilmaydi, balki o’quvchining dunyoqarashini boyitish, tafakkurini otkantirish ko’zda tutiladi.

Shoira bolalar uchun asar yozganda ularlar xarakterining o’ziga xosligini, har narsaga hayrat bilan boqishi, hamma narsa ularga qiziq tuyulishini unutmaydi. Negaki bolalar har bir narsani ilk bor ko’radi, har bir narsaga qarab dunyoni o’zicha ilk bor kashf eta boradi, bundan beqiyos quvonadi. Shoira ana shu kashfiyotni tasvirlashga harakat qiladi. She’rlari bola tilida, oddiy va ravon ifoda yo’sinida har bir da, teran fikr, keng mushohada va uchqur xayol suratini o’zida aks ettiradi. Ularda goh murg’ak qalbnig beg’ubor orzu-umidlari, goh kattalarga xos falsafa bo’y ko’rsatadi. Shoiraning tarbiyaviy xislati yuksak, tasvirga boy, musiqiy ohangga yo’g’rilgan to’rt yuzdan ziyod she’rlariga taniqli bastakorlar tomonidan kuy bastalari, qo’shiqlar yaratilgan. Bu asarlar bolalar qalbining beg’ubor kengliklarini ochib berishga, ularning nozik ruhiy qalb jarayonlarini ko’rsatishga bog’ishlangandir. Ammo ana shu jarayonda ma’naviy va aqliy tarbiya bolalar shoirasining diqqat markazidan bir soniya ham nar ketmaydi. Zero, Kavsar Turdiyevaning bolalar adabiyoti tadqiqot-hilligiga bog’ishlangan ishlari ham talaygina. Uning 1994-yil filologiya fanlari doktori, professor H.Abdusamatov ilmiy ishlarida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasining nomi ham “Har bir zamon o’zbek bolalar she’riyatida ma’naviyat muammo-lari” mavzusiga bog’ishlangan.

Kavsar Turdiyeva bolalar uchun she’r yozarkan, o’zi ham bolaga aylandi. Kitobxonni kichikintoylarning sehiri dunyosiga yetaklab

¹² Jamilova. O’zbek bolalar adabiyoti. -T.: Noshir, 2019. - 251-bet.

ketadi. She'rilarida hayvonot olami-yu o'simliklar dunyosi bilan bolalarni tanishtirib boradi. Masalan, "Hayvonot bog'i" she'rida muallif 50ga yaqin jonivor haqida yozadi. O'rmon shohi sheridan tortib, ayiq, bo'ri, begimot, kalakesak, xonqizi, jirafa, quyon, kenguru, delfinu qush turlarigacha - barcha jonzoatlarni bolalarga xos sodda o'ynoqi misralarda tasvirlab, ularning hayvonot olami bo'yicha tasavvurini boyitadi.

Mana hayvonot bog'i,
-Hayvonlarning yotog'i.
Go'yo kattakon qayiq,
Hovuzda suzar Ayiq.
Sakrab o'ynadi Qoplon,
Unga qo'shnidir Shexron.
Juda, juda katta Fil,
Afrikadan kelgan, bil.
- Katakda memnan zo'ri,
Shumshayib qarar bo'ri.
Huda chaqqin va quvnoq,
Maymun oshar o'mbalocq.
- Uyum kelyapti. Oh!,
Timmay yig'laydi timsoh.
Nimagadir tuyalar,
O'rkachidan uyalar.
Barchasini tomosha
Qildik biz katak osha ...

"Hayvonot bog'i".

Shoiraning "Xatolar mamlakatida", "Baxillik haqida rivoyat" ertaklarida tasvir markazlariga qo'yilgan muammoga o'qituvchining ziyarak nigohi, bolalar galbiga ezgulik urug'ini sepuvchi g'amxo'r murabbiy tasavvuri orgali yondashiladi.

Gap shundaki, maktab yoshidagi kichik bolalarga mo'ljallangan "Xatolar mamlakati" ertagining qahramoni Farhod ismli bola akasiga xatolardan iborat xat yozib kulgili ahvolga tushadi. O'quvchi diqqati

savodxonlik masalasiga qaratilgan ushbu xat "Aziz akajon" - deb nomlanadi.

"Sizni juda sog'indim. Tushlarimda xato ko'rib chiqaman. Yangiliklar ko'p. Qo'shimiz moshina oldi. Asil mol ekan. Baqa, qachon kelasiz? Hovlimizda to'k o'sib ketdi. Sizga aytсам, Olim aka uyini qirdi. Ko'chamiz kurka bo'ldi. Xayr. U Kangiz".

Ertakdagi ushbu xat badiiy detal sifatida savodsizlik kishini kulg'ili ahvolga solib qo'ya qolmasdan, ma'naviy qashshoqlik omili ham ekanligi xususida muallif g'oyasini anglashga yo'naltirilganligi bilan ham asar syujetida muhim o'rin tutadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq", Hamzaning "Oqnot" kitobiga kirgan ma'naviy-axloqiy mavzudagi asarlariga hamohang, xalq ertaklari ruhida "Baxillik haqida rivoyat" ertagida baxilligi tufayli o'limga mahkum qilingan chol-kampirning fojiali qismati saxiylik va baxillik haqidagi azaliy ziddiyatning bir ko'ri-nishi sifatida o'quvchini befarq qoldirmaydi. Inson fe'l-atvoridagi jonliq fazilat-u-illatlar hali bolalikkayoq qay darajadadir kurtak holda nish urishi nazarda tutilsa, baxillikning kulfat keltirishi haqidagi yonkechi g'oya mohiyatini anglash qiyin kechmaydi.

Shoiraning "G'alati nasihat" she'ri mazmunidagi o'git g'ayri-ijobiyligi bilan ajralib turadi. Gap shundaki, lirik qahramon tamaki chekayotgan o'spiringa chekishning salomatlik uchun zararini zarur deb e'man, aksincha ataylab tamaki chekkan odamni kuchuk qop-matligi, uyini o'g'ri bosmasligi va qarimastligini ayrib uch karra boyxali deb hazil-mazax qiladi.

Kavayir Turdiyevaning bolalarga atab yozgan she'rlari yosh kishisoni ezgulik va yaxshilikka chorlaydi, ularni chin inson qilib tarbiyalashda, Vatanga sadog'ati bo'lishda xolisona xizmat qiladi. Huchoq o'zbek bolalar adabiyotini jahon xalqlari ijod namunalari bilan boyitishga ham hissa qo'shib keladi. Raim Farhody, Samuel Macheb, Korney Chukovskiy va Abdulla To'gay asarlari uning namunasida chop etilgan. Shoiraning ham bir gator she'rlari rus shoiri Yevry Mlogutin tarjimasida Moskvadagi "Murzilka" bolalar jurnala-bda "Yangi yil ertagi" nomli kitobi rus va koreys tillarida, "Nor va qurbona ertagi" Koreyada uch tilda e'lon qilingan.

Kavsar Turdiyeva ssenariychi sifatida faol ishlamoqda. Uning “Zumrasha” hajviy kinojurnali uchun ishlagan “Ma’naviyati bo’laylik”, “Sumalak va ming tilak”, “Yodlasam bo’lmasmidi?” kabi mavzudagi ishlari yuqori baholangan. Uning mul-film-lar, telefilm-lar uchun yozgan qo’shiqlari ham ommalashib ketdi. Shoiraning “Itkivoy va Kirkejion” nomli multflmi va M.To’ychiyev bilan hamkorlikda yozgan “Katta oyi” badiiy filmni “O’zbektelefilm” kinostudiyasi ekranlashtirilgan.

Kavsar Sheraliyevaning she’rlari asosida yozilgan qo’shiqlar katta ommaviy tadbirlarda, jumladan Toshkentning 2200 yilligi, Shanxay hamkorligi, Navro’z, Mustaqillik, O’qituvchilar kuni, Konstitutsiya kuni, Vataniy himoyachilari kuni bayramlarida, “Barkamol avlod”, “Umid nihollari” sport o’yinlari tantanalarida ijro etiladi. 12 yildan beri shoir Prezident archasi uchun qo’shiqlar matni va she’rlar yozadi. 300 dan ortiq qo’shiq matni muallifi hisoblanadi. Kavsar Turdiyevaning o’zbek, rus, lotin tillari fanlaridan darsliklari, o’quv-uslubiy qo’llanmalari, monografiyasi, shuningdek, Germaniya, Rossiya, Qozog’istonda ko’plab ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalari chop etilgan.

K.Turdiyeva nafaqat shoir, balki naddiqotchi olim sifatida ham badiiy ijod sirlarini nozik his etadi. Jumladan, H. Imonberdiyevning “Imtihonda” degan she’ri haqida shunday deb yozadi: “H. Imonberdiyevning “Imtihonda” degan she’ri feleton va xalq yumoristik “Vohay bola”, “Qilpillama” kabi xalq qo’shiqlari sintezi sifatida paydo bo’lib, mazkur chatishuv bolalar she’rining o’ynoqi va quvnoq chiqishiga asos bo’lgan. O’qituvchilar ko’z o’ngida do’stiga shpar-galka tashlagan Toshmatning sharmanda bo’lishi ta’sirli tarzda ko’rinadi:

- Javobin yozib ol, Esh,
Vohay bola,
Birinchi ellik besh,
Jon bola.
Ikkinchi qirq olti,
Vohay bola, dod ey,
Endi masala qoldi, jon bola,

Yozma ish davom etar,
Ashula qizib ketar.
- Sezdirib qo’yma Eshmat,
- Qilpillama!
Postida shaydir Toshmat.
- Qilpillama!
Masalani yozib ol!
- Qilpillama, dod ey!
Javobi o’n besh ro’mol
Qilpillama”.

“Qilpillama”.

Anvar Obidjonning ijodi haqida quyidagilarni qayd etadi: “Anvar Obidjon Varanparvarlik mavzusiga yangicha yondashadi. U Vatanga muhabbatni ulug’laydi. Vatandan-onadan ajralish qanchalik fojia ekanligini ko’rsatib beradi. O’g’irlangan pahlavon onasi bilan o’z ona tilida so’zlasha olmaydi. Ona esa sal bo’lmaganda o’g’ilning qotiliga aylanishi mumkin edi. Anvar Obidjon bu bilan o’zi sezma-gan holda o’z davrining milliy masala va uning fojcalari, taqdiri masalasiga ham yondashadi. Ya’ni, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy manqurtlikning bir ko’rinishi bo’lgan bu ayanchli holni bolalar ko’z o’ngida ta’sichan va yorqin gavdalantiradi. Ona tilining yo’q bo’lishi eng yaqin kishilarni bir-biriga dushman va qotil qilib qo’yadi”.

Shoir qo’liga qalam tutqazgan oilaviy, adabiy-madaniy ijodiy muhit haqida shunday yozadi: “Mening bolaligim va umuman hayotim kitoblar dunyosi ichida o’tgan desam mubolag’a bo’lmaydi. Chunki ota-onam, hatto ki bobo-buvilarim kitobni nihoyatda ardoq-lashgan. Yoshligimdan ikki tomlik O’zbek xalq ertaklari chop etilishi butun oilamiz uchun bayram bo’lgani esimda. Otaonam ertaklarni muntazam bizga o’qib berishsa, 60 dan oshgan, mashinalar chilan-gari bo’lib ishlagan bobom ko’zoynaklarini taqib olib kirill alifbosi-dagi ertaklarni maroq bilan o’qigani hozir ham ko’z o’ngimda. Dadam “Uch og’a ini botirlar” ertagidan ota nasihatini, Pushkinning “Oltin baliq” haqidagi ertagini, L. Tolstoyning “Odamga qancha yer

kerak?” degan hikoyasini doim takrorlar edilar. Bu ertak va hikoyalar har bir davr va har bir yosh uchun o‘ta ibratli hikoyalar. Uymiz hamisha kitoblarga boy bo‘lgan. Kutubxonamizdan hamma qo‘shnilar, tanishlar foydalanishar, nima kitob kerak bo‘lsa so‘rab chiqishar edi. O‘limizda kitob nondek muqaddas edi. Biror kitob yirtilganini ko‘rgan ota-onam juda xafa bo‘lishardi. Ota-onam doimiy ravishda bizni kitoblardan mustaqil ma‘lumotlarni izlashga undar edilar. Hattoki biror ruscha so‘zning tarjimasiga qiyralib turganimda, javobni bilib turgan ota-onam “lug‘atga qara!” deb turishar edi. Buning sababini sal keyinroq angladim. Chunki lug‘atda so‘zning sinonimlari, ularning kontekstida aks ettirilishi ham mavjud. Lug‘atga doimiy murojaat qilish orqali so‘zning xotirada saqlanishi yanada mustahkamlanadi. Maktab davrida juda ham sevib o‘qigan asarim Daniel Defoning “Robinzon Kruzo”si edi. Shu kitobdan keyin katta asarlarni ketma-ket mutolaa qila boshlaganman. Otaonam taniqli adabiyotshunos Sherali Turdiyev va tishunos olimi Gulshoda Muhammadjonovalar (Oллоh ularni rahmatiga olgan bo‘lsin) har birimizda kitobga mehr uyg‘ota olganlar. Hozir ham nafaqat badiiy va adabiyotshunoslikka oid, hattoki ukam qiziqqan “Pele – futbol giroli” kitobida ham dadamlarning qalamda yozgan so‘zlari, belgilarini uchratish mumkin. Bunda dadam Pelening otaonasi haqida, tarbiya yo do‘stlari haqida deb belgilar qo‘yganlar. Ota-onam izohlari va belgilariga qarab ular nafaqat menga, balki keyingi avlodlarga ham ushbu kitoblardagi inson tarbiyasi uchun zarur qismlarini ajratib, o‘qish, e‘tibor berish uchun tavsiya qilayotgandek tuyuladi. Bolaligimda qiziq voqea bo‘lgan. Besh-olti yoshman, chamasi. Kechqurun uxlab yotsam, karavotim atrofida kiyikcha o‘ynab yurgandek tuyuldi. Yaxshilab qarasam, o‘yinchoq kiyikcha dikirlab yuribdi. Bu tushmidi yo o‘ngimmi, aniq bilmayman. Lekin qorong‘u xonada nur ichida o‘ynab yurgan o‘sha kiyikcha hamon ko‘z o‘ngimda. Onamni uyg‘otib chiroqni yoqganimizda esa u allagachon g‘oyib bo‘lgandi. Asta-sekin ulg‘aya boshlagach yuragimda bir ohang borddek tuyulardi. O‘zimcha she‘r, qo‘shiq, ertaklarni xirgoyi qilib yurardim. Yo‘lda uchragan narsani gapga ulab ertak to‘qib ketaverar ekanman. O‘shanda onam darrov o‘zlari foydalanadigan

kartochkalaridan besholtitasini birashtirib, kitobcha yasab bergan. Unga birgalikda ertak yozganmiz, o‘zim rasmlar chizganman. Kitob ustiga onam “Kavsarning birinchi kitobi” deb yozib qo‘ygandi. Bolalik xayolotida yaratgan ertaklarim shu tarzda kartochkalaridan tikilgan o‘nta kitobchaga muhrlangan. Onam leksikolog olimi edi. Taddiqot ishi leksikologiya taraqqiyotini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, badiiy asarlar, publitsistik materiallardan kichik matn olib, taddiq qilar, yillar davomida leksikologiya taraqqiyotida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganardi. Onam dissertatsiyasini yozar, men esa yonida o‘tirib o‘z “kitob”imni to‘ldirish, rasm chizish bilan mashg‘ul bo‘lardim. Bir kuni uyimizga onamning dugonasi rang-barang ertak kitoblarni ko‘tarib keldi. Bolalari kata bo‘lgach, kitoblar har yerdagi sochihib yotishini istamay ularni menga olib kelgan ekan. Bir-biridan qiziqarli, bezakli, muqovalari qalin ertak kitoblarni kechqurunlari onam o‘qib berardi. Ayniqsa, tobim qochsa, u kishi boshimda o‘tirib tinimsiz ertak o‘qib bergani uchun kasal bo‘lishni juda yaxshi ko‘rardim. Bu aslida kitobga bo‘lgan mehrdan nishona ekan.

Esimda, otam uyga har safar qo‘lida biror yangi kitob bilan kirib kelardi. U kishi biz farzandlarining qiziqishiga qarab kitob tanlardi. Bolalar adabiyotiga havasim, ertaksevarligim tufayli menga bolalarga xos badiiy kitoblar olib berardi. Ukannga ham xuddi shunday, qiziqishiga mos kitoblar olib kelardi. Ota-onam bizni hech urishmas, muloyimlik va mehr bilan ulg‘aytirishgan. Buvim ham ko‘p ertaklarni yoddan bilardi. Ulardan tatar, rus xalq ertaklarini miriqib eshitarдим. Ayniqsa, Abdulla To‘qayning bolaligi, qiyinchilik bilan o‘tgan hayoti haqidagi rivoyatlarni eshitganimda bola qabim gay-g‘uga cho‘mardi. Adabiyot, so‘z sehnri shu tariqa yuragimda go‘zal tuyg‘ularni tarbiyalagan, meningcha. Buvim, onam sabab o‘zbek, rus, tatar adabiyotidan bahramand bo‘ldim. Ulardan eshitgan ertaklar o‘limda ulg‘aydim. Va o‘zim kabi ertaksevar, she‘rsevar bolalar uchun qo‘limga qalam oldim. O‘quvchilik yillari turi adabiy to‘garaklarga borardik. Ilk she‘rim “Tong” sarlavhasi bilan hozirgi “Tong yulduzi” gazetasida bosilgan. Bir gal “Gulxan”dagi to‘garak mashg‘ulotimizga O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tashrif buyurgan. She‘rlarimni o‘qib mamnun bo‘lganlari esimda. Izzat

Sulton, Asqad Muxtor ham yozganlarim haqida iliq fikr bildirishgan. Bularning barchasi menga ganot bo'lgan".

Shoiraning birinchi kitobi "Varrak" 1983-yili nashr etilgan bo'lsa, shundan so'ng "O'y nayapman, o'ylayapman" (1987), "Qush bo'lib uchgan ona" (1994), "Raqamlar bo'y lab sayohat" (2002) kitoblari bosmadan chiqadi. Bolalar dramaturgi sifatida "Toshkesarlar mam-lakatida" degan sahna asarini yaratadi. U Samarqand qo'g'irchoq teatri tomonidan sahnalashitilib, qo'g'irchoq teatrlari festivalida 1-o'ringa loyiq ko'riladi.

2009-yilda adabiyot yo'nalishi bo'yicha "Eng ulug', eng aziz" tanlovining g'olibi bo'lgan Kavсар Turdiyeva 2010-yil yakunlari bo'yicha "Bolalarning sevimli shoirasi" nominatsiyasini qo'lga kiritdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Kavсар Turdiyeva 20 dan ziyod badiiy kitoblar muallifi bo'lib "Toshkesarlar mam-lakati" nomli sahna asari "Sog'lom avlod" yilida o'tkazilgan dramatik asarlar tanlovida 3-o'ringa loyiq ko'rilgan. 2004-yil YUNISEF tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tanlovda ham "Tozalik – go'zallik" kitobi 3-o'rin bilan taqdirlangan. "Zumrasha" hajviy jurnalida uning ssenariysi asosida "Katta oyi" filmi, "Irkivoy va Kirkitjon", "Sumalak va ming tilak", "Zumrad va Qimmat" multiplikatsion filmlari suratga olingan. Turkiston saroyida o'tkaziladigan Prezident arxasi bayramining madhiya qo'shig'i muallifi hisoblanadi. Ingliz tilini o'rganishga mo'ljallangan "O'y nab, o'y lab o'rganamiz" nomli kitobi nashr etilgan.

Quyida bir xil mavzuning ikki xil talqinini muqoyasa qilish uchun K. Turdiyevaning "G'alati nasihat" va "A. Abdurazzoqning "Ikki xil nasihat" she'rlari matni keltirildi.

G'alati nasihat

K. Turdiyeva

Bir kun yo'lda
Bir o'spirin,
Turar edi tamaki tortib,
"Ball" dedim yekaga qoqib.
Va so'zladim chekkaga tortib:

Tamagini cheksang hozirdan,
Uch karra sen ko'rursan foyda.
Kuchuk qopmas, uyingni o'g'ri
Urmas sira bor joyda.
Qarimaysan sira azizim.
U-chi hayron solardi guloq.
Tushummasdan turardi so'zim.
So'ng gapimga berdim men izoh:
-Kuchuk qopmas, chunki qadding dol
Suyanasan hassa – tayoqqa.
O'pkang chirib, yo'talsang xur-xur,
Og'ri kirmas sira sen yoqqa.
Yana bir sir- qarimasinging,
Yosh joningga zahar qilar qasd.
Olib ketar umring yarmini
Xumor bilan seni qilib mast.

Ikki xil nasihat

Aziz Abdurazzoq

Xo'roz debdi jo'jalarga:
-Chiqavermang ko'chalarga.
Mushuk degan zo'r kasofat,
Kelimasin bir falokat.
Yeb qo'ymasin bitangizni,
Yoki bir-bir hammingizni.
O'y nasangiz, mana hovli
Dushmanlardan juda xoli.
Katta bo'lib, bo'lib bardam,
Chiqarsizlar ko'chaga ham.
Hozirchalik shunday yuring,
Shunda o'ynang, shunda kuling.
Tovuq debdi jo'jalarga:
-Chiqavering ko'chalarga.
Endi sizlar kap-kattasiz,
Aqllisiz, albatta siz.

Mushuk bilan olisharsiz,
Kuch yetganicha solisharsiz.
Bu ikki xil nasihatdan,
Ikki turlik haqiqatdan,
Jo'ja dillar bo'lib vayron,
Subhat qurib hayron-hayron.
Bir qarorga kelibdilar,
Bilganlarin qilibdilar:
Na ko'chaga chiqarmishlar,
Va na uyga kirarmishlar. ✕

Savol va topshiriqlar

1. K. Turdiyevaning badiiy va ilmiy ijod bilan shug'ullanishiga qanday omillar sabab bo'lgan?
2. K. Turdiyeva ijodida ta'lim-tarbiya uyg'unligi deganda nimani tushunasiz?
3. "Bolalar adabiyoti" va "Ma'naviyat tarbiyasi" tushunchalari o'zaro qanday aloqadorlikka ega?
4. "G'alati nasihat" va "Ikki xil nasihat" she'rlari badiiy ifodasidagi mushtarak va farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilib aniqlang.

Dilshod Rajab – she'riyatida tabiat va ruhияt talqini (1964-yilda tug'ilgan)

Reja:

1. Istiqbol davri bolalar she'riyati va Dilshod Rajab ijodi.
2. Dilshod Rajab she'riyatida shakiliy izlanishlar.
3. Dilshod Rajab she'riyatida psixologizm.

Istiqbol davri xalq hayotidagi yangilanishlar bolalar she'riyati uchun chinakamiga ijodiy-uslubiy izlanishlarga zamin yaratdi. Miraziz A'zam va Anvar Obidjonning shakli va mazmun uyg'unligiga asoslangan quvnoq she'rlari, Safar Barnoyev va Tursunboy Adashboyevning atrof-muhitni badiiy idrok etishda hayratlarga cho'mgan bola-

hayning beg'ubor tuyg'ulari aks etgan ertak-dostonlari, Hamza Inonberdiyevning o'z xayolotida dunyoni qanday bo'lsa shunday-ighecha kashf etishga qaratilgan yumorga boy "lof'lari, Qambar Ota va Abusaid Ko'chimovning jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy fuqarolik tushyasi bilan bog'liq yangilanishlarga munosabati jo'shqin falsafiy-pedagogik ruhda aks etgan she'riyati namunalari, Rustam Nazar va Abdurrahmon Akbarning beg'ubor bo'itilik kechinmalarini odatdagi-don o'ziga shakli va ranglarda ko'rishga, ko'rsatishga intilgan izlanishlari, Kavсар Turdiyevaning bolalik dunyosini onalik tuyg'usi bilan tavsif markaziga qo'ygan o'ynog'i she'r va tarjima asarlari, istiqbol davri bolalar she'riyatining bo'y-bastini ko'rsatadigan ijod namunalari. Ularning ichida badiiy ijodga doir o'tish davri muhoqagatlarini bosib o'tib, istiqbolga dadil qadam qo'ygan Dilshod Rajab asarlari o'ziga xos o'rin tutadi.

D. Rajab bolalar she'riyatiga bevosita beg'ubor bolalik dunyosidan kirib kelgan ijodkorlardan de'vish mumkin. Qadim Buxoroning shofirkon tumaniidagi Denov qishlog'ida tavallud topgan shoir o'z holatini, ijod dunyosiga daxldor kechinmalari to'g'risida quyidagi-larni yozadi: "6-sinfni bitirib, oromgohda yurganimda "Gulxan" jurnali borgan. Unda mening ilk she'rim chiqqan ekan (1978-yil 7-son). Oromgohda shov-shuv bo'lib ketgan. Ilgari ha, havaskor-da, u-hu qaralib yursa kerak, deb uncha e'tibor qilmagan ustoz-tarbiya-chilar ham qolib qolib hayratlangan, meni qutlab alqagan edi. Kechasi bilan "Gulxan"ni quchoqlab yotdim, chin ma'noda u galbimga o't-havosat berdi. O'zimni boshqacha, yuksalganday sezib atrofda-gi bolalar ham havas va bir qadar hurmat bilan qaray boshlaganigini his etardim. Bu hol menga zo'r qanot baxsh etgan. O'shanda ilhom, ijod bolog'i jo'sha boshlab, endi ijodga jiddiy qarash va kurashish kerakligini anglaganday bo'ldim".

Shunday e'tiborliki, ko'pchilikning nazariya tushish, har qanday holatda bo'lgani kabi o'ziga nisbatan talabchanlikning ortishi, keng-rog muhojada yuritishga undashi, hayotda yanada faolroq bo'lishga rag'batlantirishi, bo'lajak shoir uchun ham begona emas edi. Shu bilan aynan o'sha paytdagi ko'rgan-kechirganlari havaskor ijodkor-ning izlanishlariga turtki va to'g'ri yo'nalish beradi. Hali bola nigohi

oʻrgali boʻlsa-da, oʻz kuzatishlari yuzasidan mushohadakorlik, iboratli xulosa chiqarish tuygʻusi unga ilhom bagʻishlaydi.

“Bir bola doim “Joʻjalirim” degan qoʻshiqni aytardi, - deb yozadi shoir oʻz “tarjimai hol” ida. – Repertuarida boshqa qoʻshiq yoʻq, balki endi oʻrganuvchi boʻlgan-da. Men unga atab bu sheʼrni yozdim:

Qistasangiz Karimni,
Qachon qoʻshiq ayt deya,
Rubobin olib qoʻlga,
Aytar “Joʻjalirim”ni.
Bir kuni hazillashib,
Der unga doʻsi Sodiq:
“Axir u joʻjalaring,
Boʻlmasmi sira tovuq?”

Boshlovchi shoir shundan soʻng childirma chaladigan oʻrtogʻining iltimosiga koʻra “Childirma” degan toʻrtlik yaratadi.

Qichqirib aytar gapi,
Shu fagat “baka-umbang”,
Shuni ham aytmag, uni
Tarsaklab turmasang.

Shoirning yuqoridagi ilk tizmalarini keltirishdan maqsad shuki, boshlovchi ijodkor sifatida oʻzi kuzatgan voqea-holatni shunchaki qoʻfiyalashtirmasdan, balki oʻsha voqea-holat haqida mantiqiy fikrlashga undashi, ijodiyotda dastlabki mashqlardan boshlab toʻgʻri yoʻnalish olganini qayd etishdir.

Adabiyot tarixida hech bir ijodkor oʻqimasan, boshqalardan oʻrganmasdan, soʻz sanʼatining sehiri olamiga mehr qoʻymasdan qoʻliga qalam tutmagan. Alisher Navoiy Fariduddin Attorning “Mantiq-ut tayr” asaridan qay darajada taʼsirlangan boʻlsa, A.S.Pushkin enagasi aytdan ertaklardan shu darajada bahra olgan, Qudus Muhammadiy ijodida yoshligida Islom shoirga adabiy kotiblik qilgani bois xalq ogʻzaki ijodi anʼanalari qay darajada oʻrin tutgan boʻlsa, ustoz shoirning voqelikka estetik munosabati atroflamandagi narsa-hodisalar tufayli koʻnglida tugʻiladigan ishittiholamni

lebbi hissiyat va hayrat tuygʻusi bilan quvnoq yumor vositasida muayyan uslubni Dilshod Rajab ijodiga muayyan turki bergani shubhasizdir.

Qolaversa, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi talabalik yillari D.Rajab uchun ijodiy izlanish davri boʻldi. Professor P.Shermuhamedov rahbarligida bolalar sheʼriyati yuzasidan yaratgan ilmiy tadqiqot ishi uni badiiy ijodning sehiri olamiga, xususan, kichik yoshdagi bolalar ruhiyatiga, xayoloti dunyosiga chuqurroq olib kirdi. Shuning uchun ham ilmiy-ijodiy izlanish bilan birga, voqelikni bolalar nigohi orqali estetik idrok etish shoir asarlarining hissiy taʼsirchanligini taʼminlagan omillardan deb hisoblash mumkin. “Kuz”, “Poezdning bolasi”, “Qishki safar”, “Hayvoʻzi olam keldi”, “Dunlar”, “Tungi militsionerlar” kabi talay sheʼrlarida lirik gahramonning koʻrgan-kechirganlari mohiyatini anglash yoʻlidagi intilishlari kichik kitobxonlarni befarq goldirmasligining sababini shundan izlash oʻrinlidir.

Intilqol davri bolalar sheʼriyatida, begʻubor bolalik olamini badiiy hissiyat etishga doir izlanishlarni shakliyl yangilanishsarsiz tasavvur qilib boʻlmaydi albatta. Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboevlar ijodidan boshlangan “Iktilik”, “uchlik”, “uch chanoqlar” qisqa misralarga toʻrtin falsafiy maʼno yuklash “xat”, “shikoyat” arznomalari Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, Kavсар Faridoyevlar kabi Dilshod Rajab sheʼriyatini ham yangicha ohang va mazmun bilan boyitdi. Ammo ularning har biri, bu borada boshqasini takrorlamagan holda oʻz “soʻz”ini ayitishga muvaffaq boʻlgani oʻziga boʻyiqdir. Jumladan, D.Rajabning shakliyl izlanishlarga doir rangliholalar alohida-alohida turkum tarzida tartiblangani bilan qiziqib turadi.

“Soʻz oʻyini-zoʻr oʻyin” turkum sheʼrlarida “Qoʻy-yoʻq”, “Zogʻgʻoz”, “Kit-tik” soʻzlarini teskari oʻqiganda yangi maʼno kelib chiqishi, “kiyik-kuchuk”, “quduq-qiziq” soʻzlarini teskari oʻqiganda mazmun oʻzgarishligi, “sheʼr” soʻzida bosh harf tushirib goldirilsa “ger”, “oy” esa “oy” boʻlishi, “q” oʻrniga “f” yozilsa, “qi” dan “fi” boʻladi boʻlishi “Uchqunbekning savollari”da jonivorlarning tashqi koʻrinishi, xatti-harakatlari, kurkaning doimo gʻazablanib, hurpayib

yurishi, zebraning ustidagi chiziqlar, tiprattikan badanning tikan bilan goplanishi, shamolning qanday paydo bo'lishi, qayerdan kelib, qayerga ketishi, jirafaning bo'yining uzunligi bilan bog'liq turfa savollarga kichkintoylar tushunchasi doirasida javoblar izlanadi.

“Shikoyat daftari” turkum she'rleri garchi jonivorlar, narsa-predmetlarning shikoyati tarzida yaratilgan bo'lsa-da, aslida ular kichkintoylarni atrofmizdagi olam bilan tanishtirish g'oyasiga bo'y-sundirilgandır.

“Shumtakaning she'rleri” turkumi asosan ikkiliklardan tashk il topgan bo'lib, buzoqcha, chigirtka, choynak, o'chirg'ich, supurgi, changyutgich, zinapoya, boychechaklarga xos xislat, yetakchi xususiyatlar g'oyatda ixcham tarzda tasvirga olingan:

Sigirga ko'p yoquvchi,
Chelaksiz sut sog'uvchi. “Buzoqcha”

Kiyvolgan bu yigitcha,
Prujinali etikcha. “Chigirtka”

Ulardan farqli o'laroq, “Baxshi bola- yaxshi bola” turkumi she'rilarida xalq tema, dostonlari ohangi aniq-ravshan sezilib turadi. Turkum quyidagicha baxshiyona dil izhori bilan boshlanadi: “Alqissa, baxshi bola, odob-xulqi yaxshi bola, so'zlari dil naqshi bola, qo'lga olib sozini, yangratib ovozini, shunday bayon etibdi, zavqi-yu dil rozini”.

Ko'rinadiki, asrlar mobaynida kuy/lab kelingan xalq dostonlaridagi sujet voqealarining tasvir ohangiga monand baxshilar tomonidan tinglovchilarning diqqatini jalb etish uchun, do'mbrasini bag'riga bosgan holda bir zum tin olib aytildi. Kirish so'zi shoir she'rilariga jozibakor, da'vakor ruh baxsh etadi. “Navro'zi olam keldi!” she'ridagi fasllar kelishi bilan borilqning iforga to'lishi, doshqozonlarda sumalakning “qiqir-qiqir kulishi”, yer-u ko'kni bir-biriga bog'lagan kamalakning “nurli ko'priki” yanglig' jilolanishi bolalarga tanish manzara-holatlarining badiiy ifodasi sifatida ezgin tuyg'ularni jonlantiradi.

Xalq baxshilarining dostonni tinglashga da'vat qiluvchi an'anaviy kirish so'zlariga xos bayon uslubi “Yaxshi va yomon” she'riga ham o'ziga-xos shukuh bag'ishlagan: “Baxshi boladan yaxshi va yomon haqida aytib berishini so'raganida, u bir oz jim qolib, uzoqlarga nazar solib, ota-bobosi aytganlarini yodga olib, shunday debdi”: Yaxshi va yomon haqidagi so'rovga baxshi bolaning “Bir oz jim qolishi” (“Uzoqlarga nazar solishi” uning o'zining taraddudlanishiniga anglatmaydi, balki kitobxonni she'rni tinglash va o'qishga chog'lash ham nazarda tutilganini bildiradi).

Har bir ijodkor tabiatdan, uning go'zalligi-yu, mo'jizakor holatlaridan, yil fasllariga xos xislatlardan, cheksiz ilhom oladi. Aslida yil fasllari haqida she'r yozmagan bolalar shoiri bo'lmasa kerak. Ularning ko'pchiligida asosiy e'tibor, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiat manzaralarining turfa ko'rinishlari, kishilar mehnati yuzasidan umumiy tasavvur berishga qaratilganini kuzatish mumkin. Dilhod Rajab tabiatni shunchaki kuzatmaydi, aksincha o'zi tasvirga olgan manzara-holatga shoirona ko'z bilan qaraydi. “Oppoq bo'lib gullagan daraxt” da o'z otasi siymosini ko'radi. Chigirtkalarining tunda chirillashini, milistioner amakining hushtagiga, bahor oqshomida hodrab chiqqan yulduzlarni, qoqigullarga o'xshatadi. Shoir o'zi qalamiga olayotgan yil fasllariga oid manzara-holat tasvirida kichkinoylarning dunyoni anglashga daxldor ruhiyati ichiga chuqurroq kirib borishga harakat qiladi. “Kuz” she'rida o'qiyimiz:

Kuzak yurish boshladi,
Ya'ni urush boshladi.
Sarg'ayib so'ldi ko'plab,
Yam-yashil barg-u o'tlar.

Kuz faslida yaproqlar sarg'ayib, qish kelayotganidan darak berishi bolalar uchun tanish manzara. Ayni holatga, kichkintoylar nigohi orqali nazar tashlagan shoir dov-daraxtlar bargi-yu o'tlarning sarg'ayib so'lishi ni tasvir markaziga olish orqali “kuzakning yurish boshlashi”, ya'ni yaxshilikka “urush e'lon qilish” ni bildirishi bilan muammoning ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Kuzning bu "yurishi" dan dastlab kitobxonda tushkunlik kayfiyati yuzaga kelishi mumkin. Lekin, urush haqida so'z ochildimi, "asirlik" tushunchasi ham unga begona emasligini his etgan o'quvchining she'r yakunida birdaniga diti ravshan tortadi:

Tiqildi ko'p asirlar
Sholg'om, piyoz, sabzilar.
Bu g'alaba kuzniki,
Endi maza bizniki.

Kichikintoylar hayoloti ufqining cheksizligini nazarda tutgan D.Rajabning talay she'rlarida yerga ursa ko'kka sapchiydigan, tinib tinchimagan, har bir narsa-hodisaning mohiyatini ilg'ab olishga qiziquvchan bolakay ruhiyati qatlamlarida inson va tabiat munosabatlarining turfa ko'rinishlarini kuzatish mumkin. Ayni shu holatlar shoir ijodining bolalar adabiyotida tutgan o'rmini belgilashga xizmat qiladi.

Bolalikka oshno qalbin

Dilshod Rajab

Har fashning o'z xislati bor, degan purno'no gapni bolalik nuqtai nazaridan olib qaralsa, darhaqiqat, har bir faslda o'ziga xos o'yinlar, o'zgacha zavq-shavq bor. Lekin menga bolalikdagi barcha fasslarda umumiy bo'lgan oqlik, oq rang ko'proq ko'rinadi. Bahorning oppoq gullari, yozning oq tonglari, tiniq-zilol suvlari, kuzning oq mezonlariyu, oppoq gullari, qishning oq qorlari-yu, oq libosi qorbobo, qorqizlari... Shu uchun beixtiyor tilimga bir satr keladi: "Bolaligim poshsholigim, oq ranglarga oshnoligim!"

Bu oq rang ramziy ma'no kash etib, bolalik beg'uborlik, poklik bilan bevosita bog'liqligini ham anglatadi.

...Qadim Buxoro viloyatining Shofrikon tumanidagi Denov qishlog'ida 1964-yilda tug'ilganman. Bolaligim ham asosan shu qishloqda kechdi. Ko'pincha yozgi ta'tillarda ona tomondan buvimning uylariga, Cho'pqo'rg'on qishlog'iga ham borar, u yerda ham bolalik do'stlarim bor edi. Bu qishloq ko'chalarida ham bolaligimning eng yorqin, hayratli, hayajonli, zavqli damlari, qadamlari bor...

Denovdan o'rtacha bir ariq oqib o'tardi. O'sha paytlar u menga katta, hatto biron qo'rqinchli bo'lib ko'ringan. Qirg'og'ida turli daraxt-butalar o'sib yotar, bizning uyimiz oldidan ham oqqan bu ariqdagi ko'pkandan o'tib, qishloq yo'liga chiqardik. Ya'ni, ariqning u qirg'og'i bo'ylab yo'l o'tigan, bu qirg'oqda esa daraxtlar, dala maydonlari, uylar bor edi. Uyimizning narigi tomonida esa qator jiydalar, sodan keyin paxta dalasi bo'lib, keyin yana qator o'riklar bor edi. Uyimiz qishloqning eng cheki bo'lgani uchun ikki tomondan dala maydonlarga tutash. Nega bu manzaralarni chizayman? Bolaligim shu ariqda cho'milib, qishloq ko'chalarida chang-g'uborga ko'milib, kech dala maydonlarida quvlashib chopib, daraxtlarga tirmashib, maydonlardan to'tib zavq-surat tuygan.

Boshida yozganimdek, har fashning o'z o'yinlari, gashli bo'lardi. U paytlar qishloq bolalari birga-birga o'ynar, mol-qo'y boqar, o't-mayya yular, paxta terar edi (hozirgiday telefon yoki televizorga o'tgiz "onkxanib" o'tirmasdi). Chilliak, futbol, hokkey, quvlashma-choq, beklimnehoc, oq terak... Eh-he gancha o'yinlar bor edi. "Eh-eh onkxanib" ga ham ko'p borgannan. Endi u yerdagi dam olish, "shog'ichlor" ga ham ko'p borgannan. Endi u yerdagi dam olish, "shog'ichlor", turli musobaqa-yu, tadbirlar ham bir olam xotira. Tumanidagi barcha maktablardan kelgan tengdoshlar bilan tanishib, do'stlanib, bolalik zavqu gashitini birga surardik. Juda baxtiyor, quvonchli, hayratlarga limmo-lim kechardi har damimiz. Xotira olanimmi yoxud g'ulksanday hamisha yoritib turadigan bir holat hech unutilmaydi. 6-sinfni bitirib, (13-14 yosh) oromgohda yurganimda "shog'ichlor" jurnali bo'lgan. Unda mening ilk she'rim chiqqan ekan (1978-yil, 7-sano). Oromgohda shov-shuv bo'lib ketgan. Ilgari ha, hayvonkor-da, u-bu qorralab yursa kerak, deb uncha e'tibor qilmagan, uncha ta'biyatchilar ham qoyil qolib, hayratlangan, meni qutlab, shog'ichlor edi. U paytlar respublika matbuotida chiqish, alpiniستning eng yuqori cho'qqig'ga chiqishiday (hazil) gap edi. Kechasi bilan "shog'ichlor"ni qeshoqlab yotdim, chin ma'noda u qalbinga o't-harorat berdi. O'zini boshqacha yuksalganday sezib, atrofdagi bolalar ham hayvon va bular qadar hurmat bilan qaray boshlaganimi yaqqol his qildim. Bu hol menga zo'r ganot baxsh etgan. O'shanda ilhom, ijod

bulog'i jo'sha boshlab, endi ijodga jiddiy garash va kirishish kerakligini anglaganday bo'ldim. Oromgohda yana ikkita she'r yozdim. Bir bola doim "Jo'jalaring" degan qo'shiqni aytardi. Repertuarida boshqa qo'shiq yo'q, balki endi o'rganuvchi bo'lgan-da. Men unga "atab" bu she'rni yozdim:

Qo'shiqchi

Qachon qo'shiq ayt deya
Qistasangiz Karimni,
Rubobini olib qo'lga
Aytar "jo'jalaring"ni.
Bir kuni hazillashib
Der unga do'sti Sodiq:
"Axir u jo'jalaring
Bo'imasmi sira tovuq".

Oromgohda rosa oldish olganman. Keyin childirma chaladigan bola menga ham yoz deyaverib, bezor qilavergach, "Childirma" degan she'r yozdim:

Qichqirib aytar gapi
Shu faqat: "baka-bumbang",
Shuni ham aytmas, uni
Tarsaklab turmasang.

Qarangki, o'sha payt "Gulxan"jonning rag'bari-yu, sababi bilan "yashin tezligida" ikkita she'r yozildi. Bular keyin "Gulxan"da va boshqa nashrlarda chiqdi, to'plamlarimga ham kirdi. Shu o'rinda otionalarga yosh avlod uchun gazeta-jurnalning ahamiyati kattaligini ta'kidlamoqchiman. Gazeta-jurnal bolangizni kitobxonlikka boshlovchi olin so'qmoq...

...Endi bolalar adibi sifatida bolaligimning "kitobxonlik" bo'limi haqida ham biroz aytсам. Albatta, men sho'x, o'yngaroq edim. Lekin kitob o'qishga ham qat'iq qiziqqanman, berilib mutolan qilganman. Men bolaligimda juda ko'p ertaklar o'qir edim. Ayniqsa, Kenjabotir — sevimli gahramonim bo'lgan. Ertaklarda u akalariidan

ko'ra marol, botir va bag'rikeng qiyofada ko'rinadi. Aka-ukalar qo'shishda uchta yo'l — borsakelar, borsa kelishi gumon, borsakelmas yo'li haqi turganida Kenjabotir qo'rqmay borsakelmas yo'lini tanlar va imdan sog'omon, g'alaba bilan qaytib kelardi. Men huddi u bilan birga, yonma-yon yurgandek his qilardim o'zimni. Keyin o'zbek bolalar adabiyoti vakillari N.Fozilov, X.To'xtaboyev, H.Nazir, U.Hibnat, P.Mo'min kabilarini, kattalar adabiyoti vakillarining ishtabarga atalgan asarlarini ketma-ket o'qishga tushdim. Oqiljon Husanovning "Tog'da o'sgan bola" kitobidan juda qat'iq ta'sirlanganman. Tog'darada qolib ketgan, jonivorlar bilan yashagan insonning g'alati hayoti, atvoli juda hayajonga solgan. A.Qahhorning "O'zbekiston ertaklar", Oybekning "Bolalik", Asqad Muxtorning "Muxtorning jin ko'chalari", keyinchalik S.Ahmad, O'.Hoshimov, U.H. Aynimov, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi qator adiblarning asarlarini ehamqoqlik bilan, hatto "yutog'ib" o'qiganman. Ko'p she'r yod sherdim. Ayniqsa, atog'li bolalar shoiri, ustozim T.Adashboyevning "Chitog'bolatog'" to'plami mening bola qalbimni she'riyatga oshno qilgan kitoblardan biri. Undagi rang-barang tabiat tasvirilari — peyzaj she'rlar meni hayratga solgan, she'riyatning siri olamiga yetaklagan. Ushbu kitoblarda quyidagi to'rtlikni takrorlab, hovilda sumalaklarga berilib yurganman:

Sumalak
Boychechaklar nish urib,
To' turguncha o'midan
Bahor qishni tarnovga
Osib qo'ydi burmidan.

Keyinchalik mana shunday badiiy yuksak, jozibali, obrazli she'r-lar ta'athiga qiziqib, "80-yillar o'zbek bolalar she'riyatida poetik mahorating ayrim masalalari" mavzuida nomzodlik ishini himoya qildim. Men ehet el adabiyotini bolaligimda kam o'qiganman. Keyinchalik o'qildim. Hozirgi bolalarga jahon adabiyotining sara namunalari o'qishlarini ham tavsiya qilaman. Men bolalar shoiri bo'lsam ham, kattalar adabiyotiga oid yaxshi asarlarni muntazam

o'qib boraman. Mumtoz adabiyot, xususan, ma'rifiy asarlarni ham sevib o'qiyman.

Bugungi bolalar adabiyoti meni uncha ham qoniqtirmaydi. Bolalar shoir-yozuvchilari bor. Lekin "yarq" etib ko'zga tashlanadigan, yaxshi ma'noda "shov-shuv" bo'ladigan asarlar yaratilmayapti. Bu o'zi oson ish ham emas. Bular boshqa-boshqa masalalar. Ko'pincha bolalar kam o'qiyotganiga sabab qilib, yaxshi asarlar kam yozilayotganini ko'rsatishadi. Yo'q, agar o'qiyman desa shu paytgacha yaratilgan o'zbek va jahon bolalar adabiyotining sara namunalari to'lib-toshib yotibdi. Shuning uchun kitob o'qimasslikka hech qanday bahona ham, asos ham yo'q. Bolalar ko'p kitob o'qishi kerak, mayli keyinchalik qaysi soha egasi bo'lmasin, avvalo, inson. Kitob shu inson qalbini, didini tarbiyalaydi.

Kitob bor uyga nur-fayz yog'ar desam,
Bu balki kitobiy gapga o'xshaydi.

O'qishga ochilgan kitobni ko'ring:
Duoga ochilgan kaftga o'xshaydi.

Hozir axborot asri. Uning yaxshi-yomon tomonlari bor. Bolalarni axborot bilan emas, ma'rifat bilan oziqlantirish, to'yintirish kerak. Aks holda ular aqilli, biroq qalbsiz, hissiz robotlarga aylanib qolishi mumkin. Texnika va texnologiyalar rivojlangan bu zamonda bolalar qalbini kitob va tabiatga oshnolik butun va omon saqlab qoladi. Ularning didi va his-tuyg'usi tarbiyalanishi muhim. Bu ishda adabiyotga, san'atga teng keladigan boshqa bir kuch yo'q.

Shuning uchun deymanki,

G'ala-g'ovur bozorda.

G'ala-g'ovur bozorda.

Bunda har kun kelisa kim

Unga azob, ozor-da.

Turfa molu mato deb,

Mayda-chuyda ashyo deb,

Essiz, pulu savdo deb,

Umr o'tsa, bekor-da.

Vaqtingni boy berasan,
Naqtingni boy berasan.
Yuldim, degan kuning ham
O'xshaysan naq qarzdorga.
Ey, tengdosh-qadrdonim,
Ayni sening zamoning.
To bugun bor imkonning,
O'qi, o'rgan takrorla.

Savol va topshiriqlar

1. Dilshod Rajab she'rlarida istiqlol davri bolalar she'riyatining qanday xususiyatlari o'z aksini topgan?

2. Dilshod Rajabning poetic mahorati shakllanishida shakl va mazmun uyg'unligining qaysi xususiyatlari ajralib turadi?

3. Dilshod Rajab she'riyatida tabiat va inson munosabatlari qay jihatdan yoritiladi?

4. Shoir she'riyatida psixologizm muammosiga munosabatingizni bildiring.

5. Dilshod Rajab o'z she'rlarida qaysi badiiy san'atlardan foydalanadi? Misollar keltiring.

O'RTA VA KATTA YOSHDAGI BOLALAR ADABIYOTI

Quddus Muhammadiy – tabiat va ma'naviyat kuychisi
(1907-1997)

Reja:

1. Quddus Muhammadiy - bolalarning sevimli shoiri
2. Quddus Muhammadiy ijodida tabiat mavzusi
3. Shoir ijodining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Adreslilik shoir she'ryatining yetakchi xususiyati.

O'tgan asrning 30-yillari o'zbek bolalar adabiyoti tarixida G'ayratiy, S.Jo'ra, Z.Diyor, M.Fayziy, D.Oppogova, A.Rahmat, H.Nazir, I.Muslim kabi professional bolalar yozuvchilarining yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi. Ularning ichida Quddus Muhammadiy ijodi alohida o'rin tutadi.

Biologiya o'qituvchisi sifatida tabiatshunoslik darslarini she'riy usulda tashkil qilishi, "Yosh tabiatshunoslar" to'garagida ijodkor o'quvchilar bilan olib borgan mashg'ulotlari uni bir umr bolalar adabiyotiga bog'lab qo'ydi. Tabiat va inson kamoloti ijodining bosh mavzusi bo'lib qoldi. "Maktab hovlisida, - deb yozgan edi shoir keyinchalik, - u yoqdan bu yoqqa yurib, dars mavzulari, ildiz, barg, gullarni ganday qilib o'quvchilarning ko'z o'ngida qiziq qilib ko'r-satisini o'ylandim". Shoirning so'zlariga ko'ra o'qituvchilik kasbi uning shoir bo'lishiga sabablardan biri. Bu haqda Quddus Muhammadiy shunday yozadi:

"Darslarni qiziqarli o'tkazish uchun she'rilarim rosa ish berardi. O'tadigan har bir darsim mavzui yuzasidan she'r yozib, o'qib berardim. Natijada, darsim o'quvchilarimga qo'shigdek yoqimli bo'lib, yaxshi yetib borardi. She'rimg bolaga bunday tez singishini ko'rib, tabiat mavzuini o'tar ekaman, "Bargion" degan she'rinni yozdim. O'sha she'r dan bir bandini ko'ring-a:

Dov-daraxt ilmin sevsang,
Bargion tilin bilib ol.
Shildir - shildir qo'shig'in

Bolalar adabiyotidan saboqlar

Qulog'ingga ilib o'll

Shuningdek, "Momaqaymoq" (Qoqi o't), "Bog'imizda bir nok bor", "Tur", "Tolim gullaydi-yu, nega meva tugmaydi", "Tok daraxti bir xil-u, uzumi nega har xil", "Shafloi-doktor", "Asalari-Adhamjon" kabi qator she'rilarim o'qituvchilik paytimda yozildi. Bu voqeadan xabar tobgan maktabimiz direktori marhum Ashrafko'ja Sharifko'jayev bir kuni darsimni kuzardi. Darsimni tugatib, o'qituvchilar xonasiga kirdim. Ashrafko'ja aka darsni qiziqarli o'tkazganimni aytib, she'r-larimdan o'qib berishimni iltimos qildilar. Maktabimiz o'qituvchi va o'quvchilari huzurida u kishining iltimoslarini bajo keltirdim"¹³.

Shoirning "Tabiat alifbosi", "Cho'pon bobo qo'shig'i", "Qanotli do'stlar", "Bog'larda bahor", "Odam-olam qo'shig'i", "Dono boboning – nevara chevaralari", "Ochil dasturxon" kabi to'plamlarining nomlanishidan ham ma'lumki, tabiat haqidagi she'rilarining mazmun-mundariyasi xiyala keng.

Bir guruh she'rilarida tabiat manzarasi yoki uning biror xarakterli belgi-xususiyati tasviri orqali o'quvchilarda go'zallik tuyg'ularini uyg'otish ko'zda tutiladi. Masalan:

Qo'llarida soz bilan,
Gul-g'uncha pardoz bilan,
Silkinib parvoz bilan,
Uchib turna, g'oz bilan
Sevikli bahor keldi.

«Bahor keldi»

Boshqa birlarida tohning gullashi-yu, meva tugmasligi, tok daraxtining barglari bir xil bo'lgani holda mevasining har xilligi, olcha rangining qizilligi sabablarini o'ylab ko'rish bilan bog'liq mantiqiy fikrlashga da'vat qilinadi.

Uchinchi bir xillarida ("Kapalak bilan asalari", "Kokoz bog'boni", "Nafsaoy va kishimshvoy", "Kamolvoy va shamolvoy") tabiatning gullab-yashnashiga aloqador kishilar mehnati misolida mehnatga muhabbat g'oyasiga urg'u beriladi.

¹³ Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – 46-bet.

“Quddus Muhammadiy uchun mavzuning chegarasi yo‘q, - deb yozgan edi S.Mamajonov, - bolalarning ruhiy kechimasidan tortib to hayvon-parrandalargacha hamma-hammasi to‘g‘risida yozadi... Vogeaviylik, syujetlik serbo‘yoqlik, hatto shamolning ham tovu-shini bera olishlik uning she‘rlariga kuch bag‘ishlaydi”.

“Quddus Muhammadiy ijodida,-deb yozadi M.Qo‘shjonov, - bolalar adabiyotida ko‘zga tashlanadigan ikkita xususiyatni ko‘ramiz. Ulardan biri predmetlarni jonlantirish va harakarda ko‘rsatish. Jonsiz narsalar harakat qiladi, ko‘radi, gaplashadi. Bola psixologiyasi shundaki, u ko‘zini ochib, yorug‘ dunyoga nazar tashlaganidan boshlab harakat qiladigan, ya‘ni jonli narsalarni ko‘radi. Boshqacharoq qilib aytganda jonli narsalar bolalarda yaxshiroq taassurot qoldiradi. Shu sababdan yosh bolalar ko‘p vaqtlargacha hamma narsalarni jonli harakarda tasavvur qilib yursa kerak. Quddus Muhammadiy bolalar psixologiyasidagi mana shu xislatdan foydalanadi. U tasvirlayotgan predmetlariga “jon” ato etadi. Shu yo‘l bilan hayotning jonli manzarasini yaratadi va bolalar psixologiyasiga o‘z ta‘sirini osongina o‘tkazadi. Quddus Muhammadiyning she‘rlarida “besh” ball sistemasi-dagi baholar poyga qiladilar, harflar o‘yin tushadilar, portfel nutq so‘zlaydi, galam arz qiladi, bahor bog‘bon bolaga “hormang”, deydi”¹⁴

Shoir kichikintoylarning tizginsiz savollari ularning odam va olam sirlarini bilishga bo‘lgan qiziqish va intilishlari natijasi ekanligini teran idrok etadi. Shuning uchun ham “Sandal va pechka”, “Kapalak va asalari”, “Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” nomli ilk she‘rlaridan boshlab talay asarlarini savol - javob asosida yaratadi. Hatto ayrim savollarni asar sarlavhasigacha chiqaradi.

“Detskaya literatura” jurnalida bir tarjimon shoirning “Tovuq nega qaqoqlaydi” degan she‘rini tarjima qilib, shunday so‘zlarni yozgan edi: “Muhammadiy erta bahor gullaydigan bodom haqida ham, tog‘ kakkigi haqida ham, hatto yomg‘ir chuvalchangi – “bu yer tagi traktori” haqida ham alohida muhabbat, ehitrom bilan yozadi. U tasvirlagan o‘simliklar, qushlar, ular orasidagi dialog va subhatlar, u

qayta ishlagan ertaklar faqat uning o‘ziga xos. U tasvirlagan tabiat hodisalari faqat o‘zbek yerida tug‘ilib o‘sgan, o‘zbek farzandi, oddiy farzand emas, balki talant egasi tomonidan yaratilgandir. Shu sababdan uning asarlari, shoirning o‘z so‘zlari bilan aytganda, butun bir dunyo o‘z yeri va o‘z osmoni bilan”¹⁵.

“Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” she‘riy ertagi xalq og‘zaki ijodi an‘analari uslubida yaratilgan bo‘lib, ayrim kishilar fe‘l-atvori-dagi ishyoqmaslik, yalqovlik, manmanlik illatlarini fosh etishga qaratilishi jihatidan Shukur Sa‘dullanning “Laqma it”, “Ayyor chumchuq” asarlari bilan bir gatorada turadi.

“Laqma it” ertagining qahramoni yoz bo‘yi ko‘cha changitib, shataloq otib yuradi. O‘yingaroqlik bilan qish g‘amini yemaydi. Uning qahraton qishda boshpana so‘rab sigir, mushuk, echkilarga qilgan murojaati naf bermaydi.

Oyog‘iga tikan kirgan ayyor chumchuq ham (“Ayyor chumchuq”) o‘z maqsadiga erishish uchun eshak, bo‘ri, mergan, sichqon, mushuk, kampr, shamol bilan subhatlashadi. Ular o‘rtasida chaqim-chilik qilib ish tutadi.

Qunduz Muhammadiy ertagining qahramoni o‘zboshimcha chumchuq tekinko‘rligi, manmanligi va o‘zboshimchaligi bilan ular-ga yaqin turadi.

Chumchuqlar erta bahorda in qurib birgalikda yashash to‘g‘risida murojaat qilishganida, u chor-atrofdagi tayyor uylar ko‘pligini, meh-nat qilishni istamasligini aytib, o‘z qavmlariga qo‘shilmaydi. O‘zboshimchalik bilan zag‘izg‘onning uyiga kirib ta‘zirini yeydi. Tayyor in – mo‘rkonga joylashganida pechkaga yoqilgan o‘tda pattari jizg‘anak bo‘lib, arang qochib qutuladi. Ta‘viya chumchuqni

Ko‘rganlar hech tanimas,
Hech bir qushga o‘xshamas.
Na ola-yu, na qora,
Na chipor-u qashqamas.
Tashqari g‘iz – g‘iz sovuq,
Chumchuqcha qip-yalang‘och.

¹⁴ Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979.

¹⁵ “Detskaya literatura”. – Moskva, 1967. - c. 37.

Egnida bir to'ni yo'q,
Kuygan a'zo-badani.

Shoir ijodida yengil yumor vositasida fosh qiluvchi hajviy ruh muhim tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. "Yaxshi – yomon deganlaridek, ba'zi bir o'quvchilarning badi'ligi va jahldorligi, g'ofilligi, o'z – o'zidan ogoh emasligi, o'z-o'zini qo'lga olmasligi va to'g'ri yo'lga solmasligi, o'qib uqmasligi, uqqani ham yuqmasligi, haddan osha tomoshaxo'rliqi, mehnatga berilmasiligi, mehnatkash bo'lmasiligi meni ancha o'ylantiradi, qalbimni ranjitiq, qiynaydi", deb yozadi shoir.

"O'z-o'zini tanqid", "Dum", "Ahmadjonga uyat", "O'tkirjon va vaqt", "Tugmach", "Do'nanshe'r nega ikkichi?", "Teshaning buzog'i nega suzag'on bo'ldi?" kabi mashhur she'rlar ana shunday ruhiy kechinmalar asosida yuzaga kelgan.

Shoir asarlarida olg'a suriladigan tarbiyaviy g'oya quruq tavsiflanmaydi, balki qalamga olingan narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, holatlar va kichikintoylar fe'l-atvoridagi yaxshi-yomon xislatlarga jo'shqin hissiy munosabatlarni ifodasidan tabiiy suratda kelib chiqadi.

"Quddus Muhammadning aytishiga ko'ra, bir kuni "Xolva" she'rini katta bir uchrashuvda o'qib beradi. She'r hammamaga ma'qul bo'ladi. Shunda tinglovchilardan biri: "Xayriyat, bizning kasbni ulug'lab she'r yozadigan yaxshi bir shoir bor ekan. Xolvapurushlik kasbi menga ota meros. Haqiqatan ham Siz she'rda xolvaniing xolva shakliga kelguncha bo'lgan nozik mehnat jarayonini to'g'ri tasvirlabsiz. Yoki o'zingiz ham xolva pishirganmisiz?" – degan ekan.

"Men, - deydi shoir, - yaxshi va hayotiy she'rning kuch-qudratiga, so'z quvvatiga yana bir ishonchim oshdi. Lekin, men ham ana shu "Xolva" she'rini yaratguncha xolvapurushdan kam mehnat sarflamagan edim"¹⁶.

Quddus Muhammadiy o'zini tabiatdan ayricha his etmaydi. Undagi maysa-giyohlaru dov-daraxtlardan tortib hayvonot olamigacha bo'lgan jamiki mavjudot o'ziga xos sir-asrorga ega – o'qilmagan kitob. Ko'p hollarda ularning mohiyatini ochishda shoir kichikintoylarning xayolida tug'ilishi ayon savollarga murojaat etadi:

Hammadan qiziq ukki,
Tumshug'i egri-dukki.
Nechun yurmas kunduzi,
Nega yonadi ko'zi?

"Ahmadjonning kitobxonligi"

Korney Chukovskiy o'zining "Ikkidan beshgacha" nomli asarida: "Bolalar uchun yoziladigan she'rlarda qofiyalar bir-biriga yaqin masofada joylashmog'i lozim" degan fikrni aytgan edi. Quddus Muhammadiy maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yozgan devartli barcha she'rlarida bu ibratli fikrga to'la amal qiladi.

"Quddus Muhammadiy – ulkan shoir, o'zbek bolalar she'riyatining sarboni, - deb yozadi S.Mixalkov. – U faqat bolalarni emas, yozuvchilarning ham hurmat va muhabbatini qozondi. Bunday hurmat – e'zozga osonlikcha erishib bo'lmaydi. U juda obrazli, shirali, esda qoladigan tarzda yozadi. Shuning uchun she'rlari yosh kitobxonlarga ham, katta kitobxonlarga ham manzur bo'lishi butunlay tabiiydir"¹⁷.

"Shoirning "Jalilvoyning mashinasi" nomli she'ri ham qiziq voqea asosida yuzaga kelgan: "Qo'shimizning uch yashar o'g'li Jalilvoy, - deb zavqlanib hikoya qiladi shoir, – amaki, dadam "Jiguli" mashina olib keldilar, yuring, birga kataysa qilib kelasiz", deb taklif qildi. Men bolani sinamoqchi bo'lib: "Jalilvoy, bu "Jiguli" mashinangiz katta daryoga duch kelib qolsa, suzib o'ta oladimi yoki tog'dan uchib o'ta oladimi? – deb so'radim.

-Yo'q, - dedi bola hayron bo'lib.

- Unda kataysa qilishga bormayman.

- Mana men yaqinda suvdan suzib, tog'dan oshib o'tadigan mashina sotib olaman, - dedim". Jalilvoy shoiridan o'sha mashinani qachon olib kelasiz, deb qistayveradi. Shunda shoir: "Men sizga she'r mashinasini olib kelmoqchi edim, - deb mazkur she'rini o'qib beradi. Bu orgali shoir kichikintoylar ongiga ilmiy-texnikaviy fantaziya

¹⁶ Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti, – 1979. 51- bet.

¹⁷ Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – 53-bet.

urug'ini sochadi, she'rini o'qigan har bir bola xayolan o'zining shunday mashinasini yaratadi"¹⁸.

Quddus Muhammadiy – tabiatan bolalar shoiri. Uning ijodida bolalarcha soddadillik, qiziquvchanlikning keksalik donishmandligi bilan uyg'unlashib ketganini ko'rish mumkin. Shoir bolalar she'riyati bobida ustozlik maqomiga erishgungacha uzog va mashaqqatli ijodiy yo'lni bosib o'tdi.

Urush yillari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi mushoirada "Sa' va sayrarkan" nomli she'rini o'qib Hamid Olimjon, Oybeklarning nazoriga tushgan shoir ularning tavsiyasi bilan Narpay tumniga boradi va bir necha yil davomida Islom shoiriga adabiy kotiblik qiladi. Natijada shundan keyingi ijodida folklor asarlariga xos jo'shqinlik, mubolag'a va mushohadakorlikka alohida e'tibor qaratiladi.

"Kichkintoylar uchun yozilgan har bir she'r, - degan edi K. Chukovskiy, - hatto bir satr ham rassom uchun material bermasa, u o'z-o'zidan yarog'sizdir". Qunduz Muhammadiy she'riyati bu fikrni to'la tasdiqlaydi. Uning she'rlarida siniq pero dikillab, cho'tloq ketmon oqsoqlanadi, darz ketgan tog'ora to'lg'anib, eski qulflar yo'rg'alaydi ("Temirlar o'yini"). Bu esa kichkintoylarning jonli-jonsiz jamiki mavjudotni harakatda deb bilishi bilan bog'liq tasavvur-tushunchalariga juda mos keladi.

Quddus Muhammadiy she'rlarida hayotga bolalar nigohi bilan yondashadi, ularning tasavvuri bilan kuzatadi. Qizig'i shundaki, shoirning o'zi shunga ishonadi, shundan cheksiz zavqlanadi, kitobxonga ibrat bo'larlik tarbiyaviy xulosa chiqaradi. "Chumoli" she'ri buning yorqin dalilidir. Bola bilan chumoli suhbatii asosiga qurilgan mazkur she'rda asosiy gap chumolining tashqi ko'rinishi (boshi va dumining kattaligi, belining ingichkaligi) ustida ketayotgan-dek bo'lib tuyulsa-da, ziyrak kitobxon chumolining vatan obodligi, el-yurt xizmatiga kamarbasaligi to'g'risidagi javoblaridan vatanga muhabbat to'g'risida tegishli xulosa chiqarishi shubhasizdir.

Qunduz Muhammadiy bolalar adabiyotiga baho berganida uni "ona suidek pokiza" deb ta'riflagan edi. Bu ta'rif uning o'z asarlariga ham tegishli bo'lib, hayotiy va ijodiy pozitsiyasini anglatadi.

"O'quvchiga esdalik" she'rining dastlabki o'quvchilari bugungi kunda bobo va buvilar sifatida mazkur she'r misralarini chevara-evaarlari bilan qo'shib yod ayitishlari shoir she'riyatining umrboqiyligidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Quddus Muhammadiy ijodining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
2. Shoir she'riyatiga folklor an'analari ta'sirini "Chumoli" she'ri misolida tahlil qiling.
3. Shoir she'rlarining yetakchi mavzularini izohlang.
4. Shoir she'rlarining ko'pchiligi savol-javob asosiga qurilishini qanday izohlash mumkin?
5. Quddus Muhammadiy qanday she'riy san'atlardan foydalan-gan? Misollar keltiring.

Hakim Nazir ijodida tarbiya motivlari (1915 - 2008)

Reja:

1. Hakim Nazir – hikoyanavis.
2. Yozuvchi ijodida hayot materiali va badiiy g'oya talqinlari.
3. "Yonar daryo" va "Kenjatoy" qissalarida ma'naviy-axloqiy muammolar ifodasi.
4. Yozuvchi ijodida psixologizm.

Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, har bir yozuvchi ijod olamiga o'ziga xos yo'l bilan kirib kelganini va bu yo'l umrining poyoniga qadar butun ijodida yetakchi omil vazifasini o'taganini kuzatish mumkin. Jumladan, Quddus Muhammadiy, Sulton Jo'ra ijodiy faoliyatida o'quvchilik bilan bog'liq izlanishlari muhim o'rin tut-

¹⁸ Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – 53- bet.

gan bo'lsa, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Hakim Nazirlarning ijodiy kamolotini vaqti matbuot sahifasidagi qizg'in ijodiy faoliyattan izlash o'rini bo'ladi.

Shunisi ham borki, ijodkor intellectual salohiyatini umr yo'lidagi yolg'iz bir soha bilangina chegaralab bo'lmaydi. Binobarin, A.S.Pushkin va S. Ahmadning mo'yalam ustasi sifatidagi ishlari ijodiy xayoloti ufqining ko'z ilg'amas benihoya kengligidan dalolat beradi. Xuddi shu holat bo'lg'usi yozuvchi Hakim Nazirning hali o'smirlik chog'laridanox maxsido'zlik, ota kasbini e'zozlab yetuk usta darajasiga ko'tarilishi — o'ziga daxldor har qanday ishga o'ta sinchkovlik bilan yondashishi badiiy ijodiyotida ham asqotgani tabiiydir. Shu bilan birga, yosh yozuvchining "Lenin uchquni" ("Tong yulduzi"), "Yosh Leninchi" ("Turkiston") gazetalarini redaksiyalaridagi adabiy faoliyati, o'sha yerdagi adabiy muhi uning badiiy ijodga bo'lgan qiziqishiga turki bergani, shakllantirganini ham e'tibordan chekda qoldirib bo'lmaydi.

Bolalarga bag'ishlab asar yozish uchun bola bo'lib qayta tug'ilmoq zaruratini qalbdan his etgan adib "Yaxshi ism", "Bulbul", "Bir tup g'o'za", "Ikki baho" kabi o'sha davr kichikintoylar hayotidan olib yozilgan dastlabki hikoyalari dayoq kichik qahramonlarning gap-so'zlari, xatti-harakatlari, o'zlarini tutishi — bus-butun ruhiyatini ular bilan eng yaqin o'troq singari qalamga olish bilan muayyan bir tarbiyaviy g'oyani ilgari suradi.

Ma'lumki, ayrim bolalar o'rtasida sho'xligi tufayli o'ylab-o'yalamay qushlarga tosh otish, devorlarga chizish, gullarni payhon qilish, daraxt shoxlarini sindirish, oddiygina odo-baxloq qoidalariga bo'y-sunmaslik kabi nojoizliklar uchrab turadi. Bunday holatlarda jazolash, quruq tanbeh berish emas, balki bunday bezorilikning yomon oqibatlariga olib keilishi mumkinligini asosli tarzda tushuntirish orqaligina ularning kuch-g'ayratini foydali ishlarga yo'naltirish, nojo'ya sho'xliklarining oldini olish mumkin.

"Bulbul" hikoyasi qahramoni Qobiljon ana shunday sho'x bolalardan. Asarda kundalik hayotda uchraydigan oddiygina vogelik qalamga olingan. Bulbulning qo'shni hovliga kelib sayrashi bolakayning kayfiyatini buzadi. Sayroqi, beozor qushni yo'q qilgisi keladi.

-Dada, dada! - dedi ko'zini katta ochib, - nega bizning bog'ga bulbul kelmaydi-ya?

-Qo'rqadi, - dedi dadasi.

-Nimadan qo'rqadi? - dedi u ajablanib.

-Sendan! - dedi dadasi.

-Iya, nega endi mendan qo'rqadi?

-Axir kesak otsang, mayib bo'ladi-da. Bu ishing yaramaydi deb

aytib edim-ku!

Qobiljon indamay o'ylanib qoldi: endi nima bo'ladi? Rostdan ham bulbuljon uning bog'iga hech kelmasmikin-a?

-Kesak otmasam keladimi, dada? - dedi oxiri Qobiljon.

-Albatta, keladi, - deb ishonirdi dadasi.

-Bo'pti! - dedi Qobiljon va shu paytdan boshlab qushlarga kesak

otmaydigan bo'ldi".

Ko'rinadiki, adib ota-bola subhati vositasida kichikintoy Qobiljan

qalbiga ona tabiatga nisbatan iliq munosabat urg'uni sepadi va bu

urug' kitobxon ruhiyatida aks-sado berishiga shak-shubha yo'q.

Hakim Nazir keyinchalik ham bolalar yozuvchisi sifatida asarlarida qalamga olgan vogelik tasvirida qahramonlar ruhiyatida kechadigan evrilishlarga alohida urg'u berish orgali kitobxon hissiyotiga turki berish, ta'sir ko'rsatish yo'lidan boradi. Jumladan, gazeta tahriratidagi muxbirlik faoliyati davomidagi kuzatishlari asosida yozgan "Yonar darvo" qissasida Sulton amakining Damirlar oilasiga ota sifatida kirib kelishini kichik qahramon tasviri orgali tahlilga tortadi: "Eh, Sulton amaki, Sulton amaki! O'yiladi ichida Damir. Sizing uydan keib qolganingiz, oyinning hadeb xafa bo'lavergani kelishga majbur qildi meni. Bo'lmasa, u yocda oy'imni xavotir oldirib, sizning oldingizda o'zinni qiynab yurarmidim?"

Damirning o'gay otasiga munosabatidagi ichki tug'yonlari farzandlar ko'nglida o'gay ota-onalarga nisbatan tug'iladigan ishtibohlarning aks-sadosi sifatida kitobxonni o'yilashga undaydi.

Qahramonlarning xatti-harakatlari, o'zaro munosabatlarini ularning ruhiyatidagi o'zgarishlar bilan bog'lab asoslash yozuvchining barcha asarlariga xos yetakchi xususiyat deb baholash mumkin. Kichik-kichik hikoyalardan tortib "Kenjaytoy", "Oq fotiha", "Lochin

qanotlari”, “Ohanarbo” kabi roman va qissalari buning yorqin dalilidir.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir o‘zining ijodiy kredosini haqida ushbu satrlar muallifi bilan “Lenin uchquni” (“Tong yulduzi”) gazetasining 1982-yil 15-aprel sonida berilgan “Ijod sehiri” mavzusidagi suhbatda quyidagilarni ayrtgan edi:

Ijod sehiri

Hali-hali esimda. Uzun qish kechalari onam va buvimlardan eshitgan ertak, cho‘pchaklar murg‘ak qalbimni batamom sechlab olardi. Bir necha kunlab ularning ta’siridan qutulolmas, xalq baxt-saodati uchun kurashgan qahramonlarning jasurligidan hayratlanar, yalmog‘izlarning makkorligi, devlarning qonxo‘rligidan g‘azabim toshardi. Maktabda xat-savodim chiqqandan keyin kitob o‘qishga mukkamdan kerdim. Qo‘limga tushgan har bir kitobni qimmatli sovg‘adan ham a’lo bilardim. Shunday qilib, o‘qigan hikoyalar, dostonlar asta-sekin o‘zimdagi yozishga havas uyg‘otdi.

Dashtab xabar va maqolalarim, keyin ocherk va hikoyalari gazetalarda bosiladigan bo‘ldi. lekin ular hali boshlang‘ich mashqlar edi. Haqiqiy ma’nodagi hikoyalar yozish uchun esa, adabiy bilim va tajribam yetishmasdi. O‘rtoqlarimning maslahati bilan pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga kirib o‘qidim, katta ustozlardan ta’lim oldim, o‘z ustimda qunt bilan ishladim. Shundan so‘nggina yozgan hikoya, ocherklarim o‘zimga ham, boshqalarga ham ma’qul tusha boshladi.

Muxbirlik qilib yurgan paytlarim hayotni chuqurroq o‘rganish, mehnat kishilari turmushi bilan yaqindan tanishish maqsadida respublikamiz shahar va qishloqlarini kezib, turli kasb egalari va har xil bolalar bilan uchrashdim, do‘stlashdim. Ular haqida dashtab ocherklar yozdim. Ocherklar asta-sekin qissalarga aylandi... Bundan tashqari qadim Buxoroning Qizilqum sahrasida tabiiy gaz konlari ochilishi, respublikamiz hayotida katta voqeya bo‘lgan edi. Gazchilarning mehnat jasoratlari bilan tanishishga qiziqib, Qizilqum sahrasiga safar qildim. “Zangori olov” koni – Gazlida bo‘ldim, so‘ng kat-takon gaz quvurlari yotqizilayotgan trassalarni kezdim. Ko‘z ochir-maydigan qum bo‘ronlarida qiyinchiliklarni yengib, qahramonlarcha

mehnat qilayotgan qo‘rqmas, jasur yoshlar bilan tanishdim. U yerda olingan taassurotlarimni “Gazqaynar dostoni” va “O‘tar tutashganda” degan ocherklarimda umumlashtirib tasvirladim. O‘sha kezlari maktab bolalari bilan bo‘lgan uchrashuvlarda gaz konlarida ko‘rganlarni hikoya qilib bergandim.

Bolalarda unga qiziqish tug‘ildi va: “Bizga ham o‘sha voqealar haqida asar yozib bersangiz deysishdi. Ana shu yosh kitobxonlar ista-gil toqki bo‘lib, “Yonar daryo” qissasi yuzaga keldi. Qissada o‘sha qorliqlarda yozda dadasi, akasini ko‘rgani borgan bolalarning sarqozanhtlaridan foydalandim.

Hadliy ijod – qiyin soha. Unga to‘la mas’uliyat va qunt bilan kirishish kerak. Havaskor yozuvchi do‘stlarining eng birinchi maslahatim – tinmay o‘qish, hayotni o‘rganish, izlanish lozim. Ulug‘lardan biri: “talantning to‘qson to‘qqiz foizi mehnat”, deb bekorga aytmagan.

Ijodiy ishda muvaffaqiyatsizliklar ham uchrab turadi. Shunda hecham umidsizlikka tushmay, muvaffaqiyatsizlikka uchrash sabab-hohti o‘rganish, maqsadga yetish yo‘lida astoydil intilish zarur. Hamma ishda bo‘lganday, ijodda ham sabr-chidam, iroda – muvaffaqiyatlar garovidir.

Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchining hayotga munosabati bilan ijodiy pozitsiyasida qanday muhtaraklik bor?
2. “Kenjaroy” qissasidagi yetakchi qahramonlar xarakteri ta’komiolda psixologizm qanday o‘rin tutadi?
3. “Yonar daryo” qissasiga asos bo‘lgan hayot materiali bilan qissa aygirdagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni aniqlang.
4. “I ochin qanotlari” romanida o‘zbek bolalar adabiyotida romanchilikning ilk namunasi sifatida qanday yutq va kamchiliklar o‘z aksini topgan?

**Sunnatilla Anorboyev ijodida ezgulik va yovuzlik
o'rtasidagi kurash tasviri
(1922-2003)**

Reja:

1. Sunnatilla Anorboyev ijodida tabiatni asrash g'oyasining ifodalaniishi.
2. "To'rtko'zning boshidan kechirilganlari", "Musicha bilan qaldirg'och" qissasi – animalistika janri namunalari sifatida.
3. "Suzib borar arxarlar" qissasida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash talqini.

Adabiyot tarixida shunday yozuvchilar borki, o'z ijodini bolalarga bag'ishlagan asarlar bilan boshlaydi-yu, keyin kattalar adabiyotiga o'tib ketgan bo'ladi. Yoki aksincha, kattalar adabiyotida qalamini charxlab, so'ngra beg'ubor bolalik dunyosiga qaytadi.

Sunnatilla Anorboyev yozuvchi sifatida bu yo'llardan bormaydi. U adabiyotni yaxlit badiiy hodisa tarzida tushundi va ijodida ham shunga to'la amal qildi. Kattalar hayotidan olingan "Oq soy", "Sayli" romanlari bilan birga bolalarga bag'ishlangan "To'rtko'zning boshidan kechirilganlari" qissasi ketma-ket dunyo yuzini ko'rdi.

1922-yilning 9-sentabrida ko'hna Turkistonning Qarنوq qishlog'ida tavallud topgan bo'lajak adib ikkinchi jahon urishidan qaytgach, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika instituti (hozirgi Pedagogika Universiteti)da tahsil ko'radi. So'ngra tahririyatlarda faoliyat ko'rsatadi.

Uning ijodida chorvador va ovchilar hayotiga bag'ishlangan asarlar yetakchi o'rin tutadi. O'z mavzuyiga sodiq yozuvchi har asarda o'z-o'zini takrorlamagan holda yangi obrazlar yaratadi, tabiatni asrash bilan bog'liq dolzarb masalalarni ko'tarib chiqadi. "Oqsoy", "To'rtko'zning boshidan kechirilganlari", "Sulaymon ovchi va uning iti haqida", "Musicha bilan qaldirg'och qissasi", boringki, so'nggi asari – "Suzib borar arxarlar" da ham cho'pon-cho'liqlar va ovchilar hayoti qalamga olingan. Mazkur asarlar o'zbek bolalar adabiyotida

animalistika janriga mansub asarlarning ilk namunalari sifatida e'tiborga loyiqdir.

Yozuvchining "To'rtko'zning boshidan kechirilganlari" nomli qissasi bir necha bor e'lon qilindi. Boshqa tillarga ham o'girildi. Qissa yutug'i adibning ijod mashagqatlaridan cho'chimay, insonlarga xos fazilat va illatlarni jonzo'tlarning hayot tarsi va fe'l-atvori bilan uyg'un tasvirlashga doir izlanishlari bilan bog'liq.

Sunnatilla Anorboyev mazkur asarida To'rtko'zning sarguzashtlari orgali o'quvchini bir tomondan, hayvonot olami bilan tanishtirsa, ikkinchi tomondan, to'g'rilik, martlik va sofdillik singari yuksak insoniy fazilatlarini targ'ib etadi.

Yozuvchining hikoyalash uslubiga ko'ra kichik yoshdagi kitobxonlarga mo'ljallangan "To'rtko'zning boshidan kechirilganlari" qissasidagi To'rtko'z, Olapar va Ko'ppaklar ayni inson tiliga tushunadi. Asar bosh qahramoni To'rtko'z vafodorlik timsoili. U asarda yaxshilik bilan yomonlikning farqiga bormaydigan jirtaki ko'ppakka qarshi qo'yiladi. Ko'ppak ochko'zligi, mo'loni va yalqoqligi tufayli o'quvchida shunday illatlarga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otsa, To'rtko'z insonga sodiq va vafodorligi bilan e'tiborni tortadi. Uning suruvni bo'rilaridan qo'riqlashda onasi Olapariga astoydil yordam berishi, boshqalarga nisbatan halol va pokligi kishida yorqin taassurot qoldiradi.

To'rtko'zga xos fazilatlaridan yana biri maqtanishni bilmasligidir. Qoravoyning o'rtog'lari uni eng zo'r bo'ribosar it deb olqishlaganlarida To'rtko'z buni o'zining burchi sifatida e'tirof qiladi. Kamtarlikni targ'ib qilishda bu juda muhimdir.

Qissada el-yurt ishiga fidoyilik, sodiqlik, umumanmanfaati yo'lida kurshish kabi yuksak hayotiy g'oyani bolalar tushunchasi darajasida ifodalashda To'rtko'z, Olapar obrazlari muvaffaqiyati qo'llangan.

Adibning "Suzib borar arxarlar" nomli so'nggi qissasida esa professor Aziz Nuriyevich va Qo'chqor bilan To'rabek va Rabbimovlar o'rtasidagi ziddiyat tasviri orgali tabiatni asrash g'oyasi ilgari suriladi.

Tabiatni asrash hamisha insoniyat oldidagi asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Ushbu muammoni bolalarning bilim saviyasi va

hayotiy tajribasiga mos tarzda qo'yish yozuvchidan badiiy mahorat bilan birga, kichikintoylar psixologiyasini ham puxta bilishni taqozo etadi. Qissani o'qib, yozuvchining ana shu mas'uliyatni chuqur his qilgan holda qalam tebratganini sezish qiyin emas.

Asarning syujeti bolalarbop tarzda sodda. Yaqindagina veterinariya vrachi sifatida ish boshlagan To'rabek uylariga mehmonga kelayotgan ustozni sharafiga tog'dan arxar olib keladi. Professor o'lgan arxarning uru'ini olib bir necha qo'yni sun'iy qochiradi. Shu tarzda boshlangan qimmatli tajribaga Qo'chqor ham aralashadi. Tug'ilgan duragaylar o'sa boshlaydi. Nihoyat toqqa qochadilar. Qo'chqor ularni qo'lga qurol tutgan, To'rabek bilan Rabbimovga o'xshash tabiat kushandalariga qarshi kurashuvda, yana ham aniqrog'i Qo'chqor qalbida tabiatga muhabbat, uni asrash uchun kurash tuyg'ularining uyg'onishidir.

Qo'chqor cho'ponlar oilasida tug'ilgan. Shuning uchun qo'y-qo'zilarga mehri bo'lakcha. Lekin u bola emasmi, jamiki hayvonot olami va dov-daraxtlar, tog'lar tabiat ehsoni ekanligi, uni asrash uchun kurashish lozimligini dastlab tushunib yetmaydi. Arxar otgani uchun amakisiga professor Aziz Nuriyevichning tanbeh berishi bu borada Qo'chqorga saboq bo'ladi. "Ilgari mana bu tog'da, - deydi professor, - arxaru tog' taka poda-poda bo'lib yoyilib yurgan... Qani endi o'sha podalar? Qirib tashlandi! Qo'lga qurol tutgan, so'gmoqlarga qopqon qo'ygani aqlli yirtqichlar qirishdi bu jonivorlarni. Kerakmi, kerak emasmi o'ylamay netmay manmanlikka boribog o'ldiraverishdi. Odamzod bu bilan o'zining ertangi nasibasiga bolla urdi. Siz tuyogga tuyoq qo'shish o'rniga, zootexnika ilmini suv qilib ichib yuborgan qizil diplomli mutaxassis - u To'rabekka kinoyali tikildi, - bu tog'dagi balki oxirgi arxarning boshiga yetkandirsiz?"

Yozuvchi professorming bu gaplari orgali asar g'oyasini ham ifoda etadi. Psixologlar bolalardagi hayotga kattalar ko'zi bilan qarash, hatto kattalarning o'zlari bilan tengqurlardek jiddiy muomala qilishariga istak mayilni shu yoshga xos xarakter alomatlaridan biri sifatida uqitiradi. Yozuvchi Qo'chqor obrazini yaratishda bolalarning bu "xislat"idan juda o'rinni foydalangan. Jumladan, amakisining "genetikani tushunmaysan", deganda Qo'chqorning astoydil xafa

bo'lishi bizda unga nisbatan ishonch uyg'otadi. Yozuvchi shu o'rin-da genetikaning lug'aviy ma'nosini professor tilidan berish bilan bir-daniga ikkita quyovni nishonga oladi. Bir tomondan, Qo'chqorning savoliga javob beradi. Shu bilan syujet voqealari ichiga chuqurroq olib kiradi. Ikkinchi tomondan, kichik kitobxonni o'tkazilgan murak-kab tajriba bilan tanishtiradi.

Ayrim hollarda shunday bo'ladiki, bolalarga bag'ishlangan asarlarning gahramonlari hali yosh bo'lishiga qaramay, kattalardek fikrlaydilar. Natijada kitobxonga xarakter sifatida yaxlit taassurot qoldirmaydilar. "Suzib borar arxarlar" bunday illardan xoli. Buning sababi adibning tasvirda bolalarning yosh xususiyatlarini nazardan qochirmaganligidir. Binobarin, Qo'chqorning har bir gap-so'zida, boshqalarga bo'lgan munosabatida bolalarcha samimiyat aks etib turadi. Kitobxon asar voqealariga Qo'chqor nigohi orgali nazar tashlaydi, lekin uning yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi elementar tushunchasi, sodda tasavvuri bilan cheklanib qolmaydi.

Bolalar dunyosi bir qarashda oddiy tuyulsa-da, g'oyat rang-barang va murakkab. Hayotni ular nigohi bilan kuzatish, his etish va tasvirlash uchun yozuvchining badiiy mahorati, chuqur hayotiy tajribasi va yurak qo'ridan tashqari, bola darajasida turib ijod qilishi ham talab etiladi.

Bizningcha, Sunnatlla Anorboyev hayot va tabiat haqidagi mazkur qissalari bilanina emas, boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rin olgan "Bahs", "Qo'rqoq" kabi ko'plab hikoyalari bilan ham kichikintoylar qalbiga to'g'ri yo'l topgan shunday yozuvchilardan hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. S. Anorboyev ijodining yetakchi mavzusini aniqlang. O'z fikringizni adib asarlaridan misollar keltirib dalillang.
2. Bolalar adabiyotida adretilik deganda nimani tushunasiz? S. Anorboyev ijodidan misollar keltiring.
3. S. Anorboyevning animallistika janriga xos asarlarini aniqlang.
4. Bolalar adabiyotida ona tabiatga munosabat masalasi katta o'rin tutishining sababi nimada deb o'ylaysiz? O'z fikringizni "Suzib borar arxarlar" qissasi misolida izohlang.

**Nosir Fozilov – badiiy sujet ustasi
(1929-2018)**

Reja:

1. Nosir Fozilov – yozuvchi, tarjimon, noshir.
2. Nosir Fozilov – essenavis adib.
3. Nosir Fozilov – xalqlar do‘stligining tolmash kuychisi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, har bir ijodkorning badiiyat olamiga o‘ziga xos yo‘l bilan kirib kelganini kuzatish mumkin. Birovning o‘z boshidan o‘tkazgan ajabto‘vur sarguzashtlarini hikoya qilish qiziqitrsa, boshqa birov bezovta qalb tug‘yonlarini o‘zgalat bilan baham ko‘rish ilinjida qo‘lga qalam oladi. Yana bir xillariga ma‘naviy-axloqiy masalalar tinchlik bermaydi. Shu ma‘noda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori, bolalarning sevimini yozuvchisi, mohir tarjimon Nosir Fozilovning adabiyotga kirib kelishini badiiy so‘zning sehiri bilan, yana ham aniqroq qilib aytganda, bolalik tasavvurining hayot jumboqlariga mos kelmasligi tufayli tug‘ilgan hayrat tuyg‘usi bilan bog‘lash o‘rinli bo‘ladi.

“Tamshuv” voqeiy hikoyasidan ma‘lum bo‘lishicha, bo‘lajak yozuvchini “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshanxon”, “Avazxon” dostonlari bolaligidayovq rom etgan. Ularni qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi gap-gashtaklarda zavq-shavqqa to‘lib qiroat bilan qayta-qayta o‘qigan. Abdulla Qahhorning “Qanotsiz chittrak” asarini o‘qib berishi tufayli kutubxonachi Abdurasul tomonidan malomatga qolishi N.Fozilovning bolalik tasavvurini osin-ustun qilib, adabiyotning ta‘sir kuchigudratidan ilk bor hayratlarga ko‘milgan va qo‘lga qalam ushlagan bo‘lsa ne ajab.

Hayotga tiytrak ko‘z bilan qarash, o‘z e‘tiqodida sobitqadamlik ota-onasidan meros adib ularning nomini alohida g‘urur va ehtiram bilan qalamga oladi. “Turkistonning Koriz qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tug‘ildim, - deb yozadi u. – Otamning Fozil, onamning Jahonbibidek ismi-jismiga monand xulq-atvorlari, mehnatsevarligi bor edi. Esimni tanibmanki, ular katta oilamizning tashvishlari, orzu-umidlari bilan yashashni baxt deb, ulardagi zahmatkashlik, tirish-

qoqlik, bir ishga ishtiyovq bilan kirishishi menga ham, ijodimga ham o‘tgan bo‘lsa, azizlarim – ota-onam oldida yuzimning yorug‘ bo‘lgani shu. Bu hayotimda chuqur iz qoldirgan yana bir inson – bobom – otamning otasi. U kishini Yo‘ldosh oqsoqol deysishardi. Oq-gorani tanigan, yozuv-chizuvdan xabari bor, salobatli, ovozlari o‘klam, qadamlari shahdam edi. Biron-bir joyda janjal bo‘lib qolsa, bobomning qadamlari yetishi bilan tinchir, hech bir to‘y- maraka bobomsiz o‘tmasdi.

Hayot maktabini o‘tamagan, qaynoq turmush qozonida qaynamagan odam ijodkor bo‘la olmaydi. Nosir Fozilov taqdirning bu inoyatidan bebahra qolmagan. Uning yoshlik yillari xalqimiz tarixidagi eng keskin va murakkab sinovlar davriga to‘g‘ri keladi. Bo‘lajak adib 1929-yilning 1-iyunida Chimkentning Turkiston tumnidagi Koriz qishlog‘ida tavallud topadi.

Katta hayot bo‘sa g‘asida turgan o‘smirlarning o‘zligini anglash yo‘lidagi kurashlari tasviriga bag‘ishlangan qissa va hikoyalari, mashhur yozuvchilar ijodiy laboratoriyasi hamda fe‘l-atvoriga oid esselari, voqeiy hikoyalari, qozovq va qoraqalpovq yozuvchilari asarlaridan qilgan tarjimalari bilan adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan Nosir Fozilov sernashaqqat hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tadi.

“Go‘dakligim, - deb yozadi adib turmush mashaqqatlari xususida, - o‘ttizinchi yillarning kollektivlashtirish davrida, o‘ttiz uchinchi yillarning ocharchilik davrlarida, bolaligim esa o‘ttiz yettinchi yillarning alg‘ov-dalg‘ov davrida, qirqinchi, qirq beshinchi yillarda kechdi. Biz urush davri farzandlari bolalikning barcha imtiyozlaridan foydalanmay o‘sdik; o‘qishlarimiz ham o‘lida-jo‘lida, uzuvq-yuluq bo‘ldi. Men bu gaplarni nolib aytayotganim yo‘q. Bolaligimiz turmush riyoziyotlari bilan omuxta kechdi. Bu esa murg‘ak qalbinizda abadiy muhrlanib qoldi. Ozmi-ko‘pmi hayotning qadriga yetadigan, uni e‘zozlaydigan odamlar bo‘lib ulg‘ayganimiz uchun o‘sha davr mashaqqatlari saboqlaridan minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashamoqdamiz”.

30-yillardagi ocharchilik va to‘lato‘plar, keyinchalik to‘rt yilga cho‘zilgan urush dahshati ularning oilasini ham chetlab o‘tmadi. Quvnoq bolalik sho‘xliklaridan vaqtidan ilgari mosuvo bo‘lgan bo‘lajak

ijodkor hali o'spirinligidayoq turmush mashhaqqatlarini kattalar bilan birga ta'tib ko'rishga, hayotning past-balandlari ustida jiddiy bosh qotirishga majbur edi. Shunday bir vaziyatda u butun kuchi va diqqat-e'tiborini o'qishga qaratadi. Amakisi Pochchaxon Qudratovdan boshlang'ich ta'limni olgan Nosirjonni bobosi Yo'ldosh oqsogol Turkistonda yangi ochilgan maktabga joylab qo'yadi.

"Biz o'qiyimiz deb qishloqdan chiqqan besh-olti nafar boladan axiri bir o'zini qoldim, - deb eslaydi adib. U paytlarda yotoqxona yo'q. Yayov qatnaymiz. Qishning sovug'i, yozning issig'i, shamol, yomg'irlar bilan olishib bo'lsa ham ortga qaytmadim. Shu yerda maktabni tugalladim. Adabiyotga, ijodga bo'lgan ixlos, shu yerda kuchi muhabbatga aylandi. Robiya opa Ibrohimova degan adabiyot o'qituvchimizni ehtiram bilan eslayman. Devoriy gazetamiz – "Yosh kuch" da o'ta faol edim. Boisi behuda emas ekan".

Fashizm urush boshlaganida Nosir Fozilov o'n ikki yoshda bo'lgan. Front orqasidagi xalq ahvoli, fidokorona mehnati, jasoratini o'z ko'zi bilan ko'rgan, jangchilarning mardona kurashini yurakkdan his etgan. O'rta maktabni bitirib kelgan Nosir Fozilov urushdan keyin to 1949-yilgacha tug'ilib o'sgan qishlog'ida goh suvchilik, goh tabelchilik, goh o'qituvchilik qiladi. Mana shu yoshlik taassurotlari uning galbiga mangu muhriyanadi.

Adabiyotga bo'lgan qiziqish, badiiy ijodga kuchi ishtiyogmandlik bo'lajak yozuvchini O'rta Osiyo davlat universiteti (O'zbekiston Milliy universiteti) ga yetaklaydi. Poytaxtdagi adabiy muhit uning ijodiga kuchli turki beradi. She'riy mashqlari, ilk hikoyalari shu yerda dunyo yuzini ko'radi. Sobit Mugonovning "Hayot maktabi" romani tarjimasiga talabaligida qo'l urushi Nosir Fozilov taqdirini bir umrga sernashaqqat ijodiy ishga muhrlab qo'ydi.

Yosh adibning ilk hikoyasi "Rostgo'ylik", ilk kitobi "Irmog" deb nomlanishida juda katta ramziy ma'no bor. Ko'rgan-bilganlarini rostgo'ylik bilan yozib adabiyot atalmish katta ummonga irmog sifatida qo'shiishini orzu qilgan ijodkor beg'ubor bolalik sog'inchi bilan yashab o'tdi.

"Birinchil hikoyamdan to hozirgi kungacha yozgan asarlarimning bosh qahramoni, - deb yozadi Nosir Fozilov, - o'zim, bolaligim, qish-

log'im. "Irmog" muqovasiga chizilgan sarigqina bola – men, ulog-chalar – mening suruvlarim, qishloq, tepaliklar, daraxtlar – tug'ilgan qishlog'im. Men tabiatni shu yerda tanidim, sevib qoldim, hali hanuz sog'inchi bilan yashayman".

Nosir Fozilov o'z asarlarida qalamga olgan voqeilikka kichkin-toylar nigohi orqali nazar tashlaydi. Shunga mos tarzda kitoblari ham "Bolaligim-poshholigim", "Diydor", "Kichkina demang bizni...", "Qahr va mehr" kabi sarlavhalar bilan nomlash orqali kitobxon e'tiborini o'zini bezovta qilgan asosiy muammoga qaratadi.

Yozuvchi ijodini quydagicha uchta yo'nalish bo'yicha baholash mumkin. Birinchisi – bevosita bolalarga atalgan asarlari, ikkinchisi – voqeiy hikoyalari (esselari), uchinchisi – tarjima asarlari. Har uchala yo'nalishdagi asarlar bir birini to'ldiradi, yozuvchi ijodi xususida yaxlit tasavvur beradi.

Ilk hikoyalardan "Insho" ning o'sha davridayoq turkman tiliga tarjima qilinishi yosh ijodkorni yangi marralar sari ruhlantiradi. "Insho" hikoyasining turkman tiliga tarjima qilinishi, kitob bo'lib chiqishi, -deb yozadi Nosir Fozilov, - men uchun kutilmagan quvonch bo'ldi. Eng muhimi o'sha damdan boshlab, tarjimaning qudratini ko'rdim. U xalqlarni birlashtiradi, bir-biri bilan so'zlatadi, bir-birini boyitadi. Talabalik davridayoq shunday mehr bilan tarjimaga qo'l urdim. Ilk tarjimam qozoq yozuvchisi Sobit Mugonovning "Hayot maktabi" edi. Qozoqlar bilan birga yashab, ularning tili, urf-odatini, hayot tarzini bilganim qo'l keldi.

G'afur G'ulom va Oybek kabi so'z ustalarining roman tarjimasiga yuksak baho berishi boshlovchi yozuvchiga so'ymas kuch va ilhom bag'ishlaydi. Natijada Abay, Sobit Mugonov, Muxtor Avezov, G'abit Musrepov, G'abiden Mustafin, Abdulla Tojiboyev, Muhamadjon Qorayev, Qalmogon Abdugodirov, Qalovbek Tursunqulov, Zeyn Shashkin, Taqash Berdiyev kabi qozoq, Armet Shomurodov, Asan Begimov, To'lepbegan Qaipbergenov, Ibroyim Yusupov, O'rozboy Abdurahmonov, Murodboy Nizanov, Sirboy Mavlonov singari qoragalpoq adiblarning ko'plab asarlari N.Fozilov tarjimasida o'zbek kitobxonlarining ham madaniy mulkiga aylandi.

Nosir Fozilov ijodining bosh mavzusi urush va tinchlik, ona tabiatni asrash va vatanga muhabbat, umuman olganda, iymon-e'tiqod bilan bog'liq ma'naviyat masalasidir. "Дереккаж иирепарыпа" jurnali 1981-yil 6-sonida bu haqda shunday deb yozadi: "Muallifni (N.Fozilovni-S.M) ko'proq ma'naviy-axloqiy muammolar o'ylan-tiradi: avlodlar o'rasidagi bog'liqlik, xalqning o'tmish va kelajagi, urush mavzusi ham unga juda yaqin".

"Gulxan" jurnalida adabiy xodim, "Sharq yulduzi" jurnalida mas'ul kotib, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti-da bo'lim mudiri vazifalaridagi faoliyati yozuvchining ijodiy takomilida alohida o'rin tutadi.

Yozuvchi asarlarining qahramonlari turli millatlarga mansubligi, o'z qarashlarini va hayotda tutgan mavqeiga mos soddaligi, fe'l-atvorida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi, hayotga faol munosabatta bo'lishi bilan alohida ajralib turadi.

Yozuvchi asar qahramonlari boshdan kechirgan sarguzashtlarni shunchaki kichik kitobxonlarning ruhiyatiga mos qiziqarliq talabi bilanгина qalamga olmaydi. Balki o'sha qiziqarliq zamnida kichik kitobxoniga ayvish zarur deb o'ylagan ma'naviy-axloqiy muammoga diqqatimizni qaratadi. Muallif nutqidagi sejiilo badiiy bo'yoqdor iboralar, kishini chuqur mulohazaga chorlovchi tagdor qochirmlar adabiy qahramonlar nutqidagi individuallik bilan uyg'un ravishda gissalarning o'qishligiga xizmat qiladi.

Qahramonlar timsolining ta'sirchanligini ta'minlashda nutqi, o'zini tutishi, boshqalarga munosabati, fe'l-atvori tasviri muhim o'rin tutgani holda ayrim bolalar yozuvchilari asarlarida kichkinoylar tarbiyalanuvchi, muallif tarbiyachi sifatida ko'zga tashlanadi. Boz ustiga qahramonlar nutqini muallif nutqidan farqlab ham bo'lmaydi.

Nosir Fozilov gissa va hikoyalarda nafqat muallif bilan qahramonlar, balki qahramonlarning o'zlari ham fikrlash yo'siniga ko'ra bir-birlaridan ajralib turadi.

Xalqlar do'stligi g'oyasini asarlariga chuqur singdirgan adib qaysi millat vakili timsolini yaratmasin, o'sha qahramon mansub tarixiy muhit va millat tili, urf-odatleri, turmush tarzini xayolidan qochirmagan. Binobarin, adib yaratgan qahramon qozoq bo'lsa

qozoqcha, tatar bo'lsa tatarcha, hatto polyak bo'lsa polyakcha talaf-fuz bilan gapiradiki, uning xarakter takomili, o'zini tutishi, hayotga munosabati kitobxonda zarracha shubha tug'dirmaydi.

Nosir Fozilov badiiy ijodining eng qiyin "sirlaridan" biri – bitta-ikkita ibora bilan manzara yaratma olish sirini biladi", deb yozadi Odil Yoqubov.

Darhaqiqat, "bitta-ikkita ibora bilan manzara yaratma olish siri" bevosita asardagi peyzaj va vogelik tasviriga ham, adabiy qahramonlar nutqi va portretiga ham bab-baravar tegishlidir. Yozuvchi asarlarida ko'p bor tilga olinadigan Turkiston dashtlarida tong va shom manzaralarining badiiy tasvirda ba'zan she'rga aylanib ketishi bejiz emas.

"Oqshom. Osmom to'la bulut. Ufq tong rangida qip-qizarib turardi. Endigina botib borayotgan quyosh xuddi Oydinko'l atrofining ko'rkam manzaralarini ko'zi qiymayotgandek bulutlar tagidan so'ng-gi bor mo'ralardi; uning qip-qizil zarrin nurlari ko'lining jimir-jimir to'liqlarida, ko'l atrofidagi qamish uchlarida, tepaliklarda tag'in bir jilvalanib turdi-da, keyin asta-sekin so'na boshladi".

Urush davri front orqasidagi xalq hayoti tasviriga bag'ishlangan "Saron", "Qush qanoti bilan" nomli gissalari Nosir Fozilov ijodida alohida sahifani tashkil etadi.

"Saron" gissasi qahramonlari To'ra bilan Kamolalar yozuvchining bolalikdagi tengdoshlaridir. Ular xalq mushkulini yengil qilish va ezgulik uchun kurashishlari, el-yurt tinchligi yo'lida fidoyilik ko'rsatishlari jihatidan adib asarlaridagi boshqa qahramonlarga o'xshab ketadi. Farqi shundaki, ular nisbatan mustaqil fikrli va kurashchan, dadil va umummanfaati yo'lida faol o'spirinlar sifatida gavdalanitiradi. Muhimi, mazkur qahramonlarning ma'naviy dunyosi boy va ibrat bo'lari hayot yo'lga ega. Kitobxon mazkur asarlarni o'qib, ularning nafas olishini sezgandek, yurak urishini eshitgandek bo'la boradi. Ikki yosh galbidagi muqaddas tuyg'uni avaylab-asragisi, ularga chin ko'ngildan yordam bergisi keladi.

To'ra kattalar frontga ketgach, cho'ponlik qiladi. Uning poda ketida chang yutib yurishiga urush sababchi. Adib bosh qahramon xarakteri takomilini to'g'ri belgilaydi. Kolxoz cho'poni G'iyos aka

frontga chaqiriladi. Eridan gora xat kelgach alamini kimdan olishini bilmay yurgan Zulayho xola suzmasini o'g'irlagan Frantishekni katlaklamog'chi bo'ladi. To'ra Kamola bilan uni himoya qilib, ancha gap-so'z ortiradi va hokazo. Xullas, qahramonlarning odatdagi hayot tarzi o'zgaradi. Bu o'zgarish faqat tashqi tomondan bo'lmay, ayni paytda ularning ma'naviy olamida ham sodir bo'ladi. Adibning mahorati kitobxonni qahramonlarning gap-so'zlari, xatti-harakatlariga to'la ishonitirishida ko'zga tashlanadi.

Badiiy asar syujetining hayotiyiligi, qahramonlar taqdiri bilan voguealar talqinining uzviy bog'liqligi masalasi qadim zamonlardan beri estetik tafakkur namoyandalari diqqatini band qilib keladi. Bu haqda o'z zamonasining adiblari tajribasiga suyanib, Aristotel shunday deb yozgan edi: "Ba'zi kishilar o'ylaganidek, bir kishi atrofida ro'y bergan voguealarning hammasi ham asar fabulasiga kiravermaydi. Bir kishi atrofida juda ko'p voguealar ro'y berishi, ulardan bir qismi umuman e'tibordan chetda qolib ketishi mumkin. Shuningdek, bir kishi boshidan har xil voguealarni kechirishi mumkin, lekin ular ham bir ma'no anglatadigan voguea yaratolmaydilar... San'ati tufaylimi yoki tabiiy talanti tufaylimi, har holda, Gomer bu masalaga to'g'ri qaray oldi. U "Odysseya"ni yaratar ekan, qahramon boshiga tushgan hamma voguealarni tasvirlay bermaydi. Masalan, uning yarador bo'lishi, urushga odam yig'ayotgan vaqtlarida o'zini tebalikka solishlarini tasvirlab o'tirmaydi... U "Odysseya"ni, shuningdek, "Iliada"ni ham markaziy bir voguea asosida yaratdi?"

Qadimgi yunon mutafakkirining bu fikrlari bizning kunlarimizgacha o'z qimmatini yo'qotgan emas. Binobarin, bundan keyin ham yozuvchi badiiy mahoratini belgilashda asarlaridagi syujet voguealarining ortiqcha ta'rif-tavsif va tasvirlardan xolliligi, qahramonlar xatti-harakatlarining badiiy dalillanishi kitobxonlarda yorqin taassurotlar qoldirishi asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Nosir Fozilov ijodiga shu jihatdan nazar tashlansa, yozuvchi badiiy mahoratini belgilaydigan talay misollarni keltirish mumkin.

"Ko'pincha odamning qo'lidan kimligini bilsa bo'ladi, — deb yozadi Said Ahmad. — Sartaroshning qo'lidan atir hidi, aptekachining

qo'lidan dori hidi, shofyor qo'lidan benzin hidi kelsa, kabobpazning kafti, novvoyning barmog' bo'g'inlari kuygan bo'ladi.

Tanburchining chap qo'l barmoqlari, dehqonning o'ng qo'l kafti qadoqdek qotib ketadi. O'qituvchining barmoqlari bo'rga belansa, oshpazning barmoqlarida pichoq izi qoladi. Bu belgilar qaysi kasb egasi bo'lmasin, uning mehnat qilganligini bildirib turadi. Nosir Fozilovning barmog'i siyohga belanib yuradi".

Bu fikrlarning dalili adibning "Kichkina demang bizni", "Toshkentning nosi", "Jo'xori tuzoq", "Bolaligim — possholigim", "Ustozlar davrasida", "Qahr va mehr", "Shum bolaning nabiralari", "Munavvar lahzalalar", "Topdimu yo'qotmadim" kabi kitoblari qirgan qissalari, esselaridir. Bizningcha, ularga qo'shimcha ta'rifu tavsif keltirishga ehtiyoj yo'q.

"Saraton" qissasi markazida To'ra bilan Kamola munosabati tursa-da, yozuvchi ular taqdirini urushning xalq boshiga tushgan cheksiz kulfatlari va katta sinovlari bilan qo'shib ko'rsatadi. Shuning uchun asarda frontga ketayotganlar, yaqin kishilaridan judo bo'lganlar, front orqasi uchun noz-ne'matlar yetkazishda jonbozlik ko'rsatayotganlarning yorqin obrazlari yaratilgan.

O'smirlar va, umuman, yoshlar hayotini kattalar taqdiri bilan birga katta hayot oqimiga uzviy qo'shib tasvirlash Nosir Fozilov ijodining xarakterli belgilaridandir. Shu bois ham muallif bosh qahramonlarining emas, balki epizodik obrazlarni ham asar vogueasidagi ishitorkini mantiqiy asoslashga va ixcham tasvir orgali esda qoladigan tarzda tasvirlashga diqqat qiladi. Masalan, "Saraton"da evakuatsiya bo'lib kelgan polyak Pan Dvorjekning "steklo"ni "shreklo", "spichki"ni "shpishki" degan so'zlarni o'z tili ohangiga solib ayirishi, fikrini bitta-ikkita so'z vositasida ifodalashi kitobxonni ishonitiradi.

Nosir Fozilovning talaygina qissa va hikoyalarning mazmunini, qahramonlarini uning o'zi ko'rgan, bilgan voguealar, odamlar tashkili qiladi. Zotan, Nosir Fozilov ijodiy kamolotiga xos bosh fazilat ham uning faqat o'zi yaxshi bilgan, chuqur his etgan va puxta o'rganagan mavzu, voguea va odamlar to'g'risida qalam tebratishidir. Yozuvchining "Qorxar" nomli qissasida bosh qahramon yosh yozuvchi bilan qilgan suhbatida unga qarab "Nazarimda bir kamchiligingiz bor:

o'zingiz bilmagan, his qilmagan narsalarni yozar ekansiz... Ko'rimgan, bilmagan narsani yozsangiz, yozgan asaringiz, qo'polroq qilib aytganda, yolg'on bo'lib qoladi. To'g'ri, ko'rimgan turib yozilgan asarlar adabiyotimizda juda ko'p. Buning uchun avvalo bilim, malaka, o'ktir tasavvur kerak", deydi. Bu so'zlarni hech mubolag'asiz Nosir Fozilovning o'ziga, uning ijodiy printsipiga ham mansub deb bermalol ayvish mumkin. Agar Nosir Fozilovning birinchi hikoyasi 1953-yilda "Pioner" jurnalida, hali u talaba vaqtda bosilgan bo'lsa, o'shandan so'ng hikoya yozadimi, qissa yozadimi, hammasida shu printsipga sodiq qoladi.

Uning "Oqim" qissasi va ayrim hikoyalarni e'tiborga olmaganda aksariyat asarlari urush va undan keyingi davr xalq hayotiga bag'ishlanganini kuzatish mumkin. Shunday bo'lsa-da, ularning mazmuni, g'oyasi va pafosida qandaydir bog'lanish bor: "Oqim"da kolxozlashirish voqeasi, "Saraton" va "Qush qanoti bilan" asarlarida urush davri voqealari, "Tashvish"da urush jarohati bilan bog'liq kolxoz hayoti, uning so'nggi davrdagi ahvoriga doir ma'naviy-axloqiy masalalar ko'tariladi.

"Oqim" qissasida "Hayot oqimini o'z yo'lida to'xtamay oqishda davom etar va yo'lida g'ov bo'lganlarni yo'l-yo'lakay girdobiga yutib borardi", degan ajoyib fikr keltiriladi. Nosir Fozilovning barcha asarlari pafosida ana shu ziddiyati hayot oqimining mardona qadamini ifodalash yotadi. Uning qissalaridagi drammatizmning kuchliligi, ko'lamdorligi sababi ehtimol shundandir. "Oqim"da to'g'riso'z, haqiqatgo'y shoir Suyunm oqimning baxt izlab tentirashi va nihoyat o'ldirilishi, uning ikki farzandi Ziyobek va Kenjaning og'ir hayoti, Asqar akaning tuhmat bilan qamalishiga bog'liq turli voqealar, taqdirler tasvirlanadi.

Adib asarlarining mazmuni, pafosi, ohangi xilma-xil. "Oqim"da keskin simfiy kurash tursa, "Saraton"da To'ra va Kamola o'rtasidagi ilk muhabbat romantikasi bilan bog'liq og'ir urush yillaridagi xalq jasoratini ifodalash yotadi. Shaxsga sig'inish davrining mash'um oqibatlarini xususidagi "Qush qanoti bilan" qissasida xalqimizning ardoqli farzandlaridan To'xtasin Jalolov qismati tasvirida drammatizm

va publitsistik ruh ustuvorlik qilsa, "Tashvish" qissasida psixologik tahlilga ayricha diqqat qaratiladi.

Shuni ayvish kerakki, Nosir Fozilovning deyarli ko'pchilik asarlari, jumladan, "Qush qanoti bilan", "Qor xat" qissalari gahramon tildan hikoya qilinadi. Bu usul sarguzasht asarda, ayniqsa, qo'l keladi: hayotiy voqealar, odamlarning xatti-harakatlari gahramon nuqtai nazaridan baholanadi. Natijada gahramon ruhiyatidagi tebranishlar kitobxon ruhiyatiga ham ko'chadi.

"Qor xat" qissasining syujeti real asosga ega. Bolalar o'z jamoasiga tanikli mehnat gahramonini faxriy a'zo qilib olmoqchi bo'ladi. Sog'indiq Qoragalpog'istonidagi mashhur baliqchining roziligini olish uchun yo'lga chiqadi va qoragalpog' bolalari bilan qorxat o'ynab yutqazadi. Birgalikda baliq ovlaydilar. Yozuvchi shu xildagi voqealar orqali o'zbek-qoragalpog' bolalarining samimiy do'stligini ko'rsatib beradi. Qissaning ma'rifiy ahamiyati bolalarni chidamli, topqir, bilimli va irodali bo'lishga da'vat etilishi bilan belgilanadi.

"Tashvish" qissasida yozuvchi Safaralining urush davri bilan bog'liq alamlil hayotiga nazar tashlaydi. Shunda ham adabiyotimizning nisbatan kamroq qalanga olinayotgan, ammo nihoyatda muhim bo'lgan o'smirlarning katta dunyo sari qadam qo'yishi, o'z o'rmini topishi, qalblarida birinchi bor chechak otgan musaffo muhabbat romantikasini ilhom bilan tasvirlaydi.

O'zbek, qozoq va qoragalpog' xalqlari og'zaki ijodi namunalaridagi ma'no nozikliklarini chuqur tushunishi, asrlar davomida hayot sinovlaridan o'tib shakllangan milliy qadriyatlardan ma'naviy oziqlanishi, buning ustiga Oybek va G'afur G'ulom, Muxtor Avezov va Sobit Muqonov kabi ustoz yozuvchilar e'tirofi va g'amxo'rliklaridan bahramandlik yosh yozuvchini badiiy mahoratini oshirish ustida tinmay izlanishga da'vat etgan.

Aynan tanikli so'z san'atkorlarining ijodiy tajribasi Nosir Fozilov uchun ijod maktabi vazifasini o'taganini "Ustozlar davrasida", "Bir o'tar to'pnoncha", "Munavvar lahzarlar", "Eslasang, ko'ngling yorishur", "Ustoz so'zlaganda", "Toshkentning nosi", "Said Ahmad noming baland", "Topdimu yo'qotmadim" nomli kitoblari kirgan esselari va voqeyiy hikoyalardagi badiiy ijodning g'oyatda serzahmat

va o'ziga xos san'at ekanligi xususidagi kuzatishlaridan bilish mumkin.

Ustozlar davrasida kamol topgan Nosir Fozilovning shu janrga qo'l urib uning yuksak namunalari yaratganligi tahsinga sazovor-dir.

Adib ijodining yutug'ini ta'minlagan omillardan yana biri har bir so'z va iboraga qahorona hassoslik bilan yondasganligidir. Uning gissa va hikoyalari o'qigan ziyрак kitobxon bolalar adabiyotidagi quruq pand-nasihatdan iborat "xavfli virus"dan xoli ekanligini payqashi qiyin emas.

Nosir Fozilov birinchi hikoyasi matbdotda bosilganida talaba bo'lgan. Shundan buyon u necha o'nlab hikoyalar, qator qissalar, esselar ijod etdi, ko'plab asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi va ko'psonli o'z kitobxonlariga ega bo'ldi. Yozuvchining original asarlari va yetuk tarjimalari necha avlod farzandlarini ezgulik ruhida tarbiyalab, xalqimizga yashash, qurish va kurashda yordam bermog'da. U bir hikoyasini: "Yozgan asari bilan kimnidir quvontirib, kimlar-nidir tashvishga sololmagan yozuvchi — yozuvchi bo'libdimi?" — degan jumla bilan tugatadi. Mazkur fikrga amal qilgan adib o'z asarlari bilan ko'psonli kitobxonlarini quvontiradi. Bizningcha, adibning yozuvchilik baxti ham shundadir...

Nosir Fozilov - essenavis

Xotira insonni doimo o'tmish va kelajak bilan bog'lab turadi. U bosib o'tgan yo'l haqida shunchaki tarix bo'lib qolmasdan, kelajak to'g'risida chuqur o'ylarga toldirishi, aqlu shuurimizni muammoning ilidizini topishga yo'naltirishi jihatidan muayyan tarbiyaviy maqsadga xizmat qilishi bilan ahamyatidir. Jahon adabiyotida xotiranavislikning yuksak va xilma-xil namunalari yaratilgan bo'lsa-da, XX asr o'zbek adabiyotining tammal toshini qo'nyagan Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi millatparvar adiblar to'g'risida shu xildagi xotiralarning yo'qligi, H.Qodiriyning A.Qodiriy haqidagi asarlarini hisobga olmaganda, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Qosimovlarning tadqiqot xarakteridagi ishlarida esa asosan tarixiy hujjatlariga tayanganligi mazkur yozuvchilarning hayotiy va ijodiy biografiyasini yaxlitlikda o'rganishga izn bermasligi tabiiy.

Shunga ko'ra, G'.Gulom, Oybek, A.Qahor, Mirtemir, M.Shayxzoda, H.G'ulom, S.Ahmad, S.Zumunovlardan tortib, O'.Umarbekov, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev, T.Murodgacha bir necha avlod ijodkorlariga oid taqdirlar talqinining badiiy gavdalandirilishi "Topdim-u yo'qotmadim" kitobning tilga olishga arzugulik jihatidir. Agar undan M.Avezov, S.Mugonov, G'.Musrupov, G'.Mustafin kabi tanikli qozoq adiblari haqidagi voqeiy hikoyalarning ham o'rin olgani nazarda tutilsa, xalqlar do'stligi bilan bog'liq adabiy-ma'rifiy qimmat yanada ortadi.

O'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarining urf-odatlari milliy mentaliteti va og'zaki ijodi namunalariga xos ma'no nozikliklarini chuqur tushunishi, qolaversa, Oybek, G'.G'ulom, M.Avezov va S.Mugonovlar kabi ustoz adiblar e'tirofi va g'amxo'rliklaridan bahramandlik yosh yozuvchining badiiy mahoratini oshirish ustida tinmay izlanishga da'vat etadi.

Har bir asarning yaratilish tarixi bilan bog'liq o'z tarjimai holi bo'lganidek, "Topdimu yo'qotmadim" kitobining ham o'z tarixi bor. Kitob yaratilish vaqti jihatidan chegara bilmaydi. Gap shundaki, unda adibning galbida adabiyotga, badiiy ijodga qiziqish va mehr-muhabat uyg'ongan ilk bolalik davridan to ustoz so'z san'atkori darajasiga yetishgan davrigacha bo'lgan ijod ahli bilan yelkama-yelka o'z boshidan kechmish-kechirmishlari ibratomuz hikoyalar tarzida qalamga olinadi. Muhimi, muallif xotiranavisligi bir kishining ijodiy taqdiriga doir shunchaki esdaliklar bo'lmay, ijodda hamnafas, hayotda yelka-dosh yozuvchilarning shaxs va qalamkash sifatidagi badiiy olamiga teran nigoz tashlagan o'ziga xos munosabatlar talqinidir. Kitob esselar, mustaqil voqeiy hikoyalardan tashkil topgan bo'lsa-da, yaxlit asar sifatida o'qiladi. Uning bosh qahramoni adibning o'zi.

Odatda, shu tipdagi aksariyat asarlar kim haqida yozilgan bo'lsa, o'sha kishining ishdagi yutuqlari yoxud el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgungacha bosib o'tgan yo'l bayon qilinadi. N.Fozilov ulardan farqli o'laroq, avvalo, o'z qahramonlarining insoniy sifatlariga e'tibor qaratadi. Ularning har qanday odam yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan kamchiliklaridan ham ko'z yummaydi. Qahramon hayotiga tegishli u yoki bu epizodni keltirishdan oldin o'sha epizodni qalamga olish-

dan ko'zda tutilgan maqsadiga ishora qiladi. O'z kuzatishlarining xolisligini dalillash uchun lozim topsa, boshqalarning fikr-mulohazalariga, lozim topsa, tarixiy hujjatlarga murojaat etadi. Shu tariqa tasvir xolisligini ta'minlashga intiladi. O'lmas Umarbekov xotirasiga bag'ishlangan "Azizim" esse-sida u kishining o'ziga (boshqalarga ham) azizligiga doir epizodlardan oldin kitobxon qulog'iga asar g'oyasi xususida "shipsib" qo'yadi: "Bir toifa odamlar borki, uning nomini eshitib boq ijrig'anasan; ikkinchi bir toifa odamlar borki, uning nomini eshitishing bilan diling yayrab ketadi. Do'stimiz O'lmas ana shu ikkinchi toifadagi dilbar odamlardan edi".

O'l Umarbekovni yaqindan bilgan-bilmagan kishilar uning dilbarligi nimalardan iborat ekanligini bilishga qiziqishlari tabiiy.

N. Fozilov esselariga xos xususiyatlardan yana biri adibning o'z qahramonlari taqdiri bilan bog'liq kuzatishlari xolisligini turli yo'llar bilan dalillashdir. Mazkur esseda Yozuvchilar uyushmasi kengashida O'l Umarbekovni "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga tavsif va qilishda kengash a'zolarining turlicha munosabatda bo'lganligi xususida so'z yuritlar ekan, bu gap-so'zlarni boshqalar ham tasdiqlashi mumkinligini bildiradi: "Oralaringizda: "Bu odam sal oshiribroq yubordiyov!" deydiganiyar ham chiqib qolar. Yo'q, men hech ham oshirib yuborganim yo'q, agar shunaga odamlar bor bo'lsa, o'sha majlisda mening yonimda o'tirib, taklifimni birinchi bo'lib, qo'llab-quvvatlagan Hafiz Abdusamatovdan so'rasinlar. U kishi bor gapni ogizmay-tomizmay aytib berishi mumkin. O'sha majlisda O'ltkir Xoshimov ham bor edi".

Har ikkala kishining guvohlikka chaqirilishi kitobxonda yozuvchi fikrlari yuzasidan shubha tug'dirmaydi.

N. Fozilov shu xildagi aksariyat asarlarida o'z kuzatishlarini quvnoq yumor vositasida latifanoma hangomalalar tarzida ifoda etgan bo'lsa, "Topdimu yo'qotmadim" da ko'proq lirik hissiyot bilan yo'g'irilgan realistik uslubga moillik bildiradi: "Ajoyib yoz kunlarining biri edi: tevarak-atrofdan saratonning nafasi qaytaruvchi tafti, asfalt-dan qaynoq hovur ko'tariladi. Xiyobondagi daraxtlarning yaproqlari qilt etmaydi, qushlar ham in-iniga urib ketishgan. Issiqdan bo'g'g'

riqib, nashryotning oldiga kelib qolganimda, ichkaridan Mirtemir aka chiqdi".

Shu taqlid kitobxonni Mirtemir bilan tanishtirgach, shoirning inson sifatidagi ma'naviy qiyofasiga oid kuzatishlarini havola etadi: "Mirtemir akanikiga kirib borganimda allaqachon oqshom salqini tushib, atrof nimqorong'i tortib qolgan edi. Hovlida Mirtemir aka atirgullarga suv sepb yurar, sadarayhonning tarovatli bo'yi hovlini tutib ketgan, gullarning bargiga sepilgan suv tonggi shudringday tiniq yiltillar, hovliga allaganday bir go'zallik baxsh etar edi. Mirtemir aka meni ko'rishi bilan qo'lidagi rezina shlangni shundoqgina atirgullar jo'yagiga to'g'irlab qo'ydi-da, peshvoz chiqdi".

Shoir hovlisida atirgullarning ochilib turishi, sadarayhonning tarovatli bo'yi, gul barglariga sachragan suvlarning tongi shudringday tovlanishi to'g'risidagi tasvir tiniqligi gullarga suv sepb yurgan shoir timsoni bilan uyg'unlashib kitobxon qalbida iliq tuyg'ular uyg'oladi.

"Yaxshilarga yondashib" esse-sidagi bunday manzara-ho'llatlar yozuvchi ijodiga xos umumiy xususiyat bo'lib, kitobxon ishonchiga kirishning samarali yo'llaridandir.

Garchi kitob ibtidosida muallif u yoki bu yozuvchining badiiy olamiga adabiyotshunos bo'lib emas, oddiy bir yozuvchi nigohi ila yondashganligi qayd qilingan bo'lsa-da, o'rni-o'rni bilan adibning o'z qahramonlari ijodiga birdek hurmat nuqtai nazaridan yondashganligiga guvoh bo'lasiz. Jumladan, "Ukadek aziz, do'sdek qadrdon edi" nomli esse-sida Tog'ay Murodning badiiy mahorati to'g'risida so'z yuritla turib quyidagilarni yozadi: "Yozuvchini bannisoli sham-chiroqqa o'xshatish mumkin. Shamchiroqqa vaqti-vaqti bilan yog' quyib turmasangiz, pilingi quyib tamom bo'ladi-qoladi. Yozuvchi ham hayotni kuzatmas ekan, o'z ustida ishlamas ekan, mashq qilmas ekan, hali aytganimiz chiroq kabi "pis" etib o'chadi-qoladi... Unda (Tog'ay Murodda. — S.M.) isitqolimiz tufayli qandaydir katta bir jur'at, shu katta jur'at tufayli erkin fikrlash paydo bo'ldi. "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi oddiy mehnatkash aholining dardlu alamlarini, jabru jafolarini tap tortmay yozishga jur'at qildi. Sho'ro

tuzumi mehnatkash xalqni ayovsiz ezib yuborganini dadil va rostgo'ylik bilan yozdi".

Ayni hikoyada Said Ahmading "Jimjitlik" romanini yozish jarayonida Tog'ay Muroddan otlarning o'ziga xos tabiati xususida maslahat olishi bilan bog'liq voqealar tavsiloti kitobxonni yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq olib kirishga xizmat qiladi. Xuddi, shuningdek, "Mulla Shukur" esesida Shukur Xolmirzayevning ilk ijodi to'g'risida so'z yurita turib, o'tgan asrning 50-60 yillarida bolalar nasrida yo'l qo'yilgan kamchiliklar xususida tegishli xulosalarini bayon etadi.

Adib "Buyuk Muxtor Avezov" nomli esesida badiiy adabiyotga sho'rolar davri mafkurasi tazyiqi xususida so'z yuritib, Oybek bilan Muxtor Avezov, G'abit Musrepov bilan G'abiden Mustafin, G'afur G'ulom bilan Qosim Omonjo'lovlariga o'xshash iste'dod egalarning erkin ijod qilishi oson kechmaganini qayd etadi. Ayniqsa, M.Avezovning "Olatasir zamon" nomli qissasining Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Sarob" romani bilan taqdiridoshligi to'g'risidagi quyidagi qaydlari har qanday kitobxonni befarq qoldirmaydi.

"Ba'zan noshud munamqid,- deb yozadi adib,- bir asarni chala-chulpa, tushinib-tushummay o'qib, bir-yoqlama, xom-xatala fikr-aytib qo'yadi-da, bu gap o'sha asarning keyingi taqdiriga yomon ta'sir ko'rsatadi. Ustoz Abdulla Qahhorning "Sarob" romani shu ahvolga tushib, buning asorati ayni yozgi shamollashday uzozqqa cho'zilib, ya'ni o'n sakkiz yil deganda zo'rg'a nashr qilingani hammaga ma'lum. "Olatasir zamon" qissasi ham shu jihatdan "Sarob" romani bilan taqdiridosh".

Ma'lum bo'lishicha, "Olatasir zamon" 1927-yilda Qizil O'rda shahrida kitob holida nashr qilingach, noshud munamqidlarning noo'rin tanqidiga uchraydi. Natijada oradan 45 yil o'tib, oldin rus tilida, keyinchalik qozoq tilida bosilib chiqadi.

"Topdimu yo'qotmadim" kitobiga kirgan esselar, voqeyiy hikoyalardagi asar qahramonlarining o'ziga xos tabiatiga doir kuzatishlar yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga yo'l ochishi bilan yuksak e'tibor va e'tirofga sazavordir.

"Men u kishining (M.Avezovning) vazminligi-yu mutafakkirligini,- deb yozadi adib,- Abish Kekelboyevda, prozadagi keng qamrovligi-yu kuydi-pishdiligini, dadilligini Abdujamiil og'a bilan Shernon Murtazo o'g'lida, dramaturgiyadagi salohiyatini Qoltoy Muhammadjonov bilan Dular Isabekovda, adabiyotshunoslik ilmidagi zukkoligi-yu bilimdonligini Zeynulla og'a Qabulov bilan Rahmonqul Berdiboyevlarda ko'rgan".

Bu mulohazalar shunchaki qaydnoma bo'lmasdan, qardosh qozoq adabiyotining yetakchi xususiyatlarini chuqur idrok etishga yordam beradi.

Shu o'rinda ayitish joizki, essechtlikni o'zbek adabiyotida butkul yangi janr deb bo'lmaydi. Uning ilk namunalari mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Taskiratush shuaro", Boburning "Boburnoma", Munis va Ogahiy asarlarida, keyinchalik H.Qodiriyning "Otam haqida" nomli kitoblarida uch ko'rsatgan edi.

Ustozlar davrasida kamol topgan N.Fozilovning shu janrga qo'l urib uning yuksak namunalarini yaratganligi tahsinga sazavordir.

Asarlariga xalqlar do'stiligi g'oyasini chuqur singdirgan adib qaysi millat vakili timsolini yaratmasin, o'sha qahramon mansub millat tili, urf-odatlari, turmush tarzini bir daqiqa bo'lsin xayolidan qochirmaydi. Binobarin, adib yaratgan qahramon nutqi va fe'l-atvorida millati ruhiyati butun nozikligi bilan o'z ifodasini topadi. Natijada uning xarakter takomili kitobxonda ishonch uyg'otadi.

Adib ijodining yutug'ini ta'minlagan omillardan yana biri so'z va iboraga qahhorona hassoslik bilan yondashishidir. Uning qissa va hikoyalari o'qigan ziyрак kitobxonning o'sha davr bolalar adabiyotidagi quruq pand-nasihatdan iborat "xavfi virus" dan xolliligini payqashi qiyin emas.

Kezi kelganda, "Topdimu yo'qotmadim" dagi barcha asarlarni xotirnavislikning mumtoz namunalari tarzida baholashdan yiroqimiz. Kitobdagi "Azizim", "Saida opamiz" kabi ba'zi esselarida asar qahramonlari bilan bog'liq tafsilotlarga kengroq o'rin berilgan bo'lsa, "Shoirning baxti", "Saboq" esselarida asar qahramonlari o'rniga

ko' proq muallifning o'z kechimmalariga to'xtalishi ortiqchadek tuyuladi. Bu esa tabiiyki, o'quvchini zerikitradi.

Shunga qaramay, tanikli bolalar yozuvchisi, xalqlar do'stligining tolmaz kuychisi Nosir Fozilovning hassos adib va sinchkov tarjimon sifatidagi ko'p yillik kuzatishlari asosida yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan "Topdimu yo'qotmadim" xotira va voqeiy hikoyalari kitobi o'zining badiiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra istiqbol davri adabiyotining yuksak namunalari qatoridan joy olishi shubhasiz.

"Shu bolaning nabiralari" qissasi uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G'afur G'ulom nomidagi mukofoti (1985), tarjimalari uchun Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining Beyimbet Maylin mukofoti (1986), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvoni (1989), "Ustozlar davrasida" kitobi uchun Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti (1990), Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining "Olosh" nomli xalqaro mukofoti (2000), "El-yurt hurmati" ordeni (1999), "Topdim-u yo'qotmadim" kitobi uchun O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti (2011) bilan taqdirlanishi yozuvchining kamtarin ijodiga berilgan munosib bahodir.

Savol va topshiriqlar

1. Nosir Fozilovning yozuvchi sifatida shakllanishiga qanday omillar sabab bo'lgan?
2. Yozuvchi yon daftarida badiiy ijodning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida qanday fikrlarni ilgari suradi? Adib o'z ijodiy prinsiplariga qay darajada amal qilgan deb o'ylaysiz? Fikr-mulohazalaringizni misollar bilan dalillang.
3. Adib esselarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Yozuvchi o'zi tarjima qilgan asarlardan badiiy mahorat bobida nimalarni o'rgangan bo'lishi mumkin?
5. Adibning sovet davri adabiyoti haqidagi fikr-mulohazalarini qanday tushunasiz?
6. Sovet davri bolalar adabiyoti bilan istiqbol davri bolalar adabiyotining o'xshash va farqli jihatlarini izohlang.
7. Nosir Fozilovni xalqlar do'stligi kuychisi deya ta'rif-tavsif qilinishining sababi nimada deb o'ylaysiz?

Farhod Musajon – psixologik tasvir ustasi (1933-2013)

Reja:

1. Farhod Musajon – serqirra ijodkor.
2. Adib hikoyalarda qahramonlar ruhiyati tasviri
3. "Bulog suvi" qissasida xarakterlararo ziddiyat talqini.

Asarlari kattallar o'rtasida ham, bolalar o'rtasida ham sevib o'qiladigan yozuvchi Farhod Musajon ko'p qirrali ijodkoridir.

1933-yil 19-dekabrda Toshkentning O'qchi mahallasida tavallud topgan bo'ljak adib adabiyotga jurnalistikadan kirib keladi. Yozuvchining bolalarga bag'ishlangan "Bo'sh kelma, Aliqulov", "Ofobni quvalab", "Bulog suvi" qissalari bilan oldinma-keyin kattalarga tegishli "Dushamba, nonushtadan so'ng", "Bog' ko'chammi qo'msayman", "Qilich va shamshir", "Ko'rgulik" kabi hajviy qissalari hamda kinossenariylari dunyo yuzini ko'rdi.

Farhod Musajon nima haqida yozmasin, asarini qaysi yoshdagi kitobxonga mo'ljallamasin, o'z mavzuiga hayotni yanada go'zalroq, yorqinroq ko'rish nuqtai nazaridan turib yondashadi. Kitobxonmi ham shunga da'vat etadi. Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi"ga kirgan "Yaxshilik", "Yomg'ir", "Saxiy bog'bon", "Shakar qizcha", "Tugallanmagan suhbat" nomli hikoyalari shu jihatdan ibratlidir.

Yozuvchining "Bulog suvi" qissasida Rixsivoy ismli o'smirning boshqa maktabga o'tgandan keyingi, yangi do'stlari davrasidagi hayoti qalanga olingan. Yozuvchi uning ichki ruhiy olamini ko'proq bosqalarga munosabati orqali ochishga intiladi.

Rixsivoy yangi sinfdoshlari orasida Sanjar bilan do'stlashadi. Lekin ularning hayotni anglashlari bir-biriga o'xshamaydi. Hatto, aytish mumkinki, bir-biriga zid. Xuddi mana shu ziddiyat qissa konfliktiga asos bo'lgan.

Rixsivoy tajang, shu bilan birga, kuyunchak bola. Sanjar esa bosiq, ammo boshqalar oldida o'zini ko'rsatishga ishqiboz, xudbin. Shunday ekan ular o'rtasidagi yaqinlikning vaqtinchalik bo'lishi tabiiy. Farhod Musajon bolalar do'stligining yuzakiligini ochishga

shoshilmaydi. Balki bu do'stlikning oxir-oqibat suv yuzidagi ko'pildək tarqab ketishini chuqurroq asoslash, shu bahonada kichik kitobxonga hayot murakkabliklari xususida muayyan tasavvur berish maqsadida qahramonlarning oliaviy hayotini, o'rtog'lariga bo'lgan munosabatini qalamga oladi.

Yozuvchi Rixsivoyni kitobxonga ko'ngli toza, halol, yomonlikka nisbatan murosasiz, g'urruli va o'jar bola sifatida tanishtiradi. U ota-onasidan yetim qolib, yolg'iz buvisi bilan yashaydi. Lekin, izzat-nafsi va g'urrurini hamisha baland tutadi. Shuning uchun ham Sanjar massxara qilganda chidab turolmaydi. Uning boks bo'yicha o'z vaznida maktab chempioni ekanligini bila'kurib, yakkama yakka mushlashishga chaqiradi, boyvachcha qo'shnisining havo'i qiliqlarini hazm qilolmaydi, sinf rahbari Sharifjon aka uning uchun obuna pulini to'lamog'chi bo'lganida o'zini haqoratlangandek his qiladi va hokazo.

Rixsivoy xarakterining kishi e'tiborini tortadigan yana bir jihati ota-onasining bevaqt vafoti tufayli tug'ilgan jizzakiligidir.

Lekin u bo'lar-bo'lmasga kuyinavermaydi. Faqat adolatsizlikka duch kelgandagina murg'ak qalbi jumbushga keladi. Umuman nohaqlikka cheksiz nafrati Rixsivoy xarakterining yetakchi xususiyatidir.

Rixsivoy Sanjar massxara qilgani uchun dashtab urushmog'chi bo'ladi. Uning bosiqdigi va xushf'elligini ko'rgach, o'zining nohaqligini sezadi. "Zo'r bola ekan", - degan xulosaga keladi u yangi tanishgan o'rtog'i Sanjar haqida. - Tanti va mard, hazilkash va quvnoq. Qani edi hamma o'shanga o'xshagan bo'la olsa..."

Bir qarashda Sanjar haqiqatdan havas qilsa arziydigan bola. U o'qishda a'llochi, jamoat ishlari va sportda ilg'or. Lekin bunday fazilatlar hamisha ham inson qalbining musaffoligiga zamin bo'la olmasligi uning keyingi xatti-harakatlari tasviri orqali asoslab beriladi.

Asarda Rixsivoy va Sanjar obrazlari misolida ifodalangan ikki xil qarash, ikki xil tushuncha ilk bor sinflararo futbol musobaqasida to'qnashadi. Rixsivoyning oyog'i o'yinda lat yeydi. Lekin tog' komandasi raqiblar darvozasiqa gol urmaguncha o'yin maydonini tark etmaydi. Niloyat u oshirib bergan to'pni Sanjar darvozaga yo'l-

laydi. Komandalari yutug'ida Rixsivoyning katta hissassi borligini Sanjar ko'pchilik oldida tan olgisi kelmaydi. Chunki faqat o'zini ko'rsatishni istaydi. Shu voqea sabab bo'lib, do'stlar orasidagi tarfovut ham ko'zga tashlanadi-qoladi. Bu yerda qahramonlar xarakteridagi ziddiyat alohida ta'kidlab ko'rsatilmaydi. Balki ularning xatti-harakatlarida kitobxonning o'zi shunday xulosaga keladi. Rixsivoy bilan Sanjarning hayotni anglashlari o'rtasidagi farq faqat ularning o'zaro muammolaridagina emas, balki boshqalarga munosabatlarida ham chuqurlasha boradi. Asardagi Rixsivoy - Sharifjon aka, Rixsivoy - Sanjar syujet liniyasi shu jihatdan xarakterlidir.

Sharifjon aka Rixsivoylarning sinf rahbari. Maktabda uni ko'pchilik yoqtirsa ham negadir Rixsivoyning jinni suymaydi. Shu sabab ularning orasida har bir narsada kelishmovchilik kelib chiqadi. Ziyrak kitobxon buning boisi Sharifjon akaning shuhratga o'chligi, manmanligi, qisqa qilib aytganda, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq ekanligini osongina payqay oladi. Hayotga bo'lgan ko'z qarashlari jihatidan Sharifjon aka bilan Sanjar bir-biriga yaqin turadi. Bu, ayniqsa, ularning Rixsivoyga bo'lgan munosabatlarida ravshan seziladi. Sharifjon aka kabi Sanjar ham o'zini oqil-u dono hisoblaydi. Do'stlik haqida yaxshi gaplar aytadi-yu, lekin amal qilmaydi. Rixsivoyga og'ir damlarda yordam berish o'rninga, turli bahonalarni ro'kach qiladi. Bir og'iz bo'lsin, o'rtog'idan hol-ahvol so'rash hayoliga ham kelmaydi. To'g'rirog'i, xayoliga kelsa ham o'rtog'ining ishonchini oyqosti qilib, chin do'stlikka rahna soladi.

Xullas Rixsivoy yangi do'stlar orasida o'rmini topguncha turli qiyinchiliklarga uchraydi. Shu jarayonda uning aql-idroki, fahm-farosati charxlana boradi. Yozuvchi qissa yakunida Rixsivoy qalbining musaffoligini buloq suvining tiniqligi va tozaligiga qiyos qiladiki, u kitoxonda ham shunday taassurot qoldiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Farhod Musajon psixologik tasvir ustasi deganda nimani tushundingiz?
2. Adib hikoyalari qanday tarbiyaviy g'oyalar ilgari suriladi?
3. "Buloq suvi" qissasida inson qalbining musaffoligi nimaga qiyoslanadi?

4. "Buloq suvi" qissasi matnidan psixologik tasviriga misollar keltiring.

Miraziz A'zam ijodida falsafiy g'oyalari talqini (1936-yil tug'ilgan)

Reja:

1. Miraziz A'zam — shoir, dramaturg, tarjimon.
2. Shoir ijodida vatanparvarlik g'oyalari talqini.
3. Shoir ijodida inson va tabiat munosabatlari tasviri.
4. Shoir she'riyatida xalq og'zaki ijodi motivlari.

Bolalar adabiyotida o'z yo'nalishiga, uslubiga ega bo'lgan, o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan shoir Miraziz A'zam ko'p yillik serqirra ijodi davomida kattalar va bolalar uchun yozgan she'rlari, dostonlari, hikoyat, rivoyat, maqola, latifa hamda tarjimalari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan adiblardandir. Iste'dod o'z-o'zidan kamol topmaydi, albatta. Bino-barin, Miraziz A'zam ham mahorat cho'qqisiga osonlikcha erishmagan. Shoirning 2-qismida keltirilgan kechmish-kechirmishlari xususidagi e'tirof buning yorqin dalilidir.

Shoir ilk she'rlaridan boshlab kichikintoylar fe'l-atvoriga xos yetakchi xususiyatlarga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, "G'alati tush" nomli dastlabki she'rlaridan birida o'yingaroq bolalarga xos ta'sirchan voqeani sodda tilda badiiy gavdalantirishga harakat qilgan. She'r syujeti bolalarni qiziqitiradigan yumoristik voqea asosiga qurilgan.

Juda-juda sip-silliq
Maktab devori.
Ko'rsang, tutib qoladi
Rasm chizish xumori.

Darvoqe, sip-silliq devoru partalarga rasm chizib, taassurotlarini namoyish qilishga urinish bolalarga xos odat. "G'alati tush" she'rida

shoir devorga mushuk bilan qo'g'irchoq rasmni chizgan bolaning ichki kechimmalarini tush detali orqali sarguzasht janriga mos tarzda ochgan. Tushda mushuk bilan qo'g'irchoq jonlanib, bolani ta'qib etishadi: sho'rvasini ichib qo'yishadi, o'rninga yotib olishadi, tramvayda jarima to'lashga majbur qilishadi, sinfda esa bolalarning kulgusiga qoldirishadi. Bola nojoiz harakatlardan xijolat chekib izza bo'ladi, biroq ko'zini ochsa kechmishlari — tush!.. Shoir devorga rasm chizish yomon odat, degan ma'noda nasihat qilmaydi. Lekin she'rni o'qigan bolalar undagi sarguzashtdan, albatta, o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishadi.

Miraziz A'zaming bolalar uchun yaratgan asarlarida poetik mazmunning falsafiy mushohadalarga uyg'unligi yetakchilik qiladi. Bu xususiyat shoirning oltmishinchi yillarda G'afur G'ulomning "Buni toping, qizlarim" she'riga o'xshatma tarzida yaratgan "Yashang, deymiz, bobo", "Bulut bo'lib qolaman", "Birniki mingga" kabi she'rlaridayoq bo'y ko'rsata boshlagandi. Keyinchalik ayni shu fazilatlar uning ijodida asosiy tamoyilga aylana bordi. Masalan, "Bo'taloqning o'rkachi nima uchun qo'shaloq" she'rida shoir o'quvchi diqqatini unga tanish, lekin sababini o'ylab ko'rmmagan manzaraga tortadi. She'rdagi talqiniga ko'ra, Bo'taloq uxlab yotganida yelkasiga olma tushib ketgan va shu sababdan uning o'rkachi qo'shaloq bo'lib qolgan ekan. Kinoyaga yo'g'rilgan bu beozor "yolg'on"ga — shoir "izoh" iga o'quvchi qo'shiladi. Kitobxonmi o'z so'ziga ishonitirish esa ijodkorning mahoratidan dalolatdir. "Kun va tun" she'rida shoir kun bilan tunni ikkita pardaga o'xshatadi va ularning almashish jarayonini "oq parda", "qora parda" deb ataydi. Bu o'xshatishda "tun o'z pardasini yoydi", degan xalqona iboraning poetik ifodasini kuzatamiz. "Yer aylanadi" she'rida esa, tabiat qonuniyatlari bilan inson hayoti bir butun hodisa ekanligi bolalar fikru hayotiga mos tarzda badiiy/ashuritilgan.

"Miraziz A'zaming qahramonlari, - deb yozadi P. Shermuhamedov, - muhofazasi keng, quvli, ziyrak bolalardir. Ular dunyo, urush, mustamlakachilik, odamlar, jonivorlar haqida o'ylaydilar, fikr yuritadilar. Bunday bolalar bilan hayot xususida suhbat qurish, bahs qilish uchun faylasuf shoir bo'lishning o'ziga kifoya qilmaydi.

Ayni zamonda tarbiyachi, murabbiy ham bo'la olishi kerak. Zero, har bir isse'dodli shoir bolalarni hayotiy hodisalar bilan tanishtiribgina qolmay, ularni to'g'ri tushunishiga ham ko'maklashishi kerak. Shoirning qahramonlari ziyrak, uquvli bo'lishlari bilan birga, ayni zamonda xayolparast bolalardir. Ulardan ba'zilari "yeti yoshga kirsang, "osmondan katta bo'lishni"; "samolyotga minib olib oftoob oldiga ketish" orzu qiladilar. Yana boshqalari xayolan "jibljibton bilan gaplashadilar".

Shoirning qahramonlari xayolparast bo'lsalar ham odamni bo'lishni unutmaydilar, tabiat go'zalligidan zavqlana biladilar. Ular "jimjiltikning ajib bir ohangini", barglar va shoxlarga yopishib olgan, ammo oftoob chiqqanda "mezonga marjon bo'lib tizilib olgan tuman" lardan bahra oladilar.¹⁹

Shoir she'rlariga bolalar tabiatiga xos savollarni sarlavha qiladi va ularga qiziqarli, obrazli tarzda javob beradi.

Bolalar "Bo'taloqning o'rkachi nima uchun qo'shaloq?" she'ri ni o'qish jarayonida o'zlari bilmagan holda tuyalarning bir va ikki o'rkachli turlari borligini bilib olishadi. Shoir uni shunday tasvirlaydi:

Toq o'rkachi bo'taloq,
Rosa otdi shataloq,
Olma daraxt tagida,
Uxlab qotdi bo'taloq.
Yarni qizil, yarmi oq
Olma uzilib shu choq
Belga tushdi "tap" etdi.
Eh, ish chatoq, ish chatoq:
Bo'taloqning o'rkachi
Bo'lib qoldi qo'shaloq.

"Kitob nima desalar..." she'rida shoir kitob — oftoob, kitob — kon degan fikrlarga qo'shilmasligini mantiqan to'g'ri asoslab beradi:

Oftob axir kechqurun,
Ko'zga ko'rinnay qolar.
Tunda uning issig'i
Bizga bilimmay qolar,
Kitob esa tunda ham
Yana o'qi deb qistar.
O'qisangiz tushda ham
Qalbingizni isitar.

Kitob — bu kon degan fikrga qo'shilmasligini quyidagicha ifodalaydi:

Kitob nima desalar,
Kitob bu - kon dedilar.
Qo'shilmayman hech bunga
O'xshamaydi u kongga.
Yillar, asrlar o'tib
Kondan madan tugaydi.
Gazu temir, ko'mir ham
Ozu ozdan tugaydi.
Kitoblar-chi aksincha,
Oshib borar yilma — yil
Turar dunyo turguncha,
Ko'chib yurar tilma-til.
Shoir she'ri shu tarzda davom ettirib:

Kitob odam, degayman
Eng qadrdon og'aynim,
Ichi olam, degayman, -
deya xulosa chiqaradi.
Meva pishar bir kun nogahon,
Asta-asta yer aylanadi.
O'zligini tanir har inson,
Asta-asta yer aylanadi.

"Tuman", "jimjiltik" she'rlarida tabiat manzaralari shu xilda jonlantirilib, muhim hayotiy mazmun ilgari surilardi. Har ikkala she'rida tuman va jimjiltikning o'ziga xos badiiy obrazini yaratish

¹⁹ Shernurhammedov P. Isse' mol sehiri. — T.: Yosh gvardiya, 1977. 59-bet.

ekan, shoir she'rlar yakunida oftoq chiqishi bilan tuman targ'ailishi-yu, xo'roz qichqirishi bilan jimjitlikning barham topib, tongning yorishishi xususida hayotbaxsh xulosa chiqaradi.

Shoirning "Bir cho'ntak yong'oq" she'riy turkumi mazmunan teranligi bilan ajralib turadi. Mazkur turkumdagi she'rlar o'z vaqtida adabiy jamoatchilikning nazariya tushib, ijobiy baholangan edi. Mazkur she'rlarda shoir yong'oq ta'rifi orqali odamlarning turli fe'l-atvori, ma'naviy olami haqida so'z ochadi. Chunonchi, puch yong'oq "shaldur-shuldur" qilgani bilan to'q yong'oq bo'lolmasligi, tosh yong'oqning chaqilishi qiyinligi – yu mag'zi kamligi misoli orqali insonlarga xos fazilat-u illatlarga ishora etiladi. Mag'zi to'q yong'oq oy-u oftoqga, "miyali koptok" ka qiyoslanadi. Bu qiyoslarga hayotga muhabbat, aql-idrok va bilimlarni egallash kuchli rag'bat uyg'otadigan mazmun singdirilgan.

Miraziz A'zam ijodida muayyan mavzudagi she'rlarga, oradan ma'lum vaqt o'tgach, qayta murojaat qilish tajribasi ham uchraydi. Bu jihatdan shoirning 70-yillarda yozgan "Ko'zlari hayotga tolgan bola" va uning mantiqiy davomi sifatida 90-yillarda yaratilgan "Tabib" nomli she'rlari xarakterlidir. Birinchi she'rda o'zi nimjon oriq bo'lsa ham haqiqatga intilgan, mard va kurashuvchan bo'lishni orzu qilgan kichik qahramon tim soli yaratilgan bo'lsa, oradan yigirma yil o'tgandan so'ng bu bolakayning yo'g'on tortib, ko'zini yog' bosgani, hatto haqiqatparastlarga qarshi kurashib, o'z orzu o'yillariga xiyonat qilgan gumroh kimsaga aylanganini afsus, achinish bilan tasvirlanadi.

Miraziz A'zam ijodiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri she'rlarida folklor an'alarining qo'llanganligidir. Shoir she'r va dostonlarida maqol, topishmoq, ibora, afsona, latifalarni qo'llab ta'sirchanlikni yanada oshiradi:

"Mehmon otangdan ulug',"
Degan maqol mard maqol.
Bu – biz uchun yo'l-yo'rug',
Amal qilamiz halol.

("Antiq")

"Ikki yuzli do'st" she'rlari xalq og'zaki ijodining topqirlikka yo'g'irilgan topishmoqlarga hamohangdir:

"Bir yuzi qora",
Bir yuzi oq...-
Bu ne ibora?
Bu ne saboq?

Bunday she'rlar bolalarni o'ylashga, fikrlashga va topqirlikka o'rgatadi. Bundan tashqari, Miraziz A'zam ijodigagina xos bo'lgan muhim xususiyatlardan yana biri bu – maktab sahnasi uchun yozgan maxsus asarlaridir. Ijodkor buyuk ajdodlarimizni yosh avlodga chuqurroq tanishtirish, anlatish maqsadida "Buxoriy darsi", "Zamaxshariy darsi", "Temuriylar haqida bahs", "Ulug'bek va o'g'li Abdurahmon" kabi sahna ko'rinishlari ssenariylarini yozgan. Jumladan, Zamaxshariy kim, uning qanday asarlari borligini, uning ilgama, uni egallashga bo'lgan intilishlarini, bu yo'lda sira charchamaslik-llarini bolalar xususiyatlariga mos ravishda ifodalaydi.

Shoirning mana shunday maktab sahnalari uchun yozilgan asarlari maktab darsliklariga kiritilsa, katta ijodiy meros qoldirgan bobolarimizni, ularning ilmiy, badiiy ijodlarini yosh avlodga yanada chuqurroq anglatishimizda ko'prik vazifasini o'tagan bo'lar edi.

Rang-barang ijod sohibi bo'lgan Miraziz A'zam bir qator dostonlar ham yaratgan. Chunonchi, "Aqlli bolalar", "O'lmas qush afsonasi" ("Erk qushi"), "Ona yurt osmonida" ("Momaqaymoq tilidan"), "Antiq" kabi dostonlarida mehnatsevarlik, do'stlik, erk, tinchlik, ahillik, haqgo'ylik g'oyalariiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shoirning "O'lmas qush afsonasi" ("Erk qushi") ertak-dostoni qarantlikka, qullikka duchor bo'lgan bir yurtning ozodlik, hurlik yo'lida olib borgan kurashlari haqidadir. Tarixda jang - u jaddalar ko'p bo'lgan. Bir mamlakat boshqa mamlakat ustidan hukmronlik qilgan. Erksiz, mazlum xalqlar esa mustaqillik, ozodlikni qo'masab yashashgan.

Ertak – dostonda tasvirlanishicha, bir baxtiyor yashayotgan mamlakatning ovozasini cho'l hokimi xoqongga ham yetib boradi. U bu mamlakatni har qanday yo'l bilan bo'lsa-da bosib olishga kirishadi. Jang-u jadal boshlanadi. Ahil, inoq, bir yoqadan bosh chiqaruvchi bu

yurtini xoqon bosib olmaydi. Shundan keyin u bu mamlakatni hiyla ishlatib bosib oladi. Ya'ni xoqon daryo bo'yida yashovchi Nahang qassobga qizini berib, o'sha yurtning boshqaruvini o'z qo'lga oladi. Nahang qassobning onadan yetim qolgan Olmos degan qizi va O'lmas degan o'g'li bor edi. Olmos Barchinoydek chaqqon, uddaburo hamda aqlli bo'lsa, O'lmas pahlavon haqiqat, adolat, ozodlik uchun jonini ham ayamaydigan o'g'lon bo'ladi. Nahang qassob xotinining hiylasiga uchib, o'g'lini bo'rilar koniga olib borib tashlaydi. Bo'rilariga yem bo'lgan O'lmasning suyaklarini Olmos gul tagiga ko'madi va uning qush bo'lib tirlilishini chin didan istaydi. O'lmas qush bo'lib tirlilib o'gay onasi hamda otasidan gasos bladi. El-yurtida adolat o'rnatadi. Asar oxirida O'lmas qush o'z holiga qaytadi va o'z yurtiga podsho bo'ladi. Endi bu diyor yana ozod, erkin va baxtiyor hayot kechira boshlaydi. Doston bolalarni ahli-inoq bo'lishga, haq, adolat uchun kurashishga, birovga qaram, mute bo'lmaslikka, aksincha erkin, mustaqil bo'lib yashashga chorlaydi.

Shoirning "Aqlli bolalar" dostoni boshqa dostonlaridan alohida ajralib turadi. Dostonda bolalarning pilla qurti boqishi haqida hikoya qilinadi. Shoir faqat shu masalada to'xtalib qolmasdan, balki hozirgi kunda ham global muammolardan biri bo'lgan atrof-muhitni, tabiatni asrash haqida ham so'z yuritadi. Dostonda tasvirlanishicha, bolalarga pilla qurti boqish ishonib topshiriladi. Ular qurt boqish maqsadida Asrorlarning barcha tut daraxtlarini kallaklashadi. Aqlli, fikrchan bola bo'lmish Asror ularni o'ylab ish qilishga, bu ishlari shu tarzda ketisa ko'plab dov-daraxtlarning nobud bo'lib ketishi mumkinligi bilan ogohlantiradi. U bir daraxt kesishdan oldin o'nta daraxt o'tkazib qo'yish tarafdori. Asror shu maqsadi yo'lida ular bilan olishadi va tabiatni asrashga chaqiradi:

Har yil ko'chat ekamiz,
Parvarishlab ularni
Qancha zahmat chekamiz.
Qishloq yam-yashil bo'lsin,
Bo'lsin deymiz mevazor.

Shoir dostonda "Aytilgan gap-otilgan o'q", "O'ylamasdan so'ylama", "Yetti o'lehab, bir kes" kabi maqollarini keltirish bilan bolalarni har bir gapni gapirishdan oldin yoki har bir ishni boshlashdan avval obdon o'ylab, mushohada yuritib, keyin bajarish kerakligini uqtiradi.

Bundan tashqari, dostonda yashillik dunyosi ayamassdan qiritlsa, bizdan keyingi yetishib kelayotgan avlod nok, tut nima ekanini bilishmaydi degan ogoh chaqiriqlari ham bor.

Yillar o'tib bolalar,
Shinni nima bilmaydi.
Bular uchun kim aybdor?
Birov emas, o'zimiz.

Ijodkor doston oxirida hech bir ish bir-biriga xalqaqt qilmasligini ta'kidlaydi:

Tutni pilla tufayli
Haqqimiz yo'q qirishga.
Xalqaqt bermasin-da
Bir ish ikkinchi ishga.

"Qirq bolaga qirq savol", "Mardlik va aql yorug'ligi", "Nima yaxshi-yu nima yomon", "Bir cho'ntak yong'oq"(turkum), "Yer aylanadi", "Saylamna" to'plamlariga kiritilgan she'rlari nafaqat shoir ijodida, balki bolalar she'riyatida alohida o'rin tutadi.

Savol va topshiriqlar

1. Miraziz A'zam ijodining yetakchi xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Shoir she'riyatida lirik gahramon ruhiyati tasvirini qanday tushunasiz?
3. Shoir she'riyatida falsafiy g'oyalar talqiniga misollar keltiring.
4. Shoir she'rlarida savollarga nima uchun alohida e'tibor qarataadi?
5. "Mardlik va aql yorug'ligi" she'rini tahlil qiling.

Tursunboy Adashboyev she'riyatida beg'ubor bolalik talqinlari
(1939-2017)

Reja:

1. Tursunboy Adashboyev – tabiat kuychisi.
2. Tursunboy Adashboyev ijodida satira va yumor.
3. Tursunboy Adashboyev – tarjimon.

Ulug' yozuvchilar tarixiga nazar tashlasak, iste'dodning tug'ishi har kimda har xil kechganini ko'rish mumkin.

Kichikintoylarning sevimli shoiri Tursunboy Adashboyev so'zini so'zga juftlab, o'z hayratiyu bor g'ayratini qog'ozga tushira boshlaganida 12-13 yoshlarda bo'lganini sog'inch bilan xotirlaydi.

“Kamolning olmasi” nomli ilk she'riy to'plamni e'lon qilganida u hali ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) talabasi edi, Tinimsiz ijodiy izlanishni o'zining a'moli deb bilgan shoir Moskvadagi Oliy Adabiyot institutida tahsil ko'rib, jahon bolalar adabiyotining nodir namunalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Sobiq ittifoq hududidagi tengqur bolalar shoirlari va tarjimonlar bilan ijodiy bahs-munozaralarda qatnashib, toblandi.

T. Adashboyev ijodining yetakchi xususiyati haqida gap kelganda, eng avvalo, erishgan yutuqlari bilan xotirjamlikka berilmasligi, behalovat izlanuvchanligini alohida tilga olish joiz. Negaki, ayrim ijodkorlar ma'lum darajaga erishgach, mahoratini oshirish ustida bosh qotirmaydi, natijada o'z-o'zini takrorlashdan nariga o'tolmay qoladi. T. Adashboyev bu yo'lning ijodkor uchun g'oyatda xatari ekanini chuqur his etadi.

Ijodiy xotirjamlikka berilish, o'z qobig'idan tashqari chiqqan olmasligini badiiy mahorat kushandasi deb bilgan shoir badiiy ijodda ham o'z e'tiqodiga qat'iy amal qiladi. Agar uning “Kamolning olmasi”, “Biz sayohatchilar”, “Olatog'liq bo'laman”, “Sumay”, “Arslonbob sharsharasi” to'plamlariga kirgan beg'ubor bolalik, Vatan, ona tabiat haqidagi talay she'rlarida an'anaviy tasvir uslubining ulug'vorlik qilishi ko'zga tashlansa, so'nggi yillarda e'lon

qilgan “Uch baqaloq va sirti qovoq”, “Orzularim – qo'sh qanotim”, “Oltin yo'lli tulpor”, “Latifboyning loflari” kabi kitoblardagi aksariyat namolarida hayrat aralash yengil yumor va o'yin vositasida o'ziga xos ezgulikka yo'g'rilgan hayot falsafasining bolalarbop tilda, ammo kattalarni ham o'ylashga undaydigan tarzda ifodalinishini o'z ichida jalb etish, tinimsiz izlanishlar mahsuli, deb baholash mumkin.

To'rg'ay yotar tuxum bosib,
Shuvoq bilan sirlashib.
Qora qo'ng'iz soqqa yasab,
Do'ngga tortar tirmashib.
Yumronqoziq serhadik
Ish bitirar yugurib.
Sug'ur archa ostida
Turar tasbeh o'g'irib.
Chigirtkalar qamishdan
Nay yasaydi – kertadi.
Ko'kandagi biyaga
So'na dutor chertadi...

“Toldi buloq”

Tuxum bosib yotgan to'rg'ayning shuvoq bilan sirlashishiyu qora qo'ng'izning soqqa yasashi, yumronqoziqning hadiksirab, alanglab yotishiyu sug'urning archa ostida tasbeh o'g'irib o'tirishi, chigirtkani qamishdan nay yasashiyu so'naning biyaga dutor chertishi – dala-dahldagi tabiat manzarasining undagi jonzotlar misolida badiiy obrazli suvratlantirishi kichik kitobxon qalbida yorqin hislar uyg'rtadi, tasavvurini, ongu shuurini ona tabiat ko'rinishlariga bog'laydi. Katta yoshli kitobxon esa o'sha manzara-holatlarni necha marotaba ko'rgan, kuzatgan, guvohi bo'lgan esa-da o'z e'tiborsizligidan hayratga tushadi. Lirik qahramonning sinchkov nigohi, tabiatga iliq munosabati unga ham ko'chadi.

Shunisi muhimki, o'sha tabiat, o'sha yurt – uning Vatani. O'quvchida mana shunday kayfiyat tug'dirish undagi Vatanga muhabbat va sadogat tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi.

“Uyimiz sovuq edi, – deb yozadi shoira Kavсар Turdieva. – Hali “dom” isitila boshlamagandi. Kichik o'g'lim esa deraza oynasiga bo'yoqlar bilan qip-qizil quyoshning rasmini chizibdi. Nimagadir Tursunboy Adashboyevning “Jo'nataman quyoshni” she'ri esimga tushdi. “Jo'nataman quyoshni, men kelgusi xatimda”, deb yakunlagan she'rda Tursunboy akaning ijodiga xos bo'lgan psixologizmlar va milliy ruh bo'rtib ko'rinadi.

Bolalar yozuvchisining mahorati – bu fagatgina dunyoni bolalar ko'zi bilan ko'rish va idrok etishiga emas, balki bu idroki keng o'quvchilar ommasiga ana shu tarzda namoyon qilishdir”.

Nazarimda, T. Adashboyevning badiiy mahorati ham aynan dunyoni bolalar ko'zi bilan ko'rishi, idrok etishi va uni o'quvchiga shu tarzda yetkazishi bilan belgilanadi. Bog'bonlarning dov-daraxtlarining soch-sog'olini qiyishi, oqlangan daraxtlarning oppoq pay-poq kiyishi (“Hasharda”), bahorning qishni burnidan tarmovga osib qo'yishi (“Sumalak”), chaqmoqning ko'kda yong'oq chaqishi (“Bahor kelgach”), Asqar tog'dan tushayotgan suvning qoyalarda yanchilishi, qarag'ayning ko'kka sanchilishi, qorli cho'qqining qirg'iz tumog'iga o'xshatilishi (“Sarichelak”), ayiqning piymasini ivtishiyu quyoning oq tividan o'ziga po'stin tikishi, yashil taroq archalarning shamolning sochlarini tarashiyu oq yaktakli qayinlarning zarbaldog taqishi (“Qish”) aslida bolalarcha tasavvur va idrok mahsulidir.

T. Adashboyevning bolalar shoiri sifatidagi ijodiy takomilida folklor asarlarining ifoda uslubiyu Quدرات Hikmat, Sulton Jo'ra, Zafar Diyor singari ustozlar ibratini, jahon bolalar adabiyotining ijodiy an'analari bitmas-tuganmas ilhom manbai, tajriba maktabi vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham ustozlarini “meni tarbiyalab voyyaga yetkazgan bog'bonlar”, deya e'zozlab tilga oladi, jahon bolalar she'riyati namoyandalari ijodini esa “men suv ichgan chashmalar” deya hurmat bilan ta'kidlaydi.

Inson tabiat farzandi sifatida bolaligidan boshlab uning sir-sinoatini bilishga qiziqadi. Maysa-ko'katlaru dov-daraxtlarning nish

urib ko'karishidan tortib, to yugurib-qovjirab qolgunigacha bo'lgan davrdagi turfa holatlari, umuman, quyosh, suv, tuproq, havo uyg'unligining o'ziga xos qonuniyati azaliy muammo tarzida insoniyatni bolaligidan qiziqitirib keladi.

Quddus Muhammadiy va Quدرات Hikmatlarning tabiatdagi ana shunday sir-asrorlar tasviri bilan bog'liq ijodiy an'analarni izchil davom ettirib kelgan Tursunboy Adashboyev asarlarida tabiatdagi har bir holat-manzara mo'jizakorlik kasb etadi. Bahor elchisi bo'lgan boychechak o'zini oftohning parchasi deb biladi. Kuz faslida “oq yaktakli qayinlar” zar baldoqlar tagadi, zarg'aldoqlar chag'chag'lab qushlarga gap tayinlaydi.

Shoirning “Sog'inish” she'rida yomg'ir yog'ishi manzarasi har narsaga qiziquvchi bola tilidan o'zgacha qiyoslar bilan keltirilishi tufayli kichik kitobxon qalbiga hayrat tuyg'usini solishi tabiiy:

Kuni bilan,

Tuni bilan

Yomg'ir ezib yog'adi.

Bulutlarni tabiat

Erinmasdan sog'adi.

Ko'cha-ko'ylar yaltirar

Tuxumdayin archilib.

Ko'kning tubi teshilganni,

Tomchi tushar yanchilib.

Q. Hikmatning “Qish to'z-g'itar momiq par” she'rida qor yog'ishi qishning bulut to'shagini savashi tufayli momiq parga o'xshatilishi bilan Tursunboy Adashboyevning “Sog'inish” she'rida yomg'ir yog'ishi tabiatning bulutlarni sog'ishiga o'xshatilishi o'rtasida ham ustoz-shogirdlik adabiy aloqalarining ijodiy natijasini ko'rish mumkin.

“Quدرات aka bilan meni, - deb eslaydi T. Adashboyev, - vallomat shoir, ustoz Mirtemir Yozuvchilar uyushmasining Do'rmon qishlo-

g'idagi qarorgohida yosh ijodkorlarning birinchi seminar kengashida tanishtirgan edi.

Qudrat Hikmat o'zbek bolalar adabiyotiga pand-nasihatlardan tamoman holi, oxiri to'klimgan qofiyalar bilan bezatilgan o'ta ravon, bolalarda quvmog, kichkinoylar bir o'qishdayoq yodlab oladigan jarangdor she'riyati bilan kirib kelgan. O'ta oqibati, cho'rtesar, shogirdlarni dasturxonaga emas, yozgan mashqlariga qarab tanlaguvchi edi. Xotirasi kuchli bo'lib, vaqti matbuotda chiqqan boshlovchi shogirdlarning she'rlari ustozga yoqib qolgan bo'lsa, uni muallifning o'ziga yoddan aytib, yo'l-yo'lakay tahlil ham qilib berardi".

Tursunboy Adashboyev Q.Hikmatdan nafaqat ijod sirlarini o'rgandi, balki yuksak badiiyatga erishishning birinchi omili — o'ziga talabchanlikni ham meros qilib olgan desak xato bo'lmaydi.

Qudrat Hikmat bilan Tursunboy Adashboyevning ijodiy hamkorligidan yaxshi xabardor S.Barnoyev quyidagilarni yozadi: "Tursunboy Adashboyev Qudrat Hikmatdan, avvalo, qisqalikni, she'rning samimiy yozilishini, fikr butunligini, chaqmoqdek chaqilgan qofiya, she'riy yakun, ichki holatni o'rgandi. Ammo ustozning takrori bo'lib qolmadi, taqlid qilmadi". Bunga qo'shimcha qilib o'ziga gagina xos yo'ldan borganligini ham aytish mumkin. Ustoz Qudrat Hikmat bilan shogird Tursunboy Adashboyev ijodidan olingan misollarga murojaat qilamiz.

Savab bulut to'shagin
Qish to'zg'itar momiq par.
Yerga serbar oq namat
Yozilganday yaltirar...
Pirpiratib ko'zini
Avtobuslar o'tadi.
Qahraton qish hovurni
Mo'rkon kabi yutadi.

Q.Hikmat

Qish ayozi tobida,
Qor erimmay bo'ralar.
Shox-shabba orasidan
Ovchi sergak mo'ralar.

Ayiq g'orga yo'l olar
Piymasini ivitgan.
Quyvon po'stin tikibdi
O'ziga oq tivitidan.

T.Adashboyev

Keltirilgan har ikkala parchaning o'xshash va farqli jihatlari borligini sezish qiyin emas. O'xshashligi har ikkala she'riy parchaning qish mavzusiga bag'ishlangani, turoq va hijrlarning tengligi, ichki tuzilishi, qofiyalanish tartibi, eng muhimi, ohangi — ruhining yaqinligi bilan belgilanadi.

Farqi esa qish manzarasining har ikkala shoir tomonidan o'ziga xos uslubda hujjatlashtirilishida ko'zga tashlanadi. Birinchi parchada qahraton qish manzarasi shaharlik kishi nigohi orqali idrok qilinadi. Shaharda uylar tig'iz, ko'z ilg'amas dalalarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham lirik qahraton o'ziga tanish manzara-holatdan kelib chiqib yerlarning qor bilan qoplanishini oq namat to'shalganday tasavvur qilish bilan cheklanadi. Yog'ayotgan qor ostida avtobuslar chirog'ining shu'lasini ko'zini pirpiratganga o'xshatilishi ham shahar qishi haqida yaxlit tasavvur tug'dirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi parchada ham qahraton qish manzarasi, qorning bo'ralab yog'ishi tilga olinadi. Lekin har ikkala asardagi she'riy ohang, lirik qahratonlar kechimalari qay darajada uyg'un bo'lmasin, ularning tuyg'ulariga bo'lak omillar sabab bo'lganini ko'rish mumkin. T.Adashboyev she'ri qahratonning zavqini qo'zg'atgan narsa qish manzarasining o'zigagina emas, balki shu faslda dala-dashtda yuz beradigan o'zgarishlardir. Ayni qor yoqqanda ovchilar dala-dashtga o'tlanadilar, turli jonzoqlarning hatti-harakatlarini sergak kuzatadilar. "Piymasini ivitgan" ayiqlar uxlab hordiq chiqargani g'orlarga yo'l oladi...

Ko'rinadiki, bir xil mavzu har bir shoir tomonidan o'zgacha idrok qilinadi. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Shu o'rinda biz aytmogchi bo'lgan asosiy fikr ikkala asar ruhياتidagi yaqinlikning Quddat Hikmat bilan Tursunboy Adashboyev o'rtaqidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari natijasi ekanligidir.

Atrofimizdagi turfa olam manzaralarini beg'u-bor bolalik tasavvuri bilan idrok etish, undan o'zi uchun mulqo yangi bir mo'jizalar kashf qilish, eng muhimi, kitobxonni ham shunga ishontrish mahoratini egallashda Tursunboy Adashboyev o'z e'tiqodiga sodiq shogird sifatida qalam suradi. Jumladan, bahorda yomg'irning yemi y'dirishi, yashil chakmon kiydirishi haqida mustaqil fikrga ega lirik qahramon betizgin xayollari bilan hamma narsani harakarda deb biladi:

Bahor ko'ylak kiyirdi,
Ko'k egniga bulutdan...

Tursunboy Adashboyev Sulton Jo'raning qalamiga mansub "Tinish belgilarining majlisi", "Kimning xati chiroylari?", "Harflar paradi" kabi asarlardan ilhomlanib "Mening savolim", "Topqir bo'l-sang", "Bobo, qancha yoshdasiz?", "Chug'urchuq", "Topishmoqli alifbe" kabi ma'rifiy-tarbiyaviy xarakterda qator she'rlar yaratdi. Lekin ularning hech qaysisi taqlid xarakterida bo'lmasdan, shoirning kichkintoylarga aytish zarur deb bilgan o'y-fikrlari, o'ziga xos "hikmat"lari mahsuli sanaladi.

Bolalar adabiyotining kichkintoylarni olam jumboqlari, tabiat mo'jizalari bilan tanishtiruvchilik-tarbiyalovchilik vazifasi ayran shu o'rinda ko'zga tashlanadi.

Shoir tabiatga muhabbat g'oyasini "Shanbalik" she'rida bog'bonlarga hashar yo'li bilan yordam bergan bolalar mehnatini tasvirlash orqali ifoda etsa, "Arqida"da fusunkor ona tabiatni toptab, kakliklarga qiron kelirgan ovchiga nafrat izhor etish yo'li bilan bayon qiladi.

"Shanbalik" she'ri bog'bonlarga hashar yo'li bilan yordam bergan bolalar tilidan yozilgan. She'r qahramonlari o'z mehnatlari samarasidan mamnun. Bu mamnunlik ularning tasavvurlarini yanada boyitadi. Bolalarning ko'ziga bog'bonlarning dov-daraxtlardagi

ortiqcha shox-shabbalarni butashi soch-soqolini olishga, daraxtlar tanasining oqlangandan keyingi holati oppoq paypoq kiyangaga o'xshab ko'rinadi. Bu o'xshatish she'rning ta'sirchanligini oshiradi, uni uzog vaqt esda saqlab qolishga yordam beradi.

Bolalarning olam jumboqlarini tushunishida narsa-buyumlarni taqqoslashning muhim vosita bo'lishi inobatga olinsa, shoir kelirgan o'xshatishlarning ahamiyatini anglash qiyin emas.

Shoir "Arqida" she'rida tabiatning fusunkor manzarasini chizadi. Uning nazdida tog'dagi tinch hayot tabiat go'zalligiga monand, bu go'zallikka alohida fayz bag'ishlaydi:

Burqir archa burog'i
O'rmon yashil, qir yashil.
Sug'ur uxlar xotirjam,
Yumronqozig don tashir.

Sokin va tinch hayot kakliklarga otilgan o'q ovozidan buziladi. Bundan faqat kakliklar emas, balki butun tabiat norozi: "Tog'u toshlar asabiy, archa yonar tutaqib".

Bizningcha, bu yerda ovchini so'kib, la'natlab o'tirishning hojati yo'q. Kichik kitobxon shusiz ham tog'u toshlarning asabiyigi va archaning tutashidan ovchining yovuz qilinishi to'g'risida ma'lum xulosaga keladi.

Ko'rinadiki, shoir kichkintoylar qalbida ona yurtga muhabbat uyg'otishda uning go'zalligini madh etish yoxud tabiiy boyliklarni sanash yo'lidan bormaydi. Aksincha, bu muqaddas tuyg'uni dov-daraxtlarni parvarishlab yashnatishga oz bo'lsa ham hissa qo'shgan bolalarga mehri, tabiat boyliklarini payhon qilgan ovchiga nafрати orqali tashviq etadi.

T. Adashboyev ijodiga xos xususiyatlardan biri badiiy soddalik va disqalikka intilishi bilan belgilanadi. Shoirning "Turist", "Xolis xizmat", "Kosmonavt", "O'yin topmay", "Insof talab", "Yordam so'rab", "O'lja", "Kim polvon?", "Latifonning loflari", "Ayamadi mo'ylabin", "Bug'doy boshog'i", "Oq yoi", "Oltin yoli tulpor qissasi" kabi ko'plab asarlari buning yorqin dalilidir. Jumladan,

“Turist” she’rida o’rgimchakni safar xalta orgalagan turistga o’xshatish orgali ko’z o’ngimizda hammaga tanish jonli manzarani suratlantiradi.

Safar xalta orgalagan turistdek,

Dor katagi asfalt yo’ldan durustdek

Zir yo’rg’alar o’rgimchak,

G’ir yo’rg’alar o’rgimchak.

O’rgimchak – turqi sovuq hasharot. U bexos ko’zi tushgan har qanday kishini seskanitiradi. Shoir she’rning ikkinchi to’rtligida o’rgimchakning hayot tarziga ishora qilish bilan kichik kitobxonning u haqdagi daslabki noxush tasavvurini o’zgartiradi:

To’r xaltaga pashsha, chivin joylanib,

O’zi chizgan “yer shari”ni aylanib,

Zir yugurar o’rgimchak,

G’ir yugurar o’rgimchak.

Bu yerda o’rgimchak to’qigan to’rning Yer shariga o’xshatilishi she’rning obrazlilikini yanada oshiradi. Har ikkala to’rtlikning oxirgi misralaridagi (“Zir yugurar o’rgimchak”) ohangdorlik, qisqalik, obrazlilik ko’z o’ngimizda o’rgimchakning chopib yurgan holatini ko’zudagidek aniq gavdalantiradi.

Ifodaning qisqa va nafisligi jihatidan ajralib turadigan “Xolis xizmat” she’riga asos bo’lgan material butun boshih bir ertak bo’lishi mumkin.

Qari echkini kana bosdi. U yo’qlaguvchi hech kimi bo’lmaganligidan Chug’urchuqqa borib, kanasini terib qo’yishini iltimos qiladi. Chug’urchuq Echkning iltimosini bajaradi-yu, xizmat haqiga kelirgan oq tivini qaytarib yuboradi. Echki endi tuyuqlaridan andoza olib, o’sha tividan to’rtta qo’lqop to’qiydi. Chug’urchuq qo’lqoplarining u yoq-bu yog’ini ko’zdan kechirib, bolalarimga in bo’lar deya olib qoladi va Echki ga rahmat aytradi.

Bor-yo’g’i o’n ikki misralik bu she’rdagi qo’lqop detali shoirning muhim topilmasidir. Echkning tuyuqlaridan andoza olib to’qigan qo’lqopi, tabiiyki, chug’urchuq inini eslatadi. Qo’lqop bilan in o’rtasidagi bunday o’xshashlik asarni hayotga yanada yaqinlashtiradi.

Aytilish joizki, bolalar adabiyotining tarbiyaviy mohiyatini bir yoqlama tushungan talay yozuvchilar ijodida pand-nasihat alohida o’rin tutadi.

T.Adashboyev ijodining yutug’ini ta’minlagan omillardan biri pand-nasihatga yo’l qo’ymaslik, aksincha bolalarning betuzgin xayollari qozig beruvchi, tasavvurlarini boyituvchi asarlar bilan belgilanadi desak xato bo’lmaydi.

Bugungi bolalar she’riyatining yetakchisi darg’alaridan Tursumboy Adashboyev nafaqat she’riy ijodi, balki Rustam Nazar, Erpo’lat Baxt, Zafar Isomiddin, Sodiqjon Inoyatov, Dimurod Jabbor, Xudoyberdi Komilov, Ma’mur Qahhor, Qo’zi Ismoil, Nurillo Oston kabi kenja avlod bolalar shoirlarining g’arnxo’r maslahatgo’yi sifatida ham talay ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Ularning yangi kitoblari qatnashgan muvofiq sahfalarida tegishli munosabat bildiradi, lozimga topganlariga xat bilan murojaat qilib, kichikintoylarni aldamsalikka da’vat etadi.

Jahon bolalar she’riyatining talay namunalari T.Adashboyev tarjimasida keng kitobxonlar ommasining adabiy mulkiga aylangan. Ularning ichida K.Chukovskiyning “Yuvin, do’mbog’im”, “Moydodir”, S.Marshakning “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”, “Tentak ovchi”, “Dono sichqon haqida ertak”, S.Aksyonovning “Sehri qizil gul”, V.Berestevevning “Ko’lmakdagi suratlar”, “O’qishni bilsang o’zing”, B.Zaxoderning “Samovar”, “Bo’ri maqtasa...”, N.Dumbadzening “Ketino”, “Iгна”, Ovesey Drizning “Kutilmagan hodisa”, V.Dan’koning “Qorobo bo’lsam agar”, Yan Bjevanning “Tuxum va tovuq”, “Tuz haqida ertak”, Uolter Delamerning “Pat saqlanar yostiqda”, “Bekinnachog” kabi asarlari bor.

Tarjimonning mahorati shundaki, agar uning nomi yozilmasa, kichik kitobxon dabdurusidan asarning tarjima ekanligiga ishonmaydi. Ovchining o’ziga miltiq o’qatishdek dahshatli holga yeti pushuning duch kelmaganligi yuzasidan Burganing iqrir-e’tirofi

she'rga milliy ruh bag'ishlaydi. Natijada aslyat bilan tarjima o'rtasidagi chegara barham topadi.

T. Adashboyev ijodini kuzatgan zukko kitobxon uning uchun ona tabiat bitmas-tugannas ilhom manbai bo'lib, tabiatdagi jonli va jon-siz jamiki mavjudotga tegishli har bir holat, manzara tufayli bolalarcha hayratlarga cho'mgan ijodkor tasavvurida o'zgaicha bir olam yaratilganiga guvoh bo'ladi. Muhimi, shoir xayolotida yaratilgan ana shu badiiy olam boshqalarni ham befarq qoldirmaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Tursunboy Adashboyev ijodidan tabiat tasviri o'rinlarini topib lirik qahramon ruhiyatiga ta'sirini izohlang.
2. Shoir she'rlaridagi satirik va yumoristik timsollarning yetakchi xususiyatlarini aniqlang.
3. Shoirning S. Ya. Marshak, K. I. Chukovskiy asarlaridan qilgan tarjimalari misolida tarjimonlik mahoratini izohlang.

Qambar O'tayev – ozod va obod Vatan kuychisi (1941-2016)

Reja:

1. Qambar O'tayev ijodida Vatan va mustaqillik mavzusining aks etishi.
2. Shoir she'rlarida quvnoq bolakay timsolga xos yetakchi xususiyatlar.
3. Shoir ijodida Vatanga muhabbat motivlari.

Bolalarga atab 20 dan ortiq she'riy kitoblari va yuzlab quvnoq qo'shiqlar yozgan shoir Qambar O'tayev (Qambar Ota) ning ijodi, ayniqsa, mustaqillik yillarida ham mazmunan, ham sifat jihatidan gurkirab o'sdi. U mustaqillikning xalqimizga keltirgan sharofati tufayli yosh yuraklarda namoyon bo'lgan ozod Vatan sevgisi, g'urur va faxr tushunchalarini ulug' muhabbat bilan tarannum etishga qalb qo'rini bag'ishladi.

Shoirning "Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak", "Qush bilan gaplashdim", "Tomda uxlagan bola" kabi to'plamlariga kirgan axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlari kichkinoylarni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalashga qaratilishi bilan alohida e'tiborga loyiq. Shuning uchun ham sara she'rlari maktab darsliklari, darsdan tashqari o'qish kitoblaridan, bolalar bog'chalari va maktablar uchun metodik qo'llanmalardan tushmay keladi. Jumladan, birinchi sinf "Odob-noma" darsligiga kiritilgan "O'zbekiston – onajon", 1-sinf "O'qish kitobi" dagi "Yer", 2-sinf "O'qish kitobi" dagi "Bog'da", 4-sinf "O'qish kitobi" dagi "Non qayerdan keladi?" kabi talay she'rlari kichkinoylarni atrofigimizdagi olam bilan tanishtirish orqali Vatanga muhabbat tuyg'ulariga turki beradi.

Shoirning "Ay-ay-ay...", "Bolalarning ko'zlari", "Toy bola", "O'zbekiston-Onajon!", "Bunday o'lka qayda bor?", "Bola aziz", "Kulishlaring", "Suyukli navro'zim", "Ofobjonim-o'rtoqjon", "Gul-loladan jamalak", "Gul yaxshi, lola yaxshi", "Polvonman" kabi qo'shiqlarini kichkinoylar, ayniqsa, sevib ijro qilishadi.

Shoirning "Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak" asarida qahramonlarning mustaqillikka mos ravishda kasb-koraga qiziqishi, tadbirkorligi tufayli hayot yo'lini topish tasvirlansa, "Vatan sog'in-chi", "Tabarruk qabul" dostonlarida Vatanga yuksak muhabbat tuyg'ulari ulug'lanadi. Mazkur asarlar bolalarni haqqoniylik ruhida tarbiyalashga, Vatanni sevisha da'vat etishi bilan ajralib turadi.

Qambar O'tayevning yuqorida nomlari tilga olingan kitoblari-dagi "Aziz Vatan", "Rubobim", "Ertaksevar quvnoq bola" she'rlarini o'qiganingiz sari dilingiz yorisha boradi. Shoir she'rlari sarlavhasidanog zavqlana borasiz: "Quyosh bola, oy bola", "Sog'lom avlodga balli!", "Baxt – omadi chopag'on", "Erka qushim" va hokazo.

Shoirning "Tomda uxlagan bola" deb nomlangan kitobini qo'lga olgan o'quvchi, tabiiyki, bu qanday bola ekan, deb o'ylaydi. She'rlar bilan tanishish jarayonida uning dastlabki xayoli tamoman o'zgaradi. Yoz issig'ida sho'x bolaning tunda tom ustiga chiqib yotishida o'zga ma'no borligini bilgach, tengdoshining qiliqlaridan zavqlanadi. Bunday hazinamo she'rlardan "G'ildirak ichida yugurgan olmaxon", "Hazilkashlar", "Qovoqlar", "Yayrab yurgin, echkitcham" kabi she'r-

lar bolalar dilini yayratadi. Xullas, bolalarni ham quvnatadigan, ham fikrga chorlab, o'ylatadigan asarlarida shoir Qambar O'tayevning talantini yorqin namoyon bo'lgan.

“Tug'ilishimda doyalik qilgan buvimning ayitishi bo'yicha Navro'z bayrami boshlanishiga 12 kun qolganda tavallud topgan ekanman, - deb yozadi shoir. – Tug'ilganlik haqidagi guvohnomani 1957-yili Kattaqo'rg'on shahrida olganman.

Ismim – Qambar. Bu so'z ikki xil ma'no anglatadi: biri – yangi oy, ikkinchisi – yulduzlar turkumi. Har ikkalasining ma'nosi bir-biridan yaxshi. Yangi ko'ringan oy – yaxshilik alomati. Yulduzlar turkumi – turfa – turkum do'stlar, turfa yorqin ishlar hamrohi bo'lsin, degan ma'noda menga bu ismni qo'yishganidan minnatdorman”.

Taqdir taqozosi bilan bo'lajak shoirning bolaligi Koson va Chiroqchi dasthlarida, Urgutning Bahrin qishlog'ida, Darg'om an-hori bo'ylarida, Pastdarg'om tumani dalalarida, Kattaqo'rg'on shahrida va undan sollanib oqib o'tuvchi, o'sha paytda to'lib, timb, yayrab, oquvchi hayotbaxsh Kattaqo'rg'on an-hori va Nahripoy va undan narroqda Qoradaryo bo'ylaridagi so'lim jiydazor, o'rikzor, uzumzorlar, turli-tuman mevazorlarga to'lib toshgan unutilmas go'shalarda o'tadi.

Vatan haqidagi birinchi she'ri Kattaqo'rg'onidagi Miriy nomli maktabda o'qiyotganida tuman gazetasida yorug'lik ko'rtdi. Ko'p o'tmay “Yong'oq” sarlavhasi masala chiqdi. So'ng birin-kekin Samarqand viloyat gazetasida, “G'uncha” jurnalida she'rleri paydo bo'la boshlaydi. Ko'p o'tmay, to'liqsiz o'rta ma'lumot bilan Samarqand temir yo'l texnikumiga o'qishga kiradi, so'ngroq texnikumda o'qish barobarida 69-kechki maktabga o'qishga qatnab, 1962-yili birato'la bitirdi. Xuddi shu yilning o'zida Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Bu davr ichida uning ancha – muncha she'rleri turli nashrlarda ko'zga ko'rinish, tanilib qolgandi.

Ijodga qatnig ko'ngili qo'ygan shoir 1974-yilda oilasi bilan Toshkentga ko'chib kelib G'afur G'ulom nomli Adabiyot va San'at nashriyotida ish boshlaydi. Bisotida ancha yetilib qolgan she'rlarini to'plab “Vatan tuprog'i”, “Bizning kosmos” nomli kitoblarni chop

ettirdi. She'rleri va ertak – dontonlari tiniqib, tilga tusha boshladi. Aynigsa, bolalarga atalgan she'rleri soddaligi, samimiyati, dilga yaqinligi bilan kichikintoylar quvonchiga quvonch qo'sha bordi. Yillar osha Respublikamizning tanikli kompozitorlari shoir she'rleridan tanlab qo'shiqlar yaratdi. Pedagog olimlar tartibiyaviy ahamiyati katta bo'lgan, talant bilan yozilgan asarlarini turli maktab darsliklariga, darsdan tashqari o'qish kitoblariga, metodik qo'llanmalarga, qo'shiqlarini esa musiqqa darsliklariga kiritishda davom etdi.

Shoir Qambar Otaga yozgan asarlari ichida vatandarparvarlik, ta'lim-tarbiyaga oid “Sadodat”, “O'zbekiston, onajon”, “Vatan sog'inchi”, “O'xshamay ketgur...”, “Qo'ng'izlar jangi”, “Bola aziz”, “Sardor afsonasi”, “O'tgan gap” kabi teran ma'noli she'rleri va talant bilan yozilgan “Erka egizaklar”, “Bog'bon hikoyasi” dostonlari, yuzlab qo'shiqlari shoirga katta shuhrat keltirdi.

Shoir 1999-yilda II-darajali “Sog'lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Savol va topshiriqlar

1. Qambar Otaning bolaligi bilan ijodida qanday uyg'unlik mavjud?
2. Shoir o'z bolaligidan mamnunligini qanday xotirlaydi?
3. Qambar Ota she'rlarining qo'shiq qilib kuylanishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
4. Shoirning darsliklarga kirgan she'rlarini qiyosiy tahlil qiling.

O'SMIRLAR ADABIYOTI

Xudoyberdi To'xtaboyev – sarguzasht janrlar ustasi
(1933–2021)

Reja:

1. Ijodiy izlanish yo'lida.
2. Xudoyberdi To'xtaboyev – feletonchi.
3. "Sehrli galpog'cha" – yozuvchi ijodining gulhoji.
4. "Sariq devni minib" romanining b'olalar adabiyotida tutgan o'rni.
5. "Qasoskorning oltin boshi" romanidagi Namoz botir timsolida haqiqat tantanasi uchun kurash g'oyasining ifodalaniishi.
6. Xudoyberdi To'xtaboyev – jahongashta adib.

Xudoyberdi To'xtaboyev...

Bu nomni eshitganda yoki u haqda o'qiganda katta-kichik – barchaning yuz-ko'ziga bir iliqlik yoyilishini kuzatish mumkin. O'ylab qolasiz. Ijodkorning kitobxonlar qalbiga bu qadar chuqur kirib borishining sababi nimada. O'zbek bolalar adabiyoti dovrug'ini nafaqat rus, ukrain, ozarbayjon, qozoq, gruzin, qirg'iz, belorus, turkman kabi hamdo'stlik mamalakatlari kitobxonlari, balki uzoq xorijlik: ingliz, arab, yapon, nemis, bolgar, fransuz, ispan, chech bolalari orasida ham keng yoygan adibning badiiy mahoratini yuksaltirgan omillar to'g'risidagi kuzatishlar xayoldan kechadi.

"Har bir yozuvchining o'ziga xos hayot yo'li bor, – deb yozgan edi akademik M. Qo'shjonov "Sariq devni minib" kitobidagi so'zbo'shida. – Tabiiyki, u tug'ilib o'sgan muhit ham, uning bolalik chog'lari-yu ilmga intilishlari ham, va nihoyat, adabiyotga kirib kelish yo'llari ham o'ziga xos bo'ladi... Xudoyberdi To'xtaboyevning yozuvchilar safiga kirib kelish sirlari bilan qiziqsangiz, anglaysizki, u adabiyot maydoniga o'nqir-cho'nqir yo'llar bilan, ba'zan qoqilib-sug'ilib, qanchadan-qancha qiyinchiliklarni yengib kirib kelgan".

Bolalar adabiyotidan saboqlar

Ustozyga qo'shimcha qilib aytish joizki, mahorat cho'qqilarini egallashda "o'nqir-cho'nqir yo'llar" va turri qiyinchiliklar bilan birga, xalq ruhियati va til boyliklarini o'zlashtirish bilan bog'liq Xudobergan talantini ham alohida ta'kidlash zarur.

O'z a'moli, shakl-u shamoyili, mazmun-mundariyasi bilan beg'ubor bolalikni jumboqlar olamiga o'xshatish mumkin. Xo'rozlarning nima uchun tonggacha qichqirishi-yu, ayrim qushlarning qishda issiq o'lkalarga uchib ketishidan tortib, Vatan tuprog'ining sajdagoh kabi muqaddasligi-yu, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatning abdul-abad davom etishi bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar bu sehrli dunyoning doimiy sir-sinoatidir.

Kichkintoylarni ana shu sir-sinoat bilan yaqindan tanishtirish va ularni katta hayotga yo'llash bir chekkasi tarbiyaga bog'liq bolalar adabiyoti zimmmasiga benihoya zalvorli ma'suliyat yuklaydi.

Bolalarni jumboqlar olamiga sayohat qildirishda har bir yozuvchi o'ziga xos ijodiy yo'lni tanlaydi. Binobarin, H. Nazir, H. Po'latov, F. Musajon, E. Raimov, S. Barnoyevlar ijodida realistik uslub ustuvorlik qilsa, sarguzasht va fantastik uslub X. To'xtaboyev, S. Anorboyev, H. Shayxov, A. Obidjon kabi yozuvchilar ijodining ziyinati sanaladi. Shu jihatdan qaraganda, Xudoyberdi To'xtaboyevning nomi qaynoq va cheksiz ijodiy mashbaqatlar mahsuli bo'lgan qissa va romanlari orgali dunyoning olis-olis burchaklariga yetib borgan. Jahonning juda ko'p tillariga tarjima qilingan birgina "Sariq devni minib" romani o'zbek bolalar adabiyotining ufqini kengaytirdi.

X. To'xtaboyevning yozuvchi sifatidagi ijodiy kamolotini ta'minlagan omillarni adib o'sgan muhitdan izlash to'g'riroq bo'ladi. Taqdir bo'lajak ijodkorini bolaligidan boshlab og'ir sinovlarga ro'para qiladi.

"Mening bolalik va o'smirlik davrim, – deb yozadi adib, – urush davriga to'g'ri kelgan. Ota-onasiz yetim qolgan hamqishloqlarimning o'kinch va armonlarini eshitganman. O'g'ildan "qora xat" kelgan onalarning ko'ksini yulib dodlaganlarini, akasini intizor kutayotgan singillarning, eridan barvaqt judo bo'lgan yosh-yosh juvonlarning pinhoniy ko'z yoshlarini ko'rganman. O'gay otam – usta Abdugodir rabochiy batalyoniga ketgach, biz oilada sakkiz bola qoldik. Men ular

bilan bolalar uyidan bolalar uyiga o'tib rosa "savr" qilganman. Hatto Toshkentdan Qo'qongacha piyoda ketgan paytlarim bo'lgan.

1949-yili Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili O'rta Osiyo davlat universitetini (hozirgi O'zMTU) bitirganman.

1955–1958-yillari Farg'ona viloyatining Bog'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, direktor lavozimlarida ishlab, bolalar va o'smirlar dunyosidagi go'zallik, tarbiyadagi nomukammallik bilan yaqindan tanishib, umrimni ana shu sohaga bag'ishlasam deb qayta-qayta o'ylaganman, so'ng bir sinf yoki bir maktab doirasida aytayotgan fikr-mulohazalarimni kengroq maydonda aytisam, deb orzu qilib, gazeta va jurnalga ishga kirishni maqsad qilib, 1958-yili Toshkentga keldim. Avval "Toshkent haqiqati", so'ng "O'zbekiston ovozi" (sobiq "Sovet O'zbekistoni") gazetalarida hammasi bo'lib 14 yil ishladim. Ayrim kishilaridagi kamchilik va illatlar yig'indisi oxir-oqibarda jamiyatdagi illatni keltirib chiqaradi, illati bor jamiyat yaxshi rivojlana olmaydi, shu jamiyatga uyushgan kishilar to'liq ma'noda baxtli ham bo'lolmaydi, demak, kishilardagi illatga qarshi kurashish kerak, deb o'yladim. Yenginni shimarib, feleton yozishga kirishdim. Zanglagan temirni olovga solsangiz, zangi to'kilgani kabi feleton olovda yongan illatli shaxsning illati yonadi, poklanadi, deb qat'iq ishonдим. ²⁰

Hayotning sermashaqqat chig'irliqlaridan o'tgan yosh Xudoyberdi taqdirida dindor buvisi ham muhim o'rin tutganini alohida ta'kidlash joiz. Buvining ko'ngiliga taskin beruvchi hikoyat va ertaklari ruhida tarbiya topgan yozuvchi asarlarida dev, sehrigar, afsungar, iblis, jin singari majoziy timsollarga keng o'rin berilishi, "buludek baland", "bilaklari yo'g'on – bittasi chaqaloqning belidek", "na'ra tortganida xonaning shipi ko'tarilayotgandek bo'ladi" singari afsonaviy qahramonlarga xos iboralarning ishlatilishi ana shu tarbiya natijasidir. Har qanday yozuvchining xarakter yaratish mahorati bilan bog'liq bu xususiyatni X.To'xtaboyev asarlarining sujeti va badiiy tilining o'ziga xosligini ta'minlagan omillardan biri sifatida baholash o'rinni bo'ladi.

Yozuvchi ijodiga mansub asarlarni uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhni 14 yil davomida yozilgan uch yuzdan ortiq feletonlari tashkil etsa, ikkinchi guruhga turli yillarda yozilgan "Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jaji gissa", "Sir ochildi", "Jannati odamlar", "Mungli ko'zlar", "Yillar va yo'llar", "Kichkina rais" kabi sof realistlik asarlari kiradi. "Sariq devni minib", "Qasoskorning oltin boshi", "Shirin govular mamlatkatida yoki sehrigarlar jangi", "Besh bolali yigitcha" kabi yangil yunor bilan sug'orilgan sarguzasht asarlari uchinchi guruhni tashkil etadi.

Adabiyot tarixidan ma'lumki, har qanday buyuk yozuvchining barcha asarlarini bir xil mezon bilan o'lchab bo'lmaydi. Bu gap bevosita X.To'xtaboyev ijodiga ham tegishlidir.

Dastlab "Toshkent haqiqati", "O'zbekiston ovozi", ("Sovet O'zbekistoni") gazetalarida feletonchi muxbir sifatida qalamini charxlagan adibning ilk asarlarida hajviy ruhning ustun bo'lishi tabiiy hol edi. Binobarin, yozuvchining "Hadik", "Maxsus topshiriq", "Xarakteristika", "Tilxat", "Bevaqt aytilgan azon" singari kattalariga mo'ljallangan hikoyalari va "Jonginam, shartingni ay!" qissasida kishilardagi tovlamachilik, poraxo'rlik, xotinbozlik, e'tiqodsizlik kabi illatlar ayovsiz fosh etiladi. Shunisi e'tiborliki, mazkur asarlarining qahramonlari oddiy qishloq kishilari va ziyolilarning yozuvchiga bolaligidan tanishligi ularning xarakter xususiyatlarini badiiy tasvirlashda yaqindan yordam bergan.

Qissachilikda egallangan muayan tajriba kichik kitobxonlar uchun mo'ljallangan "Sir ochildi", "Omonboy bilan Davronboy" kabi realistlik uslubdagi asarlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Mazkur gissalar sujetidagi sxematizmning adabiy tanqidchilik tomonidan o'z vaqtida qayd qilinishi yozuvchining keyingi ijodiga jiddiy turki berdi. Adibning bolaligida bevosita o'zi bilan bo'lgan voqealar ta'sirida yozilgan "Sariq devni minib", "Besh bolali yigitcha", tarixiy mavzudagi "Qasoskorning oltin boshi", ma'naviy-axloqiy muammoning badiiy ifodasi bo'lgan "Mungli ko'zlar" romanlari fikrimiz dalildir.

²⁰ Bu haqda qarang: Rasulov A. G'arovy'ib salamat. – T.: Adlb, 2012. – 22–23-b.

Ma'lumki, "Sariq devni minib" romani X.To'xtaboyev ijodida-gina emas, o'zbek bolalar adabiyotida ham alohida sahifani tashkil etadi. Asardagi sehrlil galpogqcha timsolini adibning jiddiy ijodiy topil-masi deyish mumkin. Sehrlil galpogqcha muallifning badiiy niyatini ijro etish uchungina qulaylik tug'dirib qolmasdan, kitobxonning qiziqishini tutib turuvchi vosita vazifasini ham bajaradi.

Asar bosh qahramoni Hoshimjonning sehrlil galpogqchasi yozuvchi uchun "tilla kalit" (A.Rasulov) vazifasini o'taydi. Hoshimjon sehrlil galpogqcha yordamida turli ko'chalarga kirib chiqadi. Uning sargu-zashtlari bilan tanishgan kichik kitobxon har narsaga qodir sehrlil galpogqchasi bo'lgan taqdirda ham Hoshimjonning bilim olmasdan, biror kasb-hunarning boshini tutmasdan, hayotda o'z o'rmini topib, baxtli bo'lolmasligiga ishonch hosil qiladi. Bu esa "Bilim ol", "Hunar o'rgan" degan quruq pand-nasihattan ming chandon ta'siriroqdir.

Adibning nomini mashhur qilgan bu asarning siri nimada? Nima uchun roman aynan shunday nomlangan? Bu savollarga javob berar ekan, professor O.Safarov shunday deb yozadi: "Avvalo "Sariq dev" iborasining majoziy ma'nosini izohlash joiz. Nima uchun dev aynan sariq, qora yoki oq emas.

Ma'lumki, sariq so'zi nafs-olov ma'nolarini bildiradi. Xalqimizda nafsini tiya olmagan, nafsining quliga aylangan, ya'ni nafs bandalari nafs olovlar deb ham ataladi.

Darhaqiqat, kimki nafsini tiya olmas ekan, bir kunmas bir kun nafs olovda kuyib kul bo'ladi. Olov esa, tabiiyki, sariq rangdadir.

Ibora tarkibidagi dev afsonaviy yovuzlik timsoli sanaladi. Ertak-larda bayon qilinishicha, yovuz dev komiga tushgan har qanday jon-zot hech qachon tirik qolmagan.

Asar qahramoni Hoshimjon ham o'z nafsiga anchagina erk beradi, ya'ni nafs deviga minib yo'lga tushadi.

Undagi voqealar bosh qahramon Hoshimjon tili bilan sodda, aniq, qolaversa, bolalarcha o'y-fikrlar orqali qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Hoshimjonning gap-so'zlari va xatti-harakatida bolalarcha tafakkur tarzining saqlanishi asar sujetining yutuq'ini ta'minlashga xizmat qilgan.

Romanning keng kitobxonlar ommasiga manzurligining bosh sabablaridan yana biri sehrlil galpogqchani ish-tirokidir. Hoshimjon aynan sehrlil galpogqcha vositasida bir-biridan ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechiradi²¹.

Hoshimjon sho'x, g'ayratli, hoziqjavob, ziyrak, serifahm bola. Lekin shu bilan birga, jindak ayyorligi, lofchiligi, qo'rqoqligi, yol-g'onchiligi ham bor.

Yerga ursa ko'kka sapchiydigan kichik qahramon jo'shqin orzu-larga beriladi, sehrlil galpogqcha yordamida o'qimasan turib odam bo'lish mumkin deb o'ylaydi. Hatto, bu borada maktab direktori O.Azizov va o'qituvchisi Qobilov bilan ham ko'p bora tortishadi.

Hali o'qib o'rganmagan, ozmi-ko'pmi hayot sirilaridan bexabar bo'lgan Hoshimjon ko'p hollarda mushkul ahvolga ham tushib qoladi. Shunday damlarda u galpogqchaga yuzlanib: "Menga aql o'rgat, yo'l ko'rsat", — deya iltimos qiladi. Ammo do'sti sehrlil galpogqcha: "Aql sehriga bo'yusmaydi, bo'yingga bo'y qo'shganim bilan, aqlingga aql qo'sholmayman, bari bir, o'qib o'rganishing kerak, Hoshimjon", — deb unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

"Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari bor, — deb yoza-di N.Xudoyberganov, — yosh avlod uchun yoziladigan asar hayotni o'ziga xos vositalar orqali taddiq etadi, lekin u chinakam iste'dod mevasi bo'lib yuzaga kelesa, katta yoshdagi o'quvchilarga ham qiziqari bo'ladi, naf keliradi. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" asarlari xuddi shunday qadr-qimmat kasb etadi. Xudoyberdi To'xtaboyev kichikintoylar hayotini ularning ota-onalari turmushidan ajratib olib tasvirlamaydi va bu borada har xil marazlarni fosh etishga alohida ahamiyat beradi". Jumladan, "Sariq devning o'limi" xotimasida quyidagilarni o'qiyimiz: "Bu yerga o'g'irlik, poraxo'rtlik, yulg'ichlik, tuhmatchilik, qotillik, qalloblik, ochko'zlik, manmanlik, maishatparastlik, xudbinlikdan iborat sarqit-lar yig'indisi — Odil Battol Abbosov ko'mildi. Tug'ilgan yili ma'lum emas. 14-iyulda tong pallasida joni uzildi"²².

²¹ Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. —T.: Turon-zamin z'ivo, 2015. — 268-b.

²² Худойбергенов Н. Ёшлик ирхонлари. —Т.: Ёш гвардия, 1975. — 75-б.

Sarguzashtlilik zamnida jamiyadagi illatlarga qarshi kurashga qaratisini jihatidan “Shirin qovunlar mamlakati yoxud sehrgarlar jangi”, “Mungli ko‘zlar” romanlari “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” romanlarining mantiqiy davomidir. Agar “Sariq devni minib” romani sujetida sehnli galpogacha alohida o‘rin tutsa, “Shirin qovunlar mamlakati”da Akromning hid biluvchi burni yetakchi o‘rinda turadi.

“Folklorda, yozma adabiyotda ko‘z jodusi, oyoq mo‘jizasi, qo‘llar asrori haqida asarlar ko‘p edi-yu, ammo hid biluvchi burunning karomatlari hech qayerda ko‘rsatilmagandi. X.To‘xtaboyev Akromning (“Shirin qovunlar mamlakati”) hid biluvchi burnidan yunor yaratish manbaysi sifatida foydalanadi. Muhimi, g‘aroyib fazilatli burni tufayli qahramonimiz katta bir afsonaviy mamlakatning qahramoni darajasiga ko‘tariladi”²³.

Bu jihatdan, ayniqsa, “Qizg‘anchiq” hikoyasi ibratlidir. “Qizg‘anchiq” biror narsasini o‘rtog‘lariga ravo ko‘rmaydigan Shavkatjon degan bolaning qilmishlariga bag‘ishlanadi. O‘zi qiynalib qolganida o‘rtog‘larining beminnat yordam ko‘rsatishi uning tepsa-tebrannas qalbini larzaga keltiradi, boshqalarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Shavkatjon timsolidagi qizg‘anchiq bolaning qayta tarbiyalanishi hali oq bilan qorani ajrata olmaydigan kitobxonlar uchun chinakam ibrat namunasidir.

“Aka-uka Omonboy bilan Davronboy qissasi” qahramonlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga xos qiziquvchanlik, arzigan-arzimagan narsasi bilan maqtanish, o‘yingarqlik va kattalarga taqlid kabi xislatlar umumlashiriladi.

Omonboy bilan Davronboyning o‘ziga xos soddaligi ham, quvligi ham bor. Ular atrof-muhitga, odamlarga bolalik nigohi bilan qaraydilar. Qissaning tarbiyaviy ahamiyati o‘zbek bolalar adabiyotida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotidan olib yozilgan dastlabki yirik asarlardan bo‘lganligi bilan ham e‘tiborga loyiqdir. O‘tish davrida hali tegishli hayotiy tajribaning yo‘qligi tufayli ko‘pchilik bolalarning turmush mashhaqalari qarshisida dovdirab

qolib, o‘zlarini o‘qqa-cho‘qqa urishlari, hatto ba‘zilarining to‘g‘ri yo‘l qolib, jinoiy ishlariga qo‘l urishlari adibning katta-kichik barcha asarlari sujetidan chuqur joy olgan.

E‘tiborli jihati shundaki, ularning ko‘pchiligi qariyb ellik yillardan buyon boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi” darsliklaridan tushmy keladi.

Bolalar adabiyotining qon tomiri bo‘lgan hayotbaxsh didaktika va badiiyat uyg‘unligiga yozuvchining o‘ziga xos munosabati mavjud. Jumladan, “Qizg‘anchiq”, “Shoshqaloq”, “Orif cholning o‘rigi” hikoyalarda kichikintoylar hayotidan olingan (buni adibning o‘z hayotidan olingan deysish ham mumkin) e‘tiborli biron voqea tasvirdan kelib chiqadigan tabiiy xulosa ko‘proq o‘sha voqea tufayli hikoya qahramoni tushgan holat tarzida havola qilinadi.

Yozuvchining qissa va romanlarida bu xildagi g‘oyaviy-badiiy, tarbiyaviy vazifa qahramonlar boshidan kechirgan sarguzashtlar zimmasiga yuklanadi. Xarakterlar takomilining ko‘zguasi bo‘lgan har qanday sarguzasht esa kishini befarq qoldirmaydi. Zero, “Sariq devni minib” romanidagi Akrom qovunchi, “Besh bolali yigitcha” romanidagi Orifjon, “Qasoskorning olin boshi” romanidagi Namoz botirlar taqdiri bilan bog‘liq sarguzashtlarni his-hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi. Negaki, “Bolalar adabiyotida shiddat — dinamika muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh kitobxon hamisha hayajonda bo‘lishi, yangi g‘aroyib voqea-hodisa bilan uchrashuvga tayyor turishi kerak”²⁴ligi ham shuni taqozo etadi.

Avtobiografik xarakterdagi “Besh bolali yigitcha” romani bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

“2006-yilning 21-sentabrida, — deb yozadi Abdug‘ofir Rasulov, — Xudoyberdi aka, Mirpo‘lar Mirzo, men Toshkentdan Forishga yo‘l oldik. “Neksiya”ni yozuvchining ikkinchi o‘g‘li Bahrom boshqarib botyapti. Yo‘l olis. O‘zaro gurgung qizigan. Kutilmaganda Xudoyberdi aka:

— Xuddi mana shu yerda bizni poyezddan tushirib ketishgandi, — deb qoldi. Hammamiz gap nima haqidaligini angladik.

²³ Rasulov A. G‘aroyib saltanat. — T.: Adib, 2012. — 18–19-b.

²⁴ Rasulov A. G‘aroyib saltanat. — T.: Adib, 2012. — 17-b.

– Bir-ikki kun yon-atrofini kezdik. Yemish izladik. Duch kelgan joyda uxladik, – davom etdi Xudoyberdi aka. – Oramizda Sulton degan zo‘ravon, urishqoq, ammo yuragi toza bola bor edi. Hamma-mizni to‘pladi:

– Gap bundoq, bolalar, – dedi, – endi poyezd kutib, ulovga umid qilib o‘tirmaymiz. Tavakkal qilib yo‘lga tushamiz. Seniki, meniki degan gap yo‘q. Topganimiz o‘rada. Bir-birimizni himoya qilamiz. Safimizda Sultonning uchta ukasi bor... O‘tgan asrning 70-yillarigacha sobiq detdomchilar yig‘ilishib, uchrashib turdik. Qo‘qonlik bir o‘qituvchi o‘sha og‘ir yillar haqida asar yozishimni so‘radi. Material tayyor, vovga-hodisalar ko‘z o‘ngimda turibdi. Ammo asarga sira qo‘l ura olmayman-da. Shu kunlarda qishloqdan shoshilinch xabar kelib qoldi. Sulton traktor ostida qolib vatot etibdi. Yonib ketdim, ko‘z yoshimni tiya olmayman: “Nega? Nega?!” – deyman, – xolos. Zudlik bilan Peterburgga Sultonning o‘sha yerda o‘qiyotgan ukasiga sim qoqdim. Axir, Sulton ukalarini ne hasratda katta qilgan, o‘zi ishlab, ukalarini o‘qitgan edi... Sultonning o‘limi romanning tez yozilishiga turtki bo‘ldi. Uni yig‘lab-yig‘lab, yetimligimni eslab-eslab, xor-zor bo‘lganliklarimizdan o‘kinib-o‘kinib yozdim...²⁵

X.To‘xtaboyev qahramonlarining har biri o‘ziga xos qiyofa va gapirish usuliga ega bo‘lsa-da, uning barcha asarlarini sayqal topgan quvnoq va hayotbaxsh yumor birlashtirib turganini ilg‘ash qiyin emas. “Rostini aytсам, – deydi Hoshimjon, – o‘zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-u hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomi o‘quvchilaridanman. Bir xil haligi sho‘x bolalarga o‘xshab, kun bo‘yi ko‘cha changitib yurgandan ko‘ra komandaga bo‘linib olib, to‘p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqursa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib chillak o‘ynagan ming mara yaxshi”.

XX asr boshlarida o‘lka tarixida “Namozi botir”, “Namozi polvon” nomlari bilan chuqur iz qoldirgan Namoz Pirimqul o‘g‘li (1865–

1907) tarixiga doir “Qasoskorning oltin boshi” romani ham adib ijodida muhim o‘rin tutadi.

Mashhur tarixiy shaxs haqida asar yozishni orzu qilgan A.Qodiriy kabi Anna Almatinskayaning “Zulm” trilogiyasi va Izzat Sultonning “Noma‘lum kishi” dramasi ham Namoz botir timsoli o‘ziga xos mehr-muhabbat bilan tasvirlangan.

– Aniq esimda, katta o‘g‘lim Baxtiyor 6-sinfda o‘qirdi, – deb xotirlaydi Xudoyberdi aka. – O‘zbekiston televideniyesida “Kapitan Tenkish” degan serial ko‘rsatila boshladi. Shu film namoyish etilayotganda hamma televizor qarshisida bo‘lar, ko‘cha suv quyganday tinchib qolardi. O‘g‘lim tengi bolalar kechqurungi namoyishdan gonigmay, kunduzgi, qaytaruv namoyishni ham, darsdan qochib bo‘lsa-da ko‘rardilar.

Kapitan Tenkish gasoskor edi. U olti bor g amalagan, har gal qamoqdan qochgan. Men ham Tenkishga o‘xshash qahramon timsolini yaratmoqchi bo‘ldim. Shu paytda “Guliston” jurnalida Namoz haqida maqola e‘lon qilindi. Xayolimda bolaligimda bobom bilan Samarqandga borganim, uch kun Namozgoh dahasida yashaganim keldi. 1976–78-yillarda Namoz izlarini izlab Samarqandda ko‘p bor bo‘ldim. Namozning jiyanlari, Ulug‘oy momoning Omon, Barot degan farzandlari bilan uchrashdim. Dombobo degan qariya Namoz haqida ko‘p esdaliklar aytib berdi. O‘sha yerda Abdulla Qodiriyning ham Samarqandga kelganini, Ulug‘ momoni izvoshaiga mindirib Namoz polvon qarindoshlari, qarddonlari xonadoniga borganini eshitdim. Rahmatli Habibulla aka Qodiriy ulug‘ yozuvchimiz Namoz haqida roman yozishga jiddiy tayyorgarlik ko‘rganliklarini so‘zlab berganlar. Namoz Pirimqul o‘g‘li haqiqatparast bo‘lgan. Sodda, ishonuvchan kishilarni ishlatib, boyib ketgan Hamdamboy singarilarining boyligini talab, oddiy xalqqa ulashgan. Qayerdaki nohaqlik, oddiy xalqni xo‘rlash holati ro‘y bersa, Namoz o‘z yigitlari bilan o‘sha yerda hozir-u nozir bo‘lgan. Chindan ham Namoz chin chavandoz bo‘lgan, oida yelday uchishni xush ko‘rgan. Amaldor, boylar uni ot o‘g‘risi deya badnom qilmogchi bo‘lganlar. Botir, jasur, serg‘ayrat, chapdast Namozni general-gubernator I.Grodetov, uyezd boshlig‘i Gesket,

politsmeyster Gribinyukdan tortib gozi, amaldor, boy, to'ralar juda yaxshi bilganlar²⁶.

Asar qahramoni Namoz botir ijtimoiy adolat tantanasi yo'lida qaqshatqich jangga o'tlanadi. Uning qasos bayrog'iga Alisher Navoiy qalamiga mansub "Ilgimdan kelguncha zolim tig'in ushatib, mazlum jarohatiga intihom malhamin qo'y dum" hikmati yozilgan.

Namoz botir "Ko'cha-ko'yda och-u sarson yurgan yetimlar haqqi, boylar, birovlar eshigida ishlab haqini ololmay yurgan cho'ri-yu qarollar haqqi, hokim-u to'ralar qamchisidan boshi yoritgan alam-zadalar haqqi, izzat-nafsi topilgan yo'qsullar haqqi, haqoratlar, xo'rliklar, kamsitishlar belini bukkam m'xlum-u mazlumalar haqqi" kurashishga o'tlanishni o'zining shu vatanga farzandlik burchi deb biladi. Namoz botir: "Zolimlarning jazosini Xudo emas, mazlumlarning o'zi berishi kerak", — deydi.

"Qasoskorning oltin boshi", — deb yozgan edi professor Ozod Sharafiddinov, — janr xususiyatlariga ko'ra adabiyotimizda yangi hodisadir. Muallif asarining boshidan oxirigacha shu janr talablariga qat'iy rioya qilib, sujening pishiq-puxta bo'lishiga, voqealarning qiziqarli chiqishiga intiladi. Voqealar rivojida kutilmagan burilishlar, favqulodda vaziyatlar ko'p. Qahramonlar ko'pincha ilojisiz holatlarga tushib qoladi va bunday vaziyatlardan uddaburonlik bilan qutulib ketishadi".

Qahramonlarning o'ta og'ir vaziyatlarda o'zini tutishi, sinovlarni mardona yengib o'tib nuri manzillarga, ezgulikka sari intilishi, sadogati tasviri orgali ma'naviy-asloqiy jihatdan hayotiy xulosalarga kelish X.T.o'xtaboyev asarlarini tutashitirib turuvchi muhim nuqta sanaladi.

Yozuvchining asarlaridan asarlariga ko'chib yuruvchi qahramonlar ruhياتidagi quvnoqlik, nutqidagi hozirjavoblik, zukkolik kitobxon galbida ilqlik uyg'otadi. Bu esa deyarli hamma yozuvchilar orzu qiladigan, ammo ko'pchilikka nasib etavermaydigan badiiy barkamollik nishonasidir.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit, xalqning erkinlikka bo'lgan intilishi "Qasoskorning oltin boshi" romanida Namoz botir sarguzashtlari qatiga singdirilgan bo'lsa, Ikkinchi Jahon urushining xalq hayotida qoldirgan asorati, tahlikka va parokandalik "Besh bolali yigitcha" romani qahramonlari Orifjon va uning ukalari xarakteri tasviriga jon bag'ishlaydi.

Ko'rinadiki, X.T.o'xtaboyev ijodiy yutug'ini badiiy sujet yaratish borasidagi izlanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga qo'shimcha tarzda yozuvchi asarlarining badiiy tili va kulgi yaratish mahoratini ham ta'kidlash mumkin.

Darhaqiqat, o'zi qalamga olgan qahramonlar ruhiyati ich-ichiga kirib borish, surati va siyrati tasvirining uyg'unligiga erishish orgali kitobxonning o'zligini anglashga yo'naltirishini badiiy adabiyotning bosh vazifasi deb bilgan adib jahonga mashhur "Sahri galpoqcha", "Sariq devni minit" asarlarini yaratgunga qadar katta hayot va ijod maktabini o'taydi. Adib asarlari xususida gap ketganda, bolaligida boshdan kechirgan turmush mashaqqatlari, bobosi va buvisi tartibiyasi, o'qituvchilik faoliyati, gazetalar tahririyatidagi feletonchiligi bo'lajak yozuvchini hayotga jiddiy ko'z bilan qarashga yo'naltirganini sezish qiyin kechmaydi.

Sehrgarlarning sahnalarda qo'lida tayog'cha bilan oddiy ko'z ilg'amaydigan mo'jizalar yaratishi ko'pchilikka ma'lum. X.T.o'xtaboyevni ham sehri qalami bilan shunday mo'jizalar yaratgan adib, desak mubolag'a bo'lmaydi. Farqi shundaki, sahnadagi sehrgarlik fagat namoyish paytidagina ko'z o'ngingizda gavdalanadi. Yozuvchi asarlarini esa qayta-qayta mutolaa qilish orgali u yaratgan badiyat olami ichiga chuqur kirib boriladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi X.T.o'xtaboyevni asarlarining tarqalish jug'rofiyasiga ko'ra jahongashta adib deyinish mumkin. Yozuvchi qalamiga mansub hikoyalar, qissa va romanlar beg'ubor bolalik olami, xalq tarixi va taqdiri bilan bog'liq muhim muammolarning badiiy ifodasi sifatida necha-necha avlod bolalarining sevimli maslakdoshi va maslahatgo'yiga aylangan.

"Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar adabiyotining jasur reforma-torlaridan biridir, — deb yozadi A.Rasulov. — U bolalar adabiyotiga

²⁶ Rasulov A. G'aroyib saltanat. — T.: Adib, 2012. — 59–60-b.

sarguzasht, sayohat, fantastikani olib kiradi. Bolalar adabiyotidagi haqiqiy romanlarni aynan shu yozuvchi yaratdi.

Qat'iy ishonch borki, qachondir Xudoyberdi To'xtaboyev portreti Xans Andersen, Rodyar Kipling, Mark Tven, Janni Rodari, Korney Chukovskiy, Valentin Katayev, Samiul Marshak, Joan Roling suratlari bilan yonna-yon turadi²⁷.

Biz ham shu fikrni quvvatlaymiz.

Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi shaxsiyati bilan ijodining musharakat xususiyatlarini aniqlang. Ijodkor qaysi asarlarida ko'rgan-kechirganlaridan unumli foydalangan deb o'ylaysiz?
2. Sehrli qalpog'cha detali yozuvchi ijodida qanday o'rin tutadi?
3. Sariq dev qanday majoziy ma'noni anglatadi?
4. "Qasoskorning oltin boshi" romanining yetakchi g'oyasini aniqlang. Namozi botirning qasoskorligini qanday tushunasiz?
5. "Besh bolali yigitcha" romaniga qanday hayotiy material asos bo'lgan?
6. Yozuvchi ijodining yetakchi xususiyatlari qaysi asarlarida o'zining chuqur ifodasini topgan deb o'ylaysiz? Fikringizni adib asarlarining janriy xususiyatlari misolida dalillang.
7. "Xudoyberdi To'xtaboyev – jahongashta adib" mavzusida maqola yozing.

Latif Mahmudov ijodida ma'naviy-axloqiy tarbiya tahlili (1935)

Reja:

1. Latif Mahmudov – hikoyanavis.
2. Latif Mahmudov – badiiy sujet ustasi.
3. Latif Mahmudovning xarakter yaratish mahorati.

Latif Mahmudov ijodini bolalarning kundalik hayotidan olib yozilgan realistik hikoyalar bilan boshlagan edi. Hikoyachilik adibning qalamini charxlab, qissa, pyesa va romanga o'tishida, xususan syujet va konflikt yaratish, so'zni tejab-tergab ishlatish borasida tajriba maktabi vazifasini o'tadi.

Yozuvchi hikoyachilikni keyinchalik ham tashlab qo'ymadi. Uning "Jasur bolalar", "Sirti xat", "Kundalik, xat va birinchi sinf o'quvchisi", "Qizg'anchiq", "Eski dutorning siri" to'plamlaridagi hikoyalari adib ijodida jiddiy va samarali izlanishlar kechganini ko'rsatadi. Izlanishlar, avvalo, mazkur hikoyalar syujetida o'z aksini topdi. Adib ularda asar qahramonlarining hayotga munosabatini tasvirlash orqali xarakterlarining toblanishini ko'rsatish yo'lidan boradi.

Yozuvchining ko'pgina hikoyalari syujeti tarang. Ularda qahramonlar hayotidagi murakkab vaziyatlar qalamga olinadi. O'zi atrofdagi kechayotgan voqealardan qahramonlar shunday holatga tushadiki, bu voqealarni ular yo maqullashi, yo inkor qilishi lozim. Yozuvchining boshqa bir guruh hikoyalariida syujet erkin rivojlanadi. Ularning qahramonlari favqulodda voqealarni boshdan kechirishmasada, hayotga faol munosabatlari bilan ajralib turadilar. Shu orqali kichik kitobxonni insoniy munosabatlar haqida o'ylashga undaydilar.

"Yo'lda" nomi hikoyasida tasvirlanishicha, Mirqobil va Boboqul degan ikki o'rtoq erta bilan qishloqdagi qarindoshlarinikiga yo'l olishadi. Ular ancha masofani yayov bosib o'tishgach, ochiqishadi-da, yo'lda uchragan choyxonada qorinlarini to'yg'azishadi-yu, choyxonachiga minnatdorchiilik bildirmasdan jo'nab ketadilar. Bundan Mirqobilning ko'ngli g'ash. Boboqul esa parvoiga ham keltirmaydi.

²⁷ Rasulov A. G'aroyib salamat. – T.: Adib, 2012. – 73-b.

Mirgobiling ko'nglidagi g'ashlik tobora ortadi. U choyxonachi cholg'a qilgan muomalalarini qo'pollik deb biladi va rahmat ayitish uchun orgasiga qaytadi.

Boboqul yo'lda davom etar ekan, hayot uni yana bir sinovdan o'tkazadi: Aravasi singan dehqon unga yordam so'rab murojaat qiladi. Birovga minnatdorlik bildirishga yaramagan bola, tabiiyki, yordam berishdan ham bosh tortadi.

Yozuvchi ularning o'sha paytdagi ichki kechimmalari tasviri orqali xarakterlarining ziddiyatli tomonlarini psixologik jihatdan asoslaydi.

Aslida Mirqobil ham, Boboqul ham yomon bolalar emas. Ular shunchaki boshqalarga yordam berishga odatlanishmagan. Qaysarligi va mammanligi tufayli og'ir vaziyatga tushgan bu qahramonlar shu holiha qolib ketmaydi. Kitobxon ularning o'z kamchiliklarini anglab yetishlariga ishonch hosil qiladi.

Asar syujetida qahramonlar xarakteriga jiddiy ta'sir etuvchi, ularning hayot haqidagi tushunchasini o'zgartirishga qaratilgan voqealarni keltirish adib ijodiga xos umumiy xususiyatdir.

"Latif Mahmudov hikoyalarning ko'pchiligida, - deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov, - bola hayotida ma'lum burilish yasaydigan voqealar tasvirlanadi". Yozuvchining syujet yaratishdagi bu mahorati "Dangasaning sarguzashtlari" to'plamiga kirgan hikoyalarda yanada chuqurlashadi.

Bolalar o'rtaqidagi o'zaro do'stlik aloqalari va maktab hayotiga oid mazkur asarlar mavzusi va qahramonlar xarakteridagi ayrim nuqsonlarni fosh qiluvchi ruhiga ko'ra bir-biriga yaqin. Bu yaqinlik Mirvali va Botir kabi qahramonlarning asardan-asarga ko'chgani bilan bir-birini takrorlamaydi. Balki o'rtniga qarab, goh quv, goh soddadi bolalar sifatida namoyon bo'ladi.

Botir bilan Mirvali o'taketgan dangasa. Shu sababli o'qishlari ham o'lda-jo'lda, jamoat ishlarini yoqtirishmaydi, hatto o'zlarining odatdagi ishlarini ham boshqalarga yuklashga intiladilar. Maktabda navbatchilik kunlari sinf xonasini birinchi sinf o'quvchilariga tozalatadilar, uy yumushlarini singillariga bajartiradilar va hokazo.

Ular ko'pincha qandaydir katta ishlarni amalga oshirib, osongina shuhrat qozonish payida bo'ladi, ammo qunt, sabr-chidam va irodalari yetishmasligi tufayli har safar og'ir va kulgili ahvolga tushadilar.

Har ikkala qahramon faqat dangasali bilan emas, balki hayolparasligi, sho'x-shaddodligi bilan ham bir-biridan qolishmaydi. "Mirvali bilan zerikmayman, - deydi Botir, - uning gapi bilan yurib, oyog'im og'riydi, xolos. Chunki biz bannisoli ip-igna, u qayerda bo'lsa men ham shu yerda". Yozuvchi mazkur qahramonlar xarakterini ochishda ular hayotidagi favqulodda holatlardan ustalik bilan foydalanadi.

"Ko'z oynakli bola" hikoyasining konfliktini yanada keskin.

Botir bilan Mirvali yangi qo'shnilari - ko'z oynakli bolani har ishda mensimasan mazax qilishadi. Bir qarashda mo'min-qobil bu bola kitobxonda shunga loyiq taassurot qoldiradi, lekin u eng galtis vaziyatda - Botirning otasi haydaydigan mashina avariya bo'lishi muqarrar bir paytda mashinani to'xtatib qolib, jasorat ko'rsatadi.

Yozuvchining hikoyachilikda ortingan tajribasi, yuqoridagi aytilganidek, pyesa va qissalar yaratishida ham qo'l keladi. Buni adibning "Qopga yashiringan odam" qissasi misolida ko'rish mumkin.

Qissa konfliktini umumiy planda ezgulik bilan yovuzlik o'rtaqidagi keskin to'qnashuv asosiga qurilgan. Unda tasvirlangan voqealarning katta qismi, garchi bizning kunlarda, maktab sport zali qurilishi atrofida kechsa ham, ikkala qutb vakillari o'rtaqidagi ziddiyat ildizi ancha ilgari borib taqaladi. Bir tomonda Raisa Maksimovna, Ravshan, Asqar, Mo'minjon aka, Solijon aka, Shahlo va Munniralar tursa, ikkinchi tomonda domla, Eshonqul so'fi, Murodilla, Mullado'st, uning shofyor jiyani va Turdiqullar turadi.

Asar syujeti tuguni tungi yo'lovchilarning shubhali xatti-harakatlari bilan boshlanadi. Ayniqsa, ularning kattasi - cholning hayotida huzur-halovati yo'q: kishilarning qahqahasi, shovqin-suroni uni dahshatga soladi. Odam bolasining kulgisi yuragiga xanjardek botib, o'zini qo'yishga joy topolmaydi.

Xo'sh, cholni odamlardan bezishga nima majbur etdi? Nega u inson zotini yoqtimaydi?

Yozuvchi “Tungi yo‘lovchilar” nomli dastlabki bobdagi bu jumboqqa javob berishga shoshilmaydi. Aksincha, markaziy syujet chizig‘iga terakzorlarning noma‘lum kimsalar tomonidan qurilishi, maktab sport zali qurilishi uchun keltirilgan sementning suvga g‘arq qilinishi, Solijon akani oshxonaga qamab, ustidan gazning ochib qo‘yilishi kabi yangi-yangi, sirli voqealarni qalamga oladi. Bu esa o‘quvchini yanada qiziqitirib qo‘yadi. Sirdan qaraganda, bir jumboqqa javob bermasdan ikkinchisiga o‘tib ketilishiga ko‘ra, asar sujeti kompozitsion jihatdan tarqoq tuzilganga o‘xshab tuyulsa ham, sirli voqealarning bir uchi oxir-oqibat Murodilla va Mullado‘stlarning yovuz qilmishlariga kelib taqaladi. Ularni qay jihatandir ochish va fosh etishga qaratiladi.

Voqealar tasvirida boshdan-oyoq sirlilik o‘quvchini zerikitirib qo‘yishi ham hech gap emas, shu sababli yozuvchi Murodilla va Mullado‘st timsolidagi yovuzlik bilan bir guruh o‘smirlarning hayotidan o‘z o‘mini topish yo‘lidagi kurashlarini ko‘rsatishda dam-badam asarning asosiy syujeti imiyasiga u qadar aloqasi bo‘lmagan epizodlarni ham keltiradi. Jumladan, Ravshan bilan Munniraning pinhoniy uchrashuvlari, Asqar bilan Shahloning shirin suhbatlari, bolalarning daryo yogasidagi tepalikda lola terishlari kabi lirik kayfiyat bag‘ishlovchi epizodlar kitobxonning taranglashgan diqqatini yumshatishga — “nafas rostlashga” imkon beradi.

Qissa bosh qahramonlaridan biri Ravshan ochiq ko‘ngil, umum ishi uchun fidoyi, mehnatga muhabbati baland bola. Lekin u kam-ko‘stdan xoli, ideal ham emas. Ravshan maktab sport zali qurilishi uchun astoydil jon kuydiradi, do‘stlariga mehribon. Yozuvchi uning xarakterini ochishda Munniraga bo‘lgan munosabatidan ham ustalik bilan foydalanadi. Ma‘lumki, Munnira bilan uchrashuvlari Ravshan-ning qalbida qandaydir totli hislar uyg‘otadi. Adib buni muhabbat deb atab ko‘rsatmasa-da, yaqin kelajakda albatta shunday muqaddas tuyg‘uga aylanishiga ishora qiladi. Mana katta hayot bo‘lag‘asida turgan o‘smirning Munnira bilan qirda lola tergandan keyingi ichki kechinmasi tasviri: “...Ravshan o‘ziga hovliga joy qilib, o‘ringa kirdi. Ammo anchagacha uyqusi kelmay, o‘qin-o‘qin entikib, osmon

to‘la yulduzlarga qarab yolganda bitta yulduz ko‘zini qamashirib uchdi. Qiziq, Munnira ko‘rdimikan-a, balki...”

Buni hali muhabbat deb bo‘lmas edi, shuning uchun ham asardagi unga ortiqcha o‘rin berilmagan.

Voqeadan voqea keltirib chiqarilishi qissa syujeti tarangligini yanada oshirgan. Jumladan, sport zaliga keltirilgan sementning noma‘lum kimsalar tomonidan suvga bostirilishini asossiz ravishda Asqarga to‘nkab, uni qurilishdan chelashtiradilar. Bu fakt bir tomondan ahamiyatsizdek tuyuladi. Aslida xuddi shu voqea turki bo‘lib, asar tugunini tashkili qilgan tungi yo‘lovchilarning shubhali xatti-harakati siri fosh etiladi.

“Qopga yashiringan odam” qissasidagi o‘smirlar obrazi tasviri shuni ko‘rsatadiki, yozuvchining bolalarga muhabbati cheksiz. Zero, bolalikning beg‘ubor olamiga kira olmagan, tushumagan, zavq-shavqini his etmagan ijodkorning ularga atab asar yozishi, yozganda ham ko‘pchilikka maqul qilishi anrimahol.

Savol va topshiriqlar

1. Latif Mahmudov hikoyalarda qahramonlar xarakterining qaysi jihatlarga ko‘proq e‘tibor qaratadi?
2. Botir bilan Mirvali haqidagi turkum hikoyalarning musharak xususiyatlari nimalardan iborat?
3. “Yo‘lda”, “Qopga yashiringan odam” asarlari misolida adib ijodiga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlang.

**Normurod Norqobilov – inson va tabiat munosabatlari
kuychisi
(1953- yilda tugʻilgan)**

Reja:

1. Normurod Norqobilov – tabiat kuychisi.
2. "Paxmoq" qissasida haqiqat tantanasi uchun kurash g'oyasining ifodalanishi.
3. "Ovul oralagan bo'ri" turkum qissalarining mustarak xususiyatlari.
4. Normurod Norqobilov naturalistik tasvir ustasi.

Normurod Norqobilov butun ijodi davomida inson va tabiat munosabatlarini, xususan hayvonot va nabotot olamining sirli-sehri dunyosini kitobxonning bir qarashda faromush tuyg'ulariga turki berruvchi ruhshunos sifatida o'zi ko'z ochgan dunyoni anglashga ishtiyogi baland o'smirning har narsaga qiziquvchan nigohi orqali tasvir markaziga qo'yishi bilan ajralib turadi. Kichik kitobxon qalbiga, birinchi navbatda uning hissiy kechimmalari vositasida kirib borilishini nazarda tutgan yozuvchi "Ovul oralagan bo'ri" nomi qissalardan tashkil topgan to'plamidagi tanishtiruv xati (annotatsiya) da bu boradagi o'z qarashlari xususida quyidagilarni qayd etishi bejiz emas:

"Agarda insonda tuyg'u bo'lmasa, quyosh haroratsiz, tabiat rangsiz, tiriklik esa ruhsizlik kash etadi. Ruhsizlik esa kishi tabiatini zanglatadi. Zanglagan ko'ngil illatga moyil bo'ladi. U dunyoga nafs ko'zi bilan qaraydi, oddiy insoniy munosabatlarda riyokorlik yo'lini tutarkan, hamisha jaholatdan oziqlanadi".

Bizningcha, adib nafaqat "Ovul oralagan bo'ri" turkum qissalarida, balki katta-kichik barcha asarlarida ham mazkur mulohazalari asosida qalam suradi. Buning sababi ijodkorning dunyoga kelib ko'z ochgan ilk damlaridan boshlab ona zaminiga mehr-muhabbat qo'yganidan bo'lsa ajab emas. Aks holda oddiy bir hayvonning borliqqa, shu jumladan, fagat o'sha misolida tasvirlash uncha-buncha qalam-kashning qo'lidan kelavermaydi. "Ovul oralagan bo'ri" qissasining

ilk sahifasida keltirilgan quyidagi peyzaj tasviri buning yorqin dalilidir:

"Arsloni bo'ri – Cho'ngkalla tunda yog'ib o'tgan qor yuzida qolgan izga ergashib, Beva tepa etagiga, qon to'kilgan yonbag'ir-likka yetib kelganida, qish ofobi yoyilgan, biydek oppoq dasht ko'zni olar darajada yaltirardi... Kechga borib havo ayrimasa, ertasi dalada qordan nomu – nishon qolmaydi. Qish chillasida qorsiz dasht ko'zga juda xunuk ko'rinadi. Ayniqsa, yovvoyi jonivorlar yomon ko'radi bunaga ob-havoni. Axir dashtda sanqiganingda, oyog'ing ostida qorning g'irchillashiga nima yetsin. Qorga cho'milishlarini - ku asti qo'yaverasiz. Hozir ayri qorga cho'miladigan havo edi".²⁸

Normurod Norqobilov tabiatni shunchaki tasvirlamaydi. Balki har bir maysa-giyoh, dov-daraxt, jonivorni ko'pdan kuzatib yurgan-dek, o'zining eng yaqin tanishidek mehr tuyg'usi bilan qalamga oladi. Ularga bo'lgan liq munosabatini asarlari sarlavhasigacha chiqaradi. "Qoraquyun", "Qo'shnilar", "Quyosh tutilgan kun", "Bo'ron qopgan kun", "Paxmoq", "Tog'u toshlarda", "Dashtda", "Tog'odami" va hokazo. Shuning uchun ham yozuvchi asarlarini mutolaa qilganimizda dashtu dalalar, tog'u toshlarning jozibali sehrini his qilamiz, o'to'lanlarning hidini sezamiz; turli jonivorlar bilan beixtiyor mulotoqga kirishamiz. Uning asarlarida ko'rib, bilib yurganimiz – xoh yovvoyi, xoh uy hayvonlari yoxud turli - tuman jonivorlar bo'lsin, ular timsolida shu paytgacha e'tibor bermagan, balki bilmagan xislatlaridan xabar topamiz. E'tiborlisi shundaki, Normurod Norqobilov qalamiga mansub asarlardagi jonzo'lar ularning jahon adabiyotida uchraydigan jinsdoshlaridan tasvirning milliyiligiga ko'ra farq qiladi. Ulardagi ona zamin va undagi jonzo'rlarga bolaligidan mehr qo'ygani tufayli bo'lsa ajab emas. Adib asarlaridagi "Yovqur" ("Ajial chorlagan kun"), Bo'ynoq, Qoramanglay ("Dashtu dalalarda"), Oqquyruq ("Adadsiz azob"), Oqyol, Cho'ngkalla, Uzuntumshuq ("Ovul oralagan bo'ri") kabi jonivorlar timsolida ayini holat ko'zga yorqin tashlanib turadi. Qizilqiya deb ataluvchi tog' darasida besh yildan beri yashab kelayotgan, qishloq ahli yarim chin,

²⁸ Norqobilov N. Ovul oralagan bo'ri. –T.: Sharq, 2005, 3-bet.

yarim hazil tarzda “qo’shnilar” deb ataydigan bir juft bo’ri haqidagi “Qo’shnilar” hikoyasi shu jihatdan e’tiborni tortadi. “Qo’shnilar”ning qishloq ahliga zararcha zarari tegmaydi. Shuning uchun ham hech kim ularga ola qaramaydi.

Hikoya qahramonlaridan Ko’kan azaldan hayvonot olamiga befarq emas. Ammo uning boshqa jonzotlarga bo’lgani kabi “qo’shni” bo’lib yashayotgan bo’rlarga mehri, qiziqishi qishloqqa boshqa bo’rlar hujum qilgandan keyin yana ham oshadi.

Yozuvchi asarlarini mutolaa qilargan ekansiz, jonivorlarning hayot tarzini astoydil o’rganagan ijodkorgina ularning ruhiyati ichiga ham kirib borishiga amin bo’lasiz.

Tog’ay Murod Ernest Seton –Tompsonning “Yovvoyi yo’rg’a” nomli kitobiga yozgan so’zbooshida adibning badiiy mahorati xususida so’z yuritargan ekan, uning o’z asarlarida tabiatni “ziyrak animalist rassom, sinchi adib” sifatida tasvir markaziga qo’yishiga alohida e’tibor qaratgan edi. Bizningcha, bu fikrda N.Norqobilov ijodiga ham nisbat berilsa xato bo’lmaydi.

Yozuvchining talay asarlari syujetida bo’rlar timsoli muhim o’rin tutadi. Ammo ularning hech qaysisi ijodkorning o’z oldiga qo’ygan maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda bir-birini takrorlamaydi. Binobarin, “Qo’shnilar” hikoyasining qahramonlari insonlarga bo’lgan vafodorliligi-yu, sadobati bilan hayratlanarli bo’lsa, “Paxmoq” qissasi qahramoni o’z dushmaniga shafqatsizligi bilan ajralib turadi.

“Paxmoq” qissasida muallifning ayiqlar harakterini ochishga ruhiy-psixologik jihatdan yondoshgani bois qahramonlarning fe’l-atvori, xatti-harakati, o’zini tutishi zararcha shubha tug’dirmaydi, aksincha ishonch va qiziqish uyg’otadi. Aslida parranda-yu darandalarni o’lib kuni ko’rib yurgan Toshloqsoylik Panji sayoq “Paxmoq” lagabli ayiqni ovlashga qaror qiladi. Onasidan erta ayirilgan Paxmoq har safar uxlashidan oldin onasini sog’inib g’inshib-g’inshib qo’yadi. Hayot uni kichkina yashash uchun kurashishga o’rgatadi. Oxir-oqibat u hayotga muhabbati tufayli o’zini himoya qilgan holda o’zi uchun ajal timsoli bo’lgan Panji sayoqni mahv etadi.

Qizig’i shundaki, aynan shu nuqtada yozuvchi insonlar bilan hayvonlar ruhiyatidagi mustarak jihatlariga e’tibor qaratadi. Kitob-

xon asar bilan tanishar ekan, uning syujetida Panji sayoqning ham, Paxmoqning ham taqdiriga oid chizgilar bekor kiritilmaganining guvohi bo’ladi. Har ikkalasining qismati bir-biriga yaqin. Ayni shu yaqinlik kitobxonning qiziqishini o’ziga jalb etadi. Qissa qahramonlarining har ikkalasi ham mehr ko’rmay katta bo’ladi: ovchi bir ko’rishda qo’shni qishloqlik juvoni yoqitirib qoladi, Paxmoqda ham huddi shunday holat. Qahramonlar ruhiyatidagi bunday yaqinlik aslida muallifning ham ayni muddosi bo’lib, hayotning yozilmagan qonuniyatlari xususida o’ylab ko’rishga e’tibor qaratadi.

Inson va hayvonning tabiiy sezimlaridagi bunday uyg’unlik tasviri adibning, ona tabiat va undagi jonzotlar hayotini shunchaki o’rganmasdan uning ichiga chuqur kirib borganidan dalolat beradi.

Zero, “Tabiat qo’ynida erkin yurgan biron parranda, hashorat, kemiruvchi yoki jonivor sabr – bardosh, matonat, muhabbat va tabiiy qiziqish bilan kuzatilmagan ekan, u haqdagi asar to’laqonli chiqmaydi. Ularning qiyofasi, anatomik tuzilishi, instinktga asoslanuvchi harakati, psixologik holatlari sun’iy, to’qima tasvirni qabul qilmaydi”²⁹

Ona tabiat kuychisi Normurod Norqobilov butun ijodi davomida ana shu qarashlarga amal qilib kelishi bois miliy animalistikaning yorqin namunalari yaratilgan ijodkoridir.

Adibning quyida keltirilgan “Tarjimai hol”ida uning ijodiy kredosini anglashda yaqindan yordam berishi mumkin.

Tarjimai hol

Kamina 1953-yil 7-iyunda Qashqadaryo viloyati Yakkabog’ tumani qishloq qishlog’ida tavallud topganman. Qishliq degani – “qishlov” so’zidan olingan bo’lib, bir yarim asr narisida yuzaga kelgan ovullardan biridir. Agar ilmiy tilda aytilgan bo’lsak, qishliq ikki davr izlari tutashgan sarhadan o’rin olgan bo’lib, uning g’arbi-shimoliy tarafi Neogen davriga oid qizil tuproqli kenglik, sharqijannubiy tarafi esa tog’larning paydo bo’lishidan yuzaga kelgan bo’z tuproqli qir-adirliklardir. Qir-adirliklar ortida Hisor tog’ tizmalari bo’z roslab turibdi. Ammo qishloqdan turib qaralganda, tog’ nechog’lik go’zal ko’rinnasin, unga intiluvchilar juda kamdir. Chunki tog’

²⁹ Fayzullayev X. “Dashi tularlarda” romanida naturalistik tasvir qirralari // “Tafakkur ziyosi” ilmiy uslubiy jurnal. 2020/ 4-son. 131-b.

yaqin ko'ringani bilan unga yetmoq oson emas, qir-u adirlar oralab uzor yurmog' lozim. Buning ustiga, yo'lda xavfli manzillar serob bo'lib, ular haqidagi afsonalarning o'ziyiq yurakka qo'rquv, oyoqqa tushov soladi.

Bu gapni bekorga aytayotganim yo'q. 2019-yilning yozida qishloqdagi tengqur jo'ralarimni yig'ib, ular bilan subhbatda bo'lar ekannan, g'oyatda qiziq bir holning guvohi bo'ldim. To'g'risi, hayratdan dumalab tushay dedim. Buni qarangki, turli katta-kichik shaharlarda bo'lgan yor-biradorlarimning ko'pchiligi men maktab yoshiga yetib-yetmayoq birin-sirin kezib qiqiqan qir-adirlikka haligacha qadam bosmaganligi ma'lum bo'ldi. Nechun? Bu savolga ularning bergan javobi shu bo'ldi: "U tomonlarga hech yo'limiz tushmagan-da, jo'ra." Tirikchilik vajidan qo'shni mamlakatlarga yo'llari tushgan holda, shundoq tushug'i tagidagi qir-adirlikka oyoqlari yetmagan bunday kimsalar haqida nima deysiz mumkin?

Men mushtdayligimdayoq jo'ralarimni dashtga boshlab chiqishga harakat qilardim. Biroq ko'ptok degan balo qachon qarama yo'limizga to'siq bo'lardi. Ular qishloq chetidagi yalanglikda to'p tepayotgan bolalar yonida qolib, yolg'iz o'zim dashtga chiqib ketardim. Ovloq yerda tanho daydib yurganini ko'rgan cho'pon-cho'liqlar darhol do'q-po'pisa bilan meni qishloqqa haydashar edi. Bola xalqi shum bo'ladi — izimga qaytgan bo'lardim-da, tepaliklar oralab tag'in olg'a yurishda davom etardim. Cho'ponlardan esa sira o'pkalanmasdim, chunki ular, bu sayoq jar-pardan yiqilib tushmasin yo'xud ilon-pilon chaqib olmasin, degan hadikda meni dashtdan quvlashar edi-da. Axir hali maktab yoshiga ham yetmagan bola edim-da. Dashtga o'zgapcha mehr qo'yganim bilan kinning necha pullik ishi bor deysiz.

Endi o'yilab ko'rsam, bolalikda dashtda yolg'iz daydib juda to'g'ri qilgan ekannan. Chunki yolg'iz kezingan bola ulug' dashtning chin bolasiga, suyukli erkasiga aylanadi — xohlasa, og'och qoziq singari qo'ngayib turadigan soqchi yumronqoziclarni soatlab kuzatishi, istasa jig'iga tegishi mumkin; toshbaga, tipritikon va boshqa joni-vorlar bilan oshna tutinishi, yo'lovchi tulkingning makr-hiyilasiga uchib, uning izidan tushib, har tomonga chuvalanib ketgan bosh-ke-

yo'q qirlar orasida adashib va ulog'ib, "enalab" yig'lab yurishi va tabiiyki, mana shu tarzda sekin-asta pishib yetilishi mumkin; g'aroyib shakl-shamoyildagi qoyatoshlarga, qo'rqinchli chohlarga, toshkavaklarga, jimitlovchi buloqlarga, yovvoyi butalarga, bir yarim qulochedan ziyod ilonlarga, istagan paytida tikonlarini otishi mumkin bo'lgan jayralarga duch kelib, ishton ho'llab yurishi mumkin; eng qizig'i, charchaganida duch kelgan yerda dumalab, bernalol uyquni urishi mumkin. Dala-dasht, qir-adirlar bolani avaylaydi. Bu chin haqiqat — dashtda qandaydir bir kuch bor, yolg'iz, o'z jonni avaylab asraydigan nimasidir bor. Bunga o'zim ko'p bora guvoh bo'lganman. Dashtni sevganni dasht ham sevadi, kimki dasht farzandiga aylansa, dasht jonzoirlari ham ularni sevadi.

O'z navbatida, dashtda qolipga sig'maydigan hodisalar ham bo'lib turadi. Shulardan biri haqida so'ylar bo'lsam, chamasi, olti yoshimda ilk bor bo'riga duch kelganman, ya'ni erta ko'klamning tumanli havosida echklarimni dashtga haydab chiqarkanman, yondosh tepalik yag'rinida cho'ngayib turgan "ovcharka" zotli itga ko'zim tushib, havasdan tars yoritishimga sal qolgan. Boisi dum-quloqlari kichikligidayoq kesib tashlanadigan ovul iltari ko'rimsiz bo'ladi. Qoshimdagi dum-quloqlari bo'ti jonivor esa shu qadar ko'rkan ediki, unga ega bo'lishi uchun jonimni tikishga ham tayyor edim. "It"ga mahliyo bo'lganimdan quloqlari dinglangan echklarim nechun bir nuqtaga jamlanganiga e'tibor ham bernaolman. O'shanda ulug' dasht tag'in jonimga ora kirgan — xuddi ko'kdan tushganday lop etib yonimda past bo'yli, sariq yuzli, qisq ko'zli Xurram ovchi paydo bo'lgan va xirqi ovozda degan: "Nechun jondor bilan tiklashib turibsan?" Es-hushimni o'nglagunimcha bo'lmay, "It" ko'zdan yo'qolgan. Ammo o'shanda zig'ircha ham qo'rquvni his qilmaganman.

Endi ushbu uchrashuv bekorga yuz bermagan bo'lsa kerak deb o'ylayman. Chunki ayni o'sha voqea sabab bo'lib, Xurram ovchi bilan do'stlashdim va o'ra maktabni bitirib, harbiy xizmatga ketguningga qadar u kishiga avval dum, so'ng yelkadosh bo'lib, bepoyon tog'-u toshlarda bearmon kezinganman. Xurram ovchi ajoyib sayyoh va zo'r ovchi edi. Tog'-u toshlarni besh qo'liday bilardi. U kishi tufayli bo'rilarga ko'p bora duch kelib, ularning xatti-harakatlarini kuza-

tishga muvassar bo'lganman, qo'ng'ir ayiqlarning bir qadar loqaydligi va to'ng'izlar sezardaligi e'iboridan chetda qolmagan.

Xurram ovchi sabab tog'dagi **Amir Temur g'orini** birinchi bor uzoqdan ko'rganman, ya'ni u kishi ko'rsatgan. **1995-yili "O'zbekiston" telekanalida "Ikki daryo orlig'ida"** ko'rsatuvini tashkil etish asnosida birinchi bo'lib Temur g'orini tasvirlarga olganmiz va bu ko'rsatuv ko'plab shov-shuuvlarga sabab bo'lgan. Bu ishda Xurram ovchini ham o'ziga xos hissasi bor deb o'ylayman. Qisqasi, ushbu ko'rsatuv sabab, yigirma yil davomida yurtimizdagi barcha tog'-u toshlarni, jumladan, Qizilqum va Qoraqum dashtlarini qadamba-qadam kezib chiqqanmiz. Bu haqda keyinroq yana to'xtalamiz. Ammo bu o'rinda, shuni alohida ta'kidlashim lozimki, yigirma yil davomida ona yurtini tinimsiz kezish hamмага ham nasib etavermaydi, ayniqsa, yozuvchilarga. Turgan gapki, yillab davom etgan bu safar oson emas, o'ta darajada mashqatli erur. Bu mashqatga ham hamma bar-dosh beravermaydi...

"Ikki daryo orlig'ida" ekspeditsiyasidagi ayrim materiallar "**Tamaddun izlari**" hamda "**Amir Temur izidan**" kitoblarimda o'z aksini topgan. Biri 2016-yil, ikkinchisi 2019-yilda chop etilgan.

Xullas, 1961–1968-yillari Qishliq qishlog'idagi S.M.Kirov nomidagi sakkiz yillik maktabda, 1968–1970-yillari esa qo'shni Katag'an qishlog'idagi Hamid Olimjon nomidagi o'rta maktabda tahsil olganman. Ijod – nazm va nasr bilan to'rtinchi sinfdan boshlab shug'ullana boshlaganman va dastlabki mashqlarim tuman va viloyat gazetalarida chop etilgan. Ammo yuqori sinfga o'tganimda nasr ustivorlik qilib, nazm bilan xayrlashganman.

1971-yili harbiy xizmatga o'tim ariza yozib ketganman. Rossiyaning azim daryosi Volga bo'yida ikki yil maza qilib xizmat qilganman. Rus dalalari hamda bepoyon o'rmonlariga aynan o'sha hududda oshiq bo'lganman.

O'sha davrda, ijodkor hayotni yaqindan o'rganmog'i uchun turli joylarda mehnat qilmog'i shart, degan aqida majjud edi. Ushbu aqidaga amal qilib, harbiy xizmatdan so'ng, ya'ni 1974-yildan boshlab Toshkent to'qimachilik kombinatida chilangir, Toshkent ikkinchi temir yo'l deposida sozlovchi, markaziy omborlarda yetakchi ishchi

sifatida mehnat qilganman. Mehnat ta'tillarimni Rossiya hamda Bolliq bo'yi mamlakatlari Latviya va Livada o'tkazib, o'zimcha o'rmon tabiati, jonivorlar olamini yaqindan o'rganishga harakat qilganman, o'rmon ichidagi xutorlarda yashaganman. Safarlarda yurib, bir bilganim – odamlar hamma joyda bir xil; ikkinchi bilganim – ofitobi kam mamlakatlardan, qishin-yozin osmonidan quyoshi arimaydigan o'z yurtimiz ming chandon go'zal ekanligi bo'ldi.

1976–1982-yillari hozirgi O'zMU jurnalistika fakultetida tahsil olganman. 1982–1983-yillari "Toshkent oqshomi" gazetasida muxbir bo'lib ishlar ekannan, bu kasbimga shahar tortlik qilayotganini darrov sezganman. Va shuning uchun 1983-yili "O'zbekiston" telekanaliga muharrir bo'lib ishga joylashganman va pensiyaga chiqqanimdan keyin ham, ya'ni 2016-yilgacha goh bo'lim, goh guruh boshlig'i sifatida faoliyat yuritganman. Turgan gapki, ishga kirishim bilan, akang jurnalist, deya respublika bo'ylab sang'ishni boshlaganman. Avvaliga viloyatlarda yashab ijod qilayotgan shoir, rassom va yozuvchilar haqida, so'ng xalq amaliy san'ati ustalari to'g'risida ko'rsatuvlar tayyorlaganman. So'ng qarasanmki, baxshilarni hech kim eslamayapti. Bu sohada yoshlar o'rtasida qiziqish juda kam... Darhol baxshilar haqida ko'rsatuvlar qilishni boshlab yuborganmiz. Baxshilarni qidirib, janubiy viloyatlarda rosa izg'iganmiz. Ko'pincha o'z hisobimizdan safarga chiqardik. Bu ishda menga rejissorim, O'zbekiston Xalq artisti Dilorom Karimova yaqin ko'makdosh bo'lgan. Xalqi uchun hamma narsaga hozir bunday ayollar hayotda juda kam! Bunaqa ayollarning bittasi mingtaga tatiydi. Zero, tan olmoq ham martdlikka kiradi.

Lekin bu ishlar kamnaga kamdek tuyula boshladi.

Bir kuni ziyolilar davrasida tog'lar va tog'lardan birida joylashgan Temur g'ori haqida gap ochib qoldim. Shunda mazkur g'or haqida hech kim hech narsa bilmasligiga amin bo'ldim. Bundan avval Temur g'orini biladiganlar, ammo g'or yaqiniga yo'lamaganlar bilan suhbatda bo'lgandim. Ana shunda ustoz Xurram ovchi bilan tog'-u toshlarda ko'rgan va kechirganlarim esimga tushib, bu haqda hikoya qilmaslik yaxshi emasligini angladim. D.Karimova ikkiniz maslahatni bir joyga qo'yib, bu yangi mavzuni Temur g'oridan boshlashga ahd

qildik. Ekspeditsiya jarayonida boshimizdan kechirgan qiyinchiliklar haqida gapirib o'tirmasak ham bo'ladi. Holdan toygana va bir damga nafas rostlash uchun duch kelgan yerda cho'zilgan odamlarning o'limdan — biqinidagi ilondan, yovqasidagi qoragurdan qo'rqmasligiga tag'in guvoh bo'lganman. Zero, o'limdan qo'rqish uchun ham odamda hol-u-mador bo'lishi kerakligini o'shanda bilganman.

Tog'larda kishi o'zini eplab yurish qanchalik mushkulini ko'pchilik yaxshi biladi. Biz esa tog' so'qmoqlarida og'ir dvijok, qirq litr lab benzin, oziq-ovqat, kamera, yoritish uskunalari va boshqa kerakli yuklarni yelkalab yurishga majbu' edik. Bu kabi og'ir safarlarda o'tga nisbatan eshak chidamli. Ammo tog'larda shunday yo'nalishlar mavjudki, bu yo'llardan eshak ham yura olmasdi. Arqon tashlab, arqonga osilib, ilgariardik. Lekin jamoamiz zo'r edi, jamoamiz a'zolari bir-biriga xuddi jigardek juda yaqin edi, og'a-ini va tug'ishgandan ming chandon a'lo edi. Ekspeditsiyaning yutug'i ham shunda edi. Jamoa a'zolari yillar davomida saralangan yigitlardan iborat edi. Yigitlardan kam bo'lmagan D.Karimova ikki yildan so'ng nafaqaga chiqib ketgandi. Ammo Temur g'ori va bir necha murakkab ekspeditsiyalar u kishi hamkorligida amalga oshirilgan. Ayol zotining qo'rqmasligi va kasbiga sodiqligini u kishi timsolida ko'rganman. Afsuski, bunaqalar kam, hamisha kam bo'lgan. Safmizga qo'shilib, ekspeditsiya azobiga bardosh berolmay ura qochganlar ayol emas, yigitlar edi...

Birinchi ekspeditsiya hosilasi bo'lmish Temur g'ori haqidagi ko'rsatuv xalq orasida rosa shov-shuv bo'ldi. Bu ishda bizga jiddiy qarshilik qilgan ayrim rahbarlar uyalmasdan bizni qutlagan bo'lishdi. Bunga sari biz batlar ruhanib, dam tog'larga, dam Qizilqum va Qoraqumga ekspeditsiya uyushtirib, odam oyog'i tegmagan manzillarga intilar edik. Safar davomida g'aroyib sir-sinoatlarga duch kelardik. Shu o'rinda, bir-ikki gaydlarni g'urur bilan keltirib o'tsam:

1. Amir Temur g'ori to'ridagi ko'l bo'yida, ya'ni yarim tunda 620 metr ichkarida o't yoqib, choy qaynatgan kim? Bizning ekspeditsiya.

2. Umumiy uzunligi 15 km. bo'lgan ikkinchi Amir Temur g'origa 4500 metr ichkarilab, to'rtinchi kuni zo'rg'a qaytib chiqqan kim?

Albatta, bizning ekspeditsiya. Ammo akademik Vinogradov g'or tubigacha bora olgan deysinadi. Aytishlaricha, u kishining guruhidan bo'lak hech kim hali g'or to'riga yetib bormagan emish. Chunki g'or yo'lagi ravon emas, u goh tepaga, goh quyiga o'r lab, goh kengayib, goh sichqon iniday torayib, odamni rosa qiyaydi. Bu g'orga kirish nechog'li mashbaqqati ekanini bizga o'xshaganlar biladi. G'orda kun va tun o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ba'zan tiriklik ham...

3. Hisor tog'idagi kichik vodiylardan birida o't yoqib, tongni oqartirgan kim? Bizning ekspeditsiya. Boisi yarim tunga yaqin o'n chog'li bo'ri tevaraklab, bizni bir yarim soatga go'yoki tomosha qilishgan. Keyin ketishgan. Kamina chodirga kirib uyquni urgan, ammo boshqalar ularning qaytib kelishidan cho'chib, o't yoqishda davom etib, uxlashmagan. Bu esa kunduzgi ishimizga jiddiy xalaqit bergan.

4. O'sha tog'da chayonlar vodiysini kashf qilgan kim? Bizning ekspeditsiya.

U qadar katta bo'lmagan mo'jaz vodiy markazida chayonlar shu qadar ko'p, shu qadar g'ij-g'ij ediki, oyog' qo'yimoqqa joy topish dushvor edi. Nechun mo'jaz bu vodiya chayonlar bunchalik ko'p? Mutaxassis javobi: "Bu vodiyni tabii boshqa joylarga nisbatan za'xroq." Lekin men bu javobga qoniqmagannan...

5. Ona tabiatning bir mo'jizasi, Hisor tog'ining ayrim hududlarida ko'rinishi bir xil ikki gulga duch kelish mumkin. Bu haqda tog'lik bir otaxon, ikkisi yonna-yon o'sadi, lekin biri chaqib, ikkinchisi yoqimti hid taratadi, deya ogohlantirgan edi. Otaxon haq ekan, chindan ham gullarning biri chaqib, biri hid taratar ekan. Nechun? Afsuski, bu jumboq olimlarimiz tomonidan o'rganilmagan. Zero, tog'larda o'rganilmagan sinoatlar juda ko'p.

6. Qizilqum va Qoraqumdag'i qaynoq, sassiq buloqlar; tog'-u toshlardagi qoyatosh suratlari; Qashqadaryo tog'idagi ulkan qoyatosh — otashparastlar ibodotxonasi, qoyatoshlar oralig'idagi mug'lar qabrlari; bizni ko'rib esa-da, ko'rmaganga olib, archazoroga singib ketadigan qo'ng'ir ayiqlar; odatiy tusdagi bir nechta bo'riga boshchilik qilayotgan qora bo'ri; keksarib, to'dasidan ayro tushib qolgan sho'rlik qizg'ish bo'ri; avvaliga bizdan cho'chib, so'ng zig'ircha

hayiqmay qorin to'ydirish bilan band bo'lgan to'ng'izlar galasi; Peshig'or g'ori shiftdan shundoq oldimizga qulab tushgan sandiq-day tosh, g'ordagi o'n minglab ko'rshapalakar. Qizilqumning odam oyog'i yetmagan hududida biz topgan million-million yillik tosh qotgan mevalar... Eh-h, bularning qaysi biri haqida gapiray. Yozsang, Yigirma tomlik kitob bo'ladi. Mening esa badiiy asar yaratgim keladi.

Yigirma yildan ziyod vaqt davomida, ya'nikim o'tgan asrning to'qsoninchi yillaridan 2016-yilgacha yurtimizni qadamba-qadam kezib chiqib, oqibat, shu xulosaga keldim, quyoshli vatanimizni, jonajon O'zbekistonimizni bilaman deb o'ylarkanmiz-u, lekin bilmas ekammiz. Bilish uchun kezinish kerak ekan. Biz ekspeditsiya a'zolari bu borada juda omadli ekammiz. Bu omad hammaga ham nasib elavermas ekan.

Darvoqe, bu haqda gapirmasak bo'lmaydi.

Ota ovulimga borgan kezlirim odamlardan gochib, yemak xaltani yelkalab, birovga sezdirmay, dala-dashtga chiqib (hozir ham shu) ketardim. Yam-yashil mayasalar ustida cho'zilib, rosa kitob o'qirdim, mizg'irdim. Qisqasi, tabiat qo'ymida huzur qilardim. Dashdagi mayda-chuyda jonivorlarning kamnaga nisbatan bo'lgan g'aroyib munosabatlarini avval sezmagannan. Keyin payqab qoldim. Xullas, gap shulki, yolg'iz o'zim ovloq dashning ovloq joyiga chiqib, may-salar ustiga bahuzur yonboshlab yotganimda, boshda atrofmida qimir etgan jon bo'lmaydi. Ammo ma'lum bir vaqtdan keyin tevaragimda g'imir-g'imir boshlanadi. Men yo'qdek yoxud men tirik jon emas, to'ng'arilib yotgan chog'roq xarsang toshdek, jonivorlar mendan hayiqmay, g'imirlashga tushadi, ya'nikim toshbaqalar o'rimalab, sarig'ilonlar surgalib, dala sichqonlari chiy-chiy'lab, tipritikonlar iskanib, chigirtka deganlari naq boshimga qo'nib, xonqizi kabi mayda hasharotlar kitobning ochiq sahifasi ustida, boshim va egnimda o'rinalashga tushadi. Boshqa jonivorlarning o'to'lanlar orasidagi g'imir-g'imirni-ku qo'yaverasiz... Biroq masalaning juda muhim jihati shundaki, dashtga yolg'iz o'zim emas, biror kimsa bilan yoki yonimda it bilan chiqsam, atrofmida bu hayot tarzi qaynamaydi. Bu holatni ko'p va xo'p kuzatib, ushbu xulosaga keldim, jonivorlar kishi vujud

didan taralayotgan quvvatdan uning kim qanaqaligini ajratarkan va shunga qarab harakatlanar ekan. Yomonligi yo'q kimsadan ular cho'chimmas ekan. Buni o'zini yaxshi odam ekanligiga ishongan har qanday kimsa sinab ko'rishi mumkin.

Bu holni dala sichqonida ham kuzatgannan.

Hafta davomida dashtda dala sichqonini obdon kuzatib, uning yashash va harakatlanish tarzini o'rganib, safar yakunida o'zimcha andak shumlik qildim, dala sichqoni tomonidan har kuni, har soatda, magar shu lozim bo'lsa, har soniyada tozalanib turiladigan yo'lak tarmoqlaridan biriga dashtab tezak parchalarini tashlab ko'rdim. Tarmoqlangan yo'lakda yot jismning yotishi sichqon uchun naq o'lim – g'animdan qochayotganida yo'lga to'siq bo'lib, ajal changaliga tushib qolishi mumkin. Shunga ko'ra, dala sichqonlar yo'laklarini hamisha toza tutadi, hatto qo'y qumalog'ini tushib qolishiga yo'l qo'yishmaydi. Xullas, hafta davomida menga ancha o'rganib qolgan sichqon tomonidan tezak parchalari tezda olib tashlandi. Keyin cho'p tashlab ko'rdim va men kutmagan sinoat ana shunda ro'y berdi – sichqon yo'lakda ko'ndalang yotgan cho'pni olib tashlash asnosida munchogdek ko'zlarini menga tikkancha, bas endi, deganday shunday bir zarfdali chiyillash qildiki, hayrattan bir muddat dong qotib qoldim. Keyin naridagi chodirimi yig'ishtirib, qishloqqa endim. Oqshom dasturxon boshida sinfdosh jo'ralarimga bu voqeani aytdim. O'ylaysizki, ular hayrattan dumalab qoldi. Qaytaga ularning o'ta beparvoligidan, yo'lga, "yo'g'ay", degan bo'lishib, aroq ichib, yemak chaynashdan nariga o'tishmaganidan battar taajjubda qoldim. "Do'ngkalla" degan hikoyam mana shu kuzatishimning hosilasi erur.

Yana bir kuzatish, biz sushtash toshbaqani noshud jonivor sifatida bilamiz. Lekin ana shu noshud jonivor tabiat quchog'ida yashab turib, xuddi ayrim kattalarddek, ona tabiatning qadriga yetmaydigan o'yingarog bolalar tarafidan toshbo'ron qilinaotgan o'z bolasini himoya qilishga otlanganini, o'limni pisand etmay, jon-jahdi bilan olg'a intilganiga guvoh bo'lgannan.

Yana bir kuzatish, odatda, tovuq zotini ucholmaydi, uchsa-da, balandga ko'tarila olmaydi deyishadi. Ammo jo'jalardan birini ilib qochgan lochin ketidan osmonga uch terak bo'yi ko'tarilgan ona

tovuqning bu jahdini qanday baholaysiz?

Yana bir kuzatish, qoramollarning aza ochlishiga nima deysiz? Birovga aytasangiz, qo'ysang-chi, mollar ham aza ocharkammi, deyshi aniq. Ammo mollar ham aza ochadi. Qoramollar podasi dashda biror qoramol qoni to'kilgan yerga duch kelib qolar bo'lsa, butun poda jonivor jon bergan joyini iskab, o'sha joyini tevaraklab, oldingi to'yog'lari bilan yer tirmab, g'alati ovozda shunday bo'kirishadiki, nimasi bu, deya kapalagingiz uchib ketishi tayin.

Biz tabiatni, jonivorlar olamini sirdan (agar kuzatsak) kuzatamiz. Magar uni yurakdan kuzata olsak, ko'plab sir-sinoatlarga guvoh bo'lishimiz tayin. Ammo buning uchun buyuk muhabbatdan tashqari, tog'dek cho'ng sabr-toqat darkor. Birgina muhabbat bilan hech qachon ko'ngilli bir natijaga erishib bo'lmaydi.

Aytgancha, tabiat va jonivorlar borasidagi birinchi ustozim Xurram ovchi hech qachon duch kelgan jonivorga o'q uzmagan, menga ham ruhsat bermagan. Bo'rilariga necha bor duch kelgan esak-da, ularni ovlashga urinmagan, ayiqning joniga qasd qilishni xayoliga keltirmagan. U kishi asosan tulki, kaklik va kaplar ovlardi. Tog'-u tosh va dala-dashlarda sang'ishni o'ta xush ko'rardi. Bir yerda qo'nim topib ishlamas, doim tabiat quchog'iga intilgani intilgan edi. Baxtiga ayoli yaxshi inson edi, mollari ko'p edi. Eri yozda yig'nab bergan mo'l-ko'l yemishlar bilan jonliqlarini boqardi, janjal qilmasdi.

Ustoz ikkimiz duch kelgan yerda tunab qolardik. Tongda uyg'onib, ba'zan egnimizda karaxt chayonlarni ko'rardik, xaltamiz ustida kulcha bo'lib yotgan karaxt ilonni ko'rardik. Karaxt jonivorlar birdan chagmaydi, to'g'rirrog'i, chagolmaydi... "Qo'rqiv bilmas, biz ikki bahodir" barmuq uchi bilan chayonni chertib tushirar edik-da, yuzimizni chala-cho'lpa yuvgan bo'lib, qumg'on tagiga o't yodardik... O-o-o, bunday damlarning zavq-shavquni hech bir narsa bilan tenglashitirib bo'lmaydi. Butun olam – kulrang hovur og'ushida mudra-yotgan yuksak tog'lar, baland qirlar, quyosh nuri tushib ulgurmag'an keng adirliklar, ko'm-ko'k osmon, sekin-asta uyg'ona boshlagan jonzotlar – bari bizniki edi, ustoz ikkimiz bu olamning shohi edik. Ammo chatuq bir jihati shunda ediki, shomda qishloqqa enganimizda, shohlardan biri bo'lmish men onamdan rosa daki eshitarдим,

ba'zan kasov zarbiga chidayolmay ko'chaga qochardim, meni "daydi", "sayoq", "sumang" deb koyishardi. Ustozning bir laqabi "Sumang" edi. Ovulning "dono" odamlari u kishini o'zlaricha shu nom bilan atardilar, sayoqlanmasdan, sumanglamasdan ona tabiat va yovvoyi jonivorlar olamini aslo o'rganib bo'lmastigini, turgan gapki, xayollari ham keltirmasdi. Axir toqqa chiqmasang do'lana qayda, deb bejiz aytilmagan-ku.

Mana shu sumanglashlarim, oradan yillar o'tib, "Ikki daryo oralig'ida" ekspeditsiyasida juda-juda asqatishini xayolimga ham keltirmaganman. Balki taqdir bu ekspeditsiya ishiga avvaldan meni tayyorlab, Xurram ovchini ustoz sifatida tayinlagandir. Yana kim biladi, ammo bilganim yurtni qadamba-qadam kezib chiqish baxti hammaga ham nasib etavermaydi.

Mehnatlarim inobatga olinib, 1999-yilda "Shuhrat" medali bilan, 2006-yilda esa "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlandim.

Aytaversang, gap ko'p, ammo uning gaysi birini aytasan. Gapga chalg'ib, asarlar yozish esdan chiqib ketmasin, doim jim yuramiz.

Savol va topshiriqlar

1. Normurod Norqobilovning animalistika yo'nalishida ijod qilishiga qanday omillar sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
2. Normurod Norqobilov asarlarida E. Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" to'plamiga kirgan asarlari bilan qiyosiy tahlil qiling. Xarakterlar talqinidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlang. Fikringizni H. Umurovning "Adabiyot nazariyasi" va D. Quronovning "Adabiyotshunoslikka kirish" darsliklari misolida izohlang.
3. Normurod Norqobilovning "Tarjimai holi" asosida "Normurod Norqobilov – tabiat kuychisi" mavzusida maqola tayyorlang.

ISTIQLOL DAVRI BOLALAR ADABIYOTI

Safar Barnoyev ijodida urush va tinchlik mavzusi
(1938-2000)

Reja:

1. Safar Barnoyev ijodida bolalik taassurotlari ifodasi.
2. Adib ijodida urush fojialarining badiiy talqini.
3. Urushga nafrat "Qirq yetinchi yil" turkum hikoyalarning yetakchi g'oyasi sifatida.
4. Safar Barnoyev ijodida mustaqillikka shukronalik g'oyasining ifoda qilinishi.

Inson xotirasi bilan tirik. O'tmishni bo'ylaganidami, kundalik hayoti-yu kelajak rejasi xususida fikrlaganidami, albatta mantiqiy tafakkur qudrati bilan yo'g'rilgan xotirasiga suyanadi. Xuddi shunday boshqalar bilan muomala-munosabatda ham ko'p kechmishlarni xotiradan o'tkazishga to'g'ri keladi. Mabodo hamisha hamsuhbat bo'lib yuradigan odam bu foniy dunyoni bevaqt tark etib ketasa, diydorlashuv qiyomatga qoladi-yu hamsuhbatlik hayotot olanniga ko'chadi. Atigi bir lahzalik "omon bo'l, bor bo'l" ham xotirangda qayta-qayta jonlanaveradi. Tanqili bolalar yozuvchisi, shoir, publitsist va nohitr Safar Barnoyev yaqin tanish-bilishlar uchun ana shunday kishilardan edi.

Shunisi e'tiborliki, tasodifiy uchrashuvlarda ham ko'p hollarda boshqalarga o'z so'zini goh jiddiy, goh hazil-huzul bilan o'tkazishiga ko'ra tashabbus u kishida ketardi.

Ozod Sharafiddinovning "She'r ko'p, ammo shoir-chi?" nomli maqolasi matbuotda e'lon qilingan kezlar edi. Maqolada ko'tarilgan muammo adabiy davrlarda bot-bot tilga olinardi.

O'sha kunlarning birida nimadir sabab bo'lib Safar aka o'zi gap ochib qoldi: "Ustoz aytilgan muammo bizda (bolalar adabiyotida demogchi-S.M.) o'n chandon og'itiroq. She'r ham, shoir ham yetarlicha. Ammo proza... Hozircha biz uch avlodimiz. G'afur G'ulom, G'avraty-birinchi avlod. Shukur Sadulla, Habib Po'latov, Odil

Bolalar adabiyotidan sahifalar

Yoqubov, Sumnatilla Anorboyev, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev- ikkinchi avlod, Farhod Musajon, Latif Maxmudov, Yo'ldosh Sulaymon va meniyam hisoblashsa- uchinchi avlodimiz. Xo'sh bizdan keyin kim bor?"

Bolalar narsi xususida bu xildagi kuyinish adabiyotining kelajagi va keng kitobxonlar ommasi oldidagi mas'uliyat tufayli yuzaga chiqishiga shak-shubha yo'qdir.

Safar Barnoyevning hayotda bir qadam oldinda yurishga bo'lgan intilishi "Yosh gvardiya" nashriyoti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, "Gulxan" jurnali, Xalq ta'limi vazirligidagi faoliyatida kamol topdi.

Maktablar, kutubxonalar va ijodiy jamoalardagi uchrashuvlarda so'z berilishi hamon zalda o'tirganlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishib ketishi yig'ilganlarga o'zgacha zavq-shavq bag'ishlar edi.

Hech shubha yo'qki, bolalarga, bolalikka samimiy mehruhahabati uni doimo izlanishga da'vat etib kelgan omillardandir.

O'zbek bolalar adabiyotining XXasr 60-70-yillarigacha bo'lgan davrini, - deb yozgan edi akademik B.Nazarov, - keyingi davri bilan qiyoslasak, garchi bu davrlar orasida uzviy bog'liqlik bo'lsa-da, keyingisi avvalgisidan jiddiy farqlanishini sezmaslik mumkin emas. Buning talay sabablari bor, albatta. Ana shu sabablarning ayrimlari badiiylikka e'tibor kuchaygani, bolalar adabiyotiga xos xususiyatlarning ijodkorlar tomonidan chuqurroq e'gallana boshlagani, ayniqsa, yirik janrlarda asarlar yuzaga kelgani, bolalar adabiy tanqidchiliga ham jiddiy o'zgarishlar yuz bergani, yangi avlod ijodkorlarining maydonga kelgani bilan izohlanadi.³⁰

"Menga qolsa,- deb yozgan edi S. Barnoyev publitsistik maqolalaridan birida,-bolalaikda ko'rganlarini bolalik daffari deb atardim. Chunki, bolalikda ko'rgan, bilganning, eshitganning bir umr senga hamroh bo'ladi. Ana o'shanning zavqi bilan yashaysan. Har bir daqiqada bola bo'lgining kelaveradi. Bolalik dunyosi chorlab turaveradi".

³⁰ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2008. 30- may.

Adib asarlari bilan tanishgan kitobxon uning ijodi bolaligi kechgan urush davridagi kechmishlaridan suv ichganini payqashi qiyin emas. Bir qarashda bolalar uchun asar yozishdan ko'ra jo'n narsa yo'qqa o'xshab ko'rinadi. Bolalar adabiyoti namunasi deb e'lon qilinadigan talay "asarlari" syujetining sun'iy to'qimalardan quruq pand-nasihatlardan tashkili topishini faqat talantsizlik oqibati deb baholamaskan yuqoridagi kabi yengil-elpi qarashlarning ham mahsuli deb tushunmoq joiz.

Bolalar yozuvchisi bo'lish uchun qayta bola bo'limoq kerakligi to'g'risidagi eski aqida o'z kuchini yo'qotmaydi.

Safar Barnoyev ijodiga shu jihatdan nazar tashlansa, ko'pchilik asarlari mavzusi bevosita o'z bolaligi kechgan urush davridan tanlanganining guvohi bo'lasiz. Bolalar adabiyoti xazinasiidan munosib joy egallagan "Dadanning qo'llari", "Sog'inch", "Dadam haqida qo'shiq", "47-yil turkum hikoyalari", "Soldat qaytgan kun", "Yangi oy" nomli asarlarining yetakchi qahramonlari adib bilan tengdosh o'sha davr bolalaridir.

U she'riyatda ham, nasrda ham, publistsitkada ham bolalikni badiiy tadqiq etdi, bolalik ruhiyatidagi quvnoqlik va ma'yuslik manzaralarini chizdi va buning sabablarini ko'rsatishga intildi. Uning butun ijodida urush tufayli sarsonlikka giriftor etilgan, ota mehriга intiqilikda yashagan bola qiyofasi nurilanib turadi.

Urushda shahid ketgan otasining qismatidan ko'ngli nolon bolakayning qalb tug'yonlaridan iborat quyidagi kechimmalarini o'sha davr fojialarini boshdan o'tkazgan ijodkorgina shu tarzda qalamga olishi mumkin.

...Bu bir tun kabi o'ldi

Yurt bo'ldi omon-omon.

Men otamning yodi-la,

Nafas oldim har qachon.

Otamni "qora xat"ga,

Bilmadim alishganim.

Birovlar yetim desa,

Jimirlaydi badanim...

Shu o'rinda shoir she'riyatida kichkintoy qahramonning o'yin-qaroqligi-yu sho'xliklari bilan yo'g'rilgan lirik kechimmalarining ijtimoiy muammolar bilan bog'liq holda tasvirlanishini tilga olib o'tish o'rinni bo'lar edi.

S. Barnoyev ijodining o'ziga xos xususiyatlari haqida gap ketganda, shoirning kichkintoylarga tanish oddiygina manzara holatlaridan muhim tarbiyaviy g'oyani ilgari surganini ko'rish mumkin. Masalan:

- Aytchi, qizim, nega laylak,

Bir oyoqda turadi?

Yurganda-ku ko'rgandirsan,

Ikkisida yuradi.

Ada gapga qulog' solmay,

Yurgan loyga bo'yalib.

Kir oyog'in ko'rsatolmay,

Turibdida uyalib.

"Kichkintoylar uchun yozilgan har bir she'r, hatto bir satr ham rassom uchun bir material bermasa, u o'z-o'zidan yaroqsizligi bejiz emas".³¹

"Alanga" balladasi, "O'lmastar", "Quyosh bolasi", "Non sandiq", "Yorg'uchoq" kabi she'rlari to'liq turmushimiz uchun kurashgan otalar an'anasini ulug'lashga qaratilishi bilan ajralib turadi. "Quyosh bolasi" she'rining lirik qahramoni:

Quyosh yetaklaganim,

Bolalarning yo'li bu.

-Har bir uyda quyosh bor,

Men quyoshning bolasi,-

deydi faxr bilan.

Safar Barnoyev kichkintoylar qalbiga kitob shaklidagi nur bo'lib kirdi va mangu maskan topdi. Bu haqda Tursumboy Adashboyev shunday deb yozgan edi:

³¹ Safarov O. Yaxshining yodi – manguligi shahodati. "Bolaistonlik saodati".-T.:

"Muharrir" nashriyoti. 2011, 16-bet.

Qing'ir yo'ldan, adovardan olis turdik,
 Tarafkashga qo'shilmadik, xolis turdik,
 Mujmal gapni dangal so'zga alishtirdik.
 Do'st tutinib kam bo'lmadin Safar bilan.

Urush davri fojialari haqida chuqur taassurot qoldiruvchi "Qirg yettinchi yil hikoyalari" turkumiga xos xususiyat urush asoratining kattalar bilan birga bolalar hayotida ham o'chmas iz qoldirganini joni obrazlar vositasida ochib berishida, o'sha davrni unutmasilikka da'vat qilishidadir. Bu hikoyalarda butun bir avlodning urush tugagan pallalarda voyaga yetgan, oq-qorani qushuna boshlagan, ko'ngli bir umr yarim bo'lib qolgan bolalar avlodining qiyofasi aks etgan. Bu avlod keyinchalik o'sib ulg'aydi, el-yurt xizmatiga kamabasta bo'ladi. Ular orasidan olimlaru shoirlar, kosmanavt-u davlat arboblari yetishib chiqdi. Ota diydoriga to'ymagan bu avlodning bir vakili sifatida Safar Barnoyev "Ota o'g'ili", "Dadamning qo'llari", "Dadam haqida qo'shiq" asarlarida o'sha davr bolalarining armonlarini tasvirlagan.³²

"Yangi oy" qissasida to'plamdagi turkum hikoyalarga xos mush-taraklik-bolalarning g'olib otalarni intiq kutishi qoliplovchi hikoya vazifasini o'tagan. Qissa qahramoni Karim shunday deydi: "Shaharda yangi oy chiqishini ko'rishim bilan darrow: "Salom, yangi oy! Salom, daraxtlar" derdim. Agar shunday desang, yangi oyning poy qadami qultug' kelarmish. Hammayoq daraxtlar bo'lib, yashnab ketarmish. Keyin nima niyat qilsang, murodingga yetarmishsan..."

Mening yakka-yu yagona orzum bor. U ham bo'lsa tezroq urush tugasin. Otam kelsinlar. Ergashning otasi ham. Hamma-hammanning otasi."

Uning bu gapi to'planning asosiy leyf motivini tashkil etadi. Karimning dadasini sog'inib yurishlari, onasining murutli amakiga choy-chaga hisobiga xat yozdirishi, qishloqdagi sarguzashtlari, shubhasiz, uzog esda saqlanib qoladi. Kitobxon go'yo Karim bilan birga qishloqqa sayohat qiladi. U yerda mehribon bobo va rais hamda

Davlat, Ergash, Abbos kabi samimiy, sho'x bolalar bilan uchrashadi. Ulardan o'ziga nimadir yuqtiradi.

Yozuvchi nasriy asarlarida ham kichik yoshdagi kitobxonlarning yosh xususiyatlari hamda janr tabiatidan kelib chiqqan holda sujet vogelalarini bolalar hayotidan tanlaydi. Aslida kichikintoylarga tanish manzara – holatlarni qalamga olish orgali kitobxonlarni beg'ubor bolalik dunyosiga chuqurroq olib kirish, hayot jumboqlari bilan tanishtirish bolalar adabiyotining mohiyatini belgilaydi.

Talay asarlarida adabiy qahramonlarning muallif yetovidan chetga chiqolmasligi, kechmish-kechmishlarining muayyan sxema asosida tasvirlanishi ijodkorning qahramonlar ruhiyatiga chuqur kirilmasligi tufayli yuz beradi.

Safar Barnoyev urush davri va urushdan keying yillar bolalar hayotidan olib yozilgan asarlarida masalaga o'z bolaligi kechgan davr mezonlari asosida yondashadi. Natijada kitobxon qahramonlarning o'zligini tanish yo'lidagi xatti-harakatlariga, ma'naviy dunyosiga yosh Safar nigohi orgali nazar tashlaydi.

"Shaharda o'sdim. Romiton rayonidagi Bog'iturkon qishlog'ida suyagim qotdi, - deb yozadi adib "Soldat qaytgan kun" kitobiga yozgan so'z boshida. - Urushdan keyingi bu yerlardagi sharoit, hayot shundooqina ko'z oldimda turibdi".

Bundan o'z bolaligi kechgan davrlar haqida qalam tebratish ijodkor qalbida o'zi tasvirlayotgan vogelikka nisbatan ishonch va qar'iyat uyg'otishini anglash qiyin emas. Bolalik taassurotlari pesh-kash bo'lgan asarlarda shu holni kuzatish mumkin. "Qirg yettinchi yil hikoyalari" turkumiga kirgan asarlari, "Yangi oy" qissasi yutu-g'ini ta'minlagan omillardan biri ham kichkina Safarning bolalik taassurotlari bilan adib Safar Barnoyev tafakkurining uyg'unlashib, chatishib ketishidir. Qahramonlar ruhiyati tasvirida bu ayniqsa ko'zga tashlanib turadi. Buni Toshkentdan Buxoroga buvisinikiga kelgan Abbosxon bilan Rahim va Badriddinlarning munosabatlarida ham ("Begona bola"), Azim bilan Aziz degan tengdosh xolavach-chalar munosabatlarida ham ("Xolavachcha") ko'rishimiz mumkin.

Adibning so'ngi davr bolalar hayotidan olib yozilgan "Oq laylaklar" qissasining bosh qahramoni pensiya yoshiga yetgan bo'lsa ham

³² "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2008. 30-may.

maktab bilan qatiq bog'lanib qolgan, qadrdon o'quvchilaridan ko'ngi luzaolmay yurgan keksa o'qituvchi Abbos akadir. Asar tuguni oddiygina voqea asosiga qurilgan: nima ham bo'ladi-yu 8-sinf o'quvchilaridan biri doskaga Abbos akaning rasmini chizib tagiga "pensiya" deb yozib qo'yadi. O'qituvchi uchun o'quvchilar oldida kalaka bo'lishdan og'ir narsa yo'q. Shuning uchun bu voqea keksa o'qituvchiga ham, boshqa o'qituvchilarga ham yomon ta'sir qiladi. O'quvchilar aybdorni topishga va jazolashga qaror qiladilar. Botirva Rahmonning hamma aybni Yusufga to'nkashi, uning esa qaysarlik bilan o'zini "gunohkor" qilib ko'rsatishi hech kimni qanoatlanitmaydi. Chunki Yusuf xarakterida birovi, xayniqsa, o'qituvchisini mayna qilish odati yo'qligini o'rtoqlari yaxshi bilishadi. Lekin Yusuf rasm chizishga usta. Qolaversa, o'qituvchini doska oldida bo'rtushlab turgan holatda ko'radi. Qissa syujetining rivojiga muhim turtki beruvchi bu jumboq kichik kitobxonni ham qiziqitirib qo'yadi. Endi yozuvchi sinfdagi vaziyat, Zafar, Botir, Yusuf, Rahmon va boshqa bolalarning oilaviy ahvoli, ularning o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi voqealar tasviriga o'tadi. Shu bahonada qahramonlarning ma'naviy dunyosiga nazar tashlaydi.

Hamma gap shundaki, Abbos akani kalaka qilishga hech qanday asos yo'q. "Doim o'ng yelkasini qiyshaytirib, yo'l chekkasidan, bexavotitroq yuradigan joydan, olmishdan oshgan bu qotna odam" juda katta hayotiy va pedagogik tajribaga ega. U o'zining bor bilimni va mehrini yoshlar qalbiga singdirishga harakat qiluvchi ko'ngli pok, olijanob inson.

Yozuvchi Abbos aka misolida manaviy sofilik, adolat uchun kurashish, el-yurt ishiga fidoiylik kabi yuksak insoniy fazilatlarini ulug'laydi. Bu esa keksa o'qituvchi xarakterini individuallashtirishda, asar tilini boyitishda, ayniqsa, qo'l kelgan. Qahramonlar nutqida buxoro shevasidan o'rinni foydalangani qissaning hayotiyligini taminlagan muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Safar Barnoyev garchi bugun oramizda bo'lmasa-da, o'z asarlari bilan yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. S. Barnoyev ijodida urush va tinchlik mavzusining yetakchi o'rin tutishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?
2. "Qirg' yettinchi yil" turkum hikoyalarda urush davri fojiasi bilan bog'liq voqealar tasvirining qalamga olinishiga qanday omillar sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. S. Barnoyevning quyida keltirilgan "Askar qaytgan kun" hikoyasi matni asosida "Askar qaytgan kun" hikoyasida urush davri fojiasining badiiy talqini mavzusida taqritiz yozing.

Anvar Obidjon – serqirra ijodkor
(1947-2020)

Reja:

1. Anvar Obidjon – shoir, nosir, dramaturg.
2. Anvar Obidjon ijodida yunor.
3. Shoir she'riyatida ijtimoiy motivlar.
4. Anvar Obidjon ijodida shakiliy izlanishlar.

Odarda, biror yozuvchi ijodi tahlil etilganda asarlarining mavzu doirasi, tasvir uslubining o'ziga xosligi, yaratgan obrazlarining hayotiyligi-yu tarbiyaviy ahamiyati yoki qaysi asarida qanday g'oyalarni ilgari surgani-yu badiiy til xususiyatlari yuzasidan fikr yuritiladi. Bayon qilinadigan fikr-mulohazalar mazmunan har xil bo'lsa-da, ularni bog'lab turadigan bir nuqta bo'ladi. Bu badiiy mahorat bilan bog'liq yozuvchining ijodiy individualligi masalasidir. Taniqli bolalar shoiri Anvar Obidjon asarlariga shu jihatdan nazar tashlaganda uning shoir, nosir, kinossenarist, dramaturg, noshir sifatidagi ko'p qirrali ijodiy faoliyati ko'z oldimizga keladi.

Anvar Obidjon bolalar adabiyotiga dastlab "Ona yer", "Bahromning hikoyalari" to'plamlari orqali shoir sifatida kirib keldi va mavjud ijodiy an'analardan foydalangan holda o'ziga xos yo'l tanladi. "Bulbulning cho'pchaklari", "G'alati maktublar", "Kumush uy", "Curungdagi gaplar", "Ajoyibxonona", "O'zimizning ansambli", "Itna-

larim chiroyli", "Mening kolleksiyam", "Shirin so'ylar jajivoylar", "Kalamushlar kemasi", "Siz eshitmagan qo'shiqlar", "Dalalardan bolalarga", "Osmondan tushgan sozanda" turkum she'rleri fikrimizga dalildir. Ulardagi aksar majoziy - yumoristik tasvir bolalarning o'zlariga tanish, ammo bir qarashda hatto kattalarning ham e'tiborini tortmaydigan holat - manzaralar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham Anvar Obidjonning she'rlarida an'anaviy uslub va shakllar shartlilik bilan bezanganini ko'rish mumkin. Uning qahramonlari ko'proq hayvonlar, hasharotlar, maysa-giyohlar, dov-daraxtlar bo'lib, tasvirning qisqaligi beixtiyor diqqatni tortadi. Ayrim she'rleri ikki-uch satrdan tashkil topgan bo'lsa-da, mazmunan tugaldir.

Shoirning turkum she'rlari qo'shiq, maktub, cho'pchak shaklida yaratilgan. Ulardagi shakliy o'xshashlik kitobxonga diqqatini jamlashga, asarlarining ma'no-mazmunini anglashga yordam beradi. Jumladan, "Siz eshitmagan qo'shiqlar" turkumidagi "Chigirtkalar qo'shig'i", "Sigir qo'shig'i", "Ajoyib xona" turkumiga doir "Tulkilar radiosida", "Quyovlar tramvayda", "G'alati maktublar" turkumidagi "Po'stinning Ayiqchaga yozgan xati" she'rlari shunchaki shakliy uyg'unlikni anglatmaydi, balki, aksincha, ularning har birida kichkin-toylarda hayrat uyg'unini qo'zg'ashga qodir quvnoq yumor bilan yo'g'rilgan teran hayotiy ma'no bor.

"Tulkilar radiosida"gi "Toqat qilinglar bir oz, so'nggi bor kuyilar xo'roz" tarzidagi axborot-e'lon ham, "Chumchuqlar bozorida"gi:

- Buncha tiqin, mashmasha?

- Sotilayapti ipshasha -

tarzidagi qisqagina savol-javob ham bolalarni atrofmizdagi olam bilan tanishtirish orgali ularning dunyoqarashini kengaytiradi, mushohada qobiliyatini tarbiyalaydi.

"Bahromning hikoyasi" she'rida tasvirlanishicha, Bahrom ismli bola "Yapaloq" degan tovug'i bilan inoq yashaydi. Bu don bersa u oppoq tuxumlari bilan xursand qiladi. Xullas, ular o'rasidagi do'stlikning zamini mustahkam. Ammo bu do'stlik Bahromning ehtiyotsizligi, to'g'rirog'i, qo'polligi tufayli barham topadi. Uning "dangasa" deya qilgan do'qidan Yapaloq uydan bosh olib ketadi. Yapaloq arazlashining sababini yozib qoldirgan xatida qo'pol va ta'magirligi

uchun Bahromdan qattiq xafa bo'lganini bayon etadi. Bahrom esa qilmishidan pushaymon.

Asarda qo'yilgan masalaga nisbatan muallif pozitsiyasi aniq. Lekin o'z munosabatini ochiq-oydin bildirib o'tirmaydi.

Izchil syujetning bolalarbop tilda hikoya qilinishi, tasvirda shoirning xolis kuzatuvchi sifatida turganligi she'rning san'at asari tarsidagi badiiy estetik ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga, tarbiyaviy maqsadga ham xizmat etadi. Ya'ni, xushnuomatalik bilan qo'pollik haqida ma'lum tushuncha beradi.

Anvar Obidjonning "Siz eshitmagan qo'shiqlar" turkum she'rlarida didaktik g'oya ko'proq kinoya, qochiriq, piching aralash fosh etuvchi yumor vositasida ifodalanadi.

"Obbo kalamush - ey!" she'rida tanqid tigi'i kalamushsifat kishilarga qaratilgan. Xalq mulkini kishi bilmas talon-taroj qiluvchilarga nafrat uyg'otishda shoir xarakter-xususiyatiga ko'ra ularga yaqin turuvchi kalamush obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Mana, u kalamushga qarata nima deydi:

Yoz desalar

"Temir" deb,

Sen yozibsan

"Kemir" deb.

Shoir shu tariqa kalamushning aytilgan so'zni boshqacha yozi-shiga go'yo uning chalasavodligini sabab qilib ko'rsatadi. Lekin ziy-rak kitobxon kalamushning "temir" o'riga "kemir" so'zini yozishidan fahmaydiki, u chalasavod emas, balki o'zining hayotiy prinsipini bayon qilypati. Ma'no jihatdan bir-biridan tamom yiroq bo'lgan so'zlar (*temir*, *kemir*) zimmasiga asosiy g'oyaning yuklatilishi qo'fiyadosh so'zlardagi favqulodda hamohanglik she'rning g'oyaviy-badiiy ta'sirchanligiga, uzog muddat xotiramizda muhrlanib qolishiga yordam beradi.

Anvar Obidjon "Tekinxo'r" she'rida ham shu xildagi "adressiz" tanqidga murojaat etadi. Mazkur she'r ayni vaqtda real mazmunga ham ega. Tekinxo'rlikka nafrat g'oyasini ilgari surgan shoir asarda bolalarga tanish manzarani chizadi:

Qumursqavoy

Topib uvoq.

Terga botib

Tordi uzoq.

Chumchuq kelib

Sekingina,

Yutdi-go'ydi

Tekingina.

Qumursqaning zahmatkashligi, topgan uvog'ini "terga botib" ne mashhaqatlar bilan innga sudrash, lekin tekin yashashga o'rgangan chumchuqning buning bilan ishi bo'lmasdan, tayyor oziqqa zo'ra-vonlik qilishi oddiy bir hol.

Shoirming mahorati shundaki, ko'pchilik ko'rib yursa ham, e'tibor bermaydigan o'sha oddiy hayot hodisasidan tarbiyaviy ahamiyatga molik umumlashma xulosa chigara olgan.

She'rning ta'sirchanligini ta'minlagan omillardan biri keskin vaziyatning qalamga olinganligidir. Shoir uni g'oyatda qisqa satrlarda ixcham tarzda tasvirlaydi, so'zlarni chertib-chertib tanlaydi.

Sirtidan qaraganda, muallif she'rda qalamga olingan vogueaning slunchaki xolis kuzatuvchisi kabi taassurot goldirsa-da, aslida unga bo'lgan munosabatini har bir satrga sig'dirishga intilgan. Qumursqaning topgan uvog'ini "terga botib uzoq tortishi" ga e'tibor qaratilganligidan unga shoirming xayrixohligini sezish qiyin emas. U qumursqaga qanchalik xayrixoh bo'lsa, chumchuqning qilmishiga shu qadar naftrat bilan qaraydi. "Sekingina", "tekingina" qofiyadosh misralari bu pinhoniy naftratning teran ifodasidir. Shoir ularga o'z munosabatini ochiq-oydin bayon qilganida, she'rning g'oyaviy-badiiy qimmatiga so'zsiz, salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi.

Shoirming "Yaylovni sog'ingan qo'y" she'ri suhbat tarzida yozilgan. "Ishlar galay?" degan savolga qo'y o'y surib shunday lo'nda javob beradi:

Kamchilik yo'q

Ozidan...

Bezor bo'ldim

Qoziqdan.

Oldiniga qo'yning o'y surib qolishidan sergaklangan kichik kitobxon uning qoziqdan nega bezorligi haqida bosh qotirishiga shubha yo'q. Darvoqe, Anvar Obidjon ijodining dastlabki bosqichida yozgan mazkur she'ri bilan bolalar adabiyotida ham chuqur ijtimoiy mazmunga ega asarlar yaratish mumkinligini namoyish etganini adabiyotshunos olimlar o'z vaqtida ta'kidlashgandi.

Shoirming ko'pgina she'rlarida g'oya sarlavha zimmasiga yuklatilgan. Bu xildagi she'rlarni sarlavhadan ajratganda ijodkor maqsadini anglab bo'lmaydi. Masalan:

O'zing-ku yotibsan

Kishanda.

Birovga bo'lmagin

Kushanda.

Yer poyonsiz

Hoynahoy.

Ko'p yugurma,

Oshnavoy.

Kaklik tutdik

Ja semiz,

Edik...

Burgut ikkimiz.

Bu to'rtliklarning har biri mustaqil she'r. Ammo sarlavhani tushirib o'qiganda ulardan ko'zlangan maqsadni anglolmaymiz. Birinchi to'rtlikni "Qopqonga yozilgan she'r", ikkinchisi "Shilliqurtning nasihat", uchinchisi "Arining quvonchi" sarlavhalari bilan qo'shib o'qigandagina ular orgali "Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq" maqolining hayotiy ahamiyatini, shoirming loqaydlikka keskin munosabatini fahmlash, tayyor oshga bakovul bo'lib birovlarining yutug'iga sheriklikni da'vo qiluvchi maqtanchoq kimsalarga sharma qilinaoiganini anglash mumkin.

Tasvirda qisqalikka intilish ko'p so'zlikdan qutqazadi, favqulodda topqirlik bilan ishlatilgan tashbehtar o'quvchilarda hayrat tuyg'usini uyg'otadi. Mahoni quyuvqlashitirish yo'lidagi izlanishlar shu tariqa badiiylikni oshirishga yordam beradi. Lekin Anvar Obidjon ijodiy

mahorati faqat bular bilan belgilanmaydi. Shoir asarlari keskin hayviy ruhi, yumoristik talqini bilan ham ajralib turadi.

Bolalar adabiyotining azaliy mavzulari - ona-tabiat va vatandorlik tarbiyasiga bag'ishlangan ko'p she'rlarda o'klamining bog'rog'lar-yu keng paxta maydonlari, daryo va tog'lar madh etiladi, to'g'irrog'i, qayd qilinadi. Umumlashma tavsiflar-u quruq qayd qilish orqali kitobxon tuyg'usiga ta'sir qilib bo'lmastigini ayon haqiqat. Anvar Obidjon ko'pgina bolalar shoirilaridan farqli o'laroq, tabiat va hayotga bolalar tushunchasi, nigohi orqali yondashib, azaliy mavzularni yangicha yoritishga erishadi.

Shoir aksariyat she'rlarida jonivorlar, narsa-predmetlarning tashqi ko'rinishi tasviri vositasida o'quvchini o'zi ifoda etmoqchi bo'lgan mohiyat ichiga olib kiradi. Masalan:

Qarg'a kirdi
Kinoga.
O'xshab
Buratinoga.

(“Bezori”).

Dumbulginam
Go'dakcha.
Uxlar ko'm-ko'k
Yo'rgakda.

(“Makkajo'xori”).

Shoir she'rlarida Begemotning burni qumg'onga, Jirafaning bo'yini narvonga, Baqaning og'zida tishi yo'q kampinga, Hakka patlari rangi ola-bula to'nga o'xshatishi bolalarning zavqini oshiradi, jonivorlar haqida to'laroq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Har qanday ijodkorning yulduzli onlarida iste'dodining bor-yo'q qirralarini qo'shib-chatib baholash bor gap. Kelirilgan tahlillardan ko'rinadiki, Anvar Obidjon haqida gap ketganda bunday qo'shib-chatishga ehtiyoj sezmaydiz.

“Bo'ladigan bola boshidan ma'lum” deganlaridek, u erksizlik, ijtimoiy muhitning bo'g'iqiligi to'g'risidagi ilk she'rlari bilan o'sha davrda urf bo'la boshlagan quvnoq bolalik uchun partiya va Leninga

hamdu sano aytishga, shu yo'l bilan adabiyotni mafkuraviylashtirishga, shiorbozlikka qar'iy munosabat bildirgan edi. 1980-yilda sho'rolar zamonidagi turg'unlik saltanati olg'a surgan g'oyasizlik g'oyasini fosh etishga qaratilgan quyidagi misralar shoir she'riyatining kelajagiga umid va ishonch uyg'otgan edi:

Ko'zingni yum,
Qulog'ni berkit,
Aqlingni to'mtoqla,
Tilni kalta qil...
Endi yashayver!

Uning “Kulchalar” va “Botirvoyning kundaligi” turkumlaridagi asar gahramonlarning deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir. Bu she'rlarda bolalik tuyg'ularining sofligi, orzu-umidlarning beg'uborligi, tabiatan bir oz shumligi, quvnoqligi katta iste'dod bilan ochib beriladi, o'quvchini goh yayrab-yayrab kulishga, goh jimgina o'y-lashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi.

A.Obidjonning mahorati shundaki, u kichikintoylar dunyoqarashidagi o'ziga xosliklarning tub mohiyatini yurakdan sezadi. Ularning ichki olamini, o'y-xayollarini, kichik qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni nozik did bilan kuzatadi. Shu tufayli bir qarashda, juda oddiy ko'rinadigan kichik-kichik she'rlarida Inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko'lamda tahlil etib beriladi. Samimiy yumor, yengil hayv elementlari yorqin ko'zga tashlanadi. Shoirning “Hali o'zim bolaman-ku!”, “Sinechkov bola”, “Shu ham filmi?” kabi o'nlab she'rlari shu jihatdan nihoyatda xarakterlidir.

Dadajonim,
Dadajon,
Otim nega
Otajon?
Axir kimga
“Ota”man?
Shuni o'yla-a-ab
Yotaman.

She'ni o'qir ekansiz, endigina so'zlar ma'nosini angalay boshlayotgan bolakayning holati ko'z o'ngingizga keladi. Uning kutilmagan "muammo"i masala oldidagi o'ychanligi o'quvchining labida nurlil tabassum paydo qiladi, qalbida kichiktoyga nisbatan issiq bir tuyg'uni uyg'otadi³³.

Anvar Obidjon she'riyatining o'ziga xosligini bir necha omilga bog'lab izohlash o'rini bo'ladi. O'z qahramonlari va kitobxonlari ruhiyatini teran anglab yetishi, asrlar davomida shakllangan mumtoz adabiyot, xalq og'zaki ijodi hamda jahon adabiyoti an'alariga mohirona yondashishi shular jumlasidandir.

Xalq og'zaki ijodiga xos bo'yodoriq, ma'noning quyuvligi, tasvirning samimiyiligi-yu, rang-barang qochirilmalarga boyiligi, serqatlam ohangdorlik, topqirlik, ko'p hollarda ifodaning kosa tagida nimkosa tarzida berilishi shoir ijodida yangicha jilo topdi.

Misralarning qisqaligi, fikrning aniq maqsadga qaratilishi, ohangdorlik falsafiy ruhi ta'minlash va kuchaytirishga xizmat qildi:

Chandiqlar ko'p tanimda:

Yelkamdagi - g'animdan,

Ko'ksimdagi - do'stmiki.

Bitta xoin bor joyda

Befoydadir, befoyda,

Qal'alar va soqchilar.

Shunisi xarakterliki, Anvar Obidjon she'rlaridagi kabi, nasriy asarlarida ham turli jonivorlardan iborat qahramonlarga duch kelamiz. Masalan, "Mushukchanning hikoyasi" qahramoni Yer yuzi tomondan ko'ra o'n besh marta kattaligini "kashf etsa", och qoringa arini yutib yuborgan qurbaga uyqusiragan holda ovqat yeyishning oqibatini yomon bo'lishini "kashf etadi". Agar jo'ja dadasi Xo'rozning qip-qizil tojidan, vigo bilan yurishidan zavqlansa, nodonfe'l xo'tikka o'zining aql-farosatiga qoyil qolib maqtanadi. Yozuvchining kichik-kichik ertak-hikoyalardagi hayvonlar xayol suradilar, fikrlaydilar, tevarak-atrofni kuzatadilar, hayratlanadilar. Ularning xatti-

harakatlari bolalarni qiziqituvchi yengil yumor vositasida tasvirlanadi. Misol uchun, "Jo'janing hikoyasi" qahramoni "uka"laridan biridaqqa avval tuxumni yorib chiqqan: "Mendan keyin ukalarim ham birin-kekin tuxum pachaqlashga tushishdi. Yorug'likka chiqishgach, ular ham menga o'xshab ko'zlarini ocholmay turishdi. Shumshayib o'tirganini ko'rib kulgung qistaydi".

Hikoya qahramonlari o'zlarini haqida gapirar ekan, go'yo o'z shaxsiyatlarini tasdiqlab olayotgandek bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchi ular timsolida aniq "shaxs"ni ko'radi. Bunday hikoyalarda kitobxonlarda jo'shqin, xushchaqchaq kayfiyat uyg'otadi. U atrofga tiyranroq boqib, bu dunyoda o'zidan-da kichiklar borligini bilib, ularni ehtiyot qilish, asrash-avaylash zarurligini his etadi.

Yozuvchining "Olovjon va uning do'stlari" nomli qissa va hikoyalardan tashkil topgan to'plamiga kirgan asarlarining qahramonlari aksariyat hayvonlar, hasharotlar, parranda-darrandalardir. Shunga ko'ra bu asarlarni bir qarashda masalga ham o'xshatish mumkin. Lekin ular shaklan ham, martigan ham masal emas, qolaversa adibning o'zi ham bunday maqsadni ko'zlamagan. Kichik kitobxonlarning hayvonot olamiga bo'lgan qiziqishi hisobga olib yozilgan bu xildagi asarlarda yozuvchi jonivorlar obrazini orgali insonning murakkab ma'naviy ruhiy dunyosini ochishga intiladi. To'g'irrog'i, jonivorlarning turmush tarzi misolida ayrim kishilar xarakteridagi illatlarni tanqid qiladi. Bolalarni undan to'g'ri xulosa chiqarishga, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi azaliy tafovutni anglashga, insof va adolatli, insonparvar bo'lishga chaqiradi. Chumchuqning har xil hasharotlar, mushukning sichqonlar, qurbaganing pashshalar, suv kalamushining baliqlar bilan tirikchilik qilishi, eshakning kalfafahmligi-yu, echkiemarning nima sababdan echkiemar deb atalishi ko'pchilik uchun unchalik sir emas. Adib xuddi shu haqdagi hikoyalarda jonivorlar obrazini vositasida muhim axloqiy-didaktik g'oyani ilgari suradi.

Maqtanchoqlik, kibr-havo insonni ulug'lamagani kabi, katta bilim ham fazilat sanalmaydi. Qo'lidan bir ish kelma-kelmasa o'zini boshqalardan ustun qo'yish - nodonning ishi. Yozuvchi "Xo'tikning hikoyasi"da ana shunday kaltabin kishilar ustidan kuladi. Buning

³³ Zamina Ibrohimova. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. - Toshkent, 2005. - 176-ger.

uchun u xo'tikning o'ziga so'z beradi: "Qani, aying-chi, - deydi Xo'tik, - nima uchun aravaning g'ildiragi yumaloq'u, derazaning ko'zi to'rburchak? Umringizda biron marta yumaloq oynani ko'rganmisiz? Bilaman, ko'rmagansiz, hamma oyna zavoddan to'rburchak qilib chiqariladi. Shunday bo'lgandan keyin derazaning ko'zini ham o'sha oynaga moslashtirib, to'rburchak shaklida yasashga to'g'ri keladi. Aravaning g'ildiragiga esa oyna solimaydi, shuning uchun u yumaloq".

Eshak obrazi xalq og'zaki ijodida ham, klassik adabiyotda ham nodonlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Ya'ni u ertaklar orgali o'quvchiga birmuncha tanish. Kitobxonning shu tasavvuri yuqoridagi hikoyada Xo'tikning gapni aylantirishi - oddiy haqiqatni katta kashfiyot singari bayon qilishidan yozuvchining nimaga ishora qilayotganini tushunib olishiga yordam beradi.

Adib masal xarakteridagi "Uyguda nimalar bo'lmaydi" turkum hikoyalarda real hayotdagi kontrast voqealarni tasvirlaydi. Shu yo'l bilan o'quvchini hayot haqida jiddiy o'ylashga undaydi, fikr uyg'otadi.

"Mushukning tushi" da hikoya qilinishicha, Sichqon Mushukning oldiga arz qilib keladi. Naqd o'ljani tappa bosishga shaylangan Mushuk Sichqonning qo'shnisi bilan janjallashganini eshitgach, o'sha zo'ra vonlarni va guvohlarni topib kelishni buyuradi. Laqma sichqonlar birin-ketin kirib kelishadi. Mushuk ularni muloyimlik bilan o'tirishga taklif qiladi-yu, shosha-pisha eshikka tamba uradi.

Ko'rinadiki, bu yerda yozuvchi laqmalikka munosabat bildirayapti. Laqmalik esa insonning kamchiligi. U olg'irlik bilan tovlama-chilikka keng yo'l ochadi, shu tufayli hayotda noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mazkur hikoyadagi arzgo'y sichqonlar qismatidan shunday xulosa kelib chiqadi. Asardagi Mushuk ham muallif e'tiboridan chetda emas. Yozuvchi u orgali hajv tig'ini har qanday insof va adolatning yuziga tupurgan, faqat og'zidagina saxovatpesh, aslida olg'ir va tovlamachi kimsalarga qarataadi.

Tasvirdagi shartlilik, kosa tagidagi nimkosa "0099 raqamli yolg'onchi" qissasida yanada chuqurroq aks etadi. Asar bosh qahramoni "Babachoq" fermasining 0099 nomerli Uloqchasidir. U o'taketgan

o'zbochimcha, surbet, takabbur, amalparast va yolg'onchi, ayni choqda laqma va go'l odamlarning ramziy umumlashma obrazidir.

Yozuvchi Uloqchanning aldoqchiligini asar sarlavhasigacha chiqaradi. Lekin aldoqchilik uning xarakterida yetakchi xususiyat bo'lmaydi, yuqori lavozimga erishishda bir vosita, xolos.

Uloqcha dunyoga kelgan kunidan boshlab, fermadagi tinch hayot buziladi. Endigi yig'ilishlarda mayda bezorilik o'rini "o'zgalarning ovqatini tortib olish, o'z fermadoshini eti mamataloq bo'ladigan darajada do'pposlash, yaylovda o'zbochimchalik bilan podadan ajrab qolish kabi katta masalalarning muhokamaga qo'yilishi" Uloqchanning faoliyati bilan bog'liq. Amalga bo'lgan qiziqish uning ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilib qo'yadi. O'z istagi yo'lida har qanday pastkashlikka tayyor Uloqcha Ashqol, Dashqol degan egizak bo'rilarning yolg'on va dalariga uchib, Ho'kiz, Eshak, Bo'taloq va Qo'zichoq kabi do'stlariga xiyonat qiladi. Ularni hiyla bilan bo'rilarning tuzog'iga tushirib berib, yuksak lavozimlarni egallashni ko'zlaydi. Ho'kizning ovsarligi va haddan ziyod ehtiyokkorligi, Bo'taloqning dovdirligi, Eshakning befaahligi, Qo'zichoqning mustaqil fikrining yo'qligi Uloqchanning shum niyatini amalga oshirishda qo'l keladi.

Shunday qilib, qissada ovsarlik, xudbinlik, laqmalik kabi illatlarining amalparasitlik va takabburlik kelitirib chiqargan fojiani yanada chuqurlashtirishi haqqoniy ko'rsatildi. Yozuvchi bu bilan kaltabinlik, befaahlik, go'llik, ma'naviy ko'rlik insonni cho'gha surdaydigan illatlarga zamin yaratishiga ishora qiladi.

Quyovning ziyrakligi, olaparning do'stlariga sodiq va birdamligi tufayligina mudhish fojiani oldi olinadi. Do'stlar yovuz dushmaniga qarshi kurashda birlashganlari sababli g'olib chiqadilar. Hushyorlik, do'stlik, birdamlik g'oyasini targ'ib etuvchi bu sahna asar konfliktining yechimi sifatida sujet liniyasida muhim o'rin tutadi.

Uloqchani xiyonatga yo'llagan narsa mansabparasitlik va kalandimog'lik kasalidir. U "Babachoq" fermasidagi podaning oqsog'oli Nayzashoh ismli serkaning o'rini olish uchun oshkora surbetlik bilan kurashadi. Maqsadi amalga oshavermagach, Ashqol, Dashqollar bilan tili birtikrib, zimdan ish yuritadi. Xiyonat fosh etilgandan keyingina ko'zi ochiladi. "Agar, - deydi Ho'kiz Uloqchaga qarata, - chinakam

baxt boshqalar uchun yashash ekanligini tushunib yetgan bo'lsang, menimcha, ular seni tushunishadi". Bu so'zlarda asar g'oyasi ham o'z ifodasini topgan.

Qissadagi Ulloqcha sarguzashtlari amalparastlik va yolg'onchilikning umri qisqa, holi voy bo'lishining chuqur va qiziqarli ifodasidir. Uning og'ir sinovlardan o'tib to'g'ri yo'lga tushib olishi kitobxon uchun hayotiy saboq bo'lib xizmat qiladi.

"0099 raqamli yolg'onchi" qissasi obrazlari, sujet qurilishi, kompozitsiyasi va g'oyaviy mazmuni asarning betinim izlanishlar mahsulati ekanligini ko'rsatib turibdi. Izlanish bor joyda taragqiyot davom etadi. Lekin har qanday izlanish ham muvaffaqiyatli yakunlanavermasligi mumkin. Binobarin, yozuvchining "Hakka xolaning ig'volari" turkum hikoyalari xususida iliq fikr aytib bo'lmaydi.

Ig'vo - o'z nomi bilan ig'vo. Birinchi "ig'vo"da Bahrom degan bolaning yoshiga yetmasdan birinchi sinfga o'qishga borgan, ikkinchisida Ikromning sarig'ligi, uchinchisida Nodiraning pismiq'ligi, to'rtinchisida - Ravshanning saqich chaynashi ig'vo qilinadi va hokazo. Ma'lum bo'ladiki, yozuvchi Bahromning yoshiga yetmasdan maktabga borgan yoki Ikromning sarig'ligi xususida so'z aytgani bilan biron fikr aytmoqchi emas. Aksincha, hakka xolaning o'z-o'zini fosh qilishini ko'rsatish orqali ig'vogarlik ustidan hukm chiqarayapti. Ammo turkundagi barcha hikoya aynan shu mahoni ifodalashga qaratilgani uchun ikki tomchi suv kabi bir-biridan farqlanmaydi. Binobarin, o'quvchini zeriktirib qo'yadi.

"Boymamat beshinchi" hikoyasida Boymamat degan bolaning o'qishda qololig'i sabablari uning kolxoz bog'idan olma o'g'irlikni uyishitirishi misolida ishonarli tarzda ochiladi. Asarda Boymamatning beg'amligi, darslarga havsalasizligi, sinfdoshlariga zo'ravonligi tasvirlangan o'rnlarda o'quvchida turg'un va og'ir xarakterli bolani tasavvur qilishga imkon beradi. Ko'rinadiki, Boymamat osonlikcha taslim bo'ladiganlar xilidan emas.

Shunday bolalar alochilar safiga qo'shilib, to'g'ri yo'lga tushib olishi mumkinmi? Albatta, mumkin. Bunga Anvar Obidjon ham mumkin deb javob beradi va Boymamatni ilg'or o'quvchilar safiga o'kazadi. Aniqrog'i, a'lloch bo'lganligini xabar qiladi. "Ilg'or

matematika, - deydi hikoya qahramonlaridan biri, - maslahatni bir joyga qo'yib, Boymamat beshinchini otalig'imizga oladigan bo'ldik. Ko'ngliga yo'l topish uchun iloji boricha o'zimizni unga yaqin tura boshladik, barcha injiqliklariga ham, qo'polliklariga ham chidadik, bora-bora inoqlashib ketdik. Hozir u matematikani hurmat qiladigan bo'lib qoldi. Bu fandan "uch" olgan kuni qovoq-tumshug'i osilib, astoy'dli ranjiydi ham".

Bunday tez o'zgaruvchan qahramonlar o'quvchini ishonitmasligini izohlab o'tirishning hojati bo'lmas kerak.

Anvar Obidjon "Alamazon va uning pivodalari" qissasida, "Daxshatli Meshpolvon" dostonida hamda she'riy ertaklarida Vatan ozodligi uchun kurash masalasini tarixiy mavzuga uyg'un tarzda ko'tarib chiqadi. "Alamazon va uning pivodalari" dagi voqealar afsonaviy shahar Yulduzistonda bo'lib o'tsa, "Daxshatli Meshpolvon" dagi voqealar turli qishloqlarda, mustabid shoh taxti joylashgan "Qahratoniya"da ro'y beradi. Shuni e'tiborga sazovorki, har ikki asarda ham xudbinlik, manmanlik, laganbardorlik va mansabparastlik avj olgan makon oxir-oqibat tanazzulga yuz tutishi mumkinligi aytilgan. Asarning ichki mazmun-mohiyatidan unda sobiq sho'rolar jamiyati nazarda tutilgani ochiq-oydin sezilib turadi.

"Daxshatli Meshpolvon" asarida johillik, xudbinlik, yovuzlik timsoli bo'lgan bosqinchi Sepkiltshohning yolg'onga, tuhmatga, safsataga asoslangan siyosati quvnoq yumor, achchiq istehzo bilan masxaralanib, ayovsiz fosh qilinadi. Uni tor-mor etgan yosh pahlavonlar, qo'rqmas botirlar ulug'lanadi.

Dostonning markaziy qahramoni Meshpolvon an'naviy dostonlardagi kabi atrofdagilardan tom ma'noda ajralib turadi. Agar Alpomish yetti yoshidayoq bobosidan qolgan o'n to'rt botmonli kamonda Asqartog'ning cho'qqisini uchirib yuborgan, Rustamxon o'n ikki yoshida dev ustidan g'alaba qilgani bilan ajralib tursa, Meshpolvon o'ta qaysarligi, lof-qofga va tashqi ko'rinishining g'ayratbilyligi bilan ajralib turadi.

Dastlab Meshpolvon enasining hamiyatiga tegadigan gaplardan dili og'rib, safarga o'tlanadi. Uning bu safardan maqsadi, avvalo, o'z shaxsiyatini tasdiqlash ("Erkaklik nimaligini bizdan ko'rasiz") edi.

•••

Lekin safar qiyinchiliklari, qishloqdagi og'ir, qashshoq hayot, zulm, sotqinlik, xiyonat uning ma'naviy dunyosini o'zgaritadi. Agar Meshpolvon safarining boshida qiyinchilikka uchrab, qum to'zonida qolganida xachirini asrashni o'ylamaydi, "Hayvon boshimdan sadaga", deb hech ikkilanmay undan voz kechgan bo'lsa, keyinchalik tutqunlikda och-nahor qolganlarida ham ulovidan ayrilishni xayoliga keltirmaydi. Rayhon qiziq qo'chqorini so'ymogchi bo'lganida, galqon bo'lib uni asrab qoladi. Uning ongi-tafakkurida o'zgarish ro'y beradi. Qiyinchiliklarida yo'ldosh bo'lgan bu tilsiz hayvonlarning ganchalik qadrdon va aziz bo'lib qolganligini his etadi, o'z-o'zini yengishga kuch topadi. Muallif umumiy maqsad tufayli birlashib, do'stlashib ketgan Oshiq bola, Rayhon qiziq, Chumakvoy va Meshpolvonlarni o'ta dramatik voqealar, qiyinchiliklar sinovidan olib o'tadi. Meshpolvon asta-sekin hayotga, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga chuqurroq nazar tashlashni, mulohazali bo'la borishini muallif bir-biridan qiziq voqealar davomida ko'rsatib boradi.

Dostondagi turkum qahramonlar zukkolligi, qo'rqmasligi, o'ziga xos qiyofasi, ma'naviy go'zalligi bilan kitobxon qalbidan mustahkam joy oladi. Yana shuni alohida takidlash lozimki, adib o'z qahramonlarini butunlay benuqson, hamma ishlarni bajarishga qodir ideal insonlar sifatida ko'rsatishga harakat qilmagan. Qahramonlardagi ba'zi kamchiliklar va nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarining badiiy asoslanishi bu qahramonlarning kitobxon ko'z o'ngida jonli va hayotiy shaxslar tarzida gavdalanib turishini ta'min etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Anvar Obidjon asarlarida ijodiy individuallik masalasini qanday tushunasiz?
2. Shoir she'riyatiga tasvir uslubiga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlang.
3. Anvar Obidjon ijodidan adibning shakiliy va uslubiy izlanishlariga misollar keltiring.
4. Anvar Obidjon ijodida adreslilik muammosi deganda nimani tushunasiz?

-
5. Shoirning qaysi asarlarida hajviy yumoristik ruh ustuvorlik qiladi deb o'ylaysiz?
 6. Adib ijodiy yutug'ini qanday omillar ta'minlagan deb o'ylaysiz?

Fikringizni misollar asosida dalillang.

7. Adibning "Odobli bo'lish osonmi?" eragida qanday milliy qadriyatlar o'z ifodasini topgan?

Istiqbol davri bolalar adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlari

Reja:

1. Istiqbol davri bolalar adabiyotida zamon va qahramon muammosi.
2. Yangi jamiyat, adabiy muhit, ijodiy an'ana.
3. Bolalar adabiyotida publisistika.
4. Mumtoz adabiyot va jahon bolalar adabiyotida an'anaviylik.
5. Bolalar adabiyoti va adabiy tanqid.

Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotining tarbiyaviy mohiyati xususida turlicha qarashlar mavjud. Ba'zilar bolalar adabiyoti, kattalar adabiyoti, degan ayirmachilikka hojat yo'qligini da'vo qilgan bo'lsalar, boshqalar bu adabiyotning tarbiyaviy mohiyatiga ortiqcha urg'u berib bir yoqlama talqin etadilar. Bizningcha, har xil ta'rif-tavsifdan oldin uning ichki tartibiga nazar tashlash haqiqatga yaqinlashdiradi. Bolalar adabiyoti ham umumadabiyotning bir qismi sifatida zamon va makondan ayricha yashamaydi. Binobarin, jamiyat hayotidagi yangilanishlar, xalq psixologiyasidagi evrilishlar kichikintoylar adabiyotida ham o'z aksini qoldirishi tabiiy. Shunday ekan, "Asrlar mobaynida shakllangan bolalar adabiyoti an'analarning hozirgi adabiy jarayonga ta'siri qanday kechmoqda? Ayni paytda kichikintoylar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?" degan savollar tug'iladi. Gap shundaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish bolalik olamiga ham ta'sir ko'rsatmasdan iloji yo'q, ayni shu

holat bolalar adabiyotida o'z aksini topmoqda. Yaratilayotgan asarlar kichikintoylarning kitobxonlik borasidagi ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini qanoatlantiradimi? Bolalar adabiyotining bir jihatdan so'z san'ati, boshqa tomondan tarbiya vositasi ekanligi yozuvchilar oldida o'tish davri muammolariga qanday munosabatda bo'lish yuzasidan talay muammolar ham tug'diradi. Darhaqiqat, bolalar yozuvchisi qaysi yo'ldan bormog'i kerak? U tarbiyaga xizmat qiladimi yoki san'atgami? Bolalar adabiyoti bilan bog'liq davralarda shu haqdagi ziddiyatli savollarga bot-bot duch kelish mumkin.

Bundan roppa-rosa 160 yil muqaddam bu adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida buyuk rus olimi V.G.Belinskiy shunday deb yozgan edi: "Bolalar adabiyoti tarbiya uchun yoziladi. Tarbiya esa buyuk ish, u inson taqdirini hal qiladi". Bu ta'rif shundan so'nggi davrda badiiy adabiyotning azal-azaldan yosh avlod tarbiyasiga xizmat qilishga qaratilgan mezon bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Bu mezon XX asrdan boshlab o'zbek bolalar adabiyoti uchun ham qonuniyat maqomiga ega bo'ldi. Shunisi qiziqki, badiiy ijod sohasidagi o'ziga xos bu qonuniyatga har bir davrda o'ziga munosabatda bo'lib kelindi. Jumladan, XX asr boshlarida Abdulla Avloniy, Hamza, Munavvar Qori Abdurashixonov, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi ilg'or ziyolilar ijodida bolalar adabiyoti vositasidagi tarbiya o'sha paytdagi tarixiy sharoit taqozosiga ko'ra ma'rifatparvarlik g'oyasi bilan bog'langan bo'lsa, 30-yillardan boshlab sotsializm tantanasini tashviq qilishga qaratilib, ijimoiy-siyosiy yo'nalish kasb etib bordi. Natijada quruq deklarativlik, targ'ibot-tashviqot ruhi didaktika bilan uyg'unlashib ketdi.

Zamon bilan hamnafaslikdan iborat mazkur ijimoiy-siyosiy yuk goh u, goh bu tarzda to'liq davrigacha bolalar adabiyoti oyoq-iga ko'zga ko'rinmas kishan bo'lib keldi.

Bolalar adabiyoti tarbiyaviy mohiyatining turli davrlarda turlicha tushunilishi hukmron mafkura mahsuli bo'lib, uning so'z san'ati sifatidagi vazifasiga soya solishi tabiiy edi.

Buning bilan bolalar adabiyotining tarbiyaviy mohiyatini inkor qilmoqchi emasmiz. Aksincha, bolalar adabiyotining so'z san'ati sifatida maxsus adabiyot ekanini ta'kidlagan holda uning tarbiyaviy

mohiyatiga bir yoqlama yondashishning o'zini oqlamaganini eslatmoqchimiz, xolos.

Istiqlol davr bolalar adabiyotida, xususan, so'nggi yillardagi adabiy jarayonda bunday nosog'lom qarashlardan qay darajada qutulganmisiz? Boshqa aytganda, istiqlol davri bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Bu davr adabiy mahsulida sharti ravishda quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik qilganini ta'kidlash lozim.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq publitsistik ruh. Bunga S.Baroyev, E.Malikov, Qambar ota, U.Abduzaimova asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bolalarning fe'l-atvoridagi nojoiz xislatlarning tanqidiga doir hajviy-yumoristik ruh. X.To'xtaboyev, A.Obidjon, T.Adashboyev, X.Imonberdiyev, A.Akbar, D.Rajablar ijodida shu yo'nalishdagi asarlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Dunyo muammolarini "odam va olam sirlarini" (Q.Muhammadiy) tabiat va jamiyat muammolari bilan bog'liq jumboqlarni anglashga doir falsafiy ruh. N.Fozilov, M.A'zam, A.Obidjon, N.Norqobilov, Olloyor, K.Turdiyevlar ijodida shu yo'nalishga doir asarlar ko'p uchraydi.

So'nggi yillarda nashr etilgan turli janr va saviyadagi o'nlab asarlar bolalar adabiyotining ma'lum davrdagi salmog'ini belgilaydi. Bu 25 millionlik xalqimizning katta qismini tashkil etadigan kichik kitobxonlar uchun ham ko'p, ham oz. Qolaversa, asosiy gap ularning badiiy-estetik saviyasiga borib taqaladi. Shunday ekan, bu boradagi yutuq va kamchiliklar badiiy ijodidagi shaklga ham, mazmunga ham bab-baravar tegishlidir.

Badiiy asar shakl va mazmun bilan bog'liq izlanishlar ustida so'z ketganda Miraziz A'zam, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab asarlari to'g'risida alohida to'xtalmog' joiz. Bolalar adabiyoti oldidagi nima yaxshi-yu nima yomonligi xususidagi azaliy muammo talqinida M.A'zaming "Qirq savolga qirq javob" kitobi hayotdagi turli jumboqlarga o'ziga xos tarzda yangicha yechimini topadi.

Bolalar adabiyotining soʻz sanʼati sifatidagi ulugʻvor vazifasini teran tushungan shoir bu adabiyotni kichik kitobxon darajasiga tushurmastan, aksincha keng oʻquvchilar ommasini yuksak darajadagi nafosat olamiga koʻtarish ustida jiddiy bosh qotiradi.

Shoir sheʼrlaridagi lirik qahramonning vatan qismati va fuqarolik burchiga oid bevosita qalb kechimalari bilan tanishar ekansiz, hayolingizga Gʻafur Gʻulomning mashhur “Oʻylashni oʻrganamiz”, “Bilib qoʻyki, seni vatan kutadi”, “Oltin medali”, “Sen yetim emas-san” kabi falsafiy-siyosiy lirikasi keladi. Xullas, alloma shoir Gʻ. Gʻulom qahramonlaridagi mushohadaqorlik, hayot jumboqlarini yechishga kuchli ishtiyok, jamiyat hayotiga faol munosabatda boʻlish bilan bogʻliq M.A. zam jiodida oʻziga xos yoʻsinda davom ettirilayotgani har jihatdan ibratlidir.

Yozuvchining “Saylanna” va “Eng yorugʻ yulduzlar” kitoblariga kirgan kichik sahna asarlari, sheʼr va ertaklari tarixiy hikoyalardagi Imom Buxoriy, Zamaxshariy, Amir Temur, Ulugʻbek kabi buyuk bobokolonlarimizning umr yoʻllaridan keltirilgan kichik-kichik ibratli voqealar kichiktoylarning olam jumboqlarini anglashga doir izlanishlari tasviri hozirgi hayotimiz bilan bogʻliq maʼnaviy-axloqiy gʻoyalar targʻibotiga xizmat qilishi shubhasiz.

M.A. zamning tarixiy mavzudagi asarlarida ifodalangan falsafiy gʻoyalar ularning mazmun-mohiyatini oʻzlashtirishda kichik kitobxonlarga zarracha mushkullik tugʻdirmaydi, aksincha inson va zamin, dov-daraxtlarning nish urib koʻkarishidan tortib to qurib-qovjirab qolgunigacha boʻlgan davrdagi turfa holatlari, umuman quyosh, suv, tuproq, havo uygʻunligining oʻziga xos qonuniyati azaliy muammo tarzida insoniyatni bolaligidan qiziqitirib keladi.

Quddus Muhammadiy va Qudrat Hikmatlarning ayni masalalar talqini bilan bogʻliq ijodiy anʼnalarni izchil davom ettirayotgan Tursunboy Adashboyev asarlarida tabiatdagi har bir holat – manzara moʻjizakorlik kash etadi. Bahor elchisi boʻlgan boychechak oʻzini “oftobning parchasi” (“boychechak”) deb bilsa, kuz faslida “oq yak-taki qayinlar” zar baldog taqadi, zar gʻaldoqlar chah-chalab kulishlariga gap tayinlaydi (“Kuz”). “Sogʻimish” sheʼrida har narsaga qizi-

quvchi bola tilidan yomgʻir yogʻishi yangicha qiyoslar bilan oʻxshatilishi tufayli kichik kitobxon qalbiga hayrat tuygʻusini soladi:

Kuni bilan,
Tuni bilan
Yomgʻir ezib yogʻadi,
Bulutlarni tabiat
Erimmasdan sogʻadi.
Koʻcha-koʻylar yaltirar,
Tuxumdayin archilib.
Koʻkning tubi teshilganmi?
Tomchi tushar yanchilib.

Bolalar sheʼriyatidagi tabiat mavzusiga daxldor boshqa koʻpgina asarlardan farqli oʻlaroq, Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar sheʼrlarining lirik qahramoni tabiat hodisalarini, jonzoilar olamini oʻyin vositasida idrok etadi.

Maʼlumki, bolalar adabiyoti taqdiqotchilarining ishlarida bolalarning diqqati turgʻun boʻlmastligi, shu sabab ularga bagʻishlangan sheʼriy misralarning qisqa hijoli soʻzlardan tashkil topishi talab darajasida qoʻyiladi. Ammo Anvar Obidjonning “Bulbulning choʻpchaklari”, “Juda qiziq voqea”, “Oʻgʻirlangan pahlavon” toʻplamlaridagi sheʼrlarning koʻpchiligi qoida darajasidagi bu talabga toʻgʻri kelavermaydi. Menimcha, buning boisi, bir tomondan xalq ogʻzaki ijodidagi anʼnaviy badiiy tasvir usullaridan, mubolagʻa, majoz, kinoya, takrir, irsoli masal kabi sheʼriy sanʼatlardan zargarona aniqlik bilan foydalanilganida, ikkinchi tomondan voqelikning mantiqiy rivojiga jiddiy amal qilganida, kichik kitobxonlarning qiziqishi, hayotiy tajribasi, hayolot olami, didi va tushunchasining qatʼiy inobatga olinganidir.

Masalan, “Kimning koʻngli nimada?” sheʼridagi gʻurrakning tut, qashqirning xoʻroz, ining suyak toʻgʻrisida hayol surishini sanab oʻtish orqali oʻquvchilar oʻsha jonzoilarga xos xususiyatlar bilan tanishtirilgan ekan, navbat xira pashshaga kelganida tanqid nayzasi kishi bilmas irkit bolalarga qaratiladi:

Pashsha degan sur xola, to'ygan bo'lsa sal chala;
Bormi deb kirroq bola, tinim bilmas vizilllar.

“Dahshatli Meshpolvon” dostonining bosh qahramoni o'ta qaysarligi, lof-qofga mohiriligidan tashqari, tashqi ko'rinishining g'ayritabiiyligi bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Uning “Ikki lunji nog'ora, beti oftobday zog'ora, jag'ida eshak tepkidan naqshlangan chandiq, qorni qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchug, yelkasi baayni hurpaygan chumchug, bo'yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosish ilang-bilang, boshi Yozyovon cho'lidek yap-yalang, ko'rinishidan kangapu anqov, aslida mahmadona-yu mijg'ov, ko'zlari boyqushnikiday ola... Xullas, rosayam qiziq bola”.

Asar syujeti Sepklshoh boshliq bosqinchilarning Meshpolvonlar yurtidagi xunrezliklari tasviri bilan boshlanadi. Bandi qilinganlar tilidan aytilgan mungli qo'shiq doston mahni zaminidagi tagma'noni anglatadi:

Mardlar senga fido bo'ldi,
Bizlar tirik judo bo'ldik,
Kechir, bizni ona yurt.

Yozuvchi bosqinchilarning kirdikorlarini kulgili, kinoyali tarzda ochar ekan, kindik qoni tomgan zaminni zulum va xorlikdan qutqarish, adolat tantanasi uchun kurashish har bir o'g'il-qizning muqaddas burchi ekanligini qayta-qayta kitobxonning qulog'iga quyib boradi.

Anvar Obidjonning “Bulbulning cho'pchaklari” to'plamidan o'rin olgan ertaklarida hech mubolag'asiz jahon ertakchiligi, birinchi navbatda, G.X.Andersen va Sh.Pertolar ijodiy an'analarning milliy ertakchilik an'analari bilan uzviy bog'lanib ketganini alohida qayd qilmoq joiz.

“Keksa yamoqchi”, “Odobli bo'lish osommi?” (aslida “T o'lpog sichqoncha” bo'lishi kerak edi) ertaklari, jahon adabiyotidagi mashhur “Dyuyimchaxon”, “Trkit o'rdakcha”, “Qizil shapkachacha” ertaklari bilan bemaol bellasha oladi.

Yozuvchi “Odobli bo'lish osommi” ertagida to'lpog sichqoncha sarguzastlari orqali xushxulqlik, salom-alik qilish inson odobining boshi ekanligi xususida muhim hayotiy xulosa chiqarsa, sof realistik harakterdagi “Keksa yamoqchi”da yamoqchining ramzlar to'g'risidagi hikoyalari kichik kitobxonlarning davlat ramzlari borasidagi tasavvurlarini yanada boyitadi, vatanning muqaddasligi sirklarini anglashga yo'llaydi. Mazkur ertaklar syujetining tarangligi, qiziqarliligi kitobxon diqqatini chalq'ib ketishdan saqlaydi, qahramonlar xarakterini yorqin tasavvur qilishga yordam beradi. Quruq pand-nasihatdan xoli, muhim tarbiyaviy g'oyaning turli tasvir uslubida ifodalaniishi Anvar Obidjon asarlarining o'qimishligini ta'minlagan omillardandir.

Istiqol davri bolalar adabiyoti jabhasidagi izlanishlar haqida gap ketganda, tengdosh avlod vakillari: Rustam Nazar, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Erpo'lat Baxtlarning bir chimdim yumor orqali salmog'dor mazmun ifodalangan turkum she'rlarini, Olloyor ertaklarini, Normuroq Norgobilning g'issa va hikoyalariini eslamaslik mumkin emas.

Dilshod Rajabning “Hazilkashlar davrasida”, “Otamning bog'i” to'plamlariga kirgan she'rlarning qahramoni hayotida ko'rgan-kuzatganlari yuzasidan mantiqli savollar qo'yadi. Yomg'irning chelakdan quyilganday shovullab tushmasdan g'alvir yoki elakdan o'tganday yog'ishiyu (“Yomg'ir”), tog' toshlarni kimlar hafsala bilan bir joyga uyganigacha (“Tog'”), zebraning ustidagi gator-gator chiziqqlaru (“Zebr”), kurkaning g'azablanib – hurpayib yurganigacha (“Kurka”) uni qiziqitiradi, tramvayni poyezdning bolasi (“Poyezdning bolasi”) deb tushunadi, telefonning jiringlashini hazil gaplarni eslab hiringlashga (“Go'yo”) o'xshatadi, nog'ora chalinishidan jiddiy xulosa chiqaradi:

Qo'sh kaltakka chidolmay,
Dod-voy solar nog'ora,
Parvo qilmas odamlar
O'yin bilan ovora.

Oliyot ertaklari u yoki bu ibratli g'oya talqinida tasvinning tiniqligi bilan kitobxon hayolotini oziqlantirishi, hayot va tabiatga faol munosabat uyg'otishiga, ezgu niyatlar ijobatiga umid va ishonch tug'diradi. Jumladan, "Rangin qorlar", "Sehri uyg'u" ertaklarini mutollaa qilgan o'quvchilar tabiatdagi o'zlariga oldindan tanish manzara holatlar tasvirini o'qib, ularga birinchi bor duch kelgandek hayratlarga ko'milishi ijodkor qalamining sehri tufaylidir.

N.Norqobilovning yozuvchi sifatidagi izlanishlarining o'ziga xosligi asarlari qahramonlarining qalits vaziyatlarda sinovlardan o'tib, o'ziga to'g'ri yo'l tanlashi, inson va tabiat munosabatlarining ayri-ayracha mehr-muhabbat bilan yoritilishi misolida qayd qilish mumkin. Binobarin, "Changalzor iti" qissasining qahramoni shunchaki jonzot bo'lmay, ko'z o'ngimizda o'ziga xos ruhiy dunyosi bilan gavdalal-nuvchi badiiy timsoldir. U o'zining fe'l-atvori, xatti-harakatlari bilan kichik kitobxonlarda insoniy munosabatlar xususida muayyan tasavvur tug'dirsa, "Kapakak" hikoyasi qahramoni Nusrat ismli bolakayning xarakteri ziddiyatli voqealar fonida shakllantiriladi.

Go'dakligi qishloqda yashaydigan buvilari bag'rida kechgan bolakay ota-onasi bilan shahardagi uylariga ketishini eshitib quvonchdan o'zini qo'yishga joy topolmaydi. Ammo otasi uning orzuxayollari, qiziqishlari bilan hisoblashmasligi, tabiatga nisbatan shafqatsizligi bilan bola galbida cheksiz isyon tug'diradi. Natijada u shaharga o'z uyiga borishga bo'lgan qiziqishidan butunlay voz kechadi.

Bolalar adabiyotining so'nggi yillardagi namunalarini ko'zdan kechirib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Bolalar yozuvchilari mavjud adabiy an'analardan oziqlangan holda uning qobig'ini yoritib chiqishga astoydil urinish, bu borada aytishga arziqlik yutuqlarga erishmogalar.

Bolalar asarlarining yetakchi qahramonlari talqinida ijtimoiy hayotga faol munosabat ko'zga tashlanmoqda.

Shu bilan birga, adabiy jarayonda yangi tarixiy muhit sharoitiga moslashish, tashabbuskorlikni davr shiddati darajasida deb bo'lmaydi. Negaki, dunyoni, tezkor umumiy tarqiyotni tushunish bilan bog'liq ziddiyatlar bolalar adabiyotiga bor bo'y-basti bilan olib

kitilimayapti. Aksincha, islohotlar mohiyatini yuzaki madh etishga qaratilgan asarlar urchiyotgani kuzatiladi.

Bozor iqtisodiyoti xalq hayotiga jiddiy turkib bergani hech kimga sir emas. Shunday bir vaziyatda bolalarni bozordan qaytaradigan darajadagi hamda badiiy adabiyotning sehri olamiga yetaklaydigan qahramonlar yaratish ustida o'ylab ko'rilsa yomon bo'lmadi.

Bolalar adabiyoti tanqidchiligida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida e'lon qilinayotgan ayrim maqolalarni hisobga olmaganda hozirgi adabiy jarayondagi o'sish — o'zgarishlarni haqqoniy baholaydigan, munozara qo'zg'aydigan chiqishlar yo'q darajada.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ko'p yillar muqaddam Yozuvchilar uyushmasida qilgan ma'ruzasida "Adabiyot o'ladimi?" degan muammoni ko'ndalang qo'ygan edi. Oradan yillar o'tib bolalar adabiyotidagi hozirgi adabiy jarayon xususida so'z yuritir ekammiz, mazkur savolni boshqacharoq yo'sinda qayta qo'y-gimimiz keladi: Bolalar adabiyotidagi izlanishlar kichikintoylarning yangi jamiyat bag'ridagi kelajak taqdiriga qay darajada ta'sir ko'rsatadi? Yangilanish yo'lidagi izlanishlar kichikintoylar adabiyotining so'z san'ati va tarbiya vositasi sifatidagi mohiyatiga qay darajada mos keladi? Adabiy tanqid shu haqda o'zining qat'iy fikrini aytmog'i lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Istiqlof davri bolalar adabiyotida zamon va qahramon munosabati qay tarzda va qay darajada aks etadi?
2. So'nggi yillar bolalar adabiyotida yaratilayotgan asarlarni qanday yo'nalishlarga bo'lish mumkin? Fikringizni vaqti matbuot materiallari asosida dalillashga harakat qiling.
3. Bolalar adabiyotida ijodiy an'analarga deganda nimani tushunasiz?
4. Mumtoz adabiyot va jahon bolalar adabiyoti an'anasini Alisher Navoiy, Ezop va L.Tolstoy asarlari misolida izohlang.

JAHON BOLALAR ADABIYOTI

Aka-uka Yakob (1785 - 1863) va Vilgelm (1786 - 1859)

Grimmlar – jahon ertakchiligi daholari sifatida

Reja:

1. Aka-uka Grimmlar ertaklarida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy ziddiyat tahlili.
2. "Bolalar va oilaviy ertaklar"da ma'naviy-axloqiy g'oyalar talqini.
3. Aka-uka Grimmlar ertaklarida xalqchillik.

Aka-uka Grimmlar – Yakob (1785-1863) va Vilgelm (1786-1859)

– Getting va keyin Berlin universitetlarining professorlari, Prussiya Fanlar akademiyasining a'zolari, filolog va folklorshunos olimlar sifatida jahon ilm-fani tarixiga katta hissa qo'shadi. Qadimgi nemis tili, qahramonlik afsonalari, san'at va xalq she'riyatiga oid fundamental tadqiqotlari folklor va yozma adabiyot munosabalarini o'rganuvchilar uchun muhim manba vazifasini o'taydi. Rasmiy ravishda, aka-uka Grimmlar nemis romantiklarining biron bir guruhiga mansub bo'lmasa-da, ammo tarix va folklorga bo'lgan qiziqishlari tufayli romantizm oqimiga yaqin turadi. Aka-uka Grimmlar butun Germaniya bo'ylab xalq ertaklarini yozib, ularning mahliga singdirilgan ruhiy qatlamlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etganlar. Turti provintsialardagi mavjud variantlarini hisobga olmagan holda, ikki yuzdan ortiq og'zaki ijod namunalari to'plab qayd etishgan. Aka-uka Grimmlar rejasiga ko'ra, ertaklarni kitobxonlarga asl ko'rinishida taqdim etish nazarda tutilgan. Ammo ularni nashrga tayyorlash jarayonida haqiqiy badiiy qiymati namoyon bo'lishi uchun matnga ishlov berish, sayqallash zaruriyati seziladi. Natijada ertaklarning asl mohiyatini saqlagan holda ikkinchi darajali mazmunan sayoz epizodlarni va sheva elementlarini qisqartirish evaziga jamiyatning barcha qatlamlariga tegishli madaniy boylikka aylantiradilar. Shu tariqa nemis tilida xalq nutqining aniqligi, tasviriga dehqoncha dag'allik

saqlangan bebaho madaniy meros "Bolalar va oilaviy ertaklar" (1812-1822) nomi bilan ikki jildida bosilib chiqadi.

Aka-uka Grimmlar o'rta asrlar ertakchiligida mifologik sujetning "otalari" deb hisoblanishlariga qaramay, ular tomondan nashr etilgan ertaklarda ifodalangan ma'naviy-axloqiy va estetik g'oyalar o'rta asr tushunchalaridan yiroqda edi.

Aka-uka Grimmlar ertaklari mualliflari hayotlik chog'idayoq butun dunyo bo'ylab keng tarqaladi. Ularning sujeti ko'plab san'at asarlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, jahon bolalar adabiyotida Andersen va A.S.Pushkin kabi ulug' yozuvchilar, o'zbek bolalar adabiyotida Munavvar qori Abdurashidxonovlar nemis ertakchilari ijodidan bahra olishgan. Quyida aka-uka Grimmlar va Munavvar qori Abdurashidxonov ertaklari muqoyasa qilish uchun misol tariqasida keltiriladi.

OTA, O'G'IL VA NABIRA

Aka-uka Grimmlar

Qadimda juda keksa, ko'z nuri xiralashgan, eshitishi ancha yim og'ir, tizzalari qatilik sabab titraydigan chol bo'lgan ekan. U dasturxon atrofida qoshiqni zo'rg'a ushlar, dasturxon ustiga sho'rvani to'kib yuborar ekan. Uning o'g'li va kelini bo'lib, ular bu holatga nafrat bilan qaraydigan, shu boisdan chol pechka ortidagi tor burchakda o'tiradigan bo'libdi.

Farzandlari cholg'a ovgatni sopol kosada berishar, ba'zida bu ham yo'q edi. Kunlarning birida cholning qatitragan qo'llari kosani tutib turolmabdi va kosa yerga tushib chil-chil simibdi. Kelini cholni yomon so'zlar bilan haqoratlab baqira ketibdi, chol hech narsa deymay, xo'rsinganicha qolibdi. So'ngra farzandlar cholg'a bir nechta chaga evaziga yog'och kosa sotib olishibdi.

Bir kuni cholning o'g'li to'rt yashar bolasining yog'och yolg'anini ko'rib, undan: "Nima qilyapsan?" - deb so'rabdi. Bola: "Katta bo'lganimda siz va oyimga ovgat solib berish uchun yog'och kosa yasayapman", debdi. Buni eshitgan bolaning ota-onasi bir-biriga ancha vaqt tikilib qolishibdi va yig'lab yuborishibdi. Ushbu voqeadan keyin ular o'z xatolarini tushunib, chol bilan birga ovgatlanadigan,

hattoki chol qaysidir xatoga yo'1 qo'yasa ham ular ranjmaydigan bo'lishibdi.

HAR KIM EKKANIN O'RAR

Munavvarqori Abdurashidxonov

Bir kishining otasi
Ko'p yashamish, qartaymish.
Soch-soqoli ogarmish,
Bellari kuchdan qolmish.

Non yeganda lablari
Burni bilan so'zlashur.
Choy ichganda qo'llari
Qalitrashib, titrashur.

Beli ikki buktilgan
Yuray desa yurolmas.
Bir o'tirsa o'midan
Ko'tarmasang turolmas.

O'g'il, kelin, nevara
Zerikdilar bu holdan.
Qutulmoqchi bo'ldilar
Bir ish qilib u choldan.

Kirib bir xilvat uyga
So'zlashdilar uchovlon.
O'g'il bilan nevara
Qildi o'z fikrini bayon...

Kelin dedi: "Sizlarning
To'g'ri emas o'yingiz,
Eng yaxshisi sahroga
Olib chiqib qo'yingiz.

Birov ko'mar o'ligin,
Ko'rmas bizning ko'zimiz.

Mashaqqatsiz bu g'amdan
Qutulgaymiz o'zimiz"

O'g'il bilan nevara
Kun kech bo'lgach, turdilar
Ko'tardilar u cholni
Sahro sari yurdilar.

Bir o'ringa yetganda
So'zga kirdi asta chol
Dedi: "O'g'lin, so'zimga
Birozgina quloq sol.

Men otamni bir zamon
Bu o'ringa keltirib,
Tashlab ketgan chog'imda
Qolgan edi termulib.

Navbat keldi o'zimga,
Sen ham meni keltirning.
Men otamga ne qilsam
Endi menga sen qilding.

Menga yarar shu o'rin,
Bir kun senga ham yarar.
El aro bor bir matal:
"Har kim ekkantin o'rar".

Bu so'zlarni eshitgach,
O'g'il ho'ngrab yig'ladi.
Otasiga uzr aytib,
Xizmatiga bel bog'ladi.

Savol va tophiriqlar

1. Aka-uka Grimmilar yaratgan ertaklar qaysi manbalardan oziqlanadi?
2. Aka-uka Grimmilar jahon bolalar ertakchiligiga qanday ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?
3. Aka-uka Grimmilarning "Ota, o'g'il va nabira" ertagini Munavvarqori Abdurashidxonovning "Har kim ekkantin o'rar" ertagi bilan qiyoslab tahlil qiling. Sujeti va kompozitsion tuzilishidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni aniqlang.

Xans Kristian Andersen – "ertaklar qiroli" (1805-1875)

Reja:

1. Xans Kristian Andersen ertaklarida manguilikka daxldorlik g'oyalarning badiiy ifodasi.
2. Xans Kristian Andersen ertaklarida hayotga muhabbat motivlari.
3. Xans Kristian Andersen – so'z sehrgari.

Daniya yozuvchisi X.K. Andersen jahon bolalar adabiyotida haqli ravishda "ertak qiroli" sifatida ulug'lanadi. Adib ertaklarining joziyasi g'ayrioddiy ohangi, sehiri soddaligi, hayotga cheksiz mehr bilan munosabarda bo'lishi, eng oddiy narsalar va hodisalardan estetik tarbiyaviy jihatdan teran mazmunli ertak yaratma olishi bilan belgilanadi. U haqiqiy sehrgar singari natqat bolalar, balki ayollar, qariyalalar, oddiy bog'bon va aslzodalar, saroy zodagoni va mayda amaldorlarning ham galbiga kirib boradi. Adibning barcha ertaklari qaysi mavzuda, nima haqida bo'lmasin, turli yoshdagi odamlarning orzu-o'ylari va xatti-harakatlari, galbining puchmoqlaridagi yashirin sir-asrorlarining yorqin ifodasini kuzatish mumkin.

Daniyaning Odense shaharchasida tug'ilgan X.K. Andersenning otasi etikdo'z, onasi kir yuvuvchi bo'lib, kambag'allar uchun boshlang'ich maktabga borishdan oldin ham otasi va g'aribxonadagi kam-pirlar aytdan ertaklarni tinglab o'sadi. Keyinchalik unda teatrga qizi-

qish paydo bo'lad. Xans shahar teatriga birinchi bor kelganida, spektakl dekoratsiyasi, aktyorlarning kostyumlari, o'yinlaridan cheksiz hayratga tushadi. Shundan boshlab teatr uning uchun qutlug' va muqaddas maskanga aylanadi. Xalq teatridan ilhomlanib, uyida o'zining qo'g'irchoq teatrini uyushtiradi, uni mo'ljallab erak-pessalar yaratadi, qog'ozdan kostyumlar va bezaklar yasaydi, va u bularni mahorat bilan qilganidan, onasi uni tikuvchiga shogirdlikga berishga qaror qiladi. Biroq bo'lajak yozuvchining taqdiri tamoman o'zgachatus oladi. 1819-yilda Xans aktyor bo'lish orzusida o'z omadini sinab ko'rish niyatida Kopenhagengaga boradi. Ko'zlagan maqsadiga erishish maqsadida uzoq sarsongarchilik, muhtojlik va behuda urinishlardan so'ng birinchi navbatda ta'lim olish uchun gimnaziyaga joylashadi. Endi katta yoshi o'quvchi partada o'zidan ancha yosh bolalar bilan dars tinglaydi. Shunday sharoitda Andersenni sinfdoshlari ganchalik massxara qilganini tasavvur qilish qiyin. Ammo Xans sabr-chidam bilan o'rta maktabni, so'ngra universitetni tugatadi. Hayotining ushbu davri haqida u keyinchalik achinarli va noxush taassurotlar tug'diruvchi "Irkti o'rdakcha" eragini yaratadi. Ma'naviy-axloqiy jihatdan ahamiyatli tomoni shundaki, asar irkit o'rdakchanning chiroyli oqushga aylanishi bilan ko'tarinki va jo'shqin ruhda yakun topadi.

X.K.Andersen o'z ijodi davomida talay pesalar va she'rlar yozgan bo'lsa-da, ammo ularning hech biri ulug' yozuvchining eraklari singari tan olinmagan. "Bolalarga aytilgan eraklar" (1835-1842), "Yangi eraklar" (1845-1848), "Hikoyalar" (1852-1855), "Yangi erak va hikoyalar" (1855-1872) to'plamlariga kirgan asarlarini "Ertaklar va qissalar" deb nomlaydi. Negaki ularning aksariyati kundalik hayotdan olib yozilgan hikoyalar bo'lib, borliqning asosiy masalalari to'g'risida o'yilashga majbur qiladi. Ba'zida erak va hikoyani farqlash qiyin, chunki ular turmushda har qadamda uchrashi mumkin bo'lgan hayotning turfa ko'rinishlaridan tortib, hissiyotlarga boy sevgining inja tuyg'usidan har qanday muhitda yuzaga keladigan eng odatiy holatlarga qadar bo'lgan voqealar tasvirini uchratish mumkin.

Mashhur ertaknavis X.K.Andersen ko'p avlodlarga chin insonlik bobida mehr va muhabbatdan saboq bergan, rahm-shafqat, go'zallikni insonning tashqi holatiga qarab emas, balki uning ichki dunyo-

sida ko'rish qobiliyatini, ya'ni barcha insonlar uchun ezgu fazilatlarni namoyish qilgan o'lmas so'z sehrigarlari qatorida turadi.

Savol va topshiriqlar

1. Xans Kristian Andersen nima uchun jahon bolalar adabiyotida "ertaklar qitoli" sifatida ulug'lanadi?
2. Xans Kristian Andersen eraklarining barcha toifadagi kishilar tomonidan birdek qiziqib o'qilishining sababini nimada deb bilasiz?
3. "Irkti o'rdakcha" bilan yozuvchi tarjimai holi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Aleksandr Sergeyevich Pushkin – umuminsoniy qadriyatlar kuychisi (1799-1837)

Reja:

1. Aleksandr Sergeyevich Pushkin ijodida folklor motivlari.
2. Aleksandr Sergeyevich Pushkin eraklarining janriy xususiyatlari.
3. Aleksandr Sergeyevich Pushkinning "Baligchi va balig haqida erak", "Pop va uning xizmatkori Balda haqida erak" asarlarida ochko'zlik va uning oqibatlarini talqini.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin bolalar uchun maxsus asarlar yozmagan bo'lsa-da, ammo uning ko'plab she'r va eraklari bolalar kitobxonligi doirasida o'qib, o'rganib kelinadi. Shoirning vatandorlik haqidagi aksariyat she'rlari o'z davrining murakkab siyosiy masalalariga bag'ishlanganligiga qaramasdan yosh avlodda vatan tuyg'usini uyg'otishda alohida o'rin tutadi. Ulug' so'z san'atkorining eraklari ijodining eng gullagan davriga mansub bo'lib, bolalar uchun mo'ljallanmagan bo'lsa-da, yaratilganidanog bolalar adabiyoti durdonalari sirasiga kiritilgandir. Xalq og'zaki ijodi motivlari zaminida yuzaga kelgan mazkur eraklar xalqona ruhi bilan ajralib turadi. Jumladan, "Pon va uning xizmatkori Balda haqida erak" syujeti qurilishi jihatidan "Shabarsha batrak" rus xalq eragiga yaqin turadi.

“Baligchi va balig haqida ertak” syujeti kelib chiqishi jihatidan “Ochko‘z kampir” ertagi bilan bog‘liq va u Pushkinga xalq og‘zaki ijodi namunalari to‘plovchisi V.I.Dal tomonidan taqdim etilgan. “Shoh Saltan haqida ertak” esa “Ajoyib bolalar haqida” nomli rus xalq ertagi bilan yaqin turadi. A.S.Pushkin ushu ertaklarida folklorga murojaat qila turib, ularda adabiyotni yangilash uchun beqiyos imkoniyatlar mavjudligini ko‘radi.

A.S.Pushkin ertaklari yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi keskin to‘qnashuvlar asosiga qurilgan asarlardir. Bunga “Shoh Saltan, uning ulug‘vor va qudrati o‘g‘li kryaz Gvidon Saltanovich va go‘zal malika Oqgush haqidagi ertak” misol bo‘la oladi. U 1831-yilda yozilgan va birinchi mara 1832-yilda “A.Pushkin she‘rlari” nomli to‘planning uchinchi qismida nashr etirilgan.

1835-yilda “Baligchi va balig haqida ertak” “O‘qish uchun kutubxona” jurnalida e‘lon qilingan bo‘lsa, “Pon va uning xizmatkori Balda haqida ertak” shoining hayotlik chog‘ida nashr etilmagan. U birinchi bo‘lib V.A.Jukovskiy tomonidan 1840-yilda “Vatan o‘g‘li” jurnalida katta o‘zgarishlar bilan nashr etilgan. “Baligchi va balig haqida ertak” nafaqat rus, balki chet el folklorida ham mavjud bo‘lgan mavzularga ham yaqin turadi. Masalan, aka-uka Grimmilar ijodida ham shunga o‘xshash syujeti ertak mavjud. Ammo olmon ertakchilari asarida axloqiy xulosalar bilan cheklangan: ochko‘zlik zararli, boriga qanoat qilish va hokazo. Pushkin ertaklari ijodiy tasavvurga boyligi jihatidan ajralib turadi. Ularda shoir qalami ostida paydo bo‘lgan sehri dunyo mo‘jizalari bilan rus jamiyatining turli tabaqalari hayoti va urf-odatlarining realistik suratlari uyg‘unlikda birga olib boriladi. Xususan “Malika Oqgush, oltinbalig, oltin tojli xo‘roz, o‘ttiz uchta qahramon va ajoyib olmaxon” kabi personajlar poetik jihatdan mukammaldir.

Pushkinning ertaklari, xalq ertaklari kabi, mo‘jizaviy o‘zgarishlarga boy: keksa qishloq ayoli malikaga, oqgush - chiroyli qizga, kryaz Gvidon - pashsha, ari, chivinga aylanishi shular jumlasidandir. Mo‘jizaviy o‘zgarishlar faqatgina ajoyib bo‘lib qolmay, balki ertaklarning gumaniistik g‘oyalarni ochib berishga ham yordam beradi. Keks ayoqlarning yana malikadan dehqon ayoliga aylanishi uning

zolimligi va ochko‘zligi uchun jazolanishi bilan bog‘liq. Oqgushni chiroyli qizga aylanishi sevgining sehr ustidan g‘alaba qozonishini anglatadi.

Shuni e‘tiborliki, A.S.Pushkin ertaklari bundan ko‘p zamonlar muqaddam yaratilganligiga qaramasdan kuni kecha yozilgandek o‘z ohorini yo‘qotmagan. Tursunboy Adashboyevning “Oltin yilli tulpor qissasi” asarining syujet qurilishi, kompozitsion tuzilishida buyuk shoining “Baligchi va balig haqida ertak” asarining ijodiy ta’siri jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyot manbalarida musharaklik mavjudligidan dalolatdir.

Savol va topshiriqlar

1. Aleksandr Sergeyevich Pushkin ertaklarining yaratilishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” asarida qanday g‘oyalar ilgari suriladi? Fikringizni “Baligchi va balig haqida ertak” asari g‘oyasi bilan qiyoslab izohlang.
3. “Baligchi va balig haqida ertak” asarida ochko‘z kampirning qilmish-qiddimishlari ertakdagi g‘aysi epizodlarda o‘zining yorqin aksini topgan.
4. “Balig va baligchi haqida ertak” asaridagi baligchi cholning kampirga bo‘lgan munosabati sizda qanday taassurot qoldirdi?

Lev Nikolayevich Tolstoy

(1828-1910)

Reja:

1. L.N.Tolstoy – bolalar yozuvchisi.
2. L.N.Tolstoyning bolalarga bag‘ishlangan asarlarining janriy xususiyatlari.
3. L.N.Tolstoy – ma‘rifatparvar adib.

Dunyo adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega Lev Nikolayevich Tolstoyning ijodiy kamoloti uning rus xalqiga bo‘lgan muhabbati bilan uzviy bog‘liqdir. Uning xalqqa xizmat qilish yo‘lidagi ma‘naviy-ijodiy hamda fuqarolik e‘tiqodi Yasnaya Polyamadagi pedagogik

faoliyati va o'sha davr maktablari uchun yaratgan o'quv qo'llanmalari bilan chambarchas bog'liq. Ulug' yozuvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida kichikintoylar adabiyotining tarbiyaviy mohiyati ustidagina emas, balki o'quvchilarning talimiy ehtiyojini o'rganish ustida ham bosh qo'iradi. Ana shunday izlanishlari o'laroq, 1859-yil "Alifbe" darsligi ustida ish boshlaydi. Buning uchun "Yasnaya Polyana" jurnalining ilovasida bosilgan ko'plab hikoyalarni qayta ishlab chiqadi. Mazkur hikoyalarda bolalar idrokining o'ziga xos xususiyatlarini alohida inobatga oladi. Keyinchalik bu haqda yozuvchining o'zi quyidagilarni yozadi: "Kitoblar (darsliklar - S.M.)da berilgan hikoyalar, masallarning har biri 10 martalab qayta ishlangan, mening barcha asarlarimga qaraganda ko'proq mehnat talab qilgan". Asosan, xalq og'zaki ijodi namunalari jamlangan maqollar, matallar, ertaklar, masallar adib yaratgan o'qish kitoblarining katta qismini tashkil etadi: Adib yaratgan "Alifbe" darsligidagi muqaddimadan namunalari: "Aytilgan so'z kumushdur, aytilmagani — oltin". "Bir tomchi kam, bir tomchidan dengizdir".

Topishmoqlardan namunalari: "O'ralgan, bog'langan, kulbada raqsqa tushadi". (Supurgi.) "Ahmoq qush o'z uyini yaxshi ko'rmas". "Biri quyadi, boshqasi ichadi, uchinchisi o'sadi". (Yong'ir, yer, o't.) Birinchi o'qishga mo'ljallangan hikoyalar bita jumladan iborat bo'lib, foydali ma'lumot yoki o'zini tutish bo'yicha maslahatlar berishga qaratilgan. Masalan: "Osmon baland, dengiz past", "Xashakni uyda qurit" va hakozo.

L. Tolstoy masallari Ezop masallariga juda yaqin turadi, lekin original asarlar sifatida qabul qilinadi. Chunki adib masallari imkon qadar bola idrokiga yaqin bo'lib, dinamik xarakterda va badiiy tasvirlar zanjirini anglatadi. Amiq va sodda tarzda bayon qilingan. ("Eman va o'rmon yong'oqi", "Kurk tovuq va jo'jalar", "Eshak va ot" va boshqalar).

Bola tarbiyasini har narsadan aziz deb bilgan adib 1872-yilda "Yangi alifbe" uchun "Uch ayiq" etagini yozgan. Undagi tasvir usuli realistlik hikoya uslubiga juda yaqin. Qizig'i shundaki, unda xalq ertaklariga xos bo'lgan tugun va yechim yo'q. Hodisalar birdamiga, quydagicha iboralaridan boshlanadi: "Bir qizcha uydan o'rmonga

ortlanadi. U o'rmonda yo'qolib qoldi va uyiga yo'l izlay boshladi. Ammo topa olmadi va o'rmondagi bir uyga kelib qoldi".

"Yangi alifbe", "Rus tili", "O'qish kitobi" i darsliklariga kirgan ko'plab asarlari ushbu prinsipga bo'ysunadi.

"Alifbe"ning kirish qismida L.N. Tolstoy shunday deb yozadi: "Umuman olganda, o'quvchiga iloji boricha ko'proq ma'lumot berib va uni barcha bilim sohalarida kuzatuvlarni ko'paytirish uchun chotlang, ammo umumiy xulosalar, ta'riflar va atamalarni iloji boricha kamroq bering".

Mazkur darsliklariga kiritilgan asarlariga sabr bilan qayta-qayta ishlov bergani xususida adibning o'ziga keyinchalik shunday deb yozadi: Dadam "Alifbe"ni yozib tugatgach har doim bizda — o'zining farzandlarida nazoratdan o'tkazar edi. Asarlarni hikoya qilib berar va bizni o'z so'zlarimiz bilan bayon qilishga majburlar edi".

Yozuvchi bolalarga tabiat qonunlari to'g'risida ma'lumot berishga intilib, ushbu qonunlarni amalda dehqonlar hayoti va iqtisodiyotida qanday qo'llash mumkinligi yuzasidan maslahatlar beradi:

"Bir qurt bor; u sarg'ish rangli, bargni yeydi. Bu qurtdan pilla bo'lgach, undan ipak olinadi".

"Bir buta ustiga g'uj asalari o'tirdi. Amaki uni uyaga olib ketdi. Bir yil davomida asalga ega bo'ldi".

"Mening itim, menga qulq sol: o'g'riga hurgin, uyimizga kirima, lekin bolalarni qo'rqitma va ular bilan o'yna".

"Qizcha ninachini ushladi va oyoqlarini uzmoqchi bo'ldi. Otasi aytdi: xuddi o'sha ninachilar tong saharida kuyilashadi. Qizcha ularning qo'shiqlarini eslab, ninachini qo'yib yubordi".

L. Tolstoyning "Kavkaz asiri" hikoyasi tog'liklar hayoti bolalar uchun tushunarli bo'lgan ertak tiliga yaqin tilda yozilgan. Asosiy voqealar tog'liklar tomonidan qo'lga olingan rus ofitseri Jilinning sarguzashtlari doirasida birlashtirilgan.

Hikoyaning sujeti jadal rivojlanadi, qahramonlarning xatiraharakatlari rang-barang. Qorong'ida yashirinishga shoshilgan Jilinning qochishi keskin va dramatik usulda tasvirlangan: "U shoshilyapti. Oy tobora ko'tarilib bormoqda, o'ng tomonda cho'qqilar yorishib

ketdi. U o'rmonga yaqinlashar ekan, tog'lar ortidan oy chiqdi – ham-ma yoz kunduzgidek yop-yorug' bo'ldi".

Hikoya qahramonlari mahbuslar Jilin va Kostilin bir-biridan jiddiy farq etadi. Hatto ularning tashqi ko'rinishi ham bir-biriga o'xshamaydi. Jilinni "Gavdasi kichik bo'lsa ham, baquvvat edi", deb ta'kidlaydi muallif. Kostilin esa "haddan tashqari og'ir, do'mboq, terga botgan". Ulardan farqli o'laroq tatar chohning nigohida shafqat-sizlik, nafrat va g'azab ifodalanadi: "burni burguniki kabi ilmoqli, ko'zlari esa kulrang, g'azabga to'la va tishlari yo'q". Tatar qizi Dinada samimiyat va insoniylik aniq-ravshan sezilib turadi.

"Kavkaz asiri" – adib darsligidagi pœetik jihatdan eng mukam-mal asardir.

Shukur Sa'dulla va Hakim Nazirlarning kichik yoshdagi bola-larga bag'ishlab yaratgan asarlarida ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy ijodining barakali ta'siri sezilib turadi.

Savol va topshiriqlar

1. L.N.Tolstoyning darsliklar yaratishdan maqsadi nima edi?
2. Yozuvchi bolalarga bag'ishlangan asarlarini nima uchun o'n martalab qayta ishlaydi?
3. L.N.Tolstoy darsliklariga kiritgan asarlarini qaysi manbalarga tayanib yaratadi?
4. "Kavkaz asiri" hikoyasida qahramonlar xarakterining zid-diyatli tarzda tasvirlanishi sababini izohlang.

Samuil Yakovlevich Marshak ijodida psixologizm (1887-1964)

Reja:

1. Samuil Yakovlevich Marshak ijodida folklor an'analari.
2. Shoir ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar talqini.
3. Samuil Yakovlevich Marshak ijodining jahonshumul ahamiyati.

Sho'rolar davri adabiyotining boshlovchilaridan M.Gorkiy o'tgan asrning 20-yillaridayoq yosh ijodkorlarga "Marshakni seving, undan o'rganing!" degan ekan. Bu hali o'zi hayotning yigiriklik pallasida

bo'lgan S.Ya.Marshak ijodiga berilgan yuksak baho edi. Darhaqiqat, buyuk shoir o'zining ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan nafaqat rus bolalar she'riyatida, balki jahon bolalar adabiyotida ham yorqin iz qoldirgan donishmand ijodkoridir. 1887-yilda Voronejda usta kimyo-gar oilasida tug'ilgan shoirning tarjimai holi ham g'oyatda sodda.

Bolaligi Voronej guberniyasining Ostrogojsk shaharchasida kechgan bo'lajak shoir boshchiligida 1921-yilda g'ayrioddiy bolalar muassasasi – "Bolalar shaharchasi" tashkil topadi. 1922-yilda uning bolalar folklori asosida yozilgan pyesa-ertaklar to'plami nashr etiladi. O'sha yili S.Ya.Marshak Leningradga ko'chib o'tadi va 30-yillarning oxirigacha u yerda o'ziga o'xshagan, hayotini bolalar adabiyotiga bag'ishlagan shoirlar, yozuvchilar, rassomlarni atrofida birlashtiradi. Ayniqsa, "Yangi Robinzon" jurnalining muharriri sifatida katta ishlarni amalga oshiradi.

Eng kichik yoshdagi bolalar uchun "Qafasdagi bolakaylar" she'riy to'plami janri bo'yicha rasmlar uchun she'riy sarlavhalar turkumidan iborat. Beg'ubor bolalik mavzusiga oid she'rlarida kichikintoylarning jamiyatdagi o'rni bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlar, tabiat va axloq masalalari alohida o'rin tutadi.

Xalqchilik S.Ya.Marshak asarlarining muhim xususiyatidir. Uning ijodida farzand tarbiyasiga oid milliy va umuminsoniy estetik tamoyillar uyg'unligining o'ziga xosligi xalqchilik g'oyalari bilan to'yintilganidan dalolardir.

Ushbu xususiyatlar "Qafasdagi bolakaylar", "Sirk", "Adan Zgacha bo'lgan qiziqarli sayohat", "Suzadi, suzadi qayiq", "Jek qurgan uy", "Xorovod" kabi kichik janrdagi asarlarida ham, "Almoq sichqoncha haqida ertak", "Pochta", "Tegirmonchi chol, nabira va eshak", "Eshikni yop, kampir", "Kecha va bugun", "Noma'lum qahramonning qissasi", "Uydurma haqiqat", "Janob Twister", "Muz oroli" kabi ertak, gissa va hikoyalarda ham ko'zga tashlanib turadi. Bolalik olamiga, uning cheksiz hoyu havaslariga sodiq shoir o'z e'trigodi xususida shunday yozgan edi: "Men bolalarga hali ham sodiqman, ular haqida hali ham o'ylayman. Bolalar haqida o'ylash kelajak haqida o'ylashni anglatadi".

S.Ya.Marshakning yangi yil arafasida bir vaqtning o'zida barcha o'n ikki oyni uchratgan qiz haqidagi "O'n ikki oy" erak-qissasi Slovakiya xalq ertagiga asoslanib yozilgan. Ammo shoir ushbu erak syujetini qayta hikoyalash bilan cheklanib qolmay, uni kengaytirib va boyitdi. Ertak-pyesada mehnatsevarlik va dangasalik o'rtasidagi abadiy mojaro kichik malika va uning a'yonlari bilan bog'liq hikoya tizimining rivojlanishi tufayli chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Shu bilan birga, asarga ushbu sujet voqealarining kiritilishi uning xalq ertagi bilan aloqasini buzmaydi.

Shoarning xalq og'zaki ijodi an'analarga tayangan holda kichikintoylarni yukasak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan mazkur asari o'zbek bolalar she'riyatida, xususan, Asqad Muxtorning "Adolat" ertagi, "Ahmoq sichqoncha haqida erak" asari Shukur Sa'dullanning "Ayyor chumchuq" ertagining yaratilishiga turtki bergani bejiz emas.

Quyida keltirilgan S.Ya.Marshakning "Tegirmonchi chol, nabira va eshak" ertagi bilan Abdulla Oripovning "Sharq hikoyasi" ertagi Sharq atsonalariga doir bir xil sujening ikki xalq yozuvchisi talqindagi o'ziga xoslik yuzasidan muayyan tasavvur berishi mumkin.

S.Ya.Marshak
TEGIRMONCHI GHOL, NABIRA VA ESHAK
(Sharq afsonasi)

Tegirmonchi jo'nadi ishga,
Ostida eshak.
Bola ortda yo'rg'alaydi,
Piyoda beshak.
- Buni qarang, ajabtovur, -
El kular qotib.
Chol eshakda, bola borar
Tuproqqa botib.
- Bundaygasi uchramagan,
Yorug' dunyoda.
Chol ulovda, nabirasi

Poyi-piyoda.
Tegirmonchi chol surilib,
Tushar egardan.
So'ng ulovga nabirasi
Minar o'shal dam.
- Eh, bolasi tushmagur-ey,
Eshakda garang.
Orgasidan bormoqda chol,
Inqillab arang.
Tomosha ham bormi o'zi,
Bundan ziyoda?
Bola mingan eshakka,
Chol-chi, piyoda.
Shartga ko'ra ilojini
Topdi oqsogol.
Nabirasin orgasiga
Mingashtirdi chol.
Buni ko'rgan yo'lovchilar
O'tar gap sotib:
- Ha, ulovga qiyin bo'пти,
Kulishar qotib.
O'tgan-ketgan zimdan kulib,
Qo'yar yo'talib.
Ikkovini bitta hayvon
Borar ko'tarib.
Tomosha ham bo'larmi
Bundan ziyoda?
Kim ko'ribdi bundayini
Yorug' dunyoda...
Bola yayov, chol eshakni
Oldi yelkalab.
El-chi, tekin tomoshaga
Doim sertalab.
- Ajabo, - deb ko'rganlar.
Irg'ar boshini.

-Qari eshak orgalabdi,
Qarang, yoshini.
Bunagasin kim ko'ribdi
Yorug' dunyoda.
Chol eshakni ko'tarib,
Borlar piyoda...

SHARQ HIKOYASI

Abdulla Oripov

Aniq yili esimda yo'q,
Allaqaysi zamonda,
Bir gishloqda ota-o'g'il
Yashar ekan omonda.
Bir kuni deng shu ikkovlon
Qaygadir yo'l olishdi.
Minay desa ot-ulov yo'q,
O'ylanishib qolishdi.
Qurib ketgin yo'qchilik ham
Kim nelarga zor edi.
Ikkovning o'rtasida
Bitta eshak bor edi.
Garchi u ham biroz yag'ir,
Garchi andak bedarmon.
Shu eshakni minsakmi deb,
O'ylab galdi ikkovlon.
Ota dedi: - O'g'lim, bundan
Na sen, na men tingaymiz.
O'g'il dedi: Ota, buni
Galma-galdan mingaymiz.
Ota doim ota axir,
Ya'ni, mudom izzatda.
Eshakka u mindi dastlab
O'g'il yayov, albatta.
Bir gishloqdan o'tdilar

Ikkov sekin tiqirlab.
Ortlaridan to'rt-besh odam
Kulib galdi piqirlab.
- Ahmoq ekan manavi chol,
Ahmoq haddan ziyoda.
O'zi ulov minib olgan,
Og'li esa piyoda
G'alati bir hisni tuyib
Shartta pastga tushdi chol.
- Kelagolgin, o'g'lim, - dedi,
Eshakka sen minagoli!
Endi o'g'il to'qimda-yu,
Ota yayov ketardi.
Endi ular boshqa gishloq
Ko'chasidan o'tardi.
Borardilar so'zsiz, sekin
Asta-asta tigirlab.
Ortlaridan to'rt-besh odam
Yana kuldi piqirlab.
- Ahmoq ekan manav bo'la
Ahmoq haddan ziyoda.
O'zi ulov minib olgan,
Orasi-chi piyoda.
Yosh emasmi, birdan uning,
Oriyati qo'zg'aldi.
Shartta pastga tushdi u ham,
U ham yayov yo'l oldi.
Yurib-yurib ikkalasi
Necha adir, qir oshdi.
- Bor-e, - deya so'ng eshakka
Ikkovi ham mingashdi.
Ammo tag'in bir manzildan
O'tar bo'ldi ikkovlon.
Ne kulfakti, bu joyda ham
Tinch qo'ymadi olomon.

- Almqoq ekan bular rosa,
Insofi yo'q, lavanglar,
Ikki odam bir eshakni
Minitb opti, qaranglar.
Malomattan ota-o'g'il
Tamom horib-toldilar.
G'azab bilan bir-biriga
Termilishib qoldilar.

-Aytmabmidim, — dedi ota, —
Gap uqmadning tirrancha,
El-u yurtning o'rtasida ✕
Bo'ldik rosa bo'lgancha.
Qo'l siltashdi bir-biriga
Qoldi foyda-ziyon ham.
Ota u yon ketib qoldi,
Bu yon ketdi o'g'lon ham.
Qondoshlikning million yillik
Rishtalari uzildi.
O'rtaga bir eshak tushib
Oralari buzildi.

Savol va topshiriqlar

1. M.Go'rkiyning yosh yozuvchilarga S.Ya.Marshakni sevish va undan o'rganishga da'vat qilishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
2. S.Ya.Marshak ijodining yetakchi xususiyatlarini aniqlang. Shoir ijodiy yutug'iga qanday omillar sabab bo'lgan?
3. "Tegirmonchi chol, nabira va eshak" va "Sharq afsonasi" ertaklarini qiyosiy tahlil qiling. Har ikkala ertakning o'xshash va farqli jihatlarga munosabatingizni bildiring.

Korney Ivanovich Chukovskiy – folklorshunos olim va shoir
(1882-1969)

Reja:

1. Korney Ivanovich Chukovskiy – folklor tadqiqotchisi.
2. "Ikkiidan beshgacha" asarining yaratilish tarixi.
3. "Ikkiidan beshgacha" asarida bolalar nutqi muammosi.

Rus adabiyotida faqat ikki yozuvchigina norasmiy, ammo faxriy "bobo" unvonini olishgan. Bular jahon bolalar adabiyotining yetuk namoyandalari Ivan Andreevich Krilov va Korney Ivanovich Chukovskiylardir.

Korney Ivanovich Chukovskiyning she'riy ertaklari kichik yoshdagi bolalarga tushunarli bo'lib, A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, A.A.Bloklarning she'rlari kabi bir xil qonunlarga asosan yaratilgan. Eng muhimi - ular kichikintoy o'quvchini o'z musiqasi bilan sehtlab oladi. Shunga ko'ra bolalar orasida she'riyatga bo'lgan juda katta ishtiyoqini alangalatadi.

Rus she'riyati va folkloriga doir tinimsiz izlanishlar Chukovskiyga bolalar uchun she'riy ertaklar yaratishda katta yordam bergan. I.M.Snegirev, P.V.Kireyevskiy, P.N.Ribnikov, A.F.Gilferding, A.N.Afanasyev, E.V. Barsov, V.V.Sheyn tomonidan jamlangan rus xalq ertaklari, qo'shiqlari, topishmoqlari, maqol va iboralar to'plamlari, undan tashqari Vladimir Dalning mashhur lug'ati bo'lajak shoirning uyida chinakamiga eng ko'p o'qiladigan kitoblardan bo'lgan.

O'lgan asrning 20-yillarida Leningradda chiqadigan "Krasnaya gazeta" ("Qizil gazeta")da ilk bor adibning bolalarga atalgan bir guruh asarlari e'lon qilinadi. 1929-yilda mazkur hikoyalar "Kichikintoylar" nomi bilan kitob holida nashr qilinadi. Oradan bir yil o'tgach, u to'ldirilib, "Ikkiidan beshgacha" nomi bilan bosilib chiqadi. Mazkur kitobga kirgan asarlar 1933-yildan hozirgacha shu nom ostida qayta-qayta nashr etilmoqda.

Bolalarning nutqi haqidagi suhbatdan boshlangan bu asar aslida kichikintoylarning ruhiyati, tashqi dunyoni idrok qilish holati,

tushunchalari darajasi, dunyoqarashi yuzasidan atrofficha ma'lumot va tasavvur beruvchi fuqardamental tadqiqotdir.

Kitobning shunday nomlanishini aynan yosh bolalar ruhiyatiga bag'ishlanganligi bilan izohlash mumkin. K.I.Chukovskiy o'z asarida bolalarning ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrda nutqi, atrofdagi olamni idrok qilish darajasi bilan inson fe'l-atvori va shaxsiyatining shakllanishida alohida o'rin tutishiga urg'u beradi. Kichikintoylarning dunyoni anglash yo'lidagi ijodiy iqtidori nutqida aks etishiga doir kuzatishlari, shubhasiz, juda katta ilmiy-amaliy qimmatga molikdir. Ijodkor shu yoshdagi bolalarni "genial lingvist" deya yuksak baholaydi.

"Ikkidan beshgacha" asarini Chukovskiy deyarli butun adabiy faoliyati davomida yozadi. Mazkur asar o'tgan asrning 20-yillarida shoir farzandli bo'lganida boshlangan bo'lsa, so'nggi qo'shimchalari vafotidan sal oldin kiritilgan.

Rus tarbiyashunoslik tarixiga nazar tashlansa, kichikintoylar nutqi namunalari yozib olish K.Chukovskiy kuzatishlari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Uning qay darajada muhimligi pedagogika va defektologiya fanlarida allaqachon o'z isbotini topgan.

"Ikkidan beshgacha" kitobining yaratilganiga sal kam bir asr bo'lyapti. Ammo Korney Chukovskiyning noyob kitobi eskirmaydi. Bugungi kunda ham o'qituvchilar, tanqidchilar, bolalar shoirlari va psixologlar unga qayta-qayta murojaat qilishlari bejiz emas.

Savol va topshiriqlar

1. Korney Ivanovich Chukovskiy ijodining shakllanishiga qanday omillar sabab bo'lgan?
2. Yozuvchi bolalarning nutqi va fe'l-atvorining shakllanishi to'g'risida qanday tarbiyaviy g'oyalarni ilgari suradi?
3. Korney Ivanovich Chukovskiyning "Ikkidan beshgacha" asari bolalar adabiyoti va tarbiyashunoslik fanida qanday o'rin tutadi?

IKKINCHI QISM

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Kitobxonlik va mutolaa madaniyati

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Mavjud adabiyotlarni o'qib o'rganmasdan turib bu vazifani ado qilib bo'lmaydi. Hatto hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilish mumkin emas. Kitob "fikrlar, tasavvur va tushunchalar tug'dirishi" (L.Tolstoy) bilan insonni o'zligini anglashga, dunyoni tushunishiga yo'l ochadi.

Uni xarakter xususiyatiga ko'ra insoniyat tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos ko'zgusi, hayotiy tajribalarini ifodalashning muhim vositasi deb ham atash mumkin. Zero, kitob bir avlodning ikkinchi avlodga ma'naviy merosi, umri oxirlab qolgan kishining hayotini endigina boshlayotgan yoshlarga maslahati, yo'-yo'rig'i maqomidadir. (A.Gersen).

Buyuk aql egalariidan qaysi birining hayot yo'liga nazar tashlamang, kitobning ular umrini mayoq singari ichdan nurlantirganini ko'rish mumkin. Alisher Navoiy Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod olganida go'dak yoshida edi. Lekin mazkur asarda ilgari surilgan g'oya uning xayolini bir umr tark etmadi. Tark etmadigina emas, ijodiy tafakkurini ulug' ishlarga yo'naltirdi.

Eramizgacha bo'lgan birinchi asrda yashab, ijod etgan Rim shoiri Tit Lukretsiy Karring "Narsalarning tabiati haqida" poemasi Siseron, Vergiliy, Jordano Bruno va Bekonlarni cheksiz hayratga solgan, Nyuton va Lomonosov kabi mutafakkirlar dunyoqarashining shakllanishida katta rol o'ynagan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadig'u bilig", Firdavsiyning "Shohnoma", Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari, Ahmad Yassaviyning hayotbaxsh hikmatlari ham necha asrdirki, kishilik jamiyatining ma'naviy kamolotiga xizmat etib kelmoqda. Ammo bu asarlar o'zi bilan tillashishga qodir kishilargagina bag'rini ochadi. Shunday ekan, bir qarashda oddiygina tuyuladigan kitobxonlik siri nimada?

Badiiy adabiyot va u haqdagi fanlar, shuningdek, pedagogika, didaktika, ruhshunoslik taraqqiy etgan sari bu muammo ta'lim-tarbiyaga aloqador ziyoililar, olimlar oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Shaxs ma'naviy kamoloti ko'p jihatdan shu masalaning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq. Inson bilimlarining 85% i bevosita kitob muo-laasi orqali egallanishi nazarda tutilsa, uning muhimligi yanada ravshan toptadi.

Bilim manbai, tarbiya vositasi bo'lgan kitobga yo'l – kitobxonlik muammosi bugun yuzaga kelgan masala emas. Uning ildizini kishi-lik jamiyatining ilk davridan, xalq og'zaki ijodnamunalari ijrosidan izlamoc kerak. Hozirgi adabiy ilmiy iste'moldagi kitobxonlik tushun-chasi tarixi esa shubhasiz, qadimiy bitiktoshlarga borib taqaladi.

Eranmizning III-IV asrlarida yaratilgan qadimiy hind yodgorligi “Kalila va Dimna”, 1069-yilda Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan “Qutadig'u bilig”, 1082-1083 yillarda Kaykovusning o'g'li Gilon-shohga bag'ishlab yozgan “Qobusnoma” asarlarining asrlar osha jahonning ko'pgina tillariga tarjima qiliniib, qayta-qayta nashr etilishi kitobxonlikning davlat ahamiyatiga molik ish ekanini ko'rsatadi. Zero, adabiyot tarixi u yoki bu g'oyalarni targ'ib etgan yozuvchilar va ularning asarlari tarixi bo'libgina qolmay, shu asarlarni mutolaa qiluvchi kitobxonlarning ham tarixidir. Shu ma'noda kitobxonlik muammosini adabiyotning o'zi kabi qadimiy desak xato bo'lmaydi. Binobarin, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadig'u bilig”, Abu Abdullo al-Xorazmiyning “Mafatih-al-ulum”, Nosiriddin Burxoniddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy”, Xondamirning “Makorimul axloq” va Alisher Navoiy, Zahreddin Muhammad Boburlarning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Jumladan, “Qissasi Rabg'uziy” muallifi asarning yaratilish sabablari to'g'risida yozadi: “...payg'am-barlar qissalariga g'oyat rag'batim bor. Tekma yerda tekma kim ersada bo'linur ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi mugarrar va bir onchasi mubattar bor. Bir ozining so'zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o'ksuk. Emdi sanung zimmangdin chag'gan, qalamung-din ogg'an, kitobatma sanung, iboratma sanung bo'lib bizga “Qisas

ul-anbiyo” bo'lsa, o'qumog'ga keraklik, o'rganmakga yarog'lig' erdi, teb iltimos yanglig' ishorat bo'lib ersa nechama o'zumni ul ishga loyiq, ul amalga muofiq ermasin bilimish erkan o'zumni og'irlab na'fs saqlanish bo'lib o'g'ur bo'lsun teb bu og'ir ishga o'g'radimiz... kitob boshladimiz” {1}.

Kitoblar olamining bilim manbai, tarbiya vositasi sifatidagi xosiyatlari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, mukammallikka eltuv-chi jihatlardir. Huddi mana shu jihatlari uning ijtimoiy mohiyatini ham tayin etadi.

Ma'lumki, turfa olam jumboqlari had-hisobsiz. Inson faqat ilmga tayanib, uning sirlaridan voqif bo'la boradi. Zero, Muhammad alayhis-salom hadislarda “Ilm olish har bir musulmon er va musulmon ayol kishi uchun farzdir”, deyilishida katta hikmat bor.

“Bilim, -deb yozadi Yusuf Xos Hojib “Qutadig'u bilig” (“Saodat-ga boshlovchi bilim”) asarida, ipor bilan juda o'xshash. Ularning har ikkalasini yashirmoc behuda. Iforni yashirsang, hidi bildirib qo'yadi. Bilimni yashirsang, tiling fosh etadi. Bilim aslida bitmas-tugammas boylikka o'xshash. Ammo uning boshqa boyliklardan tubdan farqi bor:

Bilim –boylik axir, zavoldan yiroq,

Uni ola bilmas qarog'chi biroq.

Bilim va zakovat kishiga qo'yilgan o'ziga xos kishandir. Kishan-langani ot yovuz va yaramas narsalardan uzoc bo'ladi. Shuningdek, suyukli, zo'r otlar ham ko'pincha kishanlangan bo'ladi. Suyukli otning kishanlanishiga sabab- uning ehtiyotlanishi” {2}.

Ma'lum bo'ladiki, ilm olam jumboqlarini yechish uchun kalit vazifasini o'tabgina qolmaydi, insonni “yovuz va yaramas narsalar-dan” asrab, uning ma'naviy yuksalishiga ham yo'l ochadi.

Alisher Navoiyning muborak ta'birlari bilan aytganda, “Jaholat – o'lindir, bilim – tiriklik”.

Turk shoiri Yunus Emroning fikricha, “ilm o'zni bilmakdir. Sen o'zingni bilmassan, bu nechun urimmakdir?”, “Ilm ayni paytda, o'zgani ham bilmakdir”, - deydi Ibrohim Haqul “Zanjirband sher qoshida” nomli kitobida – Olimlik-olam va odamni tanish, shunda

adashmaslik zakovatidan yiroq ish emas. Ilm haqdan yurakka qo'yilgan nur. Ilm – hayot va jamiyat muammolarini bexato ochish shijoati. Ilm – dildagi, jur'atdagi yo'lqin. Aql o'z tabiatiga ko'ra ko'nikuvchan va egluvchandir. Shuning uchun u faqat ilm ta'sirida jasorat kasb etadi".

Shu o'rinda Alouddin Mansurning zamondoshlari tomonidan "bahri-ul mug'riq" (tubsiz dengiz), "hujjatul islom" deb tan olingan buyuk alloma Muhammad Abu Homid Tusiy – G'azzoliy taqdiriga oid quyidagi hikoyasi ibratlidir: "Boshlang'ich bilimlar va huquqshunoslik fanini tug'ilgan shahrida o'rgangan Abu Homid keyinchalik Jurjonga, o'sha davrning mashhur qomus'iy allomasi Abu Nasr huzuriga borib, tafsiri ilmi o'sha yerda davom ettiradi. Bir necha yil mobaynida ustozining barcha bilimlarini egallab, o'qib-o'rgangan kitoblari ko'p jildlik sharh va izohlar bitib, o'z yurtiga qaytayotganida, yo'lda kelajak hayotida katta ahamiyat kasb etgan voqea ro'y beradi. G'azzoliyning o'zi bu haqda shunday hikoya qiladi: "Yo'lda karvonimizga qarog'chilar hujum qilib, bor narsamizni talab ketdilar. Men qarog'chilar boshlig'ining ortidan borib: "Olgan narsalaring orasida senga hech qanday foydasi bo'lmagan bir to'ra bor, shuni qaytarib bergin", deb yalindim. "To'rangda nima bor edi?" – so'radi u. Unda mening bor ilimim – juda ko'p kitoblardan olib yozilgan sharh va izohlar bor. Necha yillardan beri musofirlik azobini tortib topgan boyigim – shu", dedim. Qarog'chi kulib: "Har qanday odam olib qo'yishi mumkin bo'lgan narsani mening ilmin deysizga uyalmay-sanmi?" – dedi va "uning ilmini qaytarib beringlar", deb buyurdi. Bu gap menga shunday qatig ta'sir qildiki, Tusga qaytib kelganimdan keyin uch yilgacha uydin tashqariga bir qadam qo'ymasdan, o'sha yozgan sharh-izohlarimning hammasini yod olib, hech qanday qarog'chi ololmaydigan joyga – qalbinga jo qildim".

Demak, o'qimishlilik shunchaki o'qish emas, balki o'qiganini qalbiga jo qilib olishni va unga amal qilishni ham taqazo etar ekan. Shundaygina o'qimishlilik yovuzliklardan asrovchi kishan, ezgulikka yo'l ochuvchi kalit vazifasini bajaradi. O'qiganini qalbiga joylagani uchun va o'z ilmining cheksizligiga ko'ra Muhammad G'azzoliy tubsiz dengizga qiyoslangan, Alisher Navoiy "she'riyat mulkinging sul-

toni" deb ulug'langan. Mahmud Koshg'ariy, al-Beruniy, ai-Xorazmiy, Ibn Sino va boshqalar haqida ham shunday deysiz mumkin.

Ilmi bo'lish uchun yillar mobaynida izchil mutolaa talab etilgani kabi fikr qilishga odatlanish, ya'ni mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'limoq uchun ham fahm-farosadan tashqari, aql-zakovat ham zarur. Aql-zakovatdan yiroq odam hatto o'z turmushini tartibga sololmaydi.

Fikrsizlik – nodonlik belgisidir. Nodonlikdan jaholatga bir qadam va u inson ma'naviy kamolotiga butunlay zid. Shuning uchun ham komil insonlar nodonlikka qarshi kurashib kelganlar. XII-XIII asrlarning faylasuf shoiri Ahmad Yassaviyning quyidagi misralari bejiz dunyoga kelmagan.

Duo qiling, nodonlarning yuzin ko'rmay,

Haq taolo rafiq bo'lsa birdam turmay.

Bemor bo'lsa, nodonlarning ho'lin so'rmay,

Nodonlardin yuz ming jafu ko'rdim mano.

Bu shoirning dunyodan shunchaki qo'l siltovi izhori bo'lmay, nodonlikka, jaholatga qarshi achchiq isyonidir. San'atning chinakam muxlisi, badiiy adabiyot bilan do'st tutingan kishi boshqalarga yomonlik sog'immaydi.

Ko'rinadiki, ma'naviy-axloqiy kamolotga eluvchi yo'l o'qishga, ya'ni kitobxonlikka kelib taqaladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida "ko'plab bolalarimizning kitobdan uzozqlashib, ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgani" dan tashvishlanib gapirishi kitobxonlik muammosining davlat ahmiyatiga molik masala ekanligiga doir dalolatdir.

"Yoshlarimiz o'zimizning gazeta-jurnallarimizni o'qimasa, o'z milliy adabiyotimiz va san'atimizni bilimasa, -degan edi Prezident o'z nutqida, - ular qanday qilib vatandarparvar bo'ladi? Ularning ong-u tafakkuri, dunyogarashi nima hisobidan shakllanadi?"

Ta'lim bosqichlarida mutolaa madaniyati tarbiyasiga doir soha mutaxassislarining e'tirof qilishlaricha, kitob o'qishni majburiyat

emas, ehtiyoj darajasiga ko'tarilishi kitobxonlik madaniyatini tarkib topirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiy ta'limda kitobxonlik muammosi

Badiiy adabiyot rivojini kitobxonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun adabiyot tarixi ma'lum ma'noda kitobxonlik tarixi hamdir. Adabiyotga iste'dodli kitobxonlar zarur. Kitobxon iste'dodi duch kelgan asarni o'qib, u haqda fikr bildirish bilan o'ljahamaydi, balki tanlab o'qish, o'qiganlari yuzasidan ijodiy fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarish, zarurat tug'ilganda undan amaliy foydalanish iqtidoriga egalik bilan xarakterlanadi.

Kitobxonlik jo'n tushuncha emas. U o'quvchidan muayyan darajada bilim bilan birga ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni ham taqozo etadi. Iste'dodli kitobxon belgilangan mavzu bo'yicha kitob tanlay oladi. Kitob o'qish uning uchun majburiyat emas, hayotiy zaruriyatga aylanadi. Kitob o'qishni o'rganagan bolani kitobxon deb bo'lmagani kabi o'qiganlarini eslab qoladigan va qayta hikoya qiladigan o'quvchi ham hali to'la ma'noda kitobxonlik madaniyatiga erishgan hisoblanmaydi. Zero, kitobxonlik madaniyati yozuvchi tasvirlagan hayot voqeligini qayd qilish bilan cheklanmaydi, uning ma'qul va nomaqbul jihatarini farqlay bilishni, o'z munosabatini bildira olishni ham taqozo etadi.

“Tarqiqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, — deb yozadi Xudoyberdi To'xtaboyev, — kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir.”³⁴

Shu ma'noda kitobxonlik — ijodiy mehnatdir. Kitobxonlik mehnati tanlangan adabiyotning turiga qarab o'zgaradi. Masalan, ilmiy asarlarda ilgari surilgan farazlar, fikrlar va xulosalar mazmuni muayyan mehnat asosida o'zlashiriladi. Badiiy asarlarni o'qiganda esa, bir qarashda bunday mehnatga ehtiyoj sezilmaydi. Aslida-chi?

Nar qanday o'quvchi qo'lga kitob olar ekan, biror yangilikni

bilishga chog'lanadi. Juda bo'lmaganda, qahramonlar boshdan kechirgan voqealarga qiziqadi, o'qish jarayonida o'sha voqealarni o'z xayolida qayta tiklaydi, qahramonlar taqdiri ustida bosh qotiradi. Demak, u diqqatini jamlaydi, tafakkurini ishga soladi. Boshqacha aytganda, asar voqealarini shunchaki fahmlamaydi, ijod qiladi. Shusiz badiiy asarning g'oyaviy mazmunini, yozuvchi maqsadini anglab bo'lmaydi.

Aytaylik, Cho'ponning “Kecha va kunduz”, G'afur G'ulomning “Shum bola” nomli asarlari xalqimizning asrimiz boshlaridagi hayoti tasviriga bag'ishlangan. O'zbekiston tarixiga oid ilmiy asarlarni o'qiganda ham u haqida so'z boradi. Ammo badiiy asarlarda bunday ma'lumotlar qahramonlarning xatti-harakatlari, kechinish-kechimmishlari, hayot manzaralari tasvirdan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Bu holat kitobxonlikning ijodiy mehnat ekanligini inkor etmaydi, aksincha, tasdiqlaydi. Kitobxonlikni mohiyat e'tibori bilan san'at, kitobxonni esa, san'atkor deyish mumkin. Aks holda, u yozuvchi ishlagan bo'yoqlar, badiiy tasvir vositalari, obrazlar tilga tushummagan bo'lardi.

Badiiy asarni o'qish o'zicha hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik, o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki tushunib o'qish, maqsadi o'qishdir.

Shundan kelib chiqib aytilish mumkinki, kitobxon o'quvchining yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrni nechog'li uqishi, ya'ni asar “til”ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, iste'dodi darajasini ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyot iste'dodli yozuvchilar bilan birga, iste'dodli kitobxonlarga ham ehtiyoj sezadi.

Tarixga nazar tashlansa, taniqli davlat va jamoat arboblari, din peshvolari, ilm-fan, san'at va adabiyot namoyandalari tom ma'nodagi kitobxon bo'lganlarini ko'rish mumkin. BERNIY, FOROBIY, XORAZMIY, AHMAD YASSAVIY, AMIR TEMUR, ULUG'BEK, ALISHER NAVOIY, BOBUR va boshqa ulug'larimiz buning yorqin dalilidir.

Bu borada umumjahon madaniyati tarixidan qiziqarli misollar keltirish mumkin. Jumladan, eramizning birinchi asrida yashagan rimlik Pliniy degan zobitning kitobga bo'lgan munosabati alohida

³⁴ То'xtабоев Х. Болалар адабиёти хақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. — Тошкент, 1992 йил 15 февраль.

e'tiborga loyiq. Uning xizmat vazifasi nihoyatda mas'uliyatli va umrining ko'p qismi sayohatlarda kechsa-da, o'z hayotini kitobsiz tasavvur qilolmagan. Pliniy xizmatdan bo'sh paytlarida, yo'lda, sayohat chog'ida, hatto hammomda (qadimgi Rimda hammom yuvinish tozalanishidan tashqari, yaqin tanish-bilishlar uchrashib subhbatlashadigan, eng so'nggi yangiliklar yuzasidan har xil bahs-munozaralar o'tkaziladigan oromgoh vazifasini bajaragan) muttasil kitob mutolaasi bilan band bo'lgan. Pliniy shunchaki o'qimagan, balki o'qiganlarining mazmunini qisqacha bayon qilib, shartlar, qaydlar ham yozib borgan. Uning o'z ichiga tarix, astronomiya, fizika, geografiya, zoologiya, botanika, qishloq xo'jaligi, tabobat, mineralogiya kabi talay sohalariga oid ma'lumotlarni qamrab olgan gomusiy "Tabiiy tarix" kitobini yozish uchun 2000 dan ortiq asarni o'rganгани zamirida qanchalik fidoyilik yotganini sezish qiyin emas.

Buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham 976–991 yillar mobaynida arab tilida yaratgan gomusiy asari "Mafatix al-ulum" ("Fanlar kalit")da huquq, tibbiyot, falsafa, mantiq, poetika, arifmetika, xandasa, kimyo, astronomiya, grammatika, ish yuritish, tarix, musiqqa, mexanika kabi 15dan ortiq fan va shariat qonun-qoidalari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Bunga son-sanocsiz kitoblarni o'qimasdan erishib bo'lmasligi kunday ravshan-dir.

Shuni ham aytish kerakki, kitobxonlik iste'dodi tug'ma bo'lmay, insomning o'z ustida ishlashi orqali, tarbiya vositasida kamol topa boradi. Ko'pchilik o'quvchilarning kitob o'qishni yoqtirmasliklari sir emas. O'qituvchi topshirig'iga ko'ra majburiyat ostida o'qish esa yuzaki mutolaaga, badiiy matndagi tinish belgilariga amal qilmaslikka, urg'u tushgan so'zlarni boshqa so'zlardan farqlamaslikka, matndagi musiqiy ohangni sezmaslikka, ma'no tovlanishlarini tushunmaslikka, so'z sehrini anglamaslikka sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar o'qigan asarlarini juda ko'p deb qabul qiladilar, kosa tagidagi nimkosani fahmlamaydilar. Har xil teleko'rsatuvlardan bo'shamaydigan bunday bolalar kitob o'qishni yozuvchi bilan birga yangi badiiy olamni kashf etish, ijodkorlik emas, balki og'ir mehnat, zerikarli mashg'ulot tarzida qabul qiladilar. Bunday chog'da o'qilgan

asarlari yuzasidan umumlashma xulosalar chiqarish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Holbuki, asar g'oyasi anglanmas, ma'no tovlanishlari tushunilmas, so'z sehiri his qilinmas va muayyan xulosalar chiqarilmas ekan, bunday kitobxonlik harxo'rlikdan nariga o'lmaydi.

Kitobxonni, avvalo, asarda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Bunday qiziqish asta-sekin uning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatadi, ijobiy kuchlarning tantanasi uni sevintiradi, mag'lubiyati xafa qiladi. Kitobxonda asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslash mayli uyg'onadi. "Hoshimjonning sehrli qalpog'cha yordamida qilgan ishlari bizni qoyil qoldirdi, — deb yozadi Xudoyberdi To'xtaboyevga "Sariq devni minib" romanini o'qigan bir guruh o'quvchilar. — Ayniqsa, uning davlat mulkini talon-taroj qiluvchilarni fosh qilishi bizni ruhlantirib yubordi".

Bunday o'qish badiiy asardan faqat estetik lazzatlanish bilan cheklanmay, balki tushunib o'qishdir. Tushunib o'qish ayrim hollarda bir asarni qayta-qayta o'qishni taqozo qiladi. Chunki haqiqiy san'at namunasini har safar ko'zdan kechirganda, uning zamiridagi oldin payqalmagan bir fikrni uqish mumkin.

"Badiiy asar mazmunini, — deb yozadi faylasuf Asmus, — bir ko'zadan ikkinchisiga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga o'z-o'zidan quyila qolmaydi. U aqliy, ruhiy, ma'naviy faoliyat orqali asarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, kitobxonning o'zi tarafidan qayta yaratilib, qayta ishlab chiqiladi"³⁵.

"Qayta yaratib, qayta ishlab chiqish" o'ziga xos tayyorgarlikni taqozo etadi. Buning uchun, avvalo, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning kelib chiqish sabablari, natijasi, qahramonlar taqdiri yuzasidan mulohaza yuritish olish malakasini egallash zarur. Mustaqil mulohaza yuritish malakasiga asar g'oyaviy mazmunini esda saqlash, uni shunga o'xshash boshqa holatlarga taqqoslash orqali erishiladi.

Tadqiqotlar asar mazmunini faol o'zlashtirish yordamida esda saqlash mexanik tarzda esda saqlashga qaraganda 25 marta samarali bo'lishini ko'rsatadi. Ayrim asarlarni 2–3 bor qayta o'qimasdan

³⁵ Акмус В. Ф. Вопросы теории и истории эстетики. — М.: 1968. — С. 62.

mazmunini o'zlashtirish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo'lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug'ilgan g'oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashirsa, kitobxon unga teskari – adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasvirdan umumiy xulosalar chiqarish yo'lini tutadi.

Demak, kitobxon mutolaasi sust faoliyat bo'lmay, balki tezkor ijodiy faoliyatdir.

“Badiiy asarni anglash – deb yozgan edi Anatoliy Frans, – uni ichki dunyoda qayta yaratishdir”. Qayta yaratish esa jiddiy ijodiy mehnatni taqozo etadi.

Chinakam san'at asarlari qayta-qayta o'qishni taqozo etadi. Qayta o'qish shunchaki takror bo'lmay, bunda har safar mutolaa qilinayotgan asarning ilgari sezilmagan yangi qirralari namoyon bo'ladi. Qolaversa, muallif nuqtayi nazarini qayta o'qish jarayonida chuqur tushunish mumkin. Kitobxonning asar haqidagi nuqtayi nazari ham shu tariqa beaxto va aniq shakllanadi.

Rus tadqiqotchilari “qayta o'qish” tushunchasini “ontogenetik mutolaa” va “filogenetik mutolaa” tarzida talqin qiladilarki, biz ham shunga qo'shilmamiz.

Ontogenetik mutolaa u yoki bu asarning bir kishi tomonidan umrining turli davrlarida o'qilishini anglatadi. Necha-necha avlodlar Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Abdulla Qodiriy asarlarini shu yo'sinda o'qib keladilar. Chinakam san'at asarlarini majburiyat ostida emas, balki hayotiy tajribaning o'sishi, dunyog'arashining o'zgarishi va aqliy taraqqiyot tufayli yillar osha qayta-qayta o'qishga to'g'ri keladi.

Filogenetik mutolaa bir asarning har xil avlodlar tomonidan o'qilishini anglatadi. Masalan, A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani nasrdagi ilk tajribalardan bo'lishiga qaramay, asar e'ton qilingan 20-yillar kitobxonlari ham, yozuvchi kitoblari o'qish man qilingan mash'um 1937–1956-yillar o'quvchilari ham, adibning hozirgi davrdagi muxlislari ham birdek sevib o'qigan va o'qimoqdalar.

Ontogenetik mutolaa asarning yuksak badiiy saviyasi, inson umrining barcha yoshida ham ma'naviy oziq bera olishi bilan xarakterlanasa, filogenetik mutolaa shunday mutolaaga asos bo'lgan, kitobxonlarning ma'lum yosh doirasidagi ma'naviy-ruhiy qiziqishlariga mos kelishi bilan xarakterlanadi. Ko'rinadiki, kitobxonning hayotiy tajribasi ortib, dunyog'arashi, madaniy saviyasi shakllana borgan sari qiziqish doirasi ham o'zgara boradi. Inson ruhiyatidagi bunday murakkablik uning yosh xususiyatlariga ham bog'liq.

Alisher Navoiy inson umrini ruhiy, ma'naviy-jismoniy jihatdan to'rt faslga: bolalik, yoshlik, o'rta yoshlik, keksalikka ajratadi. Bunday bo'linish insonning kitobxonlik taqdirida ham o'z aksini topadi. Binobarin, bolalikda ko'proq sarguzasht xarakteridagi ertak, hikoya, masal, doston va gissalar zavqlantirsa, yoshlikda muhabbat haqidagi asarlardan ko'ngillarida kechayotgan ajabtovur hamohanglik va ko'tarinki kayfiyat yuzaga keladi. O'rta yoshlik va keksalilik davrlarida bolalik sho'xliklari, yoshlik g'aroyibotlari allaqachon orgada qolgan, har jabhada hayotga jiddiy munosabat shakllangani bois adabiyotga bo'lgan qiziqish ham yangicha mazmun kasb etadi. O'qiladigan asarlar mundarijasi butunlay o'zgaradi. Kitobxonlik madaniyati shu tariqa shakllanadi.

Kitobxonlikni har kim har xil tushunadi. Birovlar vaqt o'tkazish uchun o'qisa, boshqa birovlar bir xil janr yoki mavzudagi (masalan, sarguzasht yoki urush haqidagi) asarlarga qiziqadi. Yana bir toifa kitobxonlarning esa alohida mehr qo'ygan yozuvchilari (masalan, Ch.Aytmatov, E.Vohidov, A.Oripov, X.To'xtaboev) bo'ladi. Ba'zilar faqat she'riy asarlarni sevib o'qisalar, she'riyatga umuman ixlosi bo'lmaganlar ham ko'plab topiladi. Lekin har qanday holatda ham kitob mutolaasi shunchaki ermak bo'lmay, uning zamirida ruhiyati-mizdagi kentiklarni to'ldirishga chanoqlik va tanqili bolalar shoiri Q.Muhammadiy ta'bir bilan aytganda, “odam va olam sirlari” bilan yaqindan tanishish, ruhan “tozarish” (Aristotel) ishtiyogi yotadi...

Shunisi xarakterliki, bunday ishtiyog asar mutolaasini yozuvchi bilan kitobxonning o'ziga xos mulogoti darajasiga ko'taradi. Zero, san'at, shu jumladan, so'z san'ati kishilar o'rtasidagi muomalamunosabat vositasi hamdir. “O'tkan kunlar”ni o'qish chog'ida Otabek

– Kumush – Zaynab taqdiriga bogʻliq muhabbat mojarolari-yu, Yusufbek hoji – Azizbek oʻrtasidagi davrning oʻta keskin ijtimoiy muammolari usidami, oʻylaganda hamisha koʻz oʻngimizda buyuk adibning tiyrak nigohi va oʻta mulohazakor qiyofasi gavalanadi. Muallif timsolidagi suhbatdoshimizning teran aql-idroki, fahm-farosaiiga tahsinlar aytamiz, har bir imo-ishorasiga qulqul tutamiz, zarurat sezsak, bahslashamiz.

Yozuvchi – kitobxon mulogoti garchi erkin tarzda qurilsa-da, unda oʻquvchi manfaati ustun turadi. Chunki u kitob oʻqir ekan, albatta, bir maqsadni koʻzlaydi. Binobarin, A.Oripov sheʼrlarini oʻqigan kitobxonning shoir bilan yuzma-yuʼ mulogotdan hissiyoti boyishiga shubha yoʻq. U lirik qahramon – muallifning galb kechinmalarini oʻz kechimmalariga taqoslaydi va tegishli xulosalar chiqaradi. Afsuski, yozuvchi – kitobxon mulogoti hamisha ham bir xil kecha-vermaydi. Yuzaki suhbat, tabiiyki, koʻzlangan natijani bermaydi.

Yozuvchi – kitobxon mulogotining samarali kechishi shu tariqa faqat muallif-suhbatdoshgagina emas, kitobxon-suhbatdoshga ham birdek taalluqli. Oʻqiganlari yuzasidan mustaqil mulohaza yuritilgan olmaydigan kitobxonni kitobxonlik madaniyatini egallagan deb boʻlmaydi. Adabiy taʼlim faol kitobxonlikka tayyanadi.

Yozuvchi – kitobxon mulogotining oʻziga xosligi shundaki, bunda suhbatlashuvchi tomonlarning huquqlari bir xil emas. Kitobxon – ixtiyoriy, erkin suhbatdosh. U oʻziga suhbatdosh tanlash huquqiga ega. Ammo yozuvchi timsolidagi suhbatdosh bunday qilib olmaydi. Uning kitobxonni oʻqiyotgan asari oʻzini qanoatlantirmasa, mulogotni toʻxtatib qoʻya qoladi.

Kitobxonlik haqida gap ketganda, koʻpchilik, odarda, nemis mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltiradi: “Kitobxonlikka oʻrganish uchun qanchalik koʻp vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar. Buning uchun men hayotimning 80 yilini bagʻishladim. Lekin hali ham oʻrgandim, deb ayta olmayman”. Bundan: “Shunday bir ulugʻ zot 80 yil mobaynida kitob oʻqishni oʻrganmabdi-da”, degan joʻngina xulosa chiqarishga shoshilmalik kerak.

Tarixdan maʼlumki, inson taraqqiyot yoʻlida erishgan darajasidan hech qachon orqaga qaytgan emas. Qadim ajdodlarimiz hatto tasav-

vur qilolmagan gʻaraoyibotlar hozir koʻz oʻngimizda sodir boʻlyapti. Demak, imkoniyatlarning cheki, orzu-umidlarning adogʻi yoʻq.

Qolaversa, Gyotening fikrini keltirish bilan kitob mutolaasining: a) nihoyatda mashqatli (garchi mubolagʻa qilib ayrgan boʻlsa-da: butun umr davomida oʻrgana olmaganini eslang);

b) beqiyos sharafli (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyogarashi oʻsgan, maʼnaviy jihatdan yuksalgan va taqdir inoyati bilan oʻzi ham asarlar yozgan);

v) huzurbaxshligiga (aks holda mutasil shugʻullanmagan boʻlardi) diqqatni qaratmoqchimiz.

Kitobxonlik ijodiy ish va u doimiy shugʻullanishni, izchil mutolaa qilishni taqozo etadi. Izchil mutolaa qilish tanlab oʻqishga, oʻqiganlarining magʻzini chaqishga oʻrgatadi.

Asarda tasvirlangan voqealik bilan hayot voqeeligini farqlash jonli mulqot natijasidir. Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – oʻylashga majbur boʻladi. Shu jarayonda xayolida asar voqeeligini qayta jonlantiradi, qahramonlarning oʻrniga oʻzini qoʻyib koʻradi, muayyan xulosalar chiqaradi. Koʻrinadiki, kitobxon ham oʻziga xos ijod qiladi.

Asar voqealarini xayolda “qayta yaratish, yangi badiiy olam kashf etish”, avvalo, mulohaza yuritib oʻqishni, oʻqiganlarni esda saqlashni, demak, bosh qotirishni taqozo etadi. Chunki sanʼat asari shunchaki oʻqilmaydi. Shunchaki oʻqish sust mutolaa boʻlib, arpa ekan joydan bugʻdoy kutish bilan barobar. Boshqacha aytganda, qimmatli vaqtni yelga sovrirish bilan teng bunday mutolaa kitobxon uchun foydadan koʻra zarardir. Agar asar mutolaasini yozuvchi-kitobxon mulogotiga qiyoslasak, sust mutolaaning befoydaligi yanada aniq koʻrinadi.

Aslida kitobxon-yozuvchi mulogoti sanʼat darajasiga koʻtarilishi kerak va u koʻp jihatdan kitobxonlik madaniyatining nechogʻil egallanishi bilan belgilanadi. Kitobxonlik madaniyati asar mutolaasi bilan jiddiy va izchil shugʻullangan kishidagina shakllana boradi.

Muntazam oʻqish kitobxonning qiziqishi, oʻqishga munosabati, adabiyotlarni tanlay bilishi, ularni qabul qilish darajasi, badiiy-estetik didi, dunyogarashi kabi masalalarni oʻz ichiga oladi. Chinakam soʻz



san'ati namunasi kitobxondan fidoyilik talab etadi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, kitobxonlik san'at bo'lishi bilan birga, ijodiy mehnat hamdir.

Xulosa qilganda, jamiyat tarqiyotini unda yashaydigan avlodlar ma'naviy kamolotsiz, ma'naviy kamolot tarbiyasini esa kitobxonlik madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham kitobxonlik ta'lim-tarbiya tizimida, xususan, adabiy ta'lim jarayonida alohida o'rin tutadi. Shunga ko'ra, u adabiyot o'qitish metodikasining tub mohiyatini tashkil etadi.

Mustaqil mutolaaga o'rgatish usullari

Adabiy davralarda, inson ma'naviyati bilan bog'liq bahs-munozaralarda, asosan, o'rta va yuqori sinflardagi ta'lim-tarbiya yuzasidan qizg'in fikr-mulohazalar bildiriladi-yu, boshlang'ich sinflar chetlab o'tiladi. Holbuki, ta'lim-tarbiya jahasidagi yutuq-kamchiliklar zaminini boshlang'ich sinflardan izlash kerak. Chunki bolalarning nafaqat ma'naviy-axloqiy dunyog'arashi, balki ta'lim olishga doir ko'nikma va malakalari ham ilk maktab yoshidan shakllanadi. Bu borada, ayniqsa, o'qish va ona tili ta'limi zimmasiga alohida mas'uliyat tushishi psixologlar tomonidan allaqachon isbotlangan.

Shu o'rinda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv fanining ona tili ta'limi doirasiga kiritilishi, oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarida shu tarzda o'rganilishi munozarali ekanini ta'kidlash joiz. Bolalar adabiyotini hozirgi holatida boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot namunasi sifatida o'rgatishga qaraganda, bog'lanishli nutqni o'stirish vositasi sifatida o'rganishga ko'proq e'tibor berilgan. Unda badiiy asardagi nafosatni idrok qilishga yo'llash orqali ezigulikka muhabbat uyg'otish o'rni, asarlarga ko'proq mavzuiga ko'ra yondoshish ustuvorlik qiladi. Boshqacha aytganda, boshlang'ich sinflarning o'quv fani dasturi va darsliklarida adabiyotshunoslik nuqtai nazari til ilmi bilan ancha zaf. Mazkur sinflar o'quv dasturida ona tili va o'qish ta'limining o'quvchilarda bog'lanishli nutq turlarini o'stirish bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy takomiliga oid quyidagi masalalarni hal etishi qat'iy belgilab berilgan:

Bolalar adabiyotidan saboqlar

- bolalarda g'oyaviy, axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- bolalarning atrof-muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarini boyitish;
- o'quvchilarda nafosat hissini tarbiyalash;
- bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish darslarida vaqtdan umumli foydalana olish ko'nikmasini, mustaqil ish usullarini egallash;
- o'quv mashg'ulotlariga, bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqishni o'stirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan sinfdan va maktabdan tashqari o'qishni ko'g'ri uyushtirishga ham bog'liq. Shu boisdan sinfdan tashqari o'qishga boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi o'quvchilarni bilimlarni va milliy-madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni tarbiyalash va rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyotining xilma-xil namunalari misolida so'z san'atining chinakam boyliklari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish; o'quvchilarda bilim manbai va estetik zavq-shavq vositasi bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish, mustaqil o'qishga ijodiy munosabat shakllantirishdir.

Psixologiya va didaktika bilan shug'ullanuvchi olimlar hamda tanqili metodistlarning asarlarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati bilan badiiy-estetik tafakkuri o'rtasida yaqinlikning mavjudligi to'g'risida e'tibori kuzatishlar bayon qilingan. Darhaqiqat, san'at asarini tanqidiy baholay oladigan, shaxsiy nuqtai nazarini yozma va og'zaki tarzda ifodalay biladigan o'quvchilargina ma'naviy-axloqiy kamolot sari dadil intiladilar. Bunday ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mustaqil mutola ayri-ayri ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni mustaqil mutolaaga o'rgatishning asosiy omili bo'lgan sinfdan tashqari o'qish mustaqil ishlarning o'ziga xos turi sanaladi. U o'qituvchi tomonidan dastur talablari bo'yicha uyushtiriladi va nazorat qilinadi. Boshlang'ich sinflarda tayanch maktabi va

yuqori sinflardan farqli o'laroq, sinfdan tashqari o'qish uchun asarlar ro'yxati berilmaydi. Bu ish o'quvchining zimmasiga yuklatiladi.

“Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasi”³⁶da, – o'quvchilar qiziqishiga suyanilgan holatda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayoni to'ldiradi va kengaytiradi. U o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari uslubini o'zlashtirishlariga, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarining o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini muvofiq uslublar vositasida jamoat foydasi uchun ommaviy, guruh, alohida ish shakllari va uslublarini tashkil etadi. To'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O'qituvchi o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qish jarayonida mustaqil mutolaa qilishlari uchun kitob tanlashda asarlarning badiiy-estetik jihatdan yuksak talablarga javob berishini alohida inobatga oladi.

Kitob tavsiya etishda, bundan tashqari, sinf jamoasining bilim darajasi va dastur talablaridan kelib chiqib:

a) tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Shunga binoan tanlangan asarlar orqali o'quvchilarni xalqimiz tarixida chuqur iz qoldirgan avlod-ajdodlarimiz, ona tabiat va undagi hayvonot olami, turli joni-vorlarning yashash tarzi, o'simliklar dunyosi, tengdoshlari hayoti, kishilar o'rtasidagi oilaviy, axloqiy munosabatlar bilan tanishtirish mo'ljallanadi. Yangi dastur asosida yaratilgan darsliklardagi o'zbek adabiyotidan Alisher Navoiy, Hamza, Abdulla Avloniy, Zafar Diyov, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Hamza Imonberdiyev, D.Rajab, Kavсар Turdieva, U.Hamdam; jahon adiblaridan H.K.Andersen, A.Pushkin, S.Marshak, Ch.Aytmatovlar ijodi gatori Erix Raspe, Tavfik Fitrat, Ilvira Daukaeva, Janni Rodari, Karlo Kollodi, Astrid Lingren, F.Erdinch va boshqa adiblarning asarlari shu vazifaga xizmat qiladi.

b) asarlar janrining xilma-xilligi (tez ayitish, topishmoq, she'r, maqol, ertak, masal, hikoya va h.k.), mavzuining rang-barangligi (mardlik, vatansparvarlik, halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, ilm-hunarga muhabbat, kattalarga hurmat va h.k.) hisobga olinadi.

v) bolalarning yosh xususiyatlari (ayrim hollarda jinsi ham), shaxsiy qiziqishlari nazarda tutiladi. O'qituvchi kitob tavsiya qilishda qiz bolalarning ko'proq she'r yodlash, go'shiq aytishga moyilligini, o'g'il bolalarning sarguzasht va fantastik asarlarga rag'batini to'g'ri tushunishi, shunga yarasha muomalada bo'lishi zarur.

Ko'rinadiki, sinfdan tashqari o'qishni rejalashtirishda dastur talablariga tayaniladi, lekin shuning bilan chegaralanib qolmaydi. Chunki hayot rang-barang, o'quvchilarning qiziqishlari esa cheksiz chegarasizdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi kitobxon sifatida badiiy asar mazmunini o'zining tasavvur-tushunchalari asosida idrok qiladi. Demak, ularda kitobga muhabbat uyg'otishda hayot va tabiat haqidagi tasavvur-tushunchalarini boyitish boshlang'ich ta'lim oldidagi eng muhim vazifalardan bo'lib, u badiiy asarni o'qishga tayyorgarlik davrida ham, asar yuzasidan o'kaziladigan suhbatlarda, ijodiy yozma ishlarni uyushtirishda ham o'qituvchining diqqat markazida turadi. Chunki “bolaning tevarak olamini va o'z-o'zini bila borishi bir yoq-lama bo'lmashligi kerak. Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini oz-ozdan bila borishlari kerak... Tevarak olamda nimaiki yuz berayotgan bo'lsa, hammasini, odamlar o'tmish-da ganday va hozir nimalar qilib yashayotgan bo'lsa, hammasini bila yaxshilik va yomonlikni to'g'ri ko'rish imkonini berish kerak... Yaxshilik unda quvonchli hayajon, zavq-shavq, ma'naviy go'zallikka erishish ishtiyogini hosil qiladi, yomonlik qahr-g'azab, mug'ozasizlik uyg'otadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma'naviy kuchga to'ldiradi. Bola qalbi haqiqatlar saqlab qo'yiladigan muzxona bo'lmashligi kerak”³⁶.

³⁶ Сухомилинский В. А. Болаларга жонини фидо. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 201-202-б.

Sinfidan tashqari o'qish shaklan ham, mazmunan ham mustaqil ishlarning o'ziga xos turi ekan, uni odatdagi dars mashg'ulotlariga aylantirib yuborish o'quvchining erkiga rahna solgani kabi, ma'lum reja bo'yicha qat'iy tizim asosida izchil o'tkazmaslik ham kutilgan samarani bermaydi.

Milliy ma'rifiy ta'lim tarixidan ma'lumki, har qanday o'quv jarayoni quyidagi muayyan tizimga amal qiladi:

1. O'quv topshirig'i.
2. O'quv-izlanuv faoliyati.
3. Nazorat bosiqichi.
4. Baholash.

Ta'lim jarayonida ulardan birortasiga yetarli e'tibor berilmasa yoki amal qilmasa, o'rgatlayotgan bilimlarning o'zlashtirilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bu holat to'lalagicha sinfdan tashqari o'qishga ham taalluqlidir.

Asarlarni sinfda o'qib-o'rganish jarayonida o'quvchilarning badiiy ma'n mazmun-mohiyatini tushunish, his etish, idrok qilish va anglashga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash ko'zda tutiladi. Adabiy ta'limning o'ziga xos shakli bo'lgan sinfdan tashqari o'qish ham shubhasiz shu vazifaga bo'ysunadi. Tafovut shundaki, u ko'proq o'quvchining mustaqilligiga, shaxsiy qiziqishiga suyanadi.

“Sinfidan tashqari o'qish, — deb yozadi professor K. Qosimova, — sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan malakalarni shakllantiradi, adabiy-nazariy tushunchalarni boyitadi, asar mazmun-mohiyatini tushunishga o'rgatadi, til boyligini oshiradi. Sinfidan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.”³⁷

Olina boshlang'ich sinfda sinfdan tashqari o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini sinfdan tashqari o'qish tizimi bosqichlari (tayyorlov,

boshlang'ich, asosiy), o'quv vazifalari, tarbiyaviy vazifalar, o'quvchilarning qiziqishlariga bog'lab ko'rsatadiki, aslida yuqori sinflarda ham shu mezonga qat'iy amal qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'qishni hali endi-endi o'rganayotgan bolalar bilan ishlashi tufayli kitob bilan tanishish, to'g'ri, tushunib va ravon o'qish metodlaridan keng foydalansa, o'rta va yuqori sinflarda buning uchun alohida vaqt talab qilinmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar darsda va darsdan tashqari mustaqil kitob mutolaasi orqali o'qish texnikasini o'zlashtiradilar, ayni chog'da ularning nutq boyligi ham o'sadi. Lekin sinfdan tashqari o'qish oldiga qo'yiladigan o'quv-metodik talab faqat shuning bilangina chegaralanmaydi. Balki har xil janrdagi bolalar kitoblari bilan izchil tanishtira borish vositasida o'zlarini o'qishi lozim bo'lgan asarlarni mustaqil tanlash malakasini shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Chunki har qanday kitob o'z qiziqishi, bilimi va tushunchalariga mos asar tanlay bilgan o'quvchigagina bag'rini ochadi. Zero, adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan vazifa ham o'quvchilarni faol kitobxonlikka o'rgatish orqali ma'naviy-axloqiy barkamol kishilar qilib tarbiyalashdir.

Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish usullari haqida ijmoiy-ma'naviy tarbiyaning ilk bosqichi — maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limi tizimidan boshlab ko'p gapiriladi, ammo amal qilinmaydi. Kitobxonlik madaniyati tarbiyasi umumpedagogik tarbiyaning asosiy bo'g'ini ekani yetarli darajada inobatga olinmaydi.

Barcha o'quvchilarni bir xil kitob o'qishga majburlash va mazmunini gapirib berishni talab qilish bilan kitobxonlik madaniyatini shakllantirib bo'lmaydi. Kitob o'qishga nisbatan bunday yondashish o'quvchilarni badiiy adabiyotdan fagat bezdirishi mumkin.

O'quvchilarning o'quv fanlari yuzasidan sinflar bo'yicha yil davomida o'zlashtiradigan bilimlari darajasi, ko'nikma va malakalari maxsus davlat hujjati — o'quv dasturlarida aniq-ravshan belgilab berilgan, qo'llanmalarda nazariy va metodik jihatdan asoslangan. Lekin davlat ta'lim standart talablariga javob berish hech qachon silliq kechmaydi. Bunga erishish uchun ta'lim-tarbiyaning turli shakli

³⁷ Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: Noshir. — 168-b.

va metodlaridan umumni foydalanish taqozo etiladi. Sinfdan tashqari o'qish bu borada katta qulayliklarga ega. O'quvchilarga adabiy ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab, aql chirog'i va bilim manbai bo'lgan kitobga muhabbat uyg'otish, unga gigienik jihatdan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, kitob tanlash malakasini shakllantirish adabiy ta'lim oldiga quyidagi ishlarni hal qilish vazifasini qo'yadi:

1. Har bir sinfda o'quvchilar jamoasining darajasini aniqlash. O'quvchilarga kitob tavsiya qilishda ularning isak-xohishlarini, albatta, inobatga olinmoq lozim.
2. O'quvchilarning kitobxonlik faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan qoida va usullar majmuini ishlab chiqish. Bunday qoida va usullar (masalan, kitobni qay tartibda o'qish, o'qiganda nimalarga e'tibor berish va h.k.) o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, mustaqil mutolaa faoliyatini tartibga solishga yordam beradi.
3. Kutubxonalar jamoalari bilan hamkorlik qilish, kutubxonaxodimlarining kitobxonlar bilan ishlashga doir rejalarini hisobga olish. Juda bo'lmaganda, mahalliy shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil qilish. Imkon bo'lmagan hollarda, o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan taniqli ijodkorlarga maktablarni uyushtirish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kitobxonlik madaniyatiga erishish yuzasidan oddiy tushunchalar beriladi. Jumladan, 1–2-sinflarda o'qituvchi rahbarligida sinfdan tashqari o'qilgan kitoblarning nomi, muallifi va mavzu doirasini bilish talab etiladi. Bu yoshdagi o'quvchilar kitobning bitta yoki bir nechta asardan tashkil topishi, badiiy asarlarning mavzu va janr xususiyatlari, yozuvchilarning tasvir uslubiga ko'ra tur va xillariga bo'linishi, o'xshash mavzudagi, shuningdek, bir yozuvchi qalamiga mansub asarlarning o'zaro bir-biridan farqlanishi kabi umumnazariy masalalar to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi.

3–4-sinflarda o'quvchilarning kitob – muallif, kitob – mavzu, kitob – janr haqidagi tushunchalari, to'plamlarning bir muallif qalamiga mansubligi yoki turli mualliflarning bir mavzudagi asarlaridan

tarkib topishi yuzasidan olgan bilimlarini Anvar Obidjonning “Uyquda nimalar bo'lmaydi” turkum hikoyalari”, Tursunboy Adashboyev tomonidan to'plab nashrga tayyorlangan “Sichqonning orzusi”, Qambar O'raevning “Toshplovon va ishpolvon haqida etrak”, “Tomda uxlagan bola” kabi talay kitoblari misolida chuqurlashtirish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarning tayyorlov bosqichida (1–2-sinflar) kitob bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyati bo'yicha ilk tushunchalar berilib, asosiy bosqichda (3-sinf) o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, ammo uning yordamisiz, o'z tajribalari asosida zarur kitoblarni mustaqil tanlashga o'rgatilsa, yakuniy bosqichda (4-sinf) kitobxonlikka doir mustaqil faoliyat malakalari shakllantirila boriladi. Shunga erishish kerakki, boshlang'ich sinflarni tugagan o'quvchi kamida 10–15 yozuvchining nomini bilsin, ularning asarlaridan namunalari o'qishga ulgurin, eng muhimi, kitobning nomi, muallifi, titil varag'i, annotatsiyasiga qarab mavzui va janrini chamlalay olsin.

Malakali kitobxon xoh o'z xohishi, xoh o'qituvchi topshirig'i bo'yicha bo'lsin, o'ziga zarur mavzu va janrdagi asarlarni boshqa mavzu va janrdagi asarlardan farqlashda ko'p qiynalmaydi. Ko'p hollarda nafaqat boshlang'ich yoki quyi sinf, balki yuqori sinf o'quvchilari ham “Qaysi yozuvchilarning asarlarini sevib o'qiydiz?” – degan savolga javob berishda qiynaladilar. Ba'zi o'quvchilar, nari borsa, ijodi dastur asosida o'rganilgan yoki el aro mashhur Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlarning nomlarini tilga olish bilan cheklanadilar.

Kuzatishlardan shu narsa ma'lumki, ayrim o'quvchilar duch kelgan kitobni o'qisa, ba'zilar ijodi darsda o'rganilgan yozuvchilarningina kitoblarini “tan” olar ekan. Buning sababi kitobxonlik madaniyatining shakllantirilmaganligi, birinchi navbatda, sinfdan tashqari o'qishning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir.

Har bir o'quvchining o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchilar tomonidan namoyish qilinib, mazmuni gapirib berilgan qiziqarli kitobni o'zi ham o'qigisi kelishi tabiiy. Natija esa ayon – shu xildagi kitob burchagi bo'lmagan sinf o'quvchilaridan ular kitob tanlash malakalari bilan

gina emas, mustaqil fikrlash ko'nikmalari, bog'lanishli nutqlarining to'g'ri va ravonligi bilan ham ajralib turadilar.

Sinfidan tashqari o'qishga rahbarlik qilish o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va intilishlarini dastur talablari bo'yicha beriladigan bilimlar doirasidagi adabiyotlar mutolaasiga yo'naltirish, kitob tanlash malakasini shakllantirishdan iborat ekan, u o'z ichiga o'quvchilar ongiga kitob o'qishdan kuzatiladigan maqsadning nimaligini yetkazish, ularni o'quv yilining ma'lum davrida (hafta, oy, chorak) mutolaa qilinadigan asarlar ro'yxati bilan tanishtirish kabi masalalarni ham gamrab oladi. Masalan, 4-sinfda sinfdan tashqari o'qishning asosiy bosqichi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining bir yillik taxminiy rejalashtirilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

No	Mavzu	Tavsiya etiladigan asarlar	Ajr. soat	Vaqti
1	Vatanimni sevaman	A. Avloniy "Vatan", X. To'xtaboev "Omonboy va Davronboyning sarguzashtlari", SH. Xolmirzaev "Oqtosh" hikoyasi, O. Yoqubov "Sho'rtan gazchisi", A. Obidjon "Vatan", Q. Ota "Vatan timsofi", "O'zbekiston", A. Akbar "O'zbek elim", K. Turdieva "Vatan iqbol kutari", R. Nazar "Vatan tuyg'usi", O. To'xtash "Ona-Vatan".	1	Sentyabr
2	T. Adashboyev – bolalar shoiri	"Biz sayohatchilar", "Arslonbop sharsharasi", "Sumay", "Nur daryo", "Guldasta", "Olatog' – lolatog'", "Oqbura to'lqinlari", "Sovg'a", "Tuprog'", "Jasorat"	1	Sentyabr
3	Ustozlarni e'zozlaymiz	K. Turdieva "Ustozlar", "Bo'ling harfga hurmatda", A. Obidjon "Kitobni ko'p o'qiydigan ukam", S. Jo'ra "Tinish belgilarining majlisi", A. Muxtor "Hafta",	1	Oktyabr

		D. Matjon "Suflyor", T. Adashboyev "Ustozlarga bag'ishlov", "O'qituvchim".		
4	Ona tilim – jonu dilim	X. Safarov "Savollarga javoblar", M. A'zam "Ona tilim", "Til darsi", T. Adashboyev "Ona tilim" va til haqidagi hikmatlar, maqollar.	1	Oktyabr
5	Tabiatni asrang	T. Adashboyev "To'rt amal", T. Yo'ldosh "Uzumlar oilasi", "Erning tili", Y. Sulaymon "Kuz", E. Vohidov "SHAfqli", "Terak", "Archa", "Majnunot", "Nashvati", S. Jabbor "Ko'chatim", M. Murodov "Dala xunuk bo'lib qoladi", A. Akbar "So'rov", R. Nazar "Yordam qushi", R. To'lib "Tabib ko'klam", "Orolim", Q. Hikmat "Uch o'rtoqning sovg'asi"	1	Noyabr
6	Ertaklar olamiga sayohat	Yo. SHukurov "Ona mehri", T. G'oyipov "G'ani degan bolaning parvozi", "Yana uchar ot haqida", "O'qilon va ot", "Oltin shoxli kiyik", P. Mo'min "Tish cho'tka, poroshok va atir sovun ertagi", J. Rahim "Bir butun oy va o'n ikki yulduz", Z. Diyov "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa", T. Adashboyev "Adolati gozi", S. Marshak "Tentak ovchi", S. T. Aksakov "Sirli qizil gul".	1	Noyabr
7	Qomusimiz	Qambar Ota "Baxt qomusi".	1	Dekabr
8	Qushlar – bizning do'stimiz	S. Ochil "Qushlar qo'shig'i", M. A'zam "Kaklik", "Musichaning arazi", "Ikki qorashagshaq va bitta	1	Dekabr

		qora mushuk”, “Mening vafoli qarqunog‘im”.		
9	Vatan posbonlari	Ernazar Ro‘zimatov “Vatan madadkor bo‘lg‘ay”, T.Adashboyev “So‘nggi jang”, Yo‘lchi yulduz”, A.Obidjon “Yaroq”.	1	Yanvar
10	A.Obidjon – bolalarning sevimli shoiri	“Ona yer”, “Bahromning hikoyalari”, “Ey, yorug‘ dunyo”, “Olovjon va uning do‘stlari”, “Ketmagil”, “Bezgakshamol”, “Masxaraboz bola”, “Juda qiziq voqea”, “Qltin yurakli Avtobola”, “Dahshatli Meshpolvon”, “Ertliklar”, “Ajoyibxonona”, “Meshpolvonning janglari”, “Alisher ilti Husayn yoki uch dono va o‘g‘iri”, “Oltiriq hangomalari”, “Bulbulning cho‘pchaklari”, “Bezgakshamol – 2”	1	Fevral
11	Navoiy – buyuk daho	Oybek “Bola Alisher”.	1	Fevral
12	O‘tmishni o‘rganish – burchimiz	G‘.G‘ulom “Shum bola”, Shoyim Bo‘taev “Usta va charxpalak”, Sobit G‘ofurov “A‘zam tut”, Safar Barnoyev “Minorat”, E.Malikov “Xoitira”, M.A‘zam “Temur va mulla Alibek”, “Ikki Temur”, “Buxoriy darsi”, “Ulug‘bek va O‘g‘li Abdurahmon”, “Qodiriya gasabasi va Abdulqodirning to‘g‘ri so‘zligi”, T.Adashboyev “Yassaviy zurriyodalari”.	1	Mart
13	Mening mehribon onajonim	K.Turdieva “Qush bo‘lib uchgan ona”, Yo.Shukurov “Ona mehri”.	1	Mart
14	Navro‘zi olam –	Nurilla Ostonov “Bahor”, “Hamal”, T.Adashboyev “Navro‘zi”,	1	Mart

	yashardi olam	“Boychechak”, Erpo‘lat Baxt “Moychechakning galpog‘i”, Orif To‘xtash “Kuz faslida”, H.Imonberdiyev “Turnalar”, Rustam Nazar “Gullagan olcha”, Q.Muhammadiy “Bahor keldi”, “Gullar” turkum she‘rlari, Z.Diyor “Binafsha”, A.Abdurazzoz “Dunyo”.		
15	Bor bo‘lsin tinchlik	S.Barnoev “Tinchlik qo‘shig‘i”, Q.Rahmat “Dil so‘zlari”, H.Olimjon “Vatan”, I.Muslim “Do‘stlik”, O.Rasul “Tinchlik yashar”.	1	April
16	Abdurahmon Akbar ijodini o‘rganamiz	“SHoir dadam haqida she‘riy hikoyalar”, “Kichikintoy va paxtaoy”, “So‘zlovchi yomg‘ir”, “Yozning tug‘ilgan kuni”, “Kuylayotgan bog‘”, “O‘yingaroq bulutchi”, “O‘rdakcha”, “Jonli savatcha” to‘plamlari.	1	April
17	Tengdoshlar hayotidan	I.Mahmudov “O‘rik”, E.Rahimov “Portlash”, Ya.Sa‘dullaeva “Ko‘cha to‘la bolalar”, S.G‘ofurov “Teshik kulcha”, Yo.Rahmonova “Qasos”, A.Akbar “Mish-mishvoy”	1	May

Rejada bolalarni asarlari dars jarayonida o‘rganiladigan Q.Muhammadiy, P.Mo‘min, Q.Hikmat, T.Adashboyev, A.Obidjon, A.Akbar, H.Imonberdiyev, K.Turdieva, M.A‘zam kabi bolalar adabiyotining tanikli vakillari asarlari bilan tanishtirish ko‘zda tutilganki, bu jihat o‘quvchilarning ma‘naviy axloqiy tarbiyasigagina ta‘sir ko‘rsatib qolmasdan, ularda umumadabiyot haqida muayyan tasavvur-tushuncha tug‘dirishga ham xizmat qiladi.

O‘quvchilar badiiy asarlarni mutolaa qilganda o‘qituvchi yoki o‘rtoqlari oldida nechta kitob o‘qigani, ularda qanday voqealar hikoya qilingani yuzasidan hisobot berish uchun emas, balki mutolaa tufayli o‘zlarida tug‘ilgan taassurotlar xususida erkin fikr yuritma ola-

digun bo'lishga, boshqacha aytganda, tushunib o'qishga erishishlari, ya'ni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarilishlari zarur. Tajribalar bunda ta'lim-tarbiyaning ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga tamoyiliga amal qilish yaxshi samaralar berishini ko'rsadi.

Maktabgacha tarbiya hamda maktab yoshidagi kichik bolalar o'zlarini qurshagan turfa olam voga-hodisalarini umumlashtirish, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'lmaydilar. Bu yoshdagi bolalarning insoniy munosabatlari, hayot va tabiat hodisalari to'g'risidagi tasavvurlari jo'n va sodaligi bilan ajralib turadi. Shu bois ular asar qahramonlarining ma'naviy-axloqiy xislatlari orqali ifodalangan asosiy g'oyani ko'p hollarda to'la ilg'ab ololmaydilar. Aksincha, adabiy qahramonlarning xati-harakatlariga e'tibor berib, shu asosda "yaxshi" yoki "yomon" degan xulosa keladilar. Bunday yakun badiiy didning o'sa borishi bilan asta-sekin "yoqadi", "yoqmaydi" kabi estetik munosabat bildirishga olib keladi.

Kichiktoylar o'zlarini qurshab turgan moddiy olam bilan ilk yoshlaridayoq o'ta-onalari va tabiiyatchilaridan eshitgan ertak, hikoyalari orqali tanisha boradilar. Chumchuqning chaqimchiligi-yu, bo'rining vahshiyiligi, itning sodiqiligi-yu, chumolining zahmatkashligi, quyovning qo'rqqiligi-yu, eshakning betafmliigi haqida dastlabki tushunchaga ega bo'ladilar. Bu tushunchalar chuqurlasha borgan sari ularda olijanoblik his-tuyg'ulari kurtak o'ta boshlaydi.

Umuman, kichik yoshdagi o'quvchilarni hayotda uchraydigan hamma narsa qiziqtiradi. Ular, masalan, bahorda nima uchun momaqaldiroq guldurashini, dunyoda eng kuchli nima ekanini, samolyotning osmonda qanday qilib uchishini, jamiyat va tabiatdagi jamiyki o'zgarishlarni bilishni istaydilar, ularga javob topishga harakat qiladilar.

Tabiat haqidagi asarlar bu yoshdagi bolalar uchun ikki tomondan ahamiyatlidir. Birinchidan, o'zlariga notanish bo'lgan tabiat hodisalari, turli jonivorlar, o'simliklar, qushlar, hasharotlar to'g'risida ma'lumot oladilar, ikkinchidan tabiatga ijobiy munosabatlarda bo'lishga o'rnatadilar. Amin Umariyning "Uzum", Zafar Diyorning "Yanvarda", Anvar Obidjonning "Juda qiziq voga", Tursunboy Adashboevning

"Arqida", Quddus Muhammadiyning "Tabiat alifbesi", Qudrat Hkmatning "Suv bilan suhbat" nomi she'rlari, Nosir Fozilovning "Jo'xori tuzoq", "Kichkina demang bizni...", Sunnatilla Anorboevning "To'rk'o'zning boshidan kechirganlari" nomi to'plamlariga kirgan qissa va hikoyalari shu jihatdan ibratlidir.

Hayot va tabiat aslida go'zal. Lekin inson uni o'z mehnati bilan yannada chiroyli va ko'rkam qiladi. Tabiat va jamiyat mavzuidagi asarlar bolalarning hayot qonuniyatini mohiyatini bilib olishlariga ko'maklashadi, mehnatga muhabbat tuyg'usini o'stiradi, Vatan taqdiri to'g'risida o'ylashga undaydi. Bunga erishish uchun o'qituvchi sinfdan tashqari o'qish jarayonida o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirishda majburiy-rasmiy siyosat yurimasdan, erkin mulohazot, tushuntirish, izohlash yo'lini tutishi kerak.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalar, kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

a) o'zlarini uchun zarur bo'lgan adabiyot turlari (badiiy, ilmiy-ommaboop, tarixiy asarlar), mutolaa mavzulari (Vatan va uning shonli farzandlari, istiqloq fidoyilari, tengdoshlari hayoti, xalqlar do'stligi, hayvonot olami, fan-texnika taraqqiyoti, sarguzasht va fantastika)ni kitoblarning tashqi belgilari: nomi, muqova bezagi, muallif, kitobni boshlab chiqargan nashriyot belgisi, mundarija, so'z boshi, so'nggi so'z va izohlarga qarab aniqlash;

b) kitob o'qish va uni ozoda saqlash haqida muayyan tushunchaga ega bo'ladilar. Natijada kitobxonlik madaniyati yuzasidan tuban- Quyilcha ko'nikma va malakani egallaydilar:

- o'qituvchi topshirig'i bo'yicha mustaqil kitob tanlash;
- kitobni ma'lum bir maqsad bilan o'qish
- o'qigan kitobi mazmunini o'zlashtirish, undan tegishli xulosa chiqarish;

- kichik hajimli asarlarni erkin qayta hikoya qilish;

- o'qigan asarlari yuzasidan insho, taqriz, bayon kabi yozma ish yozish.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiyaning barcha jabhasida bo'lgani kabi sinfdan tashqari o'qish bobida ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Chunki boshlang'ich sinflarda

o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar keyinchalik o'quvchilarni mustaqil hayotda ulkan ishlarga yo'llashi mumkin. Jahonga mashhur allomalarning 5–10 yoshlaridayoq o'z iste'dodlarini namoyon qilganliklari nazarda tutilsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lishini anglash qiyin emas.

Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari

Buyuk yunon mutafakkiri Aristotel "Metafizika" asarini "Barcha insonlar tabiatan bilimga intiladilar" so'zlari bilan boshlaydi. "Kitob o'qimaslik va fikr yuritmaslik halokatga olib boradi". "Eng aqlli va eng ahmoq odamlargina fikrini o'zgartimaydi", deb yozadi Konfutsiy. "O'zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman" deb ta'kidlaydi Maksim Gorkiy.

Mazkur ko'chirmalar tafakkur qudrati inson ma'naviy kamolotida nechog'li muhim o'rin tutishini ko'rsatib turibdi. Uzlüksiz ta'lim tizimida diqqat markazida tutiladigan intellektual salohiyat o'ladan boshlanadigan badiiy-estetik tafakkur tarbiyasidan oziqlanishi adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning g'oyatda keng qamrovligidan dalolat beradi.

Inson erkinligi va mustaqilligini bosh masala deb hisoblovchi ekzistentsializm oqimining asoschisi, nemis faylasufi Martin Xaydegerning fikricha, tushunishni talab qiladigan narsa fikrlashga, tafakkur yuritishga undaydi. Tafakkur zamirida esa tasavvur turadi. Tasavvur fikr organi o'z ifodasini topadi.

Shunday ekan, ilm-fan, texnika yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan hozirgi davrda globallashtirish sharoitida so'z san'atining tub mohiyatini anglashga da'vat qilingan, inson tafakkuri va tasavvurini ma'naviy-ruhiy oziqlantiruvchi adabiy ta'limga munosabat soha mutaxassislari ham, til va adabiyot o'qituvchilari ham qiziqtirishi tabiiydir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "jimonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai

nuqtarga ega yoshlarni tarbiyalash... yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash" vazifasining qo'yilishi, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvda "madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldinmizda muhim vazifalar"³⁸ turganligiga e'tibor qarotishi ta'lim tizimini texnologiyalashtirish bilan bog'liq muammoning davlat siyosati darajasiga daxldorligiga dalolatdir.

Ilm-fan va ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim tizimidagi allaqachon o'z davrini o'tab bo'lgan an'anaviy usullarda mazkur vazifalar ijrosini amalga oshirib bo'lmashligi barchaga ayon bo'yib qoldi. Uzlüksiz ta'limning boshqa sohalarida bo'lgani kabi adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashitmasdan turib biron bir samaraga erishib bo'lmashligi hayotning o'zida isbotini topib turibdi. Ilmiy-qonuniy adabiyotlarda "texnologiya" tushunchasiga ma'lum maqsadga erishishga doir usullar majmuasi, faoliyatda qo'llanadigan usullar, faoliyatni tashkil etish qoidasi kabi turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, "Entsiklopedik lug'at"da "Xalq xo'jaligining turli sohalarida xom ashyo, material, yarim fabrikat yoki mahsulotlarni tayyorlash hamda ularni qayta ishlash usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan fan" deb ta'rif berilgan.

Muammoning tarixiga nazar tashlansa, uning yuzaga kelishiga ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan ularning yaratilishiga sifat jihatdan yangicha yondashuvlar sabab bo'lganligi doir xulosaga kelish mumkin. Bu borada o'lgan asrning 70-yillarida paxta chig'ini ekishga doir "Andijon texnologiyasi" atamasining keng miqyosda qo'llanganini eslash kifoya. Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan bundan oldin ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatida katta farq bo'lgan hech kimga sir emas.

³⁸ Ш.М. Мирзиёев. «Дабрият ва санъат, маданиятни ривожлантириш – Халқимиз инновацион олимияни локалтиришнинг муқтажкам пойдеворидир». У3 АС, 2017 йили 4 январь.

Jiymoiy taraqqiyotni ilm-fan rivojisiz, oliy ma'lumotli mutaxassislar faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, talabalarning tezkor zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish malakalari, individual va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimi oldidagi g'oyat dolzarb masalalardandir. Negaki ishlab chiqarish sharoitining o'zgarishi bilan an'anaviy ta'lim asosida tayyorlangan mutaxassislar sifati, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasi ularga qo'yiladigan talablarga javob berolmasligi tabiiy holdir. Binobarin, ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi jadallashuvi sharoitida uning tobora yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash o'qitishni jadal-lashtirish, ko'rgazmali o'qitish metodlaridan o'rinni va unumli foydalanishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda o'qitishni jadallashtirish yuzasidan ta'lim fanlari integratsiyasiga doir talay ishlar amalga oshirilayotganligi ma'lum. Birgina gumanitar fanlar ta'limida ona tili, bolalar adabiyoti va folklorning bitta o'quv kursi tarzida umumlashtirishi o'zini qay darajada oqlaydi? Gap shundaki, ularni bitta o'qituvchining o'qitishi nazarda tutilsa, muammoning qay darajada ziddiyatli ekanini anglash qiyin kechmaydi.

Aslida bunday o'quv fanlari aro integratsiyaga ilgari ham harakat qilingan. Jumladan, 1919-yilda 7 yillik maktablar uchun yaratilgan dasturda barcha fanlar jiymoiy fanlar, tabiiy fanlar, aniq fanlar tarzida 4ta kurs doirasida umumlashtirilgani ma'lum. Jiymoiy taraqqiyot bilan bog'liq ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi dastlab Amerika Qo'shma Shtatlari va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida o'rta tashlangan bo'lsa, o'tgan davr mobaynida unga turli jihatdan yondashildi. Rivojlangan mamlakatlarda shaxsning jiymoiylashuvi nazarda tutilgan ta'lim texnologiyasi misolida ta'limni insonparvarlashtirishga alohida e'tibor qaratilmogda.

Ko'pchilik hollarda **metod, metodika, texnologiya, pedagogik texnologiya** sinonim atamalar sifatida yonma-yon ishlatilsa-da, ta'lim texnologiyasi ma'nosini qamrab ololmaydi. Ulardan ta'lim **metodi** o'quv jarayonida qo'yilgan vazifalarning o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi yechimi usulini anglatasa, ta'lim **metodikasi** muayyan

o'quv fanini o'qitishning ilmiy-metodik jihatdan asoslangan metod, usul va uslubi majmuini ifoda etadi. **Ta'lim texnologiyasi** esa oldindan loyihalashtirilgan ta'limiy jarayonda yaxlit tizim asosida boshqichma-boshqich aniq maqsadga kafolatlangan natijaga erishish ko'zda tutilgan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish jarayonini boshqarishni bildiradi.


Ta'lim texnologiyasi – ing. ta'lim jarayonini san'at darajasida yuksak mahorat bilan tashkil etishga doir ma'lumotlarga oid ta'limot ma'nosini anglatadi. U amaliyotga tabiiq qilinadigan pedagogik tizim loyihasi sifatida ilmiylik, amaliylik, tavsifiylik va tizimlilik xususiyatiga ega.

Pedagogik texnologiya ma'lum vaqtga mo'ljallangan dastur bo'yicha tuzilgan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishi kafolatlangan, ilmiy jihatdan asoslangan tizimdir.

Ta'lim tizimidagi har qanday o'quv fanida bo'lgani singari adabiyot o'qitish metodikasi rivojida ham jamiyat taraqqiyoti muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan qaraganda Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomilllashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, farzandalarimizning intellektual salohiyati, adabiy-badiiy saviyasini oshirish"ga doir farmoyishi adabiyot o'qitish metodikasining bugungi ahvoli xususida jiddiy bosh qotirishni taqozo etadi. Jamiyat o'zgarimogda, hayotga bo'lgan munosabat o'zgarimogda. Internet tarmog'ining chuqur ildiz o'tishi, axborot oqimining uzluksiz o'sa borishi ta'lim-tarbiya tizimini texnologiyalashtirish orqali yangicha yondashishni kun tartibiga qo'yimogda.

Pedagogik ta'lim ta'lim oluvchi talabanning shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni nazarda tutar ekan, shu jarayonda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalar darajasi hamda talabalarning qiziqishi va faolligiga tayanadi. Ko'rinadiki, ushbu jarayondagi talaba faoliyati uning shaxs sifatidagi rivojlanishining asosiy substantsiyasi hisoblanadi.

Adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch, shuningdek, ortiqcha vaqt sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish, talabalarda tegishli darajada bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish nazarda tutiladi.



Shu jarayonda pedagogik faoliyat samaradorligi ortadi, o'qituvchi va talabalar hamkorligi qaror topadi, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikma-malakalari shakllanadi, talabalarining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga doir shart-sharoitlar yaratiladi, fan bo'yicha puxta bilim olish ta'minlanadi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida talabalarining faolligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi texnologiyalarni qo'llash yuzasidan katta tajriba to'plandi. "Aqliy hujum", "6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi", "Qor quti", "Yumaloqlangan qor", "Zig-zag", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Ven diagrammasi", "Insert" metodlari shular jumlasidandir. Shu o'rinda adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishning nazariy asoslari nimalardan iborat va u talabalarining badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishda qanday ahamiyat kasb etadi degan haqli savol tug'ildi. Bizningcha, buning talay sabablari bor.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining tezkor sur'ati, axborot ko'lamining muttasi orta borishi, badiiy ijodiyotda dunyoni anglash va tushunishga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, adabiyotshunoslikda badiiy asarlar tahlili va talqiniga yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi adabiy ta'lim jarayoniga eski qolipdagi an'anaviy ta'limdan voz kechish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Adabiy ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish ta'limga tizimli yondashish, tashxislash, loyihalash, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, o'z nuqtai nazarini asoslash, yutuq va kamchiliklari sababini anglash, tegishli xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xulosa qilganda, texnologiya ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ma'naviy ehtiyoji va texnik imkoniyatlardan foydalangan holda oldindan loyihalashtirilib kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning amaliy faoliyati sifatida badiiy-estetik tafakkur tarbiyasiga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyotining ma'rifiy-estetik xususiyatlari

Badiiy asar markazida insonning beaded kechimmalari turgani uchun ham u kitobxon hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy so'z, Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida ta'kidlaganidek, "nuqta suv yangilg' eritur toshni, topsa haqiqat o'tidan choshni". Buyuk shoirning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida yozishicha, so'z "andoqki, sharifdin o'lgan badang'a ruhi pok yetar, qasfidin hayotlik tang'a zahri halok xosiyati zuhur etar.

Qit'a:

So'z gavharidurki, rутbasining

Sharhidadur ahli nutq ojiz.

Andinki erur xasis muhlik,

Ko'rguzgucha durdur masih mo'jaz.

Va bu so'zning tanavvui taqquldin nari va tasavvuridin tashqaridur. Agar mubolag'asiz jimol yuzidin qalarni surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, yetmish ikki nav bila taksim toparida hud h'yech so'z yo'qturki, yetmish ikki firqa kalomig'a dalolat qilg'ay, ammo ulcha tafsilidur". Ya'ni yaxshi so'z o'lgan badanga toza ruh bag'ishlaydi, yomon so'z esa o'ldiruvchi zahar xosiyatini zuhur etadi.

So'z shunday gavhardirki, nutq egalari uning martabasini aniq-lashdan o'jizdirlar. Martabasi yomon so'zning halok qiluvchiligidan tortib, yaxshi so'z bilan insonning mo'jiza ko'rsatishiga qadar bora-di. So'zning turlari shu qadar ko'pki, o'ylash va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag'a qilmasdan yuzaki bayon qilinsa va

qisqa yozib chiqilsa, yetmish ikki xilga bo'linib, yetmish ikki xil xalqning so'ziga aylanishidan hech bir so'z yo'q, lekin bundan ham ko'pdir.

Chindan ham dunyoda so'zdan qudratli quro'l yo'q. Obrazli qilib aytganda, so'z bilan tog'ni o'rmondan surish mumkin. So'z orqali kurashadilar, sevgi-muhabbat izhor qilinadi. So'z vositasida dunyoda buyuk kashfiyotlar yaratiladi. So'z san'atigina "toshni eritish"ga, o'likka jon bag'ishlashga yoki, aksincha, insonni o'ldirishga qudrat kasb etadi. Lev Tolstoy ta'biri bilan aytganda, "Badiiy so'z, u Gyotenikimi yoki Fedkanikimi, son-sanog'siz fikrlar, tasavvur va tushunchalar tug'dirishi bilan oddiy so'zdan ajralib turadi".

Badiiy adabiyot so'z san'ati sifatida "fikrlar, tasavvurlar va tushunchalar tug'dirishi" bilan insonning o'zini anglashga, shu orqali dunyoni tushunishga yordam beradi. Uni xarakter xususiyatiga ko'ra insoniyat tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos ko'zgusi, hayotiy tajribalari ifodasi deyish mumkin.

"Hozir Shimoliy Amerika Shtatlari joylashgan yerlarda (so'z o'lgan asr to'g'risida boryapti – S.M.) bir zamonlar qizil tanli hindular yashar edilar, – deb yozadi rus yozuvchisi N.Chernishevskiy A.Pushkin haqidagi asarida, – u yerlarda hozir ham shunday hindular yashaydi. Turmush uchun hamma narsaga muhtoj bo'lib yashaydigan, o'zlarini ham ozchilikni tashkil etadigan qizil tanli bilan hamma narsasi to'kis, o'zlarini ham ko'p va boy shimoliy amerikaliklarning bir-biridan farq qilishiga bir nazar solib ko'ring. Ular o'rtasidagi bu farqning sababi nima? Buning sababi faqat shuki, shimoliy amerikaliklar – o'qimishli odamlar, qizil tanli esa yovvoyilardir". N.Chernishevskiy o'sha asarida "Kinning o'qimishli kishi deb atalishga haqqi bor?", degan savolni o'rta qo'yadi-da, unga quyidagicha javob beradi: "Kishining tom ma'noda o'qimishli bo'lishi uchun juda ko'p ilmi bo'lishi, fikr qilishga odatlangan va oliyanob xislatlarga ega bo'lishi (ta'kid bizniki – S.M.) zarur. Bilimi oz kishi johildir, kinning aqli fikr qilishga o'rganmagan bo'lsa, u dag'al va qo'poldir, olijanoblik tuyg'usi bo'lmagan kishi bema'nidir".

N.Chernishevskiy aytmoqchi "juda ko'p ilmi" bo'lish uchun yillar mobaynida izchil mutola'a talab etilgani kabi "fikr qilishga

odatlanish", ya'ni mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lmog' uchun ham tabiiy fahm-farosatdan tashqari, aql-zakovat zarur. Ch.Aytmatov "Asrni qaritgan kun" romanida xotirasini yo'qotgan manqurt yigit Jo'lomon misolida fikrsizlik insonni mutelikka giriftor qilishini mahorat bilan tasvirlagan. Romanda keltirilgan afsonani eslasangiz, bosqinchi junglanglar qo'lga tushgan asirlarni xotirasidan judo qilib, qulga aylantirish maqsadida dahshatli usullarni qo'llaydi. O'zligini, xotirasini yo'qotgach, ular fikrlashdan to'xtab manqurtga aylanadi. Yozuvchi o'zining kim ekanini unutilib mustaqil fikrlash qobiliyatini yo'qotganlarni manqurtga qiyoslaydi. Bunday manqurtlarning hatto tuqqan onasini ham tanimasligi chidab bo'lmaz fojiaidir.

"Yerdan mahrum etish mumkin, – deb kuyadi o'g'lining manqurtga aylanganini ko'rgan Nayman ona, – mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish mumkin. Biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o'ylab topdi ekan? Yo'rabbay, agar olamda bor bo'lsang, bandalaringga bu yovuzlikni qanday ravo ko'rding? Yer yuzida usiz ham yovuzlik kammi?" Demak, bizda mustaqil fikr bo'lmaz ekan, aslida kim ekanimizni tushunib yetmaymiz. To'maris va Shiroqlar avlodi ekanimizni his etolmaymiz. Ulardan meros bu Vatanni kelajak avlodlarga bag'rini butlab yetkazolmaymiz.

N.Chernishevskiy o'qimishlilikning uchinchi belgisi deb hisoblagan oliyanoblikning shakllanishi san'at turlari, birinchi navbatda, badiiy adabiyot mutolaasi bilan bog'liq. San'atning chinakam muxlisi, badiiy adabiyot bilan do'st tutingan kishi boshqalarga yomonlik tilamaydi. Sezgan bo'lsangiz, o'qimishlilikni belgilovchi omillar o'qishga, ya'ni kitobxonlikka kelib taqalypati. Ammo Sa'diy Sheroziy aytganidek:

Harchand o'qibsan – bilimdotsan,

Agar amal qilmading, nodonsan.

Kitobxonlik tajribasidan ma'lumki, badiiy asarni o'qib tugatgach, bir qancha vaqt g'ayrixuyoriy suratda o'sha asarda tasvirlangan gahramonlar, voqea-hodisalar og'ushida yuramiz. Ruhiyatimizdagi sokinlikning bu xildagi tebranishlari ba'zan oylarga, hatto yillarga

cho'zilsa, ba'zan butun taqdimizni o'zgartirib yuboradi. Buning sababi so'z san'atining hissiyotimizga va u orqali aqlimizga ta'sir ko'rsatishidir.

“Kishi, ba'zi vaqtda shodlikdan kular va ba'zi vaqtda ko'z yoshini to'kib yig'lar, oh tortar, — deb yozadi Cho'ipon. — Odanning mungdog' har xil kayfiyatga kirib turmog'i o'z ixtiyori ila bo'lmay, balki maishati yo'lida har vaqt uchrab turadurg'on falakning anga ba'zi vaqtda zulm ko'rsatmog'i va ba'zi vaqtda bir yaxshilik ko'rsatub sevindurmog'idan kelub, yaxshi ko'rganda — sevunub, yomonlik ko'rganda — yig'lab, shundog' bo'lub ikki turli o'zgarub turar, ba'zi vaqtda falak bir odamni qayg'uga solar, ul o'vi tushunib, o'ylab turub, oh tortub yig'lar. Bu hasratlarni o'z ichiga sig'dira olmas. Birovga aytasa, “voy, bechora” dermukin deb, albatta, o'z qayg'usini bironvga aytmakka tiyilar. To'p-to'g'ri aytganda, ul qadar ta'sir qilmas. Adabiyot ila aytganda, albatta, ta'sir qilor. Mening bir oshnanning o'ldigi xabari kelar. Men hech xafalamayman. Bir vaqtda maktab kelur. Maktabda alarning ko'rgan kunlari adabiyot ila (ya'ni obrazli tarzda — S.M.) bunday yozilur:

Gullar ila pok qayg'uli mahzun boqurdi,
Ko'z yoshlarimiz to'qtamay tun-kun oqurdi.

Mana shuni o'qub, albatta, bir ta'sir ila alarning qayg'usiga qo'shilurimiz³⁹.

Ko'rinadiki, obrazlilik oddiy so'zlarga ham libos kiydiradi. Badiiy libos esa so'zlarga ko'rk bag'ishlaydi va u asarning yashash sharti hisoblanadi.

Adabiyot “ma'rifat suvi”, “buloq suvi” vazifalarini obrazliliigi tufayli amalga oshiradi. Yozuvchi o'zi yaratgan qahramonlarning ko'rgan-kechirganlari, boshqalarga bo'lgan munosabatlari orqali biror fikrni ilgari surar ekan, o'sha qahramonlar hayotini shunchaki bayon etmaydi, balki obrazli yo'sinda tasvirlaydi. Badiiy asardagi obrazlilik kishining hissiyotini qo'zg'aydi, qalamga olingan voqealik hayotda aynan bo'lub o'tgandek taassurot qoldiradi.

Obrazlilik ijodkor ilgari surayotgan g'oyaga qanot bag'ishlovchi omildir. Boshqacha aytganda, badiiy adabiyot boshqa turga mansub adabiyotlardan obrazliliigi bilan ajralib turadi.

Darsliklar, sof ilmiy adabiyotlar insonni fan, hayot va tabiat qonuniyatlari bilan tanishtirishga, unga muayyan kasb sirlarini o'rgatishga xizmat qiladi. Ularning vazifasi shu bilan cheklanadi. Badiiy asarlar ham darsliklar kabi bilimlar beradi. Lekin uning eng muhim xususiyati bo'lub o'tgan, bo'layotgan va yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarning suvratlantirishi, bir so'z bilan aytganda, hayotning obrazli surarda tasvirlanishi tufayli kitobxon hissiyotiga, qalbiga ta'sir ko'rsatishidir. Demak, badiiy asarlar, bilim berish bilan birga, zavq bag'ishlaydi, aqlni peshlaydi, tarbiyalaydi.

Ilmiy asarlar g'afiat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag'allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, buniisi ham kishilarning ma'rifati, baxt-saadatli bo'lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir.

Ilmiy asarlar ham, badiiy asarlar ham foydali va zarur ekan, nima uchun ularning birini bir guruh odamlar o'qib tushunadi-yu, ikkinchisini hamma sevib mutolaa qiladi?

Badiiy adabiyot — so'z san'ati. Undagi obrazli tasvir kitobxonning hissiyotini qo'zg'aydi, tasavvurini boyitadi, noma'lum joylar va odamlar bilan tanishtiradi, ayrim hollarda esa hatto kelajagini belgilaydi.

O'quvchi asar g'oyasini anglashga, boshqacha aytganda, yozuvchi ilgari surgan fikrni qabul qilish hamda o'zlashtirishga tayyor bo'lishi lozim. Chunki har qanday asar mazmuni o'qish jarayonida kitobxon tomonidan qayta ishlanadi va yangidan yaratiladi. Buni esa har bir kishining kitobxonlik madaniyati, iste'dodi darajasi belgilaydi.

“Asar, ayniqsa, katta asar yozayotgan qalamkash taqdiri, — deb yozadi O'.Hoshimov, — qay jihati bilandir tinib-tinchimas sayyoh taqdiriga o'xshab ketadi. Sayyoh-ku, notanish orolga tasodifan boradi (Robinzon Kruzoga o'xshab). Qalamkash esa bu yerga o'z ixtiyori bilan boradi. Bir varaq oppoq qog'oz bilan yuzma-yuz kelganida, xuddi notanish orolga borib qolgandek bo'ladi. Ushbu orol — bo'lajak asar. Bu yerda u aholi yaratadi, ya'ni asar qahramonlariga jon ato etadi. Bora-bora yozuvchi o'zi kashf qilgan orolga, o'zi

³⁹ Чулпон. Адабийг надуру? — Тошкент: Чулпон нашриёти, 1994. — 37-б.

Yaratgan qahramonlarga shu qadar ko'nikib qoladiki, "orolni" hech tark etgisi kelmaydi. Ammo u baribir o'sha odamlardan, o'sha "orol"dan voz kechishi kerak. O'z ixtiyori bilan. Aks holda boshqa "orol"ni kashf etolmaydigan bo'lib qoladi"⁴⁰.

Yaratilganiga qadar o'z ijodkori uchun notanish orol maqomida bo'lgan asar dunyo yuzini ko'rganidan keyin esa kitobxon uchun shu maqomda bo'ladi.

Kitobxon asarni qo'lga olar ekan, notanish orolga tushgan say-yohlardak, asar voqealari, qahramonlar taqdiriga daxldor barcha tafsilotlar bilan qiziqib tanisha boradi, ya'ni u ham mashaqqat chekadi. Notanish orol sayyohlari yashash uchun kuʻshsalar, kitobxonlar asar mutolaasi orqali hayot jumboqlarini chuqurroq o'rganish, uning mohiyatini anglash payidan bo'ladi. Demak, adabiyot hayotni o'rgatadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Vatan ravnaqi va jamiyat taraqqiyoti undagi fuqarolarning madaniy-ma'rifiy darajasi bilan bog'liq. Shuning uchun ham shaxs ma'naviy kamoloti masalasi qadim zamonlardan boshlab davlat ahamiyatiga molik ish bo'lib, ta'lim-tarbiya markazida turadi.

Shaxs kamolotini badiiy adabiyot va adabiy ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiyot insonga hayotining ilk damlaridan umrining oxirigacha hamdard, hamnafas, sodiq do'st va samimiy maslahatchi vazifasini o'taydi. Insoniyat tarixidagi allomalar ulug'lik shohsupasiga adabiyot mutolaasi — o'qimishligi tufayli ko'tarilganlar. Shunga ko'ra adabiyotning hayotga yaqinligi unga bo'lgan muomala-munosabat — kitobxonlik muammosini keltirib chiqaradi.

Adabiyot so'z san'ati sifatida imsolilar vositasida ish ko'radi. U obrazlilik tufayli inson tasavvurini boyitadi, tafakkurini ishga soladi, xayoliga turtki beradi.

Bolalik — qaytmas dunyo
Nosir Fozilov bilan suhbat

S.M.: Hurmati Nosir aka, havas azal-azaldan insonni ezuq ishlarga undashi yaxshi ma'lum. Sizda yozuvchilikka havas uyg'onishiga nima sabab bo'lgan?

N.F.: Ishq boshqa, havas boshqa deganlaridek, yozish boshqa, niyat qilish boshqa. Yozyuvchilikni niyat qilganlarning hammasi ham adib bo'lib ketavermaydi. Buning uchun tug'ma iste'dod kerak.

O'igan asrning 50-yillarida o'zbek bolalar adabiyoti hozirgi davrga qaraganda nihoyatda nochor ahvolda edi. Shu yillarda O.Yoqubovning "Tengdoshlar" nomli qissasi hozirgi "Tong yulduzi" gazetasida bosilib chiqqan. Radioda o'qildi.

O.Yoqubov ham turkistonlik bo'lib, unda-munda ko'rib yurardim. Shundaymi, o'sha qissa turki bo'lib, mening qalbimda ham yozish havasi kurrak o'rdi. Shuning natijasi o'laroq 1959-yilda "Tirmoq" degan hikoyam kitobcha holida chop etildi. Bunday nomlanishiga sabab tog'dan oqib tushayotgan jilg'alar kabi men ham bir adib bo'lib "Adabiyot" daryosiga qo'shilsam deb niyat qilgan edim. Bu yog'iga xudoning o'zi qo'lladi.

S.M.: Asarlaringizning o'z-o'zidan kitob bo'lib ketavermaganiga ishonsa bo'ladi. Birinchi tanqidchingiz sifatida kimni e'tirof etasiz?

N.F.: Birinchi tanqidchi bobida xudo yorlaqagan ijodkorman. Turmush o'trog'im Muborakxon noshir, tarjimon, mashinistka bo'lgani uchun asarlarimni nafaqat kuzatadi, balki tuzatadi ham. Ayamasdan tanqid ham qiladi. U kishi o'qisa ham cho'zib o'qiydi. Ba'zan bir so'z ustida talashib, ish janjalgacha borib yetadi. To'g'ri tanqid qalamni charxlaydi, fikrni boyitadi, adashishdan saqlaydi.

S.M.: Qissa va hikoyalaringizda realistik tasvir yumor bilan uyg'unlashib ketadi. Hatto urush davri xalq hayotida fojiali holatlar tasvirida ham yumorga moy'illigingiz sezilib turadi. Buni qanday izohlaysiz?

N.F.: Ta'bir joiz bo'lsa, badiiy asarni ponga, yumurti esa uning ichiga solinadigan murabboqa qiyoslash mumkin. Non murabbo bilan yeyishli bo'lgani kabi asar ham yumor bilan qiziqarli bo'ladi.

⁴⁰ Хошимов Ў. Потаниш орол. — Тошкент: Ёш гвардия, 1990. — 1-б.

Yumor – o'quvchini ushlab turuvchi, asar voqealariga qiziqituvchi muhim vosita. Yumor me'yorida tanlanishi va muallif maqsadiga xizmat qilishi kerak. Shunday ekan, bolalar adabiyotini yumorsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

S.M.: X.To'xtaboyev o'z suhbatlarida asarlarini ilk bor bolalar nazaridan o'tkazishini e'tirof etgan. H.Imonberdiyev she'r-larining lirik qahramoni – shoirning o'zi bolalar bilan birga to'p tepshib, ular bilan turli mavzuda muloqot qilishdan erimagan. Bu borada Sizning tajribalaringiz biz uchun qiziqarli.

N.F.: Bolalar bilan bola tilida gaplashish kerak. Ularni bolaligi uchun ham har narsada cheklamaslik lozim. Asarda bola timsoli qatnasha-yu, tasvirda uning didi, xarakterini ochib berilmasa, kitob-xonga nafli tegmaydi. Buni zukko o'quvchi albatta farqlay oladi. Shu jihatdan G.'G'ulom barchamizga namuna. U kishi bola bilan bola, katta bilan katta bo'lib suhbatlashar edi. G.'G'ulomning asarlari bolalarga og'irlik tug'dirmaydigan, kattalarga yengillik qilmaydigan tarzda yozilgan. Shu sababli ham ustoz yozuvchi asarlari ommabop-hammabop. Ularni bolalar adabiyotiga ham, kattalar adabiyotiga ham kiritish mumkin. Adib asarlari sarhad bilmaydi.

S.M.: Xo'يرانavislik ijodigizda alohida o'rin tutadi. "Ustoz-lar davrasida", "Munavvar lahzalalar", "Eslasang, diling yorishur", "Toshkentning nosi", "Said Ahmad noming baland", "Ustoz so'zlaganda" kabi ko'pdan-ko'p kitoblaringizni hisobga olmaganda ham yaqinda "Topdimu yo'qotmadim" nomli kitobingizning O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti bilan taqdirlanishining o'zi bu boradagi ishlarigizning qay darajada salmoqli ekanligini ko'rsatib turibdi.

N.F.: Agar kitobxonga foydasi tegsa, har qanday janrdagi asar yashashga haqli. Xo'يرانavislikning ayrim ko'rinishlari adabiyotimizda ilgari uchray turgan bo'lsa-da, tom ma'nodagi xotira asarlari o'tgan asrning 60-yillarigacha yo'q edi. U yillari adiblar mashhur yozuvchilar haqida xotira asarlari yoza olmaganlar, qo'rqganlar. Chunki ularning aksariyati "xalq dushmani" sifatida qoralangan edi. Shu sababli mashhur yozuvchilarning o'ziga xos olami biz uchun qorong'i edi.

Ko'z oldimizda yashayotgan adiblar ijodi, ularning ayrim asarlarining yaratilish tarixi, qahramonlarning prototiplari, ularning fe'l-atvorlari bilan shaxsiyatidagi uyg'unliklarni ko'rib-bilib tursang bu haqda yozmaslikni qalam ahliga ham, kitobxonlarga ham xiyonat deb bildim.

S.M.: "Qorxat" nomli qissangiz bilan "Robinzonlar" nomli hikoyangizning syujeti juda o'xshash. Bu asarlarning yaratilishiga biror hayotiy voqea sababmi yoki...?

N.F.: Juda to'g'ri payqabsiz. Har bir asarning yaratilish tarixi mavjud. "Gulxan" jurnalida ishlab yurgan kezarim taniqi qoraqalpog yozuvchisi Jo'lmirza Oymirzayevning taklifi bilan Respublikamiz shimoliy tumanlariga otladim. Taxta yog'ochdan ishlangan katta stol ushiga mashinalarni joylab Amudaryodan o'tayotganda bir cho'pon cholni suhbatga tortdim. "Shiddat bilan oqayotgan daryo xavfli emasmi falokatalar sodir bo'lmaydimi?" – so'radim choldan. Cho'pon esa o'tgan yili ikki bola baliq tutaman deb muz "sol"da oqib ketganligini, ular tushgan muz ikki chaqirmlar uzoqlikdagi orolchada turib qolgani, shundan so'ng vertolyot yordamida qutqarilganligini aytdi. Bu suhbat oz davom etdi. Lekin muzda oqayotgan bolalarning o'sha paytdagi holati, o'zlarini tutishi ko'z oldimdan ketmadi. "Robinzonlar" hikoyasi shu tariqa yuzaga kelgan. Hikoya bilan tanishgan hamkasblarim uning syujetining sarguzasht qissabop ekanini ta'kidlashdi. Bu fikr ijobat bo'lib, "Qorxat" qissasiga aylandi.

S.M.: Sho'rolar davridagi o'zbek adabiyotining yetakchi xususiyati nimalardan iborat deb biasiz?

N.F.: Sho'rolar davri adabiyoti buyruqbozlik adabiyoti ham edi. Bu davr asarlaridagi o'xshashlik shuki, tasvirlanayotgan qahramon ijobiy qahramonmi, u faqat maqtaladi, asarda uning namunali fe'l-atvorlari ulug'lanadi. Salbiy qahramon esa boshdan oxirigacha boshqalarning nafatini qo'zg'ashi lozim edi. U davr adabiyoti siyosatga qaram edi. Qaram adabiyot esa bo'g'ib qo'yilganga o'xshaydi. Aslida asar ta'sirchan bo'lishi uchun unda siyosiy muhi emas, INSON tasvirlanishi kerak. Insonning ichki his-tuyg'ulari, o'ylari, voqea – hodisaga munosabati tasvirlanishi lozim. Badiiy quvvat kuchli, mazmunida insonning hissiyoti, o'ylari tasvirlangan asarlar makon va

zamonidan qat'iy nazar, uzoq yashaydi. Ammo sho'rolar davri siyosatiga moslab siyosiy buyruqbozlik asosida yozilgan asarlarning hatto nomi ham tilga olinmaydi. Bunga Mirmuhsin, Ibrohim Rahim asarlarini misol qilib keltirish mumkin. "Oqim", "Shum bolaning nabirasi" nomli qissalarim ham shu ruhdagi asarlar sirasiga kiradi.

S.M.: Badiiy tarjima ijodigizga qanday ta'sir ko'rsatgan?

N.F.: Tarjimaga qo'l urgan yozuvchi borki, o'zga adabiyotdan nimanidir o'rganadi. Kamina ham bundan mustasno emasman.

Tarjima jarayonida tilni chuqur bilishning o'zi kamlik qiladi. Chunki asarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Avvalo, o'sha millat tili, dini, tabiati, urf-odatlari, yashash tarzi, maishati bilan yaqindan tanishish mumkin. Ikkinchidan, boshqa adabiyotga mansub ijodkorlarning tajribalaridan xabardor bo'linadi. O'zbek adabiyoti asarlari boshqa tillarga kam tarjima qilinishi afsuslanarlidir.

Kezi kelganda hozirgi seriallarda qo'yilayotgan masalalarning o'ta siyqaligini, bir-biriga juda o'xshashligini ta'kidlagim keladi. Ularning ko'pchiligida sevgi, qaynona-kekin munosabatlari, maishiy ikt-chikrlar kishining ensasini qotiradi.

Adabiyotimizda yetishmaydigan masalalar – bo'shliqni to'ldirishda tarjima asarlarning roli katta. Tarjima uchun asar tanlanayotganda g'oyaviy-badiiy jihatdan unga o'xshash asar o'zbek adabiyotida bor –yo'qligini aniqlash lozim. O'zbek adabiyoti yozuvchilari yodidan ko'tarilgan, hali qo'l urilmagan mavzudagi asarlarni tanlash kerak. Shundaygina adabiyotimizdagi "bo'shliqlar" to'ldirib boriladi. O'zbek kitobxonlari turli mavzu va mazmundagi asarlarni o'qishga muvassar bo'ladi.

Tarjimon adiblar boshqa tildagi asarlar ustida ishlash jarayonida gahramonlarni tavsiflash, syujet yaratish, peyzaj tasviri yuzasidan muayyan tajribalarni o'zlashtiradi. Umuman, tarjima masalasi xalqlar do'stligi, adabiyotlar do'stligini mustahkamlashda katta va siyosiy omillardan biri ekanligini unutmashlik kerak. Shu bilan birga, o'zga adabiyotdan ta'sirlanish bilan ta'sirlanishning farqi bor. Chunki shakl va mazmun mos tushmasligi mumkin. Bu hol P.Mo'minning "Qovovvoy va Chanovvoy" asarida kuzatiladi. Marhum shoirimiz bu

asarini J.Rodarining "Chippolino" asariga taqlid qilib yozgan edi. Afsuski u kutilgan natijani bermadi.

Aytmoqchi bo'lganim, bir adabiyotni boshqasidan ustun qo'yish yoki kamitish to'g'ri emas. Junladan, G'arb adabiyotini Sharq adabiyotidan rivojlangan degan ba'zi fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Blok, Geyne kabi G'arb adiblari Sa'diy, Navoiy, Lutfiylarning asarlarini chuqur o'rganagan. Shiller esa "Poeziyani Sharqdan o'rganish kerak", degan ekan. Shuningdek, mashhur adib Garselning she'rlarini o'qib hayratga tushish mumkin. O'zbek adabiyotida she'rlar chang bilan birga tug'iladi. Garsel she'rlarida esa oddiy gaplar hukmronlik qiladi.

S.M.: Asarlarni qayta ishlashga munosabatingiz xususida nimalar deya olasiz?

N.F.: Har qanday asarni siyohi qurimasdan chop ettirish adibning o'ziga katta ishonch va manmanligidan nishona deb bilaman. Asarlarini qo'lyozma holida qayta ishlash bo'yicha ustoz Abdulla Qahhor barcha qalam ahliga namuna bo'la oladi. Qo'lyozmani har safar qayta qo'lga olganda yangi fikrlar, muhim g'oyalar tug'iladi.

"Robinzonlar" hikoyasi ustidagi izlanishlarim tufayli "Qorxat" qissasi yuzaga kelganini aytgan edim. "Qush qanoti bilan" qissadagi bir epizod "Qahr va mehr" qissasida boshqacharoq mazmunida ikkinchi bor hayotga yo'llanma olgan. "Shum bolaning nabiralar" va "Oqim" qissalari yuzasidan tanqidiy fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, qayta ishlamaganman.

Fikri ojizimcha, asarni yozishdan avval boshidan oxirigacha syujet qurilishini o'ylab olish kerak. Boshida o'ylamagan ishning tagi teshik qopdan farqi yo'q.

Asar qo'lyozmalik holatida uning ustidan qancha ko'p ishlansa, shuncha foydali. Ammo asar chop etilganidan keyin uning ustidan qayta ishlash ijodkor uchun hamisha ham muvaffaqiyat keltirermaydi.

S.M.: Asarlaringizning asosiy gahramonlari bo'lgan bolalardagi qaysi xislatlarni qadrlaysiz?



N.F.: Albatta yaxshi o'qigan, intizomli, odobli bolalarni yoqtiraman. Lekin bola bolaligini qilishi kerak. Ularga ba'zi salbiy xislatlar ham yarashadi. Muhimi, ularni tog'ri yo'lga solish. Bu borada oila, mahalla, maktab bilan birga badiiy asarlar ham beqiyos ta'sir kuchiga ega. Afsus, bizning bolaligimizni urush yutib yuborgan. Qaniydi, har narsa o'z o'rnida bo'lsa... Hozirgi bolalarga juda-juda havasim keladi.

Boshqa narsalar kabi bolalik ham qaytarilmasligiga ko'nikishdan o'zga chora yo'q.

S.M.: Kitoblarningizning nomlanishi oddiy kitobxon uchun g'alatiroq tuyuladi: "Kichina demang' bizni...", "Bolaligim-poshholigim", "Saraton", "Toshkentning nosi", "Diydor", "Qorxat", mana endi "Topdimu yo'qotmadim".

N.F.: Kitoblarning nomlari ixcham - atigi bir-ikki so'zdan iborat bo'lgani uchun g'alati tuyulishi mumkin. Aslida har qanday nom muallifning g'oyaviy niyatidan kelib chiqib qo'yiladi. "Topdimu yo'qotmadim" sarlavhasini ma'lum ma'noda Said Ahmading "Topganlarim va yo'qotganlarim" asariga taqidan qo'yganman. Qolaversa, kitobdagi barcha xotira hikoyalar shu sarlavhaga moslangan. Asardagi asosiy g'oya bu — inson jismonan yo'q bo'lsa-da, uning asarlari insonlar qalbida hech qachon o'chmasligida.

Inson o'qish uchun qo'lga kitob olar ekan, agar asar yomon bo'lsa, uni bir chega qo'yadi, yaxshi bo'lsa, undan boshini ko'tarmay o'qiydi. Uni anchagacha eslab, xotirlab yuradi. "Topdimu yo'qotmadim"dagi hikoyalar shunchaki xotiralar emas. Ular orgali yozuvchilarning hayot, adabiyot, inson haqidagi qarashlarini qalamga olganman.

S.M.: Qiziqarli suhbatangiz uchun kitobxonlaringiz nomidan rahmat.

2011

Nosir Fozilov saboqlari

Yozuvchi bo'lish uchun hayotda ko'p narsani ko'rish kerak. Ko'rgan narsalarning saragini sarakka, puchagini puchakka ajrata bilish kerak. Ko'pni ko'rgan, ko'p narsani bilgan, eshitgan yozuvchining yozgan asarlari chinakam hayotiy bo'ladi.

Yozgan asari bilan kimlaridir quvontirib, kimmidir tashvishga sololmagan yozuvchi — yozuvchi bo'libdimini?

Har gal men Oybek domla haqida bir gap aytmoqchi bo'lib qo'limga qalam olganimda, avvaliga osondek bo'lib tuyuladi-yu, stolga o'tirganimda qiyinalib qolaman. Buning boisi shuki, Oybek domla hamisha tirikdek, qora ko'zlari chagnab to'lgini sochlari chust do'ppisi tagidan toshib chiqib ketay deb turgandek, har bir harakati, har bir imo-ishorasida, qiyinalib ayrgan har bir so'zida, hatto qarashlarida falsafa bordak tuyuladi menga... Domla teran fikrli, faylasuf yozuvchi edi. U kishi haqida biron gap ayfadigan odam, nazarimda, domlanning o'zidek dono, domlanning o'zidek zukko bo'lishi kerakdek.

Men Sa'dullanning (Siyoyev) tiliga havas qilaman... Uning tilida musiqqa bor, bo'yog bor, jon bor. Qahramonlari xursand yursa, shiru shakar harorat, bordiyu jahl ustida xa'fa yursa, ular tilidan zaharzaqum, sovuqlik ufrub turadi. Har ikki holatda ham muallif qahramonlarini mantiq bilan gapirtiradi.

Abay o'z zamonasini qutlash orgali butun qozoq xalqini dunyoga tanigan bo'lsa, Muxtor og'a ham o'z navbatida ham yurti Abayni kuylab jahonga tanidi va o'zi ham jahonga mashhur bo'lib ketganini sezmay qoldi... "Abay epopeyasi" bugungi qozoq adabiyotining bo'yini, cho'qqisini ko'rsatadigan chin ma'nodagi yetuk asardir. U shunchaki Abay va Qo'nonboy'lar o'rtasidagi dov-janjallarni aks ettirgan asargina bo'lib qolmay, XIX asr qozoq zaminini, xalqini va o'sha davr ijtimoiy — siyosiy hayotidagi qarama — qarshiliklarni rostakamiga ko'rsata olgan durdona asardir.

Bolalar adabiyoti — nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi... Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan kitobxonni katta adabiyotga boshlovchi darg'alar. Bu adabiyot — humattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot. Unga hamisha e'tibor

darkor. Shundagina u muhabbatimiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi.

Ba'zilar o'ylaganidek, bolalarga xohlagan narsani yozib berish mumkin, ular nimani ham tushunardi, deyish noto'g'ri. Bu yaxshilikka olib bormaydi. Aldamoqqa bola yaxshi, deganlarning o'zi aldanib qoladi. Xo'sh, yoshlar adabiyoti bilan kattalar adabiyoti o'rtasida qanday tafovut bor? Buni ba'zi bir yozuvchilarimiz haligacha farqlay olishmaydi. Kichikintoylar ishtirok etgan asar bolalarniki-yu, o'rtayoshliar yoki keksalar qatnashgan kitob kattalarniki, degan nuqtai nazar mutlaqo xato. To'g'risi shuki, bolalar adabiyotini yaratish uchun kichikintoylarning dunyoqarashi, fe'l-atvori va did-farosatiga mos qilib yozish kerak. Bunda bola tiliga amal qilish ham juda katta ahamiyatga ega. Yosh avlod uchun asar bitish oson ish deb o'ylab, qo'lga shunchaki qalam olgan ko'plab akalarimiz, tengqurlarimiz uzoqqa bormaganiga tarix guvoh.

Ijodkorlar Nosir Fozilov haqida

Xalqlar do'stligi mavzusi adiblar uchun shunday tugannas xazinadirki, uni kavlagan sari yangidan yangi qatlamlari chiqaveradi. Xalqlar do'stligi mavzusi adiblar uchun shunday tugannas buloqdirki, uni kavlagan sari yangidan yangi ko'zlari ochilaveradi. Nosir ijodida qardoshlik tuyg'ulari gurkitrab turadi. U mavzuni qardoshlik negizlaridan topadi.

Said Ahmad, O'zbekiston Qahramoni

Nosir Fozilovday o'zbek yozuvchisi hammanimizga qanday qalamkashlik xislati bilan yoqadi?

U mavzusini bilib yozadi. Qahramonlarini suyub yozadi. Bilib yozganligi uchun mavzuni erkin o'zlashtiradi. Erkin o'zlashtirgan mavzuda suyub yozganligi uchun qahramonlarini ko'rkam so'zlariga o'rab, ularga havas qiladigan darajada ko'tarib yozadi.

Mana shunday havas va qiziqish bilan keksa yozuvchimizning "Topdimu yo'qotmadim" asarini o'qib, qoyil qoldik... Bu asarlarda

o'zbek bolalarining yosh xususiyati, ruhiyati, ularning qabul qilish imkoniyati hamma — hammasi inobatga olingan.

Qulbek Ergo'bek, Filologiya fanlari doktori, professor

Nosir og'a haqida shunchaki gapirib bo'lmaydi. Uning o'z ijodini qo'yib turganda ham, tarjima qilgan asarlarining o'ziyoq adibning kim ekanligini, o'zbek, qozoq xalqlari uchun qay darajada xizmat qilgani xususida yaxlit tasavvur bera oladi. Sevimi adibimiz o'z faoliyati bilan ikki el o'rtasidagi do'stlikning oltin ko'prigi vazifasini bajarib kelmoqda.

Mahkamboy Umarov, Qozoq oqini

Xalqda "O'rang bermaganni bozor beradi" degan naql bor. Men uchun otam qilmagan, qilolmagan ishni Nosir og'a ado etdi. U kishi asarlarini o'zbek tiliga o'g'irishdan tashqari, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Omon Matjon, Murod Muhammad Do'st, Tursinboy Adashboyev kabi o'zbek adiblari misolida o'zbek adabiyoti bilan yaqindan tanishtirdi.

Nosir og'adan bag'rikenglik hali juda ko'p yosh ijodkorlar uchun ibrat maktabi bo'lishi shubhasiz.

Murodboy Nizanov, Qoragalpov yozuvchisi

Bir vaqlar buxorolik Valijon Bobomurodov degan yozuvchining bir qissasi Nosir Fozilovning qo'lga tushib qoladi. Shunda "Gulxan" jurnalida bosilayotgan "Shum bolaning nabiralari" nomli qissasini to'xtatib qo'yib, yosh adibga yo'l berganidan xabarim bor. Keyinchalik tabiat kuychisi G'ozni Rahmon, o'shlik Qo'ldosh Mirzo asarlarga ham o'z navbatini berganida Nosir akadagi jo'mardlikka qoyil qolganman. Adabiyotga bo'lgan bunday fidoyilik har qanday kishini hayratga solmasdan iloji yo'q.

Tursunboy Adashboyev, Shoir

Nosir Fozil ismi jisimga mos adiblardan. Uning asarlarida sodaligi ham, foziligi ham sezilib turadi. Tili hamma uchun tushunarli va

yoqimli. Inson sifatida boshqalarga g'amxo'r va mehribon. Tarjimalari juda tiniq, tarjimaga o'xshamaydi. Qardosh qozoq xalqi hayoti to'g'risida o'zbek yozuvchisi yozdimkin, deb o'ylab qolasan. Sevimli adibimiz Nosir Fozilovni o'zbek – qozoq xalqlari o'rtasida buzilmas ko'prikkaga o'xshatgim keladi.

Po'lat Momin,
O'zbekiston xalq shoiri

Shunday yozuvchilar borki, o'zining asarlariga qaraganda boshqalarning asarlarini ro'yobga chiqarishga ko'proq e'tibor beradi. Nosir Fozilov shunday fidoyi ijodkorlardan. Shuning uchun ham viloyatlardan keladigan taniqli yozuvchilargina emas, havaskor qalamkashlar ham poytaxtga tashrif buyurishganida, eng avvalo, u kishini yo'qlaydi. Ulug' insonlarga xos fidoyilik u kishining shaxsiyatini hamisha yuqori ko'tarib turadi. Bunday ijodkorlarni har qancha e'zozlasa shuncha kam.

Yo'ldosh Sulaymon,
yozuvchi

Nosir Fozilov... Bu nom menga bolaligimdan yaqin tanish. "Kichkina demang bizni..." degan kitobini o'qib, undagi o'zim tengi bolalar, dala – dashtlar tasviriga maftun bo'lganman.

Adib asarlarida tabiat romantikasi, shuvoqlar hidi ufuirib turadi, dimog'ingizni qitqilaydi.

Adabiyotimizning ulkan darg'alari G'afur G'ulom, Mirtemir, Abdulla Qahhorlar maktabida saboq olgan sevimli adibimizning o'zi bugun shu maqomda: ko'plab yosh ijodkorlarga yaqin maslahatgo'y, g'amxo'r ustoz, mehribon murabbiy.

Shoyim Bo'tayev,
yozuvchi

Ijod maktabi
Tursunboy Adashboyev bilan suhbat

Safomatjon. Badiiy tarjima qayta yaratish san'ati sifatida uzog va boy tarixga ega. U turli tillarda so'zlashuvchi millatlar va elatlarni birlashtiruvchi madaniy ko'priklar vazifasini bajarib keladi. Ayni paytda turli xalqlarning badiiy tafakkur tarzi, adabiy-estetik, ma'naviy-

axloqiy qarashlarining milliy va umuminsoniy xususiyatlari yuzasidan teran tasavvur berishga qaratilishi jihatidan ham ajralib turadi.

O'zga tillardan tarjima qilish millionlab kitobxonlar qarshisida tarjimon zimmasiga g'oyat katta mas'uliyat yuklaydi. Bundan tashqari, u ijodiy tajriba va mahorat maktabi hamdir. So'nggi yillar bolalar adabiyotida bu borada jiddiy ijodiy izlanishlar amalga oshirilayotgani alohida e'tiborga loyiq. S.Marshakning "Tentak ovchi", K.Chukovskiyning "Do'xir Voyjonim", "Yuvin, Do'mbog'im", S.Aksakovning "Sehri qizil gul" va mashhur italiyalik shoir Jovani Rabonning "Mushuk Kotangensning arifmetik daffari" to'plamlarining Sizing tarjimangizda Sharq nashriyat-matbaa konsernida chop qilinishini hozirgi adabiy jarayonning muhim yutuqi sifatida baholash mumkin.

Shoir T.Adashboyev bilan tarjimon T.Adashboyevning bu boradagi kuzatishlari ko'pchilik uchun qiziqarli.

Tursunboy Adashboyev: Mening nazarimda, har ikkovi bir-biri bilan o'rish arqoq, et bilan timoqday gap. Tarjimonlik – menga shoir sifatida fikrlashni, so'z va ma'no urg'usini, mulohaza yuritishni, so'zlarni qo'fiyalash usullarini o'rgatdi. She'r ustida ishlash bo'yicha ko'nikma hosil qildi. Bunga ulug' ustozlarimiz Mirtemir, Asqad Muxtor, Qudrat Hikmatlarning ijodiy faoliyati yaqqol dalildir. Ayni shu masalada G'arb adabiyoti vakillarining Sharq afsonalariga, asotirlariga, ertak va dostonlariga qiziqishlari behuda bo'lmagan. Asarlari dunyoga mashhur L.Tolstoy ijodidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Shu jumladan, Samuil Marshakning talay asarlari, xususan, "Tegirmonchi, bola va eshak", "Qirrol va navkar haqida ertak", "Ikki qo'shni haqida ertak" asarlari Sharq afsonalari asosida yaratilgan. S.Marshak mazkur asarlarini ijodiy faoliyatining qizg'in pallasi – 1930-35-yillar davomida yozib, Leningrad (Sankt-Peterburg)da nashr etiladigan "Yojik" jurnalida e'lon qilirdigan.

S.M: Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlansa, "Kalila va Dimna", "Qobusnoma", "Guliston" kabi asarlarning turli davrlarda qayta-qayta nashr qilinganini kuzatish mumkin. Buni jamiyat taraqqiyoti, adabiyot va san'at rivoji bilan bog'liq hodisa sifatida tushunsa

bo'ladi. Lekin ayrim asarlarning deyarli bir davrda turli ijodkorlar tomonidan qayta tarjima qilinishi ham adabiy tajribada uchrab turadi. **T.A:** Buni o'ziga xos ijodiy musobaga deyish mumkin. Kitobxonlarning sinovidan o'tgan tarjimalargina ma'naviy mulkimizga aylanib qoladi.

Bundan o'n besh yillar muqaddam K.Chukovskiyning "Muxa sxatuxa" asarini Q.Mirmuhamedov bilan M.Rahmonlar o'zbek tiliga o'g'irib kitob holida nashr ettirishgan edi. Ming afsuski, nasriy asarlarni o'g'irish borasida maktab yaratgan ustoz Q.Mirmuhamedovning nazmdan qilgan tarjimasi yosh kitobxonlarning e'tiborini qozonmadi. Shoir M.Rahmon tarjimasidagi "Pashsha oyimpashsha" esa hamon bolalarimiz tomonidan sevib o'qilayotir.

Umuman olganda, ayrim asarlarning bir necha tarjimasi alohida mavzu. Sababi, ularning ba'zi birlari asliyadagi kabi jaranglamay qoladi. O'.Rashidning S.Mixalkovdan, N.Umarovning R.Hamzatovdan, Anvar hojining K.Chukovskiydan qilgan tarjimalari buning yorqin dalilidir.

O'tgan asrning 80-yillarida "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan Dog'istonning atodqi shoiri R.Hamzatovning bolalarga bag'ishlangan dostoni N.Umarov tomonidan tarjima qilinish, nashr etilgan edi. Mutarjim "qulun", "toychoq", "qo'zi", "uloq" so'zlari borligidan tamom bexabar holda "toy bola", "uloq bola", "qo'zi bola" qabildan o'g'irgan.

Bundan tashqari, davr nuqtai nazaridan kelib chiqsak, Sh.Sa'dullaning S.Marshak, K.Chukovskiydan qilgan tarjimalari 1950-yillar uchun xarakterli edi. Mazkur tarjimalardagi tasvir uslubi-yu so'z qo'llash san'ati bugungi bolalar uchun jo'n.

S.M.: Gap tarjimon mahorati ustida ketar ekan, XX asr bolalar she'riyatining bayroqdorlaridan bo'lgan S.Marshak asarlarining o'zbek tiliga o'g'irilishi bilan bog'liq izlanishlar bu sohadagi yutuq va kamchiliklar xususida fikrlashga imkon beradi deb o'ylayman.

Jahon bolalar adabiyotining betakror ijodiy an'alarini chuqur o'zlashtirgan S.Marshak she'rlaridagi quvnoq yumor bilan yo'g'irilgan jo'shqin hissiyot har qanday millat bolalarining ruhiyatiga yaqin va tushunarli.

Shoir kichkintoylarning xayolparastligi-yu o'yinqaroligini, soddadiu qiziquvchanligini qalbdan his etadi. Shuning uchun o'z kitobxonlari diqqatini muayyan axloqiy estetik g'oyaga qaratish uchun har bir asarini qiziqarli badiiy syujet asosida yaratadi. Jumladan, "Ahmoq sichqoncha haqida ertak" (matnda sichqonchanning qulogsizligi tufayli boshidan kechirgan sarguzashtlari zaminida nodonligiga urg'u berilgan. Shu bois sizning tarjimangizda ertakning "Ahmoq sichqoncha haqida ertak" deb nomlanishida S.Marshak ko'zlagan poetik ma'no o'z ifodasini topmagandek tuyuladi)da ona sichqonning o'rdak, baqa, ot, cho'chqa, tovuq, cho'rtan baliq va mushukdan bolasiga alla aytib, tebratib turishni itimos qilishi:

Prixodi k nam, tyo'ta utka,

Nashu detku pokachat —

tarzida, sichqonchanning ular allasidan ko'ngli to'lmastligi to'g'risida gap ketganda muallif nutqi:

Glupiy malenkiy mishonok

Otvechayet yey sprosonok

tarzida takrorlanishi matnning musiqiy ohangdorligini ta'minlashdan tashqari, kitobxonlar e'tiborini sichqonchanning nodonligiga qaratadi. Afsuski, ertak matnining g'oyat muhim bu jihati tarjimada u qadar sezilmaydi.

Har qanday asarda bo'lgani kabi bolalar she'riyatida ham erkin tarjima muallif qo'llagan tasvir uslubi-yu badiiy san'atlarning muqobil variantlaridan foydalangan holda poetik obraz talqiniga o'zgar-tirish kiritmaslikni taqozo etadi. Shu jihatdan qaraganda, S.Marshakning "Kampir, eshikni yop" ertagidagi:

Molchat staruxa i starik,

Vodi nabrali v rot —

mistralaridagi "og'ziga suv olganday" iborasining "og'ziga talqon solganday" tarzida o'zbekchalashtirishini topqirlik bilan qo'llangan deyish mumkin. Ammo shu ertak matnida chaqirilmagan mehmonlarning tamaki chekishini nos chekdi deb o'g'irilishiga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki nos chekish ruslarga xos emas.

“Almqoq sichqoncha haqida ertak” ham bunday nuqsonlardan xoli emas.

Matni o‘qiyviz:

Pela nochyu mishka v norke:

-Sin, mishonok, zamolchil!

Dam tebe ya xlebnoy korki

I ogarochek svechi.

Tarjimada:

Ona sichqon alla aytar:

-Ko‘rar ko‘zim, jon qo‘zim,

Orom olgin, senga nonu ✖

Bol beraman (?) men o‘zim.

Shu o‘rinda “ogarchek svechi”ning bol tarzida o‘giriishi ham mantiqqa ziddir. Aslida ona sichqon sichqonchaga tunda qo‘rqmay uxlashi uchun sham va‘da qilmoqda.

Ertakdagi quyidagi to‘rtlik ham tarjimada xuddi shu xilda jiddiy o‘zgarishga uchraydi:

Pobejali mishka – mat,

Stala shuku v nyanki zvat:

- Prixodi k nam, tyo‘ta shuka,

Nashu detku pokachat.

Tarjimada:

Ona sichqon zir yugurar,

Tongda (?) cho‘rtan baliqqa.

- Bolam o‘jar, uxlatishib,

So‘ngra tushing ariqqa (?).

Ona sichqonning Cho‘rtan baliqqa tunda emas, tongda uchra-shini hisobga olmaganda ham “baliqqa”, “ariqqa” so‘zlarining faqat qo‘fiya uchungina ishlatilishi o‘zini oqlamasligini aytish joiz. Qolaversa, Cho‘rtan baliq ariqqa yashamasligini ham e‘tibordan soqit qilmaslik zarur.

Asliyatda ona sichqon barcha jonivorlarga “yo‘ta” (xola) deya murojaat qiladi. Tarjimada esa negadir “xola”, “amma”, “momo” so‘zlari aralash ishlatiladi. Bundan tashqari, tarjimada keltirilgan

“lovuq”, “sovuq”, “bola baqir” (aslida paqir) – “axir”, “yo‘lvorib”, “olvolib”, “xolamga” (aslida xolaga), “bolamga” qo‘fiyadosh so‘zlari ham shoir ko‘zlagan ma‘noni ochishga emas, aslida ma‘noni xiralashtirishga sabab bo‘lgan.

Shunga o‘xshash holat “Dono sichqoncha to‘g‘risida rivoyat” tarjimasida ham uchraydi.

Yumronqoziq bilan subhatida Sichqoncha u taklif qilgan o‘yinga roziligini aytib o‘z shartini bildiradi:

- Chto j, s igrayem, no snachala

Poschitayemsa, pojalyuy:

Ya – zverek

I ti – zverek.

Ya – mishonok,

Ti – xorek

Ti xiter,

A ya umen,

K to umen,

Tot vishel von!

Tarjimada:

- Roziman, ammo boshda

Bir so‘zni teng sanaymiz (?)

Kimki aqlli bo‘lsa,

Tan olarniz, qaraymiz (?)

- Sen yirtqichsan,

Ha, sen polvon.

Men – Sichqonman,

Sen-chi – Yumron.

Sen ayyorsan,

Men donishmand.

Kim donishmand

U aqlli,

Xuddi o‘sha,

Berar pand!

Tan olish kerak, ruscha matndagi soʻz oʻyinini, misralar bogʻlanishidagi sanog ohangi-yu, Sichqonchani fikrlash tarzidagi ildamlikni, garchi qoʻshimcha misralar evaziga boʻlsa-da, tarjimaga ham koʻchirishga jiddiy harakat qilingan. Keltilgan parchada “sanaymiz” rus tilidagi “poschitayemsa”ning aynan tarjimasini. Ammo unda sanash maʼnosiga qaraganda sanog oʻyini maʼnosi yashirin. Shu xildagi ayitshuv oʻyini folklorshunoslikda “sanama” deb yutilishi inobatga olinganda shoir ilgari surayotgan Sichqonchani donoligi bilan bogʻliq badiiy gʻoya yanada yorqinroq ifodalangan boʻlar edi.

Oʻzbekcha matndagi bolalar nutqiga xos boʻlmagan “domishmand”, “pand” soʻzlarining qoʻfiyalanishida ham sunʼiylik sezilib turadi.

T.A.: Eʼtirozlaringiz oʻrinli, qoʻfiyadan tashqari “pand” va “domishmand” soʻzlarini yosh kitobxonlar hazm qilishi qiyin. Shu oʻrinda hissoyot ustun kelgan. Qayta nashrda albatta hisobga olaman.

Ustoz Mirtemirning N.Yershov va Nekrasovdan, Q.Hikmat va H.Sharipovlarning S.Marshak va K.Chukovskiylardan yuksak saviyadagi tarjimalari bolalar adabiyoti tarjimonlari uchun chinakam ibrat maktabi boʻlib qolaveradi. Ayniqsa, Nekrasovning “Rusiyada kim yaxshi yashaydi” dostonidagi qishloqlar nomlarining oʻzbekcha muqobilini topish borasida ustoz Mirtemir muallifdan ham yuz chandon oshirib yuborgan.

Har bir tilning oʻziga xos milliy xususiyatlari uning soʻz boyligi, gap qurilishi, ifoda tarzidagina emas, maqol-u matallari, ibora-yu hazil mutoyibalarida ham zuhur etishi “begona” tillarga ham, qardosh tillarga ham babbaravar tegishlidir. Tarjima jarayonida shunday holatlar boʻladiki, mutarjim tishning kovagida — qalb toʻrida asrab-avaylab kelayotgan qiyos va oʻxshatishlarini, kutilmagan qoʻfiyalarni ana shu asarga singdirib yuboradi.

Yuqoridagi eʼtirozlaringizga kelsak, qoʻlyozmada “Eshikni yop, kampir” edi. Afsuski... S.Marshak mazkur mavzuni oʻzimizdan olib yozgan. U Yevropaga oʻtgach, nos tamakiga aylangan. Shuningdek, “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”ning 1950-yilgi nashrida “Bol beraman” deyilgan. Asar muallifi oʻziga nisbatan oʻta talabchan boʻl-

ganligi uchun turli xil nashrlarida turlicha oʻzgartirishlar qilganiga duch kelamiz.

Qoʻfiya masalasidagi eʼtirozlaringiz esa oʻrinli. Biroq, asliyatdagi “xola” soʻzini barcha hayvonlarga nisbatan berishdan ataylab qochdim. Sababi, “xola” soʻzini qayta-qayta ishlatish oʻquvchini zeriktiradi. Urfimizga koʻra “amma”, “momo” soʻzlarini koʻproq ishlatamiz. Bundan tashqari, korrekтура bilan bogʻliq “bola baqir” qabildagi nuqsonlarga ham yoʻl qoʻyilgan. Iboralar, maqol, hazil-mutoyibalarning muqobilini topish kerak. Masalan, Mirtemir domlaning Nekrasov qalamiga mansub “Moroz — krasniy nos”ni — “Izgʻirin — qizil burun” tarzida oʻgʻirishi ayni muddao boʻlgan.

Tarjimada matndan chekinish holatlari ham boʻlib turadi. Taniqli adabiyotshunos va tarjimon T.Jalolov tomonidan G.Serebryakovaning asarlari oʻzbek tiliga oʻgʻirilgani kitobxonlarga ayon. Bizning urf-odatlarimizdan bexabar yozuvchi asliyatda qator xatolarga yoʻl qoʻyadi. Toʻxtasin Jalolov, oʻz navbatida, ijodkor bilan bogʻlanib, eʼtirozini aytadi va tarjima jarayonida oʻsha nuqsonlarga tuzatish kiritadi. Shuningdek, K.Chukovskiyning “Moydodir” asarida Sankt-Peterburg shahridagi oqava suvlar oqadigan “Moyka” anhorini toʻgʻrisida soʻz yuritib, ikkit bolalar yuvimmasa oʻsha anhorga boshi tiqilishi haqida soʻz qotadi... Oʻzbek kitobxonlari “Moyka” toʻgʻrisida hatto tasavvurga ham ega emas. Shuni hisobga olganim holda toʻrt misrada ana shu anhorga taʼrif berganman.

S.M.: Sheʼriy asarlar asliyatida qoʻllangan badiiy sanʼatlar, poetik koʻchmalar, shoirning individual ifoda uslubi, ijodkor mansub boʻlgan xalqning tiliga va mentalitetiga xos tagdor qochirilmalar, quvnoq yumor, falsafiy mushohada, maqol va iboralar, hazil-mutuyiba va hikmatlar, juda boʻlmaganda, bir tildan ikkinchi tilga oʻgʻirish bilan osongina hal qilinadigan ijodiy ishdek taassurot qoldiradi. Aslida bir tildagi poetik tafakkur va obrazni ikkinchi tilga oʻgʻirish tarjimonidan juda boʻlmaganda shoir darajasida fikrlashni taqozo etadi. Ayni paytda poetik fikrning oʻziga xos yetarli emas. Tarjimon muallifning “Qalam tutgan qoʻli va tili” (Ogahiy) darajasiga koʻtarilishi qayta yaratish sanʼati zaminida sermashaqqat ijodiy zahmatlar yashirinligini anglatadi.

Shu o'rinda loaqal gardosh xalqlar bolalar she'riyati tarjimasi bilan shug'ullanayotgan Abdurahmon Akbar so'zlariga quloq tutsak. "Tarjima men uchun mahorat maktabi" deb yozadi shoir. — Tarjima kiritishar ekanman, aslyat bannisoli ko'zgedek, mana men, deb ko'z o'ngimda turadi. Fikrni, tuyg'uni, she'riy shaklini aslyatdagidek o'quvchiga manzur darajaga keltirish uchun bir necha variantda qog'oz qoralayman. Ko'proq erkin tarjima qilaman. She'rning muhim jihatlari mos so'zlar hisobiga boyitib, kam ahamiyatli o'rinlarini birlashtiraman. Shundaygina tarjimaning aslyatga yaqinlashganini paygay boshlayman. O'zga tildagi asarlarni o'g'irish har qanday mutarjim uchun ijod maktabi bo'lishiga shubham yo'q".

Odarda, o'tramiyona, g'o'r asarlar tarjima qilinmaydi. Aslyatda kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lgan asarlarga boshqa tilga mansub kitobxonlarning ham muhabbatini qozonishi mumkin. To'g'iri, mahorat sirlarini o'rganish uchun albatta tarjima bilan shug'ullanish shart emasligi barchaga ayon haqiqat. Har qanday kashfiyot bemiyl yangilanishlarga yo'l ochishi tabiiy. Asarlarning oddiy syujet qurilishidan tortib kompozitsion tuzilishigacha bo'lgan jamiki ijodiy unsurlarda adabiy ta'sir izlarini kuzatish mumkin. Jumladan, A.Qahorning "Bemor" hikoyasidagi qizaloqning onasi dardiga davo istab yolborishi bilan A.P.Chehovning "Yanka" hikoyasidagi bolakayning etkido'z zulmiga chidamasdan, bobosiga olib ketishini so'rab iltijo qilishida o'ziga xos o'xshashlik tuyaman. Siz yaratgan "Oltin yulli tulpor qissasi"da ham sabr-qanoat tuyg'usidan bebahira kampirning o'z cholini Tulporko'lga jo'natishi manzarasini A.S.Pushkinning "Baligchi ham baliq haqida ertak" asaridagi betzgin nafs bandasi bo'lgan kampirning cholini dengizga oltin baliq huzuriga yo'llashi tasviriga qiyoslagim keladi.

T.A: Badiiy tarjima qiyosi yo'q ijod maktabi. Undan bolalarga puxtaroq asar yozish mahoratini o'rganish mumkin. Ming afsuski, ijodkor do'stlarimiz bunga e'tibor bermaydi, jahon adabiyotini o'qimaydi.

O'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilish adabiyotimiz targ'ibotiga xizmat qiladi. Ammo u juda sust. Keyingi o'n besh yil ichida bu sohada tilga olishga arziqlik ish qilinmadi. Masalan, A.Obidjon,

I.Imonberdiyev, Rustam Nazar va A.Akbar she'rlarini rus tiliga o'g'iradigan tarjimolarni topish mumkindir, biroq talant va mahorat borasida shu ijodkorlarga tenglashadigan, mahni aslyatdagi kabi jaranglatadigan mutarjimning o'zi bo'lsa qaniydi.

S.M: Bundan 20 yillar muqaddam "Yoshlik" jurnalida e'lon qilingan "Boladek beg'ubor bo'lsin" nomli chiqishingizda, shoir va olim Ismoil To'lak O'zaSda e'lon qilingan "Qayta yaratish mashrafi" maqolasida bolalar adabiyoti tarjimachiligi xususida e'tiborga molik kuzatishlar bayon qilingan, muammolar kuyunchaklik bilan tilga olingan edi...

T.A: Nazarimda, fagat noligan bilan ish bitmaydi. A.Akbar gardosh xalqlar, K.Turdiyeva rus tilidan yaxshigina tarjimalar qilishmoqda. Kamina S.Marshak va K.Chukovskiy asarlari tarjimasi bilan baholi qudrat shug'ullanishim yuqorida qayd qilib o'tildi. Shoir va tarjimon og'alaramdan biri Mirariz A'zam ko'p yillardan buyon jahon bolalar adabiyotidan o'g'irgan asarlarini "Ma'rifat" gazetasida vaqti-vaqti bilan e'lon qilib kelayotganligi ko'pchilikka ayon. Endi ularni nashr ettirish masalasiga kelsak, bu jiddiy muammo. O'zbek tilidan o'zga tillarga o'g'irish masalasi esa muammolarning muammosidir. Tarjima asarlarini va bolalar adabiyotini davlat miqyosida hal qilishdan boshqa chora yo'q, degan fikrdaman.

S.M: Ulug' rus shoiri A.S.Pushkin "Bog'chasaro fontani" asarini fransuz tiliga o'g'irmoqchi bo'lgan N.B.Golsinga: "Adabiyotning shiz o'zingizni bag'ishlamogchi bo'layitgan sohasi menga ma'lum bo'lganlari orasida eng qiyin va eng qadrlanadigan sohadir" deb qayd qilgan ekan. Bu hol badiiy tarjimaning adabiy taraqqiyotidagi o'rni va rolga soya solmaydimi?

T.A: Agar o'sha asar o'zga tilga qoyillarib tarjima qilinsa, mutarjimning zahmati mehnati qadrlansa, adabiyotni yuksak cho'qqilarga ko'tarishi shubhasiz. Tarjimonning adabiyot taraqqiyotidagi o'rni beqiyos. Chunonchi, Ch.Aytmatovdan, G.Lorkadan, S.Yesenindan, F.Dostoyevskiydan, R.Hamzatov va boshqa ko'plab gardosh xalqlarning yozuvchi va shoirlaridan qilingan tarjimalarning adabiyotimiz taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri haqida alohida risolalar yozish, ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin. Tarjima tirikchilik manbai bo'lmaydi.

ligi kerak. Uni qo'ldan keladigan kishilarga topshirish lozim. Shundaygina kitobxon oldidagi mas'uliyat ham, majburiyat ham o'z tasdiq'ini topadi.

S.M.: O'ylaymanki, sizning rus va qirg'iz adabiyotidan, Miraziz A'zamning jahon bolalar adabiyotidan qilyotgan tarjimalaringiz bolalar she'riyatining rivojiga munosib turki berish bilan birga, shu sohada qalam tebratayotgan yoshlarga ijodiy mas'uliyat va mahorat bobida namuna vazifasini o'taydi.

2009

Ijodkorlar Tursunboy Adashboyev haqida

O'tdi-ketdi

Bolalarga shirin gaplar ovlab o'tdi,
Ular bilan birga shavqi g'ovlab o'tdi.
Nabiraga makkakavob ilingandek,
Dil qo'rini qalamida kavlab o'tdi.

Eng zo'r she'rin yuragiga solib ketdi,
Qahqahasin davramizdan olib ketdi.
So'nggi so'zi, so'nggi o'yi, so'nggi dami
Begona bir mashinada qolib ketdi.

Anvar Obidjon

XXX

Taniqli shoir, sernahsul tarjimon Tursunboy Adashboyev bola nasihatini xushlamasligini, u o'zini kichik deb o'ylaganlar, unga aql o'rgatib, yo'l ko'rsatadiganlar bilan ko'ngillashmasligini yaxshi tushunadi. Bola tenglik istaydi, baravarlik izlaydi. Bolaga teng bo'la bilganlarigina unga el bo'la oladi. Tursunboy aka ana shunday ijodkor. U bolafe'l odam, salobati ko'rinish obro' topishga intilmaydigan kichikfe'l odam bo'lgani uchun ham bola ko'ngliga yo'l topa oladi.

Shoir bolalar tabiatini yaxshi bilgani uchun ham, ularni ortiqcha papalamaydi. Bola bilan tengday gaplashish lozimligini, uning yelkasiga o'ziga yarasha salmoqli ruhiy-ma'naviy yuk ortish mumkin va kerak ekanini anglaydi. Shuning uchun ham she'rilarida badiiy

effekt berishi mumkin bo'lgan murakkab ifodaviy truktardan bema'lol foydalanaveradi. Negaki, bolaning chegara bilmas xayoloti she'r-dagi nozik ishoralarni kattalarga qaraganda teranroq anglashiga ishonadi.

T. Adashboyev she'rilaridagi jumboqlarni yechishga urinish o'quvchilarda ham badiiy did, ham original fikr, ham zukkolik shakllanishiga xizmat qiladi. "Beshta arra" she'rining so'nggi misrasini o'qimay turib, undagi "karra", "zarra", "marra", "tarra", "darra" so'zlaridan, shoir aytganiday birinchi harflar olib tashlansa, qaysi so'z paydo bo'lishi va u qanday ish quroli ekani haqida o'ylab ko'rish kichik maktab bolalarining o'qish darslarini qiziqarli mashg'ulotga aylantiradi.

"Farqi bita harfdadir" she'rilar turkumida: "Ziyrak, zukko bolajonlar, O'ylab ko'ring-chi biroz. Navbardagi yetti jumboq, Sizlar uchun qulay, mos" misralaridan so'ng "Qayiq", "Qalqon", "Hakka", "Tola", "To'ra", "Anor", "Ari", "Chana" so'zlari keltirilib, "Bitta harfni almashirib, o'zga bir so'z toping yana..." topshirig'i beriladi. Bunday she'rilar bugungi o'zbek milliy tarbiyashunosligining bosh maqsadi bo'lmish mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllanirishga mos ekanligi bilan ajralib turadi.

Qozqoboy YO'LDOSH
Qunduzoy HUSANBOYEVA
pedagogika fanlari doktorlari

XXX

Ayrim she'rillardagi vogelik, tuyg'ular kechinmasidan shoir bu she'rini o'z boshidan kechirganlari ta'siridanni yoki kuzatganlari mosida yozganni – bilinib turadi. Lekin Tursunboy aka she'rilarida bunday chegara yo'q – oddiy chizgilaridan salmoqli vogelargacha lirik qahramonning yuragidan o'tgan.

Shoir bolalar, kattalar tabiatining, o'zligining yarg etgan bir qirralini ko'rsatib qo'yadigan manzara, voqea, bahsning suratini so'zlarida chizadi, lekin hech qachon gissadan hissa chiqarmaydi; she'r qahramonlarini toifalarga ajratib, o'quvchini ham hakamlik chizig'ining u yoki bu yog'iga da'vat qilmaydi. Xuddi shu usul bilan muxlis-

larini bag'rikenглиkka, mustaqil mushohada yuritishga, hayotning o'ziday murakkab inson tabiatiga bir zarb bilan oq yoki qora chiziq tortmaslikka o'rgatsa, ajabmas.

Muhtarama Ulag'
shoirva

XXX

Tursunboy Adashboyev tarjimalari haqida gap ketarkan, o'zbek adabiyotida ko'pdan beri bir ana shakllanganligini aytish kerak. Ya'ni masalan, Nosir Fozilov nomini eshitganda qozoq nasrining o'zbek tilidagi qator nammunalari, yo bo'lmasa, mumtoz fors-tojik she'riyatining tarjimalari haqida gap ketganda Shoislom Shomuhamedov nomi kishining yodiga keladi. Tursunboy Adashboyev shu ma'noda qirg'iz so'z san'ati nammularini o'zbek xalqiga tanishtirishga ijodini bag'ishlagan, adabiy davralarda "Qirg'iz adabiyotining O'zbekistondagi vakili" maqomini olgan, hozirga qadar qirg'iz adiblarning o'tizga yaqin ktioblari ona tilimizda chop ettirgan adib. Ular orasida Chingiz Aymatov, To'lagan Qosimbekov, Shabdanboy Abduramanov singari nosirlarning, To'qtag'ul, Ali To'qamboyev, Temingul Umetaliyev, Suyunboy Eraliyev singari ko'p shoiriarning romanlari, qissalari, esselari, yigirmaga yaqin lirik to'plamlari bor. Qirg'iz adabiyotidan Tursunboy Adashboyev qilgan tarjimalarning o'zi o'zbek o'quvchisi kitob javonining enlikkina bir poyasini to'ldiradi. Ular orasida esa "Manas" dostoni tarjimalarining o'rni alohida.

"Manas"ning va demakki, bu doston tarjimasining bugungi kunda biz uchun alohida ahamiyati bor. U ona yurtini bosqinchi yovlardan tozalash, qariyb yuz yilcha hukm surgan og'ir istilodan qutulish, milliy mustaqillikka erishish, millatning hur bo'lib, boshqalar oldida bo'ymini qismay, boshini tik ko'tarib yura olishi uchun otlangan botirlar, Cho'iponimiz ta'biri bilan aytisak, el boshini qoplagan qorong'u tumni yoritish uchun gugurt chaqqan asl o'g'illar dostonidir. Hozirgi atamani qo'llasak, bular doston matnidan "qizil ip" bo'lib o'tadi.

Zuhriddin Isomiddinov
filologiya fanlari nomzodi

XXX
Yaxshi she'r bolalarning ko'ngil qo'shig'iga aylanadi. Tursunboy ana shunga intiladi.

Bolalikdagi yodlagan, xotirada qolgan she'r bir umr esdan chiqmaydi. Chunki unda o'z zavqi ifodalangan.

O'zbek bolalar she'riyatida beg'ubor kulgu tangis. Beg'ubor deyshimning sababi, ko'p she'rlarda "qitmirlik" bilan, masala shakliga, topishmoq shakliga o'rab beriladigan hazil-kulgular ham yo'q emas. Bolalar yorqin tabassumli kulguni yoqtiradi.

Bu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimaniki, Tursunboy Adashboyev she'rlarida ham yumor, ham go'zal tabiatga maftun qilish, ham bola bo'lib olarni ko'rish bor. Eng muhimi, u she'riyatimizga bolalarning beg'ubor o'yinlarini, kuzatishlarini, erkashlarini olib kirdi. Kichikintoylar Tursunboyning she'rlarida erkalaniib, yangilanib harakat qiladi.

Biz tabiatni asraylik, deb tinimsiz bong uramiz. Ammo bolalarga qanday tushuntirish kerak. Ularning ongini qanday uyg'otish kerak. Tursunboy buning yo'lini topadi.

Shoir "Arqida" she'rida shu nom bilan atalgan joyning manzarisini, jug'rofiy tuzilishini ta'riflab, bolalar diqqatini o'ziga tortadi.

U yumorni atay to'qib chiqarmaydi. O'quvchisini shunga tayyorlaydi. Men o'quvchilar oldida Tursunboy Adashboyevning she'r o'qiganini ko'p kuzatgaman. U she'r o'qiy boshlashi bilan tinglovchilar yuziga tabassum yuguradi. Sekin-sekin chehrasi yorishadi. Beixiyor o'zini tutolmay kulib yuboradi.

Safar Barnoyev
yozuwchi

XXX

Tursunboy Adashboyevning she'rlari hayotiy haqiqatdan uzozq bo'lgan madhiyabozlikdan xoli, samimiyydir. She'rlari bolalarga xos bo'lgan fikriy tarqoqlikdan xoli, kashfiyot bo'la oladigan oddiylikdan iborat bo'lib, beg'uborlik hissi bilan yo'g'rilgani uchun ham ularni o'qigan kishida yaxshi taassurot qoldiradi.

Uning ijodiga xos bo'lgan eng asosiy xususiyatlardan yana biri shuki, shoir o'z she'rlarida metafora va o'xshatishlarni ishlatar ekan, bularni bolalarga xos qilib ifodalash zarurligini u bir daqiqa ham esidan chigarmaydi. Shuning uchun ham unda bolalarcha tasavvurga, bolalarda bu she'rning tezroq esda qolishi uchun zamin yaratadi.

Kavsar Turdiyeva

shoir

XXX

O'zbek bolalar adabiyotida Vatan mavzui bolalar adabiyotimizning ilk qadamlaridan boshlanadi. Shoirimiz dil tug'yonlarining eng baland pardalaridan doimo azizu m'karram ona-Vatan vasfiga bag'ishlaydilar, uning go'zalliklarini to'lib-toshib madh etadilar. Zero, Vatan Ona qadar muqaddas, Ona qadar mukarram, Ona qadar musaffodir. Vatanning noz-ne'matlari, boyliklari qanchalik qadrlil, bog'u bo'stonlari, gulzoru chamanzorlari qanchalik go'zal bo'lsa, tog'u toshlari, cho'lu biyobonlari ham shunchalar go'zal va qadrlidir. Binobarin, vataparvar shoir Vatanning qahraton qishidan ham, gullarga burkangan bahoridan ham, jazirama yozidan ham, to'kin-sochin kuzidan ham birday go'zallik izlaydi va kashf qiladi.

Shoir qalami ona-Vatanning turfa manzaralarini mohir musavvirdek hassoslik bilan chizadi, yosh kitobxonni ona-Vatan oshiftasiga aylantiradi. Ayniqsa, Tursunboy Adashboyev tasviridagi tabiat kelinchagi – bahor manzaralari shu jihatdan betakroridir.

Tursunboy Adashboyevning o'lkamizning tarixiy joylari va betakror tabiati tasviriga bag'ishlangan she'rlarida ona-Vatan, kindik goni to'kilgan muqaddas tuproqqa mehr-muhabbat tuyg'ulari ming yillik qadriyatlarimizga shu qadar samimiyat bilan yo'g'rilganki, bu dihnavozi satrlar yosh kitobxon qalbiga bir o'qishda jo bo'ladi.

Rahmatulla Barakayev

filologiya fanlari nomzodi

XXX

Shoir she'rlarini mutolaa qilgan yosh kitobxon qalbidagi Vatanga muhabbat, erk, ozodlik, tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish,

o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'lash kabi tushunchalar shakllana borishi tabiiydir. Ayniqsa shoirning o'z bolaligini xotirlab yozgan she'rlari yosh kitobxonlar qalbini larzaga keltiradi. Bolaligi ikkinchi jahon urushi hamda urushdan keyingi og'ir davrlarga to'g'ri kelgan T. Adashboyevning "Hozirgi bolalar", "Tush bo'lib qolsin, mayli", "Sushika" she'rlarida urush dahshatlari, uning inson qalbidagi, mitti yuraklar shuurida qoldirgan jarohatlari qalanga olinadi.

Kamola Mustimova

Adabiyotshunos

XXX

Ko'chat tuproq, suv va havodan ta'sirlanib o'sganidek, har bir qalamkash ijodiy kamoloti xalq og'zaki ijodi, milliy adabiyot hamda jahon adabiyoti ta'siriga chambarchas aloqadorligi ham ma'lum haqiqat. U bolaligidanoq xalq og'zaki ijodidan bahra oldi, xalq og'zaki ijodining betakror, samimiy va soddaligi bilan ajralib turadigan quyuma misralari bo'lg'usi ijodkor uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai bo'ldi va keyinchalik uning asarlarida yaqqol aks etdi; T. Adashboyev o'z asarlarida "meni tarbiyalab voyaga yetkazgan bog'bonlar" deb ko'p martalab tilga oladigan Qudrat Hikmat, Sulton Jo'ra, Zafar Diyor singari o'zbek bolalar she'riyati yetakchi namoyandalarning asarlarida aks etadigan, yuksak badiiyat bilan uyg'unlashib ketgan go'zal shakiliy mukammallik shogird she'rlariga ham ko'chib o'tdi; jahon bolalar adabiyotining yetakchi namoyandalarning eng sara asarlarini tarjima qilish T. Adashboyev uchun ulkan tajriba maktabi vazifasini o'tadi, ular asarlarini o'zbek kitobxoniga manzur bo'ladigan darajada o'g'irish yo'lida chekkan zammalar shoir qalamini charxlashga xizmat qildi va bularning barchasi bugungi kunga kelib, o'z samarasini berdi. Binobarin, T. Adashboyev ijodini, avvalo, ushbu nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish shoir ijodiy kamolotini har tomonlama qamrab olishga imkon beradi.

Baxshullo Ashurov

Adabiyotshunos

Kechmish va kechirmishlarimdan

Mira'ziz A'zam

Men 1936-yil 29-martda, dehqonchasiqa aytganda, qo'y yili tug'ilganman. Tug'ilgan joyim Toshkent. Sag'bon bilan Chig'atoyning Hurriyat deb ataluvchi bog'lama ko'chasi, Baland ko'prik yoki Aylam bo'yi mahallasida. Keyin aniqlashimcha, otam Mirg'ani A'zam o'g'li 1941-yili Qaffol al-Shoshiy maqbarasi yonidagi 23-o'rta maktabning ilmiy bo'lim mudiri ayni chog'da tarix o'qituvchisi, onam Xatira Muhammadkarim qizi bolalar bog'chasida murabbiya bo'lgan ekan. Men tug'ilganimda otam 24, onam 19 yoshda ekanlar.

Otamning eskicha savodi bo'lganiga shubham yo'q, chunki uning onasi Kimyo buvim, aytilaricha 30 yil Buxoro madrasalarida o'qib kelgan kattagina olim Mulla Ahmad Eshonning qizi edi. Yoshligida otamga faqat arab alifbosini emas, arab tili va grammatikasini va ko'p eski kitoblarni o'qishni ham o'rgatishgan, albatta. Uydagi saqlanib qolgan kitoblar shundan dalolat beradi. Ammo zamon o'zgarгани uchun, otamni yangi maktabga berishgan va u o'rta maxsus pedagogika bilim yurtini, texnikumini bitirib, yangi maktablarda o'qituvchilik qilgan, hatto, tuman maorif bo'limiga rahbarlik lavozimida ham ishlagan. Keyin maktabga yuborilgan.

1941-yilda urushga ketgan va 1942-yilda Kalinin jabbasida, Moskva viloyatiga yaqin bir qishloqda halok bo'lgan. Otam halok bo'lgandan keyin, uyimizga Toshkent Pedagogika institutining sirtqi bo'limi dekanidan bir xat kelgan, bu xatda 4-kurs imtihonlarini o'z vaqtida topshirmagan taqdirda, kursdan kursga o'tkazmay qoldirilishi aytilgan. Demak, 29 yoshida ilmiy bo'lim mudiri bo'lmish otam 1941-yili urushga ketayotgan paytda tarix fakultetining sirtqi bo'limi 4-kurs talabasi ham bo'lgan. Otamni tanigan bilgan kishilar u haqda yaxshi gaplar aytishardi. Masalan, sanatoriy-O'rmon maktabining direktori Ochlil aka Tog'yaev, "Otang Mirg'ani A'zamov juda yaxshi inson, ishini yaxshi yuritadigan ajoyib tashkilotchi edi, men tuman maorif bo'limida u bilan birga ishlaganman, o'ylaymanki, sen ham otangga o'xshagan zo'r yigit bo'lasan" degandi, bizning 28-maktabning Farida opa degan ilmiy bo'lim mudiri esa: "Men 10-sinfni 1941-

yilda 23-maktabda bitirganman, sening dadang juda ta'sirli gaplar aytar edi, biz hammamiz uni yaxshi ko'radik" degan bo'lsa, mahallimizdagi bir kosib kishi, ko'cha eshigimiz bilan yonma-yon eshik tugida o'tiradigan qo'shnimiz Yo'ldosh ota har kuni meni to'xtatib: "O'g'lim, siz juda yaxshi odanning farzandisiz, otangiz to'g'riso'z yigit edi, ko'rinishidan nur yog'ilardi... Siz otangizga o'xshagan bo'ling," der edi. Hakim aka degan bir ajoyib nonvoy kishi: "Otang qo'li ochiq, mard yigit edi. Bir o'qituvchiga o'z oyog'idagi etikni yechib in'om qilib yuborganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ham u juda kambag'alparvar edi. Odangga rahm shafqat va diqqat bilan qarar, g'ururini ko'tarib shunday gaplar aytardiki, joning yayrab ketardi. Maktabdagi yetim-yesir, qarovsiz bolalarga doim yordam olib berar, agar ololmasa, o'z yonidan kiyim-boshimi, pulmi, kitob-daftermi berib, yordam ko'rsatardi, shaxsan mening o'zimga kostyum-shim olib bergan" degandi. U doim yoppagan nonlarning eng saralarini turlab, puflab-puflab, xaltamga solib berardi. Otam haqida aytilgan bunday gaplar umrim bo'yi menga yaxshi ruhiy yo'ldosh bo'ldi.

Onamning hikoya qilishicha, otam uncha-muncha qo'shiq ham aytarkan. Oqshomlari uyga qaytganda, eshik taqillatib, onam eshikni ochganda «So'lim» ashulasini xirgoyi qilgancha jilmayib kirib kelar ekan.

Otam yoshligida she'riyatga va jurnalistikaga ham qiziqqan deb o'ylayman, chunki o'quvchilik yillarimda bir daftarda uning bir-ikki she'rlarini va respublika gazetasida chiqqan maqolalarini o'qigandim, ammo u paytdagi ozgina farosatsizligim va bunga e'tiborsiz qaraganim tufayli, afsuski ularni ham, otamdan qolgan maktablar, fotoalar va qora xatni ham saqlab qololmaganman.

Otamning onasi Kimyo buvim va onamning onasi Bahri buvim opa-singil bo'lishmagan. Taqdir taqozosi bilan otamning otasi A'zam buvam 25 yoshda vafot etgan. Kimyo buvim qo'lida 4 yashar o'g'li (mening otam Mirg'ani) bilan beva qolgan. Bir kuni oy kuni yaqin og'riyoq bo'lib yurgan Bahri buvimni ko'rganim kelgan, shunda opa-singil suhbatlashib qolgan, Bahri buvim:

- Opa siz ham endi boshqa er qilsangiz bo'larmidi, - degan.

- Sening eringga o'xshagan quvnoq odam uchrasa tegardim, deb javob bergan Kimyo buvim.

Ular ketishgandan keyin Bahri buvim onasiga:

- O'zim ikki o'tning o'rtasida turibmanu, Kimyoyingiz sening eringga o'xshagan sho'x er bo'lsa tegardim deydi, andisha ham qilmay... — deb shikoyat qilgan, bola tug'ilishidan oldin ko'p g'amgin bo'lib yurgan ekanlar.

Buvim, qiz (onam Xatira) ko'rgan va 7 kundand keyin vafot etgan. Onamni katta buvaminizning yaqinlari Sayidolim va Zamira oilasiga berishgan. Ayni chog'da uni otam Mirg'aniga beshikkerti qilib sirtidan unashib qo'yishgan.

- Biz o'zimiz 14-15 yildan keyin, Xudo xohlasa qizni qaytarib olamiz degan ekan katta buvaminiz.

Shunday qilib onam Muhammadkarim qizi endilikda Sayidolim qiziga aylandi. Zamira buvim uni emizib katta qiladi. Kimyo buvim o'zi istagan erga — Muhammadkarim buvamga uzatiladi.

Chindan ham onam 15 yoshga kirganda bu oiladan o'z xonadoniga kelin bo'lib qaytadi va biz 3 farzand dunyoga kelamiz.

Shu tariqa biz ikki buvalik va ikki buvilik bo'lamiz. Ikki tarafda tog'a va xolalarimiz ham talaygina edi. Biz ikki tarafning erkatoylari, sevimli nabiralari edik.

O'rtada 2-jahon urushi boshlanganda, oilalarimiz to's-to's bo'lib ketadi.

Biz Sayidolim buvaminiz qanoti ostida yashardiku, ammo Muham-madkarim buvaminikiga ham tez-tez borib turardik.

Buvam haqiqatdan ham juda qiziqchi edi.

-Doda, - der edim men(buvamni doda derdik), - siz uy-lanmasdan oldin nima ish qildingiz?

-Men karvon bilan dunyo kezadigan katta savdogar edim.

-Savdogar degani magazinda o'tirib molini sotmaydimi, karvonda nima bor edi?

-Iye sen qiziq ekansanku, biz molni bozorda o'tirib sotarmidik? Bizda savdolar ko'tarasi bo'lardi, savdo oshning ustida, o'yin-kulgu bilan pishadi, bildingmi?

-Qayvoqlarga borgansiz?

-Sen unaga deb so'rama, qayvoqlarga bormagansiz deb so'ra?

-Moskovga borgannimisiz?

-Moskovning ham qolmagan, Pskovning ham qolmagan, Peterburg, Novgorod, Razan-pazaningni (Ryazan demogchi) ilma-teshik qilib yuborgannimiz.

-Germonga ham borgannimisiz?

-Borganda qandoq!

-Berlinga ham borgannimisiz?

-O'sha yerda oshiq o'ynagannimiz! Nemisga palov yedirgannimiz, Choynak-piyoladan choy ichishni o'rgatgannimiz. Nima deb qo'yibsan?

-O'zingiz nemischa tugul, o'rischani ham bilmaysizku, qanday qilib...

-E, bizning ko'p til biladigan tilmochimiz bo'lardi. Birdan hoholab kula boshlardi.

-Mani o'rischani bilmaydi deysan. "Da" bilan "ne"ni boplab qo'yaman.

-Yo'g'-yey, - deyman.

-Bir kun Toshkanni vokzalida bir o'ris keldi oldimga, bir narsalarni so'radi, "dada" dedim unga, bir payt aylanib kelib yana bir narsa so'radi. Yana «dada» dedim, achchig'i kelib bir tepib qolsa bo'ladimi. Men uning nima so'raganini qayoqdan bilaman, "dada"ni bilganimga shukur qilsin.

-Tepganiga alam qilmadimi, axir?

-Laqillatganim unga alam qildi. Uning alarning oldida tepki nima bo'пти?

Kimyo buvimini o'ta sodd, ishonuvchan, keng fe'l va samimiy ayol edi deyshardi va yana "jannati xotin" deb qo'shib qo'yishardi. Singlisiga o'sha gapni aytishi ham beg'arazlik va samimiyatidan bo'lgan albatta. Bahri buvim esa xayolchan, sermulohaza, andishali va g'amgin ayol bo'lgani uchunmi, Muhammadkarim buvaminiz shu buviminizni juda qattiq sevarkan. U vafot etganda tarki dunyo qilib, Makkaga yo'l olibdi ekan. Dadalari orgalaridan bir guruh ulfatlarini jo'natib, ularning nasihat va kengashlari bilan yo'ldan qaytargan ekanlar. Keyin "Bahri bo'lmasa, mana, opasi, Bahridan hyech kam-chillik joyi yo'q, senda — ikki qiz, unda bir o'g'it" deb, o'rtaga olib,

deyarli majburlab uylantirib qo'yishgan. So'ngroq Kimyo buvim gandaydir ayollar dardiga chaliniib, boshqa farzand ko'rmay vafot etganlar. Bu paytda men ikki yoshda edim. Buvamni uchinchi bora uylantirishadi. Undan ikki o'g'li ko'radilar. Bu kichik buvimiz bilan so'nggi yillarda ko'p urishib qolardilar va peshonalariga urib: «Mana bu sho'r bo'lmasa, Bahridan ayrilarmidim?» deb afsus-nadomat chekardilar.

Onam, Saydolim buvam va Zamira buvim qo'lida o'sgandi. Saydolim buvam juda kelishgan va xush tabiat kishi edi. Hammanimiz bilan «siz»lashib gaplashardi. Otalari Azimxo'ja Eshon bizing katta buvamiz Mulla Ahmad Eshon bilan Buxoroda bir madrasada o'qishgan, Oktyabr to'ntarishidan keyin otilib ketgandi. Shu bois Saydolim buvam yurak oldirib qo'ygan, bizlarni hyech dimiy ta'limga yaqinlashirmas edi. Hayit kunlari namozga juda turib ketar, ammo har gancha yalinsam ham, meni hyech o'zi bilan birga olib ketmasdi.

Zamira buvim past bo'yli, yuzlari xoldor, o'zi hayotsevar, mehrga boy, aynigsa, menga nisbatan mehri bo'lakcha edi. 16 farzand ko'rib, bironatasini erkalatmagan buvim meni erkaldari.

Onam ana shu mehri daryo kishilar qo'lida ulg'aygandi. U 7 yoshida Qur'oni Karimni sharhlatib o'qiy boshlabdi va o'shanda buvam rahmatlik, Xatirani xudo ko'zdan asrasin, deb jamoatga xayri-ehson bergan ekan. Onam to umrining oxirigacha kunning turli vaqtlarida, ko'prog ertalab va kechqurun Qur'oni mutolaa qilardi...

Juda ko'p ertak bilar, ertaklari qo'shiq aralash bo'lardi, kechalari bizni qo'shiqli ertaklar aytib uxlatardi. Ukamni erkalaganda shunday bir hazil ekspromt-she'rlar to'qib tashlardiki, bularni eshitgani qo'sh-ni xotinlar devordan bosh chiqarib eshitishlari men uchun qiziq tuyulardi. Ba'zida otamning o'limi haqida hazin-hazin qo'shiqlar ayardi, bu qo'shiqlarni o'zi to'qib chiqaramidi, yo xalq qo'shiqlarimidi, buni aniq, uzli-kesil ayolmayman. Har galay, o'zi to'qigan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Chunki bir daf'a, buvam vafot etganda buvim o'z azasiga qo'shib aytgan she'riy satrlarni eslab, «buving bechora marsiyasida men aytgan so'zlarni aytadi... Axir, men aytganlarimni qari odamga nisbatan aytilsa, eshitganlar kuladi» degandilar.

Otamdan qora xat kelganda, men 5 yashar bola edim. To'g'qiz yoshli Naima opam, bir yashar Mirvali ukam yetim goldik. Onam endigina 24 yoshga kirgan edi. Saydolim buvam urush boshlanishidan uch-to'rt yil burun bog'larining 12 sotix yerini otamning nomiga xullab bergan ekan. Biz otamning qolgan hovlini sotib, shu boqqa buvalarim bag'riga ko'chib o'tdik. Bu 12 sotix joy deganimiz uch-to'rt tup tok, o'rik, olma, shaftoli, yong'og daraxtlardan iborat bog' va ekin eksa bo'ladigan yerdan iborat edi. Somon suvov toml bir kichik uyi va ayvoni bor edi. To'rt jon shu yerda kun ko'radik.

Onam tuzalmas asab kasaliga (epilepsiyaga) yo'liqqani sababli, vrachlar bolalar bog'chasida ishlashiga ruxsat bermay qo'ygan edi. Ozroq bozor-o'char, atlas olib-sotish bilan shug'ullanardi. Biz uch bola onam hozordan sal kechikib kelsa, o'takamiz yoritib kutib o'tirardik. Bozordami, yo'ldami kasali tutib qolmadimkin, deb yo'l izg'ib ketadigan paytlarimiz ham bo'lardi. Ba'zi-ba'zida chindan ham kasallari tutib qolgan bo'lardi.

Yog'in-sochin kunlarida uyimizdan chakka o'tib ketar, har tirsak yerga kosa, paqir qo'yib, ustimizga yopgan ko'rpa ustiga chakka tomib chiqardi.

Onam ham, opam ham benihoya chiroylik insonlar edi. Onamga yil ora sovechi kelar, onam bizni deb hammasiga rad javobi berardi. Bizni deb qayta turmush qurmadi. Bir kuni menga onamning To'xtaniso ismli xolasi: «Sen onang, erga tegaman desa, qarshilik qilmagin, o'zingiz bilasiz, biz rozimiz, degin, bo'lmasa u dunyoda onang beva o'lgani uchun sen javob berasan» degandi. Men onam bilan suhbatlashib o'tirib: «Opa, agar siz erga tegmoqchi bo'lsangiz, tegavering, biz rozimiz», deya turib yig'lab yubordim. «Yo'o'q, men turmush qur olmayman, mana, Karima xolang erga tekkan edi, o'g'li Tohir sili bo'lib goldi» degandi onam. Aqlim bilan bu gap noto'g'ri-ligini bilardim, ammo yuragim onamni hyech kimga bergisi kelmasdi. Naima opam beshinchi sinfda o'qiyotgan paytida ich terlama kasali bilan og'ridi. 40 kun tamaddi qilgani yo'q, fagat dori, fagat ukol... fagat og'ziga suv tomizilardi. Onam Rayhon opa ismi tatar vrachni yollagandilar. Uyimizda bor-yo'q bisotimizni va topgan-tuganlarini sotib, opamni vrachga qaratdilar. Kechalari: «Ey Xudo,

qizimizga shifo ato et, ey Xudo, agar qizimizga shifo ato etsang, men hych qachon, nega beva goldim?» demayman, deb yig'lardi. Yotganining 39 kuni Naima opanning burniga tariqday uch dona ter chiqdi. Rayhon opa onamni quchoqlab: «Bo'ldi, Xaitra, bo'ldi, qizing omon goldi» deb tabriklay ketdi.

Opam tuzalib, bir dukun, quyuq gora sochlari taqimiga tushadigan go'zal qiz bo'lib yetildi. 17 yoshga yetar-yetmas sovchilar uyimizni tinchitmay qo'yishdi. Bir kuni onam: «Seni qanday joyga beraylik?» — deb so'raganda, opam sho'rik "uylaridan chakka o'tmasa bo'ldi..." degandi. "Yo'y, qizginam-ye'y, bu chakkalar shunchalik chakangga tekkannidi?" deb uni quchoqlab yig'lagandilar.

Onanning erga tegmagani mening ham sil kasali bilan og'ri-shimdan saqlab qolmadi. 6-sinfda o'qib yurganimga «Tubdispanser» tekshiruvlari o'ng o'pkamning beshdan bir qismida shu kasal ay-lanayotganini ko'rsatdi. Endi ana o'shanda onanning sel bo'lish-larini ko'rsangiz... Meni darhol Sanatoriyy-O'rmon Maktabiga o'tkaz-dilar. Sanatoriyy-O'rmon Maktabi Sag'bon ko'chasining Achchi-oboddan quyiroqdagi bir so'lim go'shasida joylashgan edi. Ko'cha-ning o'ng tarafidagi hozirgi 139-maktab binosi sanatoriyning yotog'i va madaniy-sport mashg'ulotlari o'tkaziladigan joyi edi. O'quv xonalari hozirgi Toshkent Chinni zavodi, Tunuka-metal Buyumlar zavodi hamda 112- va 169-bog'chalarning o'rinda edi. Toshkent Chinni zavodi o'rindagi yerlar olmazor, nokzor, yong'oqzor bog'lar bo'lib, ular sanatoriyy tasarrufida edi. Men ana shu sanatoriyyda davolanib, olti oy ichida butunlay kasaldan forig' bo'lib ketdim.

Ukam Mirvali ham surunkali ichburug' kasaliga duchor bo'lgan to besh yoshga kirguncha oyoqda yurib ketolmagan edi. U ham Ollohning inoyati bilan tuzalib ketdi va eson-omon o'qishni bitkazdi, olti ma'lumoti bo'ldi.

Urush davrining og'irliklariga qaramay, onam bizning qorimiz to'q, egnimiz but, yaxshi o'qishimiz va tarbiyalanishimiz uchun hych narsasini ayamadi. O'zini o'tga-cho'qqa urardi. Atlas sotishdan tushadigan daromad, davlatdan oladigan nafqamiz va bog'imizdagi meva-chevalarning to'kinligi bizni urush davrining og'irliklaridan eson-omon olib o'tdi. Bog'imizdagi bir tup jonog'i olma juda nafis

rangli va shirin meva berar va hammadan oldin pishardi, uning xush-bo'y mevasi yoz oylaridayoq tugab ketardi, bir tup razmarin olmaniz esa, kech kuzda pishar va shu qadar ko'p meva berardiki, uncha-muncha xarid qilgan bilan tugamas, ortgani kelasi yil bahorigacha yetib borardi. O'quvchilar hayron bo'lmashligi uchun, aytib o'tay: u paytdagi olma daraxtlari xozirgilarday past bo'yli emasdi. Yong'oq daraxtiday baland, tanasi zo'rg'a quchoqqa sig'adigan daraxtlar edi. Razmarin olmaniz bir yil kam hosil berar, ikkinchi yili benhoya ko'p hosil berardiki, yig'ganda bir uy to'lib ketardi. 1954 yilda bir qurg'oqchilik bo'ldi va katta olmalarning hammasi qurib qoldi. Shundan keyin men biron joyda bunday katta olma daraxtlarini ko'rganim yo'q. Zayniddin Vosifyning "Badoyi ul-Vaqoe" kitobida Toshkentga kelaverishda taxminan 30 chaqirim yerdan olma hidi kela boshlaydi, degan gaplarini o'qiganimga, o'sha olma daraxtlari-miz yodimga tushdi.

Men 1943 o'rta maktabga o'qishga kiridim. Darsliklarim, o'quv qurollarim sinf bo'yicha eng a'lo darajada edi. Onam har yili ta'tilda kinoga va Yosh Tomoshabinlar Teatriga borishim uchun oldindan haftalik chiptalar olib berardi. O'sha yillarda men teatr sahnasida "Yoritosh", "Ikki kapitan", "Po'lat qanday toblandi", "Polk o'g'iri" kabi tomoshalarni ko'rganimni yaxshi eslayman.

6-sinfidan boshlab maktabdagi adabiyot to'garigiga qatnadim, dastlabki she'rlarimni o'sha yillarda yozdim, ammo ularni matbuotga berish to'g'risida o'ylamadim. Chunki birona odam bularni gazetaga yubor, deb aytgani yo'q va umuman she'r degani eng oldin gazetada chiqarilishi to'g'risida tasavvurim ham yo'q edi.

1953-yilda Toshkentdagi 28-maktabni oltin medal bilan bitkaz-dim va tahsil olish uchun Milliy Universitet (eski nomi Toshkent Davlat universiteti)ning filologiya fakultetiga kiridim. Talabalik yil-larimda sevgi-muhabbat mavzuidagi turli-tuman she'r turkumlari yozdim, o'zimcha, o'zim uchun Hyeynrix Hayne, Pushkin, Sergey Yesenin she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilib yurardim, ammo matbuot bilan aloqam yo'q edi. Faqat ikkinchi kursda o'qiyotganim-da kursdoshlarimdan ba'zilari yozgan narsalarini matbuotda chiqarishganidan keyin ilk bora narsalarimni gazetaga yuborib ko'rish

to'g'risida o'yalay boshladim. Ammo bunga negadir jur'atim yetishmadi. Hammasi sevgi haqida bo'lgani uchun, kulishadimi, deb hayiqardim.

1958-yilda fakultetning jurnalistika bo'limini tugatdim. 1958-1959-yillarda Toshkent telestudiyasida muharrir bo'lib ishladim. Turli munosabatlar bahonasida televidenie orgali o'zbek tomoshabinlarini qozoq-qirg'iz shoirlari ijodi bilan tanishtirdim.

1959-yilning bahorida meni "G'uncha" jurnaliga ishga taklif qilishdi, 1962-yilda uylandim, ketma-ket uch o'g'illik bo'ldim va shu tariqa men o'z-o'zidan bolalar dunyosi bilan yuzma-yuz kelib qoldim. 1967-yilgacha shu jurnalda ishlab, bolalar uchun ko'plab she'rlar yozdim.

1964-yili yoshlar uyushmasining "Cho'lpon" (eski nomi "Yosh gvardiya") nashriyoti mening 10 ta she'rini "Metallurg" kitobchasida bolalarga taqdim etdi. O'sha davrda bir odat rasm bo'lgandi: nashriyotlar yosh mualliflarning alohida kitoblarini nashr etmasdilar, 2-3 yo 4 va yo 10 muallifning kitobini bir xil qilib chiqaradilar. Mening she'rlarimni ham yaxshigina lirik shoir Olim Mahkamovning she'rlari bilan birga, buning ustiga ustak, muntarijasini aralash qilib nashr etishdi.

1967-1975-yillarda yoshlar nashriyotida, 1975-1985-yillarda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1986-yilda "Saodat" jurnalida ishladim. 1987-1992-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Boshqaruv kotibining o'rinbosari. Ijodiy masalalar bo'yicha mas'ul kotib lavozimida xizmat qildim. 1992-94-yillarda "Zamon O'zbekiston" gazetasida bo'lim mudiri, 1994-1996-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Targ'ibot Markazida muxbirlik qildim. 1996-yildan hozirgacha nafqadorman.

Bu yillar davomida bolalar uchun yuqorida nomi aytilgan "Metallurg"dan tashqari, "Aqli bolalar" (1996), "Senga nima bo'ldi?" (1970), "G'alati tush" (1972), "er aylanadi" (1973), "erga dovrug solamiz" (1976), "Bir cho'ntak yong'oq" (1990), "Qirg'bolaga qirg' savoi" (2000), "Eng yorug' yulduzlar" (2002) nomli turli-tuman kitoblari nashr etildi. Ularda bolalarning qalbi va tuyg'ulari orgali olam va odam, yaxshiilik bilan yomonlik, tekinxo'rlik va halol

mehnat tushunchalari borasida qalam tebratganman. Rus tilida uch she'riy to'plamim nashr etildi. Ukrain, turkman, mo'g'ul tillarida ham chop etildi. She'riy turkumlarim va alohida she'rlarim belorus, moldavan, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz va boshqa tillarda ham ko'p e'lon qilingan. Men ham o'z navbatida dunyo bolalar adabiyotining yuzlaricha nodir asarlarini o'zbekchaga o'girganman. Bular orasida Korney Chukovskiy, Edvard Lir, Uolter De la Mer, Janni Rodari, Jak Prever, Jeyms Kryus, Yulian Tuvim, Qn Bjexva, Yan Raynis, Ovanes Tumanyan, Iskandar al-Hurriy, Isikava Taquboku, Dayun Takami, Nozim Hikmat, Ali Oqboosh, Mustafano Rahmondo'st kabilar bor.

Kattalar uchun "Sevaman" (1977), "Tuyg'ular" (1980), "Sabot" (1983), "Haqiqat ko'zlar" (1988) nomli kitoblari chiqqan. Inson hurliigi uchun, haqiqat uchun erk va mustaqillik uchun kurash bu kitoblarning asos g'oyalari deb bilganman.

Katalarga yozgan bir qator she'rlarim ham rus, ukrain, latish, turk va koreys tillariga tarjima qilingan.

Men umrim davomida jahon adabiyotining daho shoirlari Fariddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan o'zbekchaga o'g'irishni ham zimmandagi vazifalardan biri deb bilganman va bu yo'lda ozmi-ko'pmi zahmat chekkanman. Eronlik ozarbayjon shoiri Shahriyorning eng nodir asari "Haydar boboga salom" dostonini ham tarjima qildim va bu asar "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qilindi.

Jazoir yozuvchisi Osiyo Jabborning, turk yozuvchisi O'rxon Kamolning, norveg yozuvchisi Tarey Vesosning romanlarini o'zbek o'quvchisiga taqdim etdim.

Tilga va adabiyotga oid adabiy-tanqidiy maqola, taqriz va tadqiqiy ishlariim ham turli nashrlar, jurnal va gazetalarda bosilib chiqqan.

"Erga dovrug solamiz" she'rim adabiy konkursda mukofotga sazovor bo'lgan.

Bolalar adabiyotidan test topshiriqlari

1. Mustaqillik davri bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

A. Bolalar adabiyoti barcha zamonlarda bir xil xususiyatga ega bo'lgan.

B. Tanqidiy ruhda bo'lgan.

C. Ijod erkinligiga erishildi.

D. She'riyatga katta e'tibor berildi.

2. Mustaqillik davri bolalar adabiyotining yetakchi mavzulari qaysi javobda berilgan?

A. O'talar va bolalar muammosi.

B. Urush va tinchlik.

C. Ta'limga e'tibor.

D. O'zlikni anglash.

3. Mustaqillik davri bolalar adabiyotining publisistik janrlar rivojini aniqlang.

A. Bolalar publisistikasida ijimoiy motivlar kuchaydi.

B. Boshqa janrlarga qorishib ketdi.

C. Publisistika rivoj topmadi.

D. Publisistik asarlar yaratilmadi.

4. Mustaqillik davridagi faol bolalar ijodkorlarini belgilang.

A. T. Adashboyev, A. Obidjon, Q. Hikmat.

B. Sh. Sa'dulla, Olloyor, R. Parfi.

C. X. To'xtaboyev, A. Obidjon, K. Turdiyeva.

D. Mirmuhsin, G. G'ulom, Hamza.

5. M. A'zam qaysi janrlarda qalam tebratgan?

A. Roman, hikoya.

B. She'r, drama, qissa.

C. She'r, doston, hikoyat.

D. Qo'shiq, topishmoq.

6. Shoir she'rlarida bolalikning qaysi xislatlariga ko'proq e'tibor beradi?

A. Xayolparastligiga.

B. Ishchanligiga.

C. Yalqovligiga.

D. Mehribonchiligiga.

7. X. To'xtaboyevning ilk asari nomini aniqlang.

A. "Shoshqaloq".

B. "Sariq devni minib".

C. "Shirin qovunlar mamlakatida".

D. "22-maktab bolalari".

8. "Har bir yozuvchining o'ziga xos hayot yo'li bor. Tabiiyki, u tug'ilib o'sgan muhit ham, uni o'rab olgan tabiat olami ham, uning bolalik chog'lari-yu, ilimga intilishlari ham, va nahoyat, adabiyotga kirib kelish yo'llari ham o'ziga xos bo'ladi..." kim, qaysi asar so'zboshisida aytgan?

A. L. Mahmudov. "Shirin qovunlar mamlakatida" kitobi so'zboshisida.

B. Umarali Normatov. "Do'stlik" kitobi so'zboshisida.

C. A. Xayitmetov. "Sariq devni minib" kitobi so'zboshisida.

D. M. Qo'shjonov. "Sariq devni minib" kitobi so'zboshisida.

9. "...mahorat cho'qillarini egallashda "o'ngir-cho'ngirli yo'llar" va turli qiyinchiliklar bilan birga, xalq rivoyati va til boyliklarini o'zlashtirish bilan bog'liq xudo bergan talantini ham alohida ta'kidlash zarur" ta'rif kimning qalamiga mansub?

A. O. Sharafiddinov.

B. S. Matjon.

C. A. Xayitmetov.

D. M. Qo'shjonov.

10. "Saraton" qissasining bosh qahramonlarini aniqlang.

A. Musa, Oygul.

B. To'ra, Kamola.

C. Suyum og'a, Safargul.

D. Erkin, Ergash.

11. "Qorxat" qissasida qaysi hududdagi voqealar qalamga olinadi?

- A. Qizilqumdag.
- B. Volga bo'yigi.
- C. Jezqazgandagi.
- D. Qoraqalpog'istondagi.

12. "Qorxat" qissasining bosh gahramonini aniqlang.

- A. Qalli ota, Safargul.
- B. To'ra, Oysha.
- C. Aset, Bo'ron.
- D. Shokir, Ra'no.

13. "Ko'kyol" hikoyasi qaysi hayvonlar tasvoriga bag'ishlangan?

- A. Echkilar.
- B. Bo'rilar.
- C. Otlar.
- D. Tuyalar.

14. N.Fozilov badiiy ijodining qaysi janrlarida ijod qilgan?

- A. Romanchilik, hikoyachilik.
- B. Publisistika, drama.
- C. Tarjima, qissachilik, hikoyachilik.
- D. Tragediya, she'riyat.

15. A.Akbarning she'riy to'plari berilgan javobni aniqlang.

- A. "Kichikintoy va Paxtaoy".
- B. "Amu to'lgini".
- C. "Odam bolasi".
- D. "Tushda kechgan sarguzashtlar".

16. Dishod Rajab to'plamlari berilgan javobni belgilang.

- A. "Akamning bog'i".
- B. "Otamning bog'i".
- C. "Bobomning bog'i".
- D. "Mening bog'im".

17. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi necha yoshdagi bolalarni qamrab oladi?

- A. 2 yoshdan 7 yoshgacha
- B. 3 yoshdan 7 yoshgacha
- C. 3 yoshdan 6 yoshgacha
- D. 2 yoshdan 6 yoshgacha

18. "Kalvak maxsum", "Toshpo'lat tajang", "Tirilgan murda", "Shuum bola" asarlari qaysi janrga mansub?

- A. Qissa
- B. Roman
- C. Hikoya
- D. Ertak

19. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi necha yoshdagi bolalarni qamrab oladi?

- A. 5 yoshdan 7 yoshgacha
- B. 6 yoshdan 9 yoshgacha
- C. 7 yoshdan 11-12 yoshgacha
- D. 6 yoshdan 13 yoshgacha

20. Qaysi yozuvchi "Kuz" she'rida yig'im-terim ishlarini jang maydoniga o'xshatgan?

- A. Dishod Rajab
- B. Normurod Norqobil
- C. Safar Barmoyev
- D. Abdurahmon Akbar

21. O'zbek xalqi boy udum va an'analarga boy bo'lgan xalq hisoblanadi. Qaysi yozuvchining asarida bu yaqqol ko'zga tashlanadi.

- A. Nosir Fozilov. "Quyuncha"
- B. Kavсар Turdiyeva. "Men tug'ilgan yurt"
- C. Normurod Norqobil. "Kurash"
- D. Abdurahmon Akbar. "Yurt o'g'lonlari"

22. 1-sinf O'qish kitobi darsligidagi Dishod Rajabning "Xotira va qadr" she'rida yaxshi insonlar xotirasi nimaga o'xshatilgan?

- A. Doimo porlab turadiga quyoshga
- B. Tong shamoliga
- C. Yashnagan bog'ga
- D. Mash'alaga

23. "Har bir bolani tabiatni sevisha o'rgatish kerak. Negaki, tabiatni seva oladigan bolalargina she'riyatni, vatanni seva oladilar", - ushbu fikrlar qaysi ijodkor hayotiga tegishli?

- A. Dishod Rajab
- B. Normurod Norqobil
- C. Safar Barnoyev
- D. Abdurahmon Akbar

24. Istiqlol davri bolalar adabiyotida nimaga e'tibor qaratilgan?

- A. Ta'limga
- B. Mehnatsevarlikka
- C. Estetikaga
- D. Tarbiyaga

25. Bolalar uchun nashr etiladigan jurnallar to'g'ri ko'rsatilgan gatorni belgilang.

- A. Quvnoq bolajon, G'uncha, Erkatoy
- B. Sayohatchi bolajon, Kitoblar olamida
- C. Gulxan, Yosh kuch, Tong yulduzi
- D. Gulxan, Bilimdon, G'uncha

Bolalar adabiyoti: ta'lim va tahlil

Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimiga pedagogik innovatsion texnologiyalarning dunyo miqyosida keng joriy qilinishi bolalar adabiyoti namunalari misolida o'quvchilarning mantiqiy, tabiiy, tanqidiy, kreativ, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'limning muhim jihati sifatida yosh avlodni jahon standarti talablariga javob berish darajasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini monitoring qilish bo'yicha o'qish va matni tushunish sifatini xalqaro o'rganish (The Progress in International Reading Literacy Study) PIRLS talablarini amalga oshirishda o'qish ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan PIRLS dasturi ta'lim tizimiga ega bo'lgan mamlakatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash va tadqiqotga jalb qilingan mamlakatlar tizimining e'tiborga molik jihatlari o'rganishga qaratilgan.

PIRLS talablari bo'yicha ta'lim sifatini, ya'ni o'qish savodxonligi sifatini va tendentsiyalarini davriy ravishda o'rganish, monitoring qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad turli vaqtlarda olingan natijalarni har xil ta'limiy vositalardan foydalangan holda turlicha namunalarni asosida taqqoslash va tegishli xulosalar chiqarishdir. Shu jihatdan yondashilisa. O'zbekiston ta'limi tizimida ham o'qish savodxonligiga erishish, ya'ni o'quvchilarning tinglab tushunish, tushunib o'qish, so'zlash, yozish kabi nutqiy kompetentligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Har xil janrdagi va uslubdagi matnlarni o'qish ko'nikmasini shakllantirish.
2. Matndagi ma'lumot-axborotlar mazmun-mohiyatini o'zlashtirish va amalda qo'llash.
3. Matnda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va xulosa chiqarish.

Boshlang'ich ta'limning konseptual qoidalariga muvofiq o'quvchilarning badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish qobiliyati quyidagi 4 ta mezon bo'yicha baholanadi:

1. Berilgan matndagi ma'lumotni aniqlash; (ilmiy-ommabop matnlar tahlili misolida)
2. Matndagi ma'lumot-axborotlarni tahlil qilish va umumlash-tirish ko'nikmasi (adabiy tahlil);
3. Matn mazmunini, tuzilishini va til xususiyatlari tahlil qilish (adabiy tahlil).
4. Xulosalarni shakllantirish.

SO'NGGI SO'Z O'RNIDA

Kamolotga eltuvchi saboqlar

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorida bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etish hamda targ'ib qilish tizimini takomillashtirish masalalari o'z aksini topgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor Safó Matjonovning o'zbek bolalar adabiyotining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, bolalar kitobxonligini shakllantirish masalalari, tanqili bolalar adabiyoti namoyandalari ijodini qamrab olgan "Bolalar adabiyotidan saboqlar" nomli o'quv qo'llanmasi mazkur qarorning amaliy ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Boy metodik tajriba va o'ziga xos uslubiy maktabga ega olim qo'llanma mundarijasidagi masalalarni ilmiy-amaliy yondashuvlari asosida yoritgan.

Olimning ta'kidlashicha, adabiy ta'limdagi kitobxonlik muammosi o'quvchilar bilan birga o'quvchilarga ham daxldor. Inson ma'naviy kamolotini kitob mutolaasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Otlada ham, ta'lim muassasalarida ham o'quvchi yoshlarni kitob o'qishga o'rgatish, oila kutubxonalarini tashkil etish, mutolaa madaniyatini yoshlikdan tarkib topirishda ota-onalar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Barcha davrlarda yaratilgan adabiyot namunalarida inson kamoloti, uning ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Qo'llanmada didaktik adabiyotning shakllanishi, Navoiy ijodidagi ma'naviy-axloqiy masalalar talqini; XX asr boshi o'zbek ma'rifatparvarlarining maktab darsliklariga kirgan hikoyatlarida ilm-ma'rifatda da'vat, insonning xulq-atvorini yaxshi amallarni bajarish-

ga yo'naltirish, axloqiy poklik, vatandorlik, mehnatsevarlik, halollik, rostg'o'ylik, haromdan hazar qilish, nafs qutqusiga berilmaslik bilan bog'liq tuyg'ulariga turkii berish yetakchilik qilishi chuqur tahlil qilingan.

Kitobxonlik – ijodiy mehnatdir. Kitobxonlik mehnati tanlangan adabiyotning turiga qarab o'zgaradi. Masalan, ilmiy asarlarda ilgari surilgan farazlar, fikrlar va xulosalar mazmuni muayyan mehnat asosida o'zlashiriladi. Badiiy asarlarni o'qiganda esa, bir qarashda bunday mehnatga ehtiyoj sezilmaydi. Aslida-chi?

Har ganday o'quvchi qo'liga kitob olar ekan, biror yangilikni bilishga chog'lanadi. Juda bo'lmaganda, qahramonlar boshdan kechirgan voqealarga qiziqadi, o'qish jarayonida o'sha voqealarni o'z xayolida qayta tiklaydi, qahramonlar taqdiri ustida bosh qotiradi. Demak, u diqqatini jamlaydi, tafakkurini ishga soladi. Boshqacha aytganda, asar voqealarini shunchaki fahmlaydi, ijod qiladi. Shusiz badiiy asarning g'oyaviy mazmunini, yozuvchi maqsadini anglab bo'lmaydi, – deb ta'kidlaydi muallif.

Darhaqiqat, ganday asarlarni tanlab o'qish va o'qiganlarini tushunish, ulardan saboq olish kitobxon didi, dunyoqarashi, fikrlash salohiyati, ma'naviyatining yuksalishiga ta'sir qiladi. Kitobxon ijodkor yaratgan badiiy olamga kirib, u bilan hamgadann, hamfikir, hamdard sifatida o'z tasavvurlar olamida o'qiganlarini qayta yaratadi. Binobarin, kitobxon ham muayyan ma'noda ijodiy faoliyatda ishtirok etadi. Shu sababli ko'p kitob o'qiydigan kitobxonlarning ma'naviy olami boy, fikrlash salohiyati yuqori darajada, ijodiy yondashuvlari, fantaziyasi o'ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib turishadi. Qaysidir kitobxon galbi tuyg'ularga boy, serhavajonligi tufayli she'rliy asarlarni sevib o'qiydi, boshqasi sarguzasht asarlarni, yana boshqalari nasriy asarlarni oson idrok etib, tushunib o'qiydi. Alohida kitobxonlarning esa o'z sevimli shoir yoki yozuvchilari borki, ularning asarlarini birinchi galda mutolaa qiladilar.

Muallif ijod psixologiyasi bilan bog'liq bunday jarayonlar mohiyatini ilmiy jihatdan kashf etishga harakat qilganligi natijasida "yozuvchi bilan kitobxon mulogoti", "mutolaa madaniyati" "asardagi muallif timsoili va uning nigohi" kabi tushunchalarga

oydinlik kiritilgan. Biz qayta-qayta mutolaa qilgan badiiyat durdonalari misolida bitta asarni qayta-qayta o'qishga ehtiyoj sabablari ham ilmiy talqin qilingan. Binobarin, iste'dod sohiblari tomonidan yaratilgan badiiy asarlar mutolaa hamisha ma'naviy kamolot sari yetaklaydi.

Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek bolalar adabiyotining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari hamda yetakchi tendensiyalariga diqqati qaratilgan, ayni damda, bolalar kitobxonligini shakllantirish masalasi tanikli bolalar adabiyoti namoyandalari ijodi tahliliga bog'lab kuzatilgan, ular yaratgan asarlarni tahlil-u talqin qilish yo'llari asoslangan. Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari va magistrari, tadqiqotchilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun foydali metodik ashyodir. "Bolalar adabiyotidan saboqlar"ni tom ma'noda ma'naviy kamolotga chorlovchi mayoqqa qiyoslash mumkin.

Marg'ubaxon Mirqosimova,
pedagogika fanlari doktori, professor

GLOSSARIY

Adabiyot – (arabcha-adab soʻzining koʻpligi)- keng va tor maʼnolarda ishlatiladi. Keng maʼnoda fan va amaliyotning biror sohasi yutuqlarini umumlashiruvchi asarlar majmuyiga nisbatan qoʻllaniladi: texnikaviy adabiyot, qishloq xoʻjaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot kabi. Tor maʼnoda inson va voqelikni badiiy soʻz orqali chizilgan obrazlar vositasida aks ettiruvchi sanʼat turini anglatadi.

Adabiyot tarixi – adabiyotshunoslik fanining mustaqil bir qismi sifatida adabiyot tarixi va taraqqiyot bosqichlarini oʻrganadi.

Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot va uning mazmun mohiyati, oʻziga xos xususiyatlari, paydo boʻlish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy vazifalari, ijodiy jarayon qonuniyatlarini oʻrganuvchi fandir.

Adabiy anʼana – dunyoni badiiy idrok etish va ifodalash sohasida avloddan avlodga oʻtib kelgan tajribalar yigʻindisi-estetik qarashlar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rang-baranglik.

Adabiy jarayon – muayyan davrda yaratilgan badiiy meʼrosning eng sara naʼmunalarining yaratilishi bilan bogʻliq ijodiy jarayondir.

Adabiy tanqid – adabiyotshunoslikning mustaqil sohasi boʻlib, yaratilayotgan asarlarning badiiy estetik qimmatini belgilaydi.

Artpedagogika – pedagogika va sanʼatning uygʻunlashuvi asosiga tayanib ish koʻruvchi pedagogika fanining bir sohasidir. Shaxs kamolotini sanʼat asarlari vositasida shakllantirish artpedagogikaning asosi hisoblanadi.

Akmedidaktik tamoyillar – eng yetuk, oʻz isbotini topgan didaktik (taʼlim-tarbiyaviy) printsiplar.

Alla – bolani uxlatish jarayonida yakkaxonlik uslubida aytildigan qoʻshiq. Oʻzbek, uygʻur va tojik xalqlari orasida alla nomi bilan yuritiladi.

Annotatsiya – (lotincha *annotatio*-qayd) qisqacha taʼrif. Kitob, maqola, qoʻlyozma mundarijasini, mavzu yoʻnalishi va boshqa jihatarini ochib berishga qaratilgan kichik hajmi matn.

Antologiya – (yunoncha *anthos*-gul va *lego*-teraman) bir guruh mualliflarning tanlab olingan asarlari toʻplami.

Aforizm – (yunoncha *aphorismos*-hikmatli soʻz) muallif maʼlum boʻlgan, chuqur mazmunli, aniq va ichham shaklli hikmatli gap.

Badiiy gʻoya – adabiyot va sanʼat asarlari zamiridagi kitobxon va tinglovchi, tomoshabingga yetkazilmogʻchi boʻlgan emotsional obrazli fikr.

Bolalar folklori – xalq ogʻzaki ijodining bolalarga atalgan va bolalar tomonidan ijro etiladigan asarlar majmuyi.

Determinatsiya – sababiy bogʻlanishlarni aniqlash.

Didaktika – oʻqitaman, oʻqishni oʻrgataman maʼnolarni anglatadi.

Didaktik adabiyot – (yunoncha *didacticos*-ibratli) kitobxonning oson eslab qolishini nazarda tutib, ahloqiy va ilmiy qoidalarni, pedagogik fikr va nasihatlarni adabiy shaklda bayon etgan badiiy asarlar majmuyi.

Epifenomal – tushunish.

Empatiya – his qilish.

Esse – (fransuzcha *essai*-urinish, sinash) narsa va hodisa yoki muayyan shaxs haqida muallifning subʼektiv fikrlari asosiga qurilgan erkin kompozitsiyali, uncha katta boʻlmagan nasriy asar.

Fenomen – hodisa.

Gippermatalni navigatsiya – maʼlum mavzu yuzasidan internet tarmogʻida yoki biror veb-saytlarda berilgan barcha maʼlumotlar yigʻindisi.

Germeenovika – (yunoncha *hermeneutikos*-talqin, izohlash) matnlarni tahlil qilish nazariyasi va amaliyoti. Qadimda tushunishga yordam beradigan yoki tushunishni oʻrgatadigan odam germeenovey deb atalgan.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi maʼnosida ishlatiladi.

Interpretatsiya – talqin qilish, izohlash.

Individuallashtirish – (lotincha *individuum*-boʻlimmas, yakka shaxs) realistik adabiyotta hayotni badiiy aks ettirishning zarur shartlaridan biri.

Ijodiy netod – tadqiq qilish maʼnosida ishlatiladi.

Istiora – soʻzlarni majoziy maʼnoda qoʻllash.

Identifikatsiya – harakatlantiruvchi mashqlar.

Innovatsiya – ing. yangilik kiritish.

Indikator – koʻrsatuvchi.

Janr – tur, jins soʻzlaridan olingan. Ertak janri, hikoya, qissa janri va h.k.

Jonlantirish – badiiy tasvir vositalaridan biri boʻlib, u odamlarga xos boʻlgan hislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda va darrandalarga koʻchirishga asoslanadi.

Katarsis – tozalash maʼnosida ishlatiladi.

Kompozitsiya – (lotincha *compositio*-tuzilish, tartib) badiiy asardagi qismlar, obrazlar va taʼsir vositalarining muayyan gʻoyaviy maqsadga xizmat qiladigan darajada joylashishi, ularning tasviridagi mezon va muvofiqligi.

Kontsepsiya – lotincha kontsepsio tushunchalar, qarashlar majmuni, asosiy nuqtai nazar, boshqaruvchi gʻoyalar, muammoni yechish yoʻllari tizimi.

Konflikt – (lotincha *conflictus*-ixtilof, toʻqnashish) badiiy asarda orasidagi kurash zamirida yotgan kelishmovchilik, ziddiyat, ixtilof tasvirlangan voqea ishtirokchilari.

Kompetentsiyaviy yondashuv – pedagogning barcha imkoniyatlardan foydalanish, oʻz ishiga nisbatan talabchan munosabat, oʻzini oʻzi rivojlantiruvchi qobiliyati va imkoniyatlarini toʻla ishga sola olish layoqati.

Leytmotiv – (olmoncha *leitmotiv*-yetakchi gʻoya) butun asar boʻylab muallif tomonidan ilgari surilgan, qayta-qayta taʼkidlangan asosiy fikr, yetakchi gʻoya.

Maqol – aytmogʻ, soʻzlamogʻ maʼnolarini anglatadi.

Matn – (arabcha tekst)-qoʻlyozma yoki bosma shakldagi muayyan mazmun ifodasiga yoʻnaltirilgan grafik belgilar yigʻindisi.

Metod – yunoncha yoʻl.

Millat genofondi – maʼlum millatgagina xos boʻlgan asrlar davomida shakllangan qadriyatlar majmuasi.

Motiv – hirgoyi, melodiya maʼnolarini anglatadi. Asar asosidagi gʻoya.

Nazariya – gr. teoriya-qarab chiqaman, tadqiq etaman.

Novatsiya – yangilik.

Rivoyat – (arabcha-hikoya ayitish, naql qilish) voqea va hodisalarni, inson faoliyatini baʼzan fantastik uydirmalar vositasida, baʼzan realistik asosida tasvirovchi kichik hajmi badiiy asar

Reflektiv, refleksiya – (lotincha ortga munosabat) inson nazariy faoliyatining shakli, qonuniyatari, oʻz-oʻzini tahlil qilishi.

Senergetika – ketma-ketlik, oʻzaro aloqadorlik, sababiy bogʻlanish.

Sifatlash – narsa-hodisa, tushuncha va kishilarga hos belgixosiyatlarni obrazli tavsiflash.

Sujet – (fransuzcha *sujet*-narsa, mazmun) badiiy asar mazmunini tashkil etgan, oʻzaro bogʻlangan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tizimi.

Transformatsiya – koʻchirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mizziyoyev Sh.M. “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam qudevotidir”. O‘zAS, 2017 yil 4 avgust.
2. Mizziyoyev Sh.M. Agar jamiyat hayotining tamasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va rahi ma’naviyatdir. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2021-yil. 22-avgust.
3. Karimov I.A. Adabiyotga ziyatibor – ma’naviyatga, kelajakka ziyatibor. – T.: Uzbekiston, 2009.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy tuliston ёхуд ахлоқ. – T.: Ўқитувчи, 1992.
5. Абдулла Авлоний. Ўсон, миллат. – T.: Шарк, 1993.
6. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – T.: А.Кодирий номидаи халқ мероси нашриёти, 1993.
7. Abdurahmon Akbar. Cho‘lakdagi daraxt. – T.: O‘zbekiston, 2016.
8. Adashboev T., D.Rajak. Saqlardan taralgan mexr. – T.: Tugon zamini zhuo, 2017.
9. Adashboev T. Osmondagi darvoza. – T.: Sharq, 2012.
11. Asqad Muxtor. Эд-норт керак экан одамга. – T.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матба ижодий уйи, 2011.
12. Barakaev R. Uzbek bogalari adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – T.: FAN, 2004.
13. Barakaev R. Jonajonim, sheryat. – T.: Chulpon, 1997.
14. Barakaev R., Ochilov E. Badiiy tasvir mahorati. – T.: Mihnati, 2019.
15. Bogalari saodati. – T.: Mihnati, 2011.
16. Bogalari adabiyoti va zamonaviylik. – T.: FAN, 1991.
17. Voxidov E. Suz lafofati. – T.: Uzbekiston, 2018.
18. Dilshod Rajab, Gulnoza Juraeva. Mahorat kirragari. – T.: Paradigma. 2018.

19. Fayzullayev X. “Dashi dalalarga” romanida naturalistik tasvir qitlari “Tafakkur ziyosi” ilmiy uslubiy jurnali. 2020/4-son. 131-b.
20. Jamilova V. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llama. – T.: Noshir, 2019.
21. Jaxontirov F. Uzbek bogalari folklorigi. – T.: O‘qituvchi, 1975.
22. Jumaobov M. Bogalari adabiyoti. Darsslik. – T.: FAN, 1978.
23. Jumaobov M. Uzbek va jaxon bogalari adabiyoti. Makhmu. – T.: O‘qituvchi, 1996.
24. Juraeva G. Uzbek bogalari sheryatida xajviy obraz yaratish mahorati. – T.: Mihnati, 2011.
25. Juraeva G. Uzbek bogalari sheryatida xajviy. – T.: Nodirabegim, 2022.
26. Ibrohimova Z. Kichiktoylar adabiyotining xususiyatlari. – T.: O‘qituvchi, 1994.
27. Ibrohimova Z. Kuvnoklikka yashirintgan iztiroblar. – T.: Uzbekiston Milliy kutubxonasi. 2005.
28. Irixujayeva S. Bogalari adabiyotida didaktika. – T.: FAN, 1978.
29. Komilov N. Tasavvuf ёки komil inson aхлоқи. – T.: O‘zuvchi. 1996.
30. Ko‘shkarova F., Shavtullayeva E. O‘quvchilarning kitob mutolaasiga qiziqishlarni shakllantirish. // Uzluksiz ta’lim. 2021. №3.
31. Mamajonov S. Inson va burc. – T.: Esh gvardiya, 2001.
32. Makhmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. – T.: Sharq, 1996.
33. Milliy istiqbol fojisi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: Uzbekiston, 2000.
34. Musurmonova O. Ma’naviy kadrlar va eshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
35. Nizomulmulk. Dori osilgan it. – T.: Yngi asr avlodlari, 2004.

36. Nishonova S. Komil inson tsbiyasi. –Т., 2003.
37. Norgobilov N. Ovu! oralagan bo'ni. –Т.: Sharg, 2005.
38. Norgobilov N. "Dastu dalalarda". –Т.: O'zbekiston, 2009
39. Norgobilov N. "Rahmoq". –Т.: O'qituvchi, 1997.
40. Педагогика. Энциклопедия. 3 жилдик. 1-3-жилдиклар. –Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2015, 2017.
41. Расулов А. Ўзлик сари йул. –Т.: Адиб, 2012.
42. Расулов А. Фаройиб салтанат. –Т.: Адиб, 2012.
43. Rasulova Z. Ta'lim tizimida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik muammosi // Uzleksiz ta'lim. 2021. №3.
44. Рустам Назар. Ердлаги куёш. Урганч: Хоразм нашриёти, 2008.
45. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. –Т.: Ёш гвардия, 1987.
46. Safarov O. She'rim ochil dasturxon. –Т.: Musiq, 2011.
47. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. –Т.: Turon zamini ziru. 2015.
48. Сафаров О. Болалик куйчиси. –Т.: ФАН, 1978.
49. Safarov O., Vagajayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Vuxoro: Durdona nashiyoti, 2019.
50. Турдиева К. XX асрнинг 60-80- йиллар ўзбек болалар шеърлятида маънавийт масалалари. –Т., 2013.
51. Тўхлиева Д. Навоий хикоятлари. –Т.: 2014.
52. Chotiev A., Chotiev I. Pedagogikaning metodologik asosi va ilmiy tadqiqot metodlari. –Т.: Nishon noshir, 2016.
53. Шермухамедов П. ва бошқалар. Ўзбек болалар адабиёти. Дарслик. Хрестоматия. Ўқитувчи, 1976.
54. Sheptomova U. Tag'ixu, adabiy-badiiy maqbalarda vatan timsofi. –Т.: Nodivabe'it, 2021.
55. Эшқобил Шукур. Бобо сўз изидан. –Т.: Шарқ, 2018.
56. Юнусов М. Болалар қалбининг байрами. –Т.: Ёш гвардия, 1974.
57. Юнусов М. Болалар қалбининг байрами. –Т.: Ёш гвардия, 1974.
58. Хожибоев С. Кувноқ алифбе. –Юлдузча. 1990.

59. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jangalon. –Т.: FAN, 1989.
60. O'zbek bolalar adabiyoti antropologiyasi. 2 jildlik. 1-2- jildlar. –Т.: O'qituvchi, 2017.
61. Ўзбек болалар адабиёти. –Т.: Ёш гвардия, 1976.
62. Қахрамонов Қ. Адабий танкид ва ўзбек болалар адабиёти. –Т.: ФАН, 1991.
63. Қахрамонов Қ. Адабий танкид янгилиниш жараёнлари. –Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
64. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавийт, 2004.
65. Qulopov D.N. Adabiyot pazardiyasi asoslari. –Т.: Noshir. 2019.
66. Кузи Исмоил. Шўх акалар, шумтакалар. –Т.: Тафаккур канти, 2016.
67. Кушчонов М. Она тавзим, боллага меҳр. –Т.: Ёш гвардия, 1983.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI QISM	
Bolalar adabiyoti – fan sifatida	
O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanish tarixi va taraqqiyot tendensiyalari.....	5
Alisher Navoiy ijodida pand-nasihat motivlari.....	18
Milliy uyg‘onish davri bolalar adabiyoti	
Milliy uyg‘onish davri bolalar adabiyotida ta’lim-tarbiya muammosi.....	24
G‘afur G‘ulom – faylasuf shoir va yozuvchi.....	28
Bolalar adabiyotida adreслиlik. Maktabgacha va maktab yoshdagi kichik bolalar adabiyoti	
Shukur Sa’dulla – quvnoq bolalik kuychisi.....	33
Mahmud Murodov – kichik yoshdagi bolalar ruhiyati musavviri Po‘lat Mo‘min – odob-axloq kuychisi.....	45
50	
Kavsar Turdiyeva – shoir, adabiyotshunos, tarjimon, dramaturg.....	57
Dilshod Rajab – she‘riyatida tabiat va ruhiyat talqini.....	68
O‘rta va katta yoshdagi bolalar adabiyoti	
Quddus Muhammadiy – tabiat va ma’naviyat kuychisi.....	80
Hakim Nazir ijodida ma’naviy-axloqiy tarbiya motivlari.....	87
Sunnatilla Anorboyev ijodida ezgulik va yovvuzlik o‘rtasidagi kurash.....	92
Nosir Fozilov – badiiy sujet ustasi.....	96
Farhod Musajon – psixologik tasvir ustasi.....	113
Miraziz A‘zam ijodida falsafiy g‘oyalar talqini.....	116
Tursunboy Adashboyev she‘riyatida beg‘ubor bolalik talqinlari	124
Qambar O‘tayev – ozod va obod Vatan kuychisi.....	134
O‘smirlar adabiyoti	
Xudoyberdi To‘xtaboyev – satguzasht janrlar ustasi.....	138
Latif Mahmudov ijodida ma’naviy-axloqiy tarbiya motivlari...	151



310

Normurod Norqobilov – inson va tabiat munosabatlari kuychisi 156

Istiqlol davri bolalar adabiyoti

Safar Barmoyev ijodida urush va tinchlik mavzusi.....	170
Anvar Obidjon – serqirra ijodkor.....	177
Istiqlol davri bolalar adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlari	191

Jahon bolalar adabiyoti

Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmilar – jahon ertakchiligi daholari sifatida.....	200
Xans Kristian Andersen – “ertaklar qiroli”.....	203
A.S.Pushkin – umuminsoniy qadriyatlar kuychisi.....	205
Lev Nikolayevich Tolstoy.....	207
S.Ya.Marshak ijodida psixologizm.....	210
K.I.Chukovskiy – folklorshunos olim va shoir.....	217

IKKINCHI QISM

Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar

Kitobxonlik va mutolaa madaniyati.....	219
Adabiy ta’limda kitobxonlik muammosi.....	224
Mustaqil mutolaaga o‘rgatish usullari.....	232
Adabiy ta’lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tufakkur muammolari.....	246
Bolalar adabiyotining ma’rifiy-estetik ahamiyati.....	251
Bolalik qaytmas dunyo. Nosir Fozilov bilan suhbat.....	257
Nosir Fozilov saboqlari.....	262
Ijodkorlar Nosir Fozilov haqida.....	264
Ijod maktabi. Tursunboy Adashboyev bilan suhbat.....	266
Ijodkorlar Tursunboy Adashboyev haqida.....	276
Kechmish kechirmishlarimdan. Mira‘ziz A‘zam.....	282
Bolalar adabiyotidan test topshiriqlari.....	292
Bolalar adabiyoti: ta’lim va ta’lim.....	297
SO‘NGGI SO‘Z O‘RNIIDA. Marg‘uba Mirqosimova.	
Kamolga eltuvchi saboqlar.....	299
Glossariy.....	302
Foydalanilgan adabiyotlar.....	306



311

SAFO MATJON

BOLALAR ADABIYOTIDAN SABOQLAR

o'quv qo'llanma

“Mahalla va Oila” nashriyoti

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.02.2022.

“Times New Roman” garniturasida. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16
Nashriyot bosma tabog'i 19,5. Adadi 500 nusxa.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
M.Ismoiliy ko'chasi, 1G-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.

— 13498 —

OLIV VA O'RTA MAKSUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI